

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR
AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA
FOLKLORI INSTITUTI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

ALPOMISH

O'zbek xalq dostoni



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti davlat korxonasi
Toshkent – 2018

UO‘K: 398.22(=512.133)

KBK: 82.3 (5O')

Aytuvchilar:

Umir baxshi Safarov,
Mardonaql Avliyoql o‘g‘li

Yozib oluvchilar:

Oxunjon Sobirov,
Qosimxon Muhammedov

Nashrga tayyorlovchilar:

To‘ra Mirzaev

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi,
filologiya fanlari doktori, professor
Jabbor Eshonqul
filologiya fanlari doktori, professor

A54 (“*Alpomish*””) – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti davlat korxonasi – 2018. – 368 b.

ISBN 978-9943-19-485-4

UO‘K: 398.22(=512.133)

KBK: 82.3 (5O’)

“Alpomish” dostonining ko‘plab variantlari mavjud. Bu variantlarning bir qismi chop etilib, xalqimizga taqdim etildi. Ular orasida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li kabi baxshi-shoirlarimizning dostonlari alohida ajralib turadi. Bu dostonlar allaqachon kitobxonlarning eng sevimli kitobiga aylanib ulgurdi.

Mazkur jilddan Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktabining yirik vakillari – Umir Safar hamda Avliyoql Mardonaql “Alpomish” dostoni variantlari joy olgan. Har ikkala variant ham syujet va motivlarning rang-barangligi, musiqiyligi, ohangdorligi hamda qiziqarli voqealarga boyligi bilan siz aziz o‘quvchilarni bee’tibor qoldirmaydi degan umiddamiz.

ISBN 978-9943-19-485-4

© O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

“Fan” nashriyoti davlat korxonasi

“Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og‘zaki ijodi – folklor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi.”

**Shavkat Mirziyoev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

MARDLIK VA JASORAT ULUG'LANGAN DOSTON

O‘zbek xalq dostonlari ichida “Alpomish” o‘zining ko‘plab variantlarga egaligi, vatanparvarlik, sevgi, muhabbat, mardlik va jasorat yuskak pardalarda kuylanganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu kitobdan janubiy O‘zbekiston dostonchiligining etuk vakilari Umir baxshi Safarov va Avliyoqul Mardonaqul o‘g‘illarining “Alpomish” dostoni variantlari joy olgan. Har ikki variant ham O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor arxivida saqlanadi. Ushbu arxivda 1254-inventar raqami ostida saqlanayotgan dastlabki variant¹ Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida yashagan baxshi Umir Safarovdan 1958 yil 28 iyunda yozib olingan. Yozib oluvchi Oxunjon Sobirov. Qo‘lyozma krill alifbosida bo‘lib, 160 sahifachigacha A4 formatdagi qog‘ozga, 162–382 sahifagacha bo‘lgan qismi esa oddiy daftarga yozib olingan. Dostondagi jami she’riy misra 6012, nasriy qismi esa 6435 qatorni tashkil etadi.

Umir Safarovning ijodiy merosi o‘zbek folklorshunosligida etarli darajada o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ayrim tadqiqotlar mavjud. “Alpomish” dostonining yozib oluvchisi Oxunjon Sobirov va To‘ra Mirzaevning izlanishlari shular jumlasidandir.

Doston janubiy voha dostonchilik maktabining g‘oyaviy-badiiy an'analarini o‘zida mujassamlashtirgani bilan juda muhim ahamiyatga ega.

Dostonning nasriy bayoni quyidagicha: Qadim zamonda, Qozog‘iston tomonda, o‘zbek xalqining Qo‘ng‘irot urug‘idan Boybo‘ri va Boysari degan aka-uka o‘tgan edi. Boybo‘ri va Boysarining otasini **Davanbiy**, Davanbiyning otasini **Alponbiy** der edi. Boybo‘ri va Boysari chorvador, ikkovi ham boy kishilar edi. Ikkalasining ham farzandi bo‘Imagani uchun, odamlar ularni kamsitib yurishgan. Kunlardan bir kuni ular birga ovga chiqishadi. Ov paytida Boysari bir kiyikni Boybo‘riga ko‘rsatadi: “Boybo‘ri sen yoshsan, ko‘zing o‘tkir, sen ot”, – deydi. Boysari miltiqda kiyikni otmoqchi bo‘ladi, biroq kiyikning bo‘g‘oz ekanini ko‘rib, irim qilib uni otmaydi. Boybo‘rining xotini Kuntug‘mush, Boysariniki esa Oytug‘mush edi. Ular cho‘lda turib, xotinlari farzand ko‘rishsa, quda bo‘lishni niyat qilishadi. Boybo‘ri o‘g‘il, Boysari qiz ko‘radi. Ikkalasi ham elga to‘y beradi va to‘yda quda bo‘lishni niyat qilganliklarini osh-

¹ O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxiv. Inv . №1254.

kor etishadi. Boybo‘ri o‘g‘lining ismini Hakim, Boysari qizining ismini Oybarchin qo‘yishadi. Hakim suyagi yirik alp yigit bo‘lgani uchun, odamlar unga Alpomish deb nom beradi. Alpomish va Oybarchin birga o‘ynab yurib, Alpomish Oybarchinni shappatlab uradi. O‘rtaga ularning onalari tushib, bu voqeа katta janjalga aylanadi. Boysari kelib qolib Kuntug‘mushni kaltaklaydi. Keyin Boybo‘ri kelib, Boysarini uradi. Ikkovi urishib qolgani uchun, Boysari ko‘chib ketishga qaror qiladi. Yorti-boy oqsoqol, Nodir elbegi, Ko‘char elbegi, Shozamon mergan, Chuvdali so‘filar Boybo‘ri va Boysarini chaqirib olishib, maslahat qilishadi. Bir-oq, Boysari ularning maslahatiga qulq solmaydi. Mingta uy ham ularga qo‘silib ko‘chadi. Ular Qalmoq yuritiga oshib boradi. Chilvir degan cho‘liga borib joylashadi. Ular qalmoqlarning maysasisiga qo‘yini qo‘yib yuborgani uchun qalmoq dehqonlari kelib, ularni javobgar qiladi. Ular qo‘zilardan besh yuztasini saralab, Toychixon podshoning oldiga olib borishadi. Toychixonning Tunjirxon degan mahrami ularni savjavob qilib, podshoning huzuriga kirgizadi. Toychixon ularni mehmon ekan, deb gunohidan o‘tadi va dehqonlarni ham soliqdan ozod qiladi. Shunday qilib, Boysari bu erda yetti yil yashaydi.

Kunlardan bir kuni Toychixonning uchta mahrami Barchinoyni ko‘rib qolib, uni podshoga maqtab boradi. Podsho uch mahramni Boysarinikiga sovchilikka yuboradi. Boysari nima deb javob aytishini bilmay, elu yurt-dan maslahat so‘raydi. Barchinning maslahati bilan, Boysari podshodan olti oy muhlat so‘raydi. Mahramlar ketgandan keyin, Boysariga Alpomishga xabarga kimni yuborishni bilmay turganda, Elomon degan etilib o‘sgan bir pahlavon xizmatkori bo‘lib, xabarga men boraman, deydi. Elomon oziq-ovqatni g‘amlab, piyoda yo‘lga tushadi. Elomon Oqdaryo bo‘yida parcha nonni suvgaga botirib eb, Dengraz cho‘lida bolaligi esiga tushib, bir muddat turib qoladi. Keyin suv tortayotgan ayollardan suv so‘rab ichadi. Boysari va Oytug‘mush Alpomishdan boshqaga ko‘rinma degani uchun, kechasi Boybo‘rinikiga keladi va unga Boysarining xatini beradi. Boybo‘ri xatni o‘qib ko‘rib, xatni xotiniga bekitib qo‘yishni buyurib, Elomonni kechasi yana iziga qaytarib yuboradi.

Alpomish oshiq o‘ynab yurganda, oshig‘ining soqqasi Govqiz momoning charxini sindiradi. Uning jahli chiqib, unga qarab: “Zo‘r bo‘lsang qalmoqdan Barchin yoringni borib olib kel”, – deydi. Unga Boysari bilan Boybo‘ri quda bo‘lishga ahflashganini, Boysarining arazlab ketib qolganini aytib beradi. Alpomish onasidan kelib Barchin to‘g‘risida so‘raydi. Onasi rostini aytmaydi. Uning Qaldirg‘och degan singlisi Boysaridan kelgan xatni topib olib, mazmunini akasiga gapirib

beradi. Alpomish Olpon ko'lga ot tanlagani boradi. Boybo'ri Qultoyga tayinlab qo'ygani uchun, Alpomishni haydar yuboradi. Ot olmasdan kelayotganini ko'rghan Qaldirg'och: "Aka, bir cho'ponga gaping o'tmay-digan odam bo'lsang, qalmoqdan yoringni qanday olib kelasan?" – deb tanbeh beradi. Alpomish jahli chiqib, yana Qultoy oldiga keladi va u bilan kurash tushib, uni engadi. Alpomish tutgan yuganga Boychibor kelib kallasini tiqqach, uni Alpomish uch marta haydar yuboradi. Qultoy unga: Bu otning tulporligini aytib, shu otni olishni maslahat beradi. Alpomish Qultoydan duo olib, Qaldirg'och egarlab bergen otta yo'lga tushadi.

Bu orada Elomon kelib Boybo'rining kelolmasligini Boysariga aytib beradi. Alpomishning kelolmasligi butun elga tarqaydi. Qalmoq shoh esa, yo'lga Alpomish kelsa o'tib ketmasin, deb odam qo'yib qo'ygan edi. Qalmoqning uchta oti bor edi. Ko'kqulon sakkiz yoshda, Ko'kcho'noq olti yoshda, Ko'kdo'nan to'rt yoshda. Ayniqsa, Ko'kdo'nani hammasidan zo'r edi. Ko'kdo'nan uch kun ovqat emasdan, kishnab qo'yadi. Otdboqar Obdal ham sababini bilmay Ko'kaldoshga aytadi. Maston qurandoz kampir otning kasali yo'qligini, Alpomishning qalmoqqa kelganini biladi. Podsho bilan maslahatlashib qalmoq alplarining zo'ri Qorajonni yo'lga chiqarishadi.

Yuz yo'l ayrilgan joyda, Alpomish yo'l izlab kelayotganda Qorajonga duch keladi. U avvaliga, Alpomishni nazariga ilmaydi. Ikkalasi kurash tushishga chog'lanadi. Shunda Alpomish: "Biz o'zbeklarda kurash tushishdan oldin ko'rishish odati bor", – deydi. Ikkalasi ko'rishadi. Ko'rishganda Qorajonning belini sindiradi. Alpomishning zo'rligini bilgan Qorajon u bilan do'st tutinadi. Qorajon uni ergashtirib Nodir Elbegining uyiga tushiradi. Elu yurt Alpomishning kelganini bildi, Barchin, Boysaridan suyunchi oldi.

Ko'kaldosh Qorajonning engilib, do'st bo'lganini bilib, Alpomishning oldiga kelib, uni kurashga chorlaydi. Qorajon uni yo'ldan qaytar-moqchi bo'ladi. Biroq, Ko'kaldosh uning gapiga kirmaydi. Xullas, podsho bilan maslahatlashib uchta shartda bellashishga kelishadi. Ot poy-gasi, kurash, oltin qovoqni nishonga urish. Qorajon Alpomish o'rnidan poygada qatnashmoqchi bo'ladi. Qalmoq sinchisi hech bir ot Boychiborga tenglasholmasligini aytadi. Ko'kaldosh uning bu gapiga achchig'i kelib, shappatalab urib, ko'zini ko'r qiladi.

Bolqan tog'idan otta poyga qilib kelishga chog'lanishadi. Qorajon gapga kirmagach, qalmoqlar uni shu tog'da bog'lab tashlashadi, otning oyog'iga gulmix urishadi. Bir mahal Qorajon o'ziga kelib, otga qamchi

bosadi. Boychiborni tanigan Barchinoy unga murojaat qilib, unga alqov yog‘diradi. Alpomish umidini uzib o‘tirgan bir paytda, Kuyov tepa oldida Barchin Boychiborning oyog‘idan mixlarini olib, Alpomishga xabar jo‘natadi.

Navbat kurashga keladi. Alpomish elning duosini olib maydonga tushadi. Ko‘kaldoshni chilparchin qiladi. Keyin esa sakson gaz balandlikdagi daraxtga oltin qoboqni ilib, uni nishonga olishadi. Qalmoqdan Qo‘nora mergan maydonga tushadi. Biroq, merganlikda Alpomish yutib chiqadi.

Alpomish to‘y qilib, butun rasmi-rusumi bilan Barchinga uylanadi. Boysari qayta ko‘chishga chog‘lanadi. Alpomish, Barchin oldinroq ketadi. Boysari el bilan izdan bormoqchi bo‘ladi. Alpomish Barchinni olib, uyiga qaytadi. Tabrez tog‘ining tepasiga keladi. Qirq kunda kelaman, deb ketgandi, oradan olti oy o‘tib ketgan. Tug‘ilib o‘sgan joyi Jonadil qal‘asiga kelib etadi, Qorajonga o‘z erlarini tanishtiradi. Hamroh bo‘lib kelayotgan Cho‘lboygazarni Qorajonga qo‘shib, uyiga xabarga yuboradi. Qorajonni Kuntug‘mush bilan Qaldirk‘och kutib oladi. Boybo‘ri yigirma kun to‘y beradi.

Alpomish Barchinni olib ketgach, qalmoqlarga alam qiladi. Ko‘-kaldosh yura olmagach, ular Obdalni bosh qilib, Bolta polvon, Xolta polvon, Uzun polvon, Kalta polvon, Sher polvon, Shercha polvon, Archa polvon, Norcha polvon, Zo‘rcha polvon, Oy polvon va Boy polvonlarni hamroh qilib, Chilbir cho‘liga Boysaridan yetti yillik xirojni o‘n to‘rt yillik qilib undirib olishga kelishadi. Qo‘ng‘irotliklar yana muhlat so‘rashadi. Qo‘ng‘irotliklarni xiroj to‘lamay ketayotganini bilib qolgan qalmoqlar, ularni talashga kelishadi va ikki o‘rtada urush boshlanadi. Ming uqli el jang qilib qalmoqlarga teng kelisha olmagach, qalmoqlar ularni asir oladi.

Oybarchin Jonadil qal‘asida yotib tush ko‘radi (tush nasrda berilgan): tushida quyuq quyun dovul turdi. Chilbir cho‘ldagi chorva ovullarining ustidan borib, chorvalarning uyini buzib tashlab ketdi. Barchin uyqudan irg‘ib turib qarasa, sevikli yori Alpomishning qoshida yotibdi. Qo‘rqib o‘tirib-o‘tirib yana uyquga ketdi. Yana tushida boshiga qora chodir aylanib kelib soya soldi. O‘rnidan irg‘ib tursa, tong otibdi. Oybarchin betoqat bo‘lib yig‘layberdi. Alpomish tursa yori Barchin yig‘lab o‘tirip-ti. Shunda Alpomish Barchinni bu holda ko‘rib, joyidan turib, oq bilagini bo‘ynidan o‘rab, nima uchun xafa bo‘lib yig‘layapsan, deb undan hol so‘raydi. Barchin ko‘rgan tushini aytib beradi. Bir yil bo‘ldi otamdan darak bo‘lmadi, deydi. Alpomish yo‘lga otlanishga qaror qiladi.

Yana Ko‘kdo‘nan ovqat emay qo‘yganini bilgan maston kampir qur tashlab Alpomish kelayotganini biladi. Maston kampir podshoga Alpomishni asir qilib berishni va‘da beradi va Zil tog‘idan Chilbir cho‘liga oshgan joyida yetti gaz chuqurlikda zindon qazitadi. Maston kampir chiroyli qizlar yordamida Alpomishni aldab, uni asirga oladi. Maston kampir Boychiborni minib, podshoga xabarga boradi. Boychiborni ham kishanlab, mixlab tashlashadi.

Elomon bilan Kayqubod Alpomishni izlab zindon boshiga keladi. Ikalasi unga ovqat tashib turadi. Olti yil bo‘lganda yurtiga Alpomish zindonda o‘libdi, degan xabar tarqaladi. Barchinoy o‘g‘il tug‘ib, ismini Yodgor qo‘ygandi. Boybo‘rining Toz degan xalqning avlodi bo‘lgan quli bor edi. Onasining ismi Qo‘ng‘izbekach edi. Uni Boybo‘ri o‘ziga nikohlab olgan edi. Ultontoz o‘zini O‘tapirga sulton deb e‘lon qiladi. Qaldirg‘och iltimos bilan Qorajon Alpomishni izlab qalmoqqa keladi. Qorajon Alpomishni izlab zindon boshiga kelganda Alpomish “Sen kimsan?” – deb uning nomini Ultontozdan keyin aytadi. Avvaliga Qorajon arazalaydi, Alpomish “Men zindonda yotgan odam”, degandan keyin uni zindondan tortib olmoqchi bo‘ladi. Alpomishni zindondan tortib olayotganda, Alpomish, keyinchalik minnat qilib yurmasin, deb ataylab arqonni uzib yuboradi. Qorajon iziga qaytib ketadi.

Shu taxlit oradan yetti yil o‘tadi. Qalmoq shohning ikki qizi bo‘lib, kattasini Tovka, kichigini Oldivka der edi. Kichkinasi o‘n olti yoshda. Ikkalasi ham bo‘y etgan edi. Tovka oyimga Alpomishning zindoni ya-qinidan bir qo‘rg‘on soldiradi. Tovka oyim kanizaklari bilan oq suyak (otma suyak) o‘ynab, 16 kiloli suyakni otib, izlashga tushishadi. Tovka oyim tushida Alpomishga oshiq bo‘lib, uning zindoni boshiga keladi. Avvaliga uni sochi yordamida tortib olmoqchi bo‘ladi. Keyin esa lahm qaziydi. Alpomish bilan uchrashib yuradi. Maston kampir uning qo‘rg‘oniga kelib, homilador bo‘lganini bilib, Tovka bilan urishib qol-gach, Tovka uni haydab yuboradi. Alpomish choponi o‘ngiridan kesib Tovkaga berib, “borib otimga hidlat”, deydi. Bu orada maston kampir Qalmoq shohga xabar beradi.

Egasining choponi o‘ngirini hidlagan Boychibor uch sakrashda kis-hanlarni uzib qochadi, qalmoqlar uning izidan quvadi. Alpomish endi o‘ldim, deb umidini uzganda Boychibor besh yarim gaz dumini tashlab uni qutqarib qoladi. Alpomish qalmoq alplari bilan jang qilib, ularni engadi. Alpomish Maston kampirni ham qilichdan o‘tkaradi. Bu vaqtida Oqdaryo toshib, yo‘l to‘silib qoladi. Alpomish daryoga murojaat qilib, yo‘l berishini so‘raydi. Daryo ikkiga ajralib Alpomish ko‘ch bilan daryo-

dan o‘tib oladi. Oldinda Tabriz cho‘li bo‘lganligi uchun ular daryodan o‘tib, o‘tov tikib dam olishga qaror qilishadi. Qo‘ng‘irotdan kelayotgan odamlarda u erdag‘i voqealardan xabar topishadi. Alpomish kuchdan oldin yo‘lga tushadi. Yo‘lda cho‘ponlarga duch keladi. Toshpo‘lat cho‘pondan: “Qo‘ylar kimniki?” – deb so‘raydi. Toshpo‘lat cho‘pon unga qo‘rs javob beradi. Alpomish uning jazosini beradi.

Ultontoz Bobo‘rini xo‘rlab, tuyu boqtirishga jo‘natadi. Tuyalar orasida Alpomishga sut berib katta qilgan Ko‘kalcha degan tuyu uning oldiga keladi. Boybo‘ri bolasini eslab, uni quchoqlab yig‘laydi. Tuya Alpomishni tanib, uning yo‘liga yiqlidi va uning qo‘lida jon beradi. Shu orada tuyani izlab kelib qolgan otasiga o‘zini tanittirmaydi.

Qultoy chol uni tanib qolib, yig‘lab ko‘rishadi. Qultoy yurtida bo‘lib o‘tayotgan voqealarni gapirib beradi. Shu erda kiyim, qiyofa almashi shadi. Alpomish Qultoy qiyofasida to‘yga keladi. Yodgorga ilik beradi. Ko‘pkarida Ultontozning akasi Yalangto‘sning adabini berib, uloq ayiradi. Ultontoz oldiga kelib, unga to‘y qulluq bo‘lsin qiladi va uning nomidan Barchinga sovchi bo‘lib keladi. Barchin ikkalasi yor-yor aytishadi. Barchin keyin tushini eslaydi. U tushida bir olg‘ir qush kelib uning ustiga soya solgan va u xursand bo‘lgan edi. Barchin bilan Alpomish ikkalasi topishadi. Barchin sandiqdan uning sari yoyini olib beradi. Biroq, Ultontozning yigitlari ham, o‘zi ham yoyni ko‘tara olmaydi. Yodgor ko‘tarib olib kelgach, Alpopish hech kim ota olmagan yoyni olib, “Qaysi qarg‘ani otay”, deb Ultontoz va qirq xizmatkorini kamondan otib o‘ldiradi. Barchin esa Qaldirk‘ochdan suyunchi oglani boradi. Qaldirk‘och Alpomishning tilla uzugini ko‘rgandan keyin Barchinning gaplariga ishonadi. Qaldirk‘och esa enasidan suyunchi oladi.

Alpomish Qo‘ng‘irot ellarga, hamma erlarga xabar berib, o‘choq o‘yib, semiz qo‘ylardan so‘yib butun xalqning katta-kichigini yig‘ib, chodir tikib, tambik sug‘ib, olish, poyga qilib qirq kun xalqini xursand qilib to‘y berdi. Xalqlar: “Ketgan davlatimiz keldi, juda yaxshi bo‘ldi”, deb xursand bo‘ldi. Olis – yuviqqa ko‘chib ketganlar hammasi ko‘chib kelib qoldi. Qalmoqda Elomon, Kayqubod, Zomon poygachilarning to‘yini qilgani yo‘q edi. O‘z xalqi ichiga kelib bularga ham to‘y qilib, Alpomish Oybarchin bilan qaytadan suhbat qurib, murod maqsadiga etib yashayberdi.

Umir baxshi Safar o‘glining mazkur variantining dastlabki qismi, ayniqsa muqaddima qismidagi voqealar alohida ajralib turadi.

Muqaddima yoxud boshlama badiiy asar strukturasida muhim o‘rin tutadi. Yozma adabiyotdan farqli ularoq, og‘zaki ijoddha muqaddimalar

qat’iy, barqaror shaklga ega bo‘lishi bilan bir qatorda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi va ijrochining iqtidorini belgilab beruvchi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Misol uchun ertaklarda boshlamalar: “Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan; bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan; qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan; toshbaqa tarozibon ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan...”, deb boshlanadi. Ertaklardagi bunday boshlama o‘zining badiiyati, majoziy mazmuni bilan qiziqarli bo‘lib, tinglovchi diqqatini o‘ziga jalb etadi va uni asosiy qahramonlar bilan tanishtiradi.

Epik asarlarning eng yirik turlaridan biri bo‘lgan dostonlar boshlamasi garchand ertaklarnikiga o‘xshab ketsada, faqat o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlarga ham ega. Bu o‘ziga xoslik birinchi navbatda ertakka nisbatan ancha keng qamrovli, epik ijodkor, ya’ni baxshi mahorati bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqadi. Shuning uchun aytish mumkinki, dostonlardagi nasrda saj bilan keluvchi boshlamalarning pishiqligini, mazmunan boyligi, badiiyatiga qarab doston ijrochisining san’takorlik darajasini belgilab berish mumkin bo‘ladi.

“Alpomish” borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, bir-roq doston muqaddimasi va uning asar strukturasida tutgan o‘rni masalalari yetarli darajada tadqiq etilgan emas.

Epik ijoddagi muqaddimaning o‘rganilishi, eng avvola, doston strukturasining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Epik asar syujetining keyingi rivojini ta’minlab beradi. Dostonda kechayotgan joy, asosiy obrazlar, epik asar mohiyatida turgan voqelikning mohiyatini tushuntiradi. Muqaddimada ko‘pincha qahramon shajarasiga urg‘u beriladi, unda tilga olingan qahramon shunchaki, oddiy bir qahramon emas, balki bevosita ko‘k bilan, ilohiyot bilan bog‘lanishi urg‘ulanadi. Muqaddimalar har matnda, qahramonlik, romanik dostonlarda o‘ziga xos tarzda beriladi. Bu boshlamalar, bir-biridan farqlanib tursada, ularda umumiy jihatlar mavjud. Muqaddimalar:

1. Tinglovchini voqelikka tayyorlaydi, ya’ni ularni dostonning asosiy qahramonlari hamda voqeя bo‘lib o‘tadigan joy bilan tanishtiradi.
2. Doston qamrab olgan voqelikning ko‘lami naqadar keng ekanligini urg‘ulaydi.
3. Badiiy asardagi motiv va syujetlarning rivojiga to‘rtki beradi hamda ular o‘rtasidagi o‘zviy bog‘liqlikni ta’minlaydi.

“Alpomish” dostonining Umir baxshi Safarov variantidagi muqaddima: “Qadim zamonda Boysun tomonda o‘zbek xalqlaridan qo‘ng‘irot urug‘idan Boybo‘ri va Boysari degan aka-uka o‘tgan edi.

Boybo‘ri, Boysarining otasini **Davanbiy** der edilar. Davanbiyning otasi ni **Alponbiy** der edilar. Akasi Boybo‘ri, ukasi Boysarilar chorvadorlar edi. Ikkovi ham boy kishilar edi, Qo‘ng‘irotni[ng] e’tiborli boshliqlari edi,” – deb boshlanadi.

“Qadim zamon” bu mifologik tushunchaga ko‘ra ibtidoning boshlanishi, xaosning kosmosga aylanishidir. Gap bu yerda noreallik, hayotiy asosga ega bo‘lмаган бадиий то‘қима хақида гап кетмаяпти. Balki, yarmi afsona, yarmi haqiqat, mifologik qobiqqa o‘ralgan o‘tmish, tarix haqida hikoya qilayapti. Ertakdan farqli ularoq dostonni ijro etuvchi baxshi ham, tinglovchi ham undagi voqealar chin haqiqat ekaniga ishonadi. Qolaversa, doston ajdodlarning muqaddas xotirasi, shonli tarixi haqida. Bu shonli voqealar bir necha avlodlar tomonidan kuylanib kelin-gan, avlodlarga yetkazilgan va ijro etilayotgan zamonda ham davom etmoqda.

“O‘zbek xalqlaridan qo‘ng‘irot urug‘i” yuqoridagi o‘tmish tarixiga yanada hayotiylik bag‘ishlaydi. Bu tarix ma’lum bir urug‘, ayni bir paytda butun boshli elat o‘tmishi bilan aloqador ekanini urg‘ulamoqda.

“**Davanbiy**” (Aslida Dobonbiy) so‘zi dovon, yuksaklik ma’nosida keladi. Bu ism shunchaki tanlanmagan. Hayotda katta ishlarni amalgamoshirgan, yuksak marralarga erishgan qahramonning ramziy timsoliy obrazidir. Dostonda bu obraz chizgilari go‘yo mukammal emasdek, doston boshlamasida eslanib, keyin unutilib ketadigan ismdek tuyuladi. Biroq, bu obrazga keyingi jumlalar, keyingi voqealar oydinlik kiritadi. Alpinbiydek Alpning dunyoga kelishi o‘z-o‘zidan bo‘lмаган. Unga **Davanbiy** chekkan zahmat, erishgan donishmandlik sabab bo‘lgan.

Boybo‘ri bilan Boysari ismdagi “Boy” old qo‘srimchasi ularning shajarasi kimlardan ekanini ko‘rsatib turibdi. Biroq e’tibor qilsak, Dobonbiy, Alpinbiy sanalib, keyin ikki juft ism sanalayapti. Bu bejizgami?

Folklorda egizaklar tushunchasi mavjud. Har ikkala ism ana shu egizaklar haqidagi tushunchaning ma’lum darajadagi badiiy talqinidir. Odatda egizaklar haqidagi mifologik tasavvurda egizaklarning biri katta, ikkinchisi kichik bo‘ladi. Ona urug‘chilik bilan bog‘liq tasavvurlar ustivor qonuniyat kashf etilayotgan davrda urg‘u ko‘proq kenjaga berilib, ko‘p holatlarda bevosita ona bilan bog‘lanadi. “Kenja botir”, “Uchinchi o‘g‘il” kabi ertaklar, “Alibek bilan Bolibek” dostonlari buning yorqin misolidir.

Faqat bu yerda urg‘u Boysariga emas, aksincha Boybo‘riga qaratilgan. Alpomishning ham Boybo‘rining farzandi ekanı bejizga emas. Demak, bu dostonda ota urug‘chilik bilan bog‘liq tasavvurlar bo‘y ko‘rsa-

ta boshlaganidan dalolat beradi. Biroq dostonning boshqa, jumladan, Barchin, Qaldirg'och, Surxayil kampir, Tovka oyim obrazlari talqini shuni ko'rsatadiki, dostonda ona urug'chiligi bilan bog'liq tasavvurlar ham hali barqaror turibdi.

"Alpomish" dostonida alp – qahramon tug'ilishidan oldin ota – on alarning farzandsizligi aslida ramziy ma'noga ega bo'lib, gap bu yerda sultanatni mustahkamlaydigan, parokanda elni yana birlashtiradigan yangi avlod – Alpning tug'ulishi haqidadir.

"Alpomish" dostonida millatning bo'linishi, parokandaligi Boysarining qalmoq eliga ko'chishi orqali ifodalanadi. Zero, turkiy xalqlar tarixning ma'lum bir davrlarida ulkan sultanat, hokimiyat va cheksiz hukmronlikka ega bo'lgan. O'zaro bo'linishlar, urushlar va boshqa sabablar tufayli bu buyuk sultanatga putur yetgan. So'ngra xalqni, millatni birlashtira olgan yangi avlod – Alplar tug'ilib, turkiy xalqlarning tarix sahnasidagi oldingi yuksak mavqeiyi yana qo'lga kiritilgan. Xuddi shunga o'xshash voqealarning badiiy ifodasi har ikkala asarning mohiyatini tashkil etadi.

E'tibor qilsak, "Alpomish"ning Fozzil Yo'ldosh o'gli variantida Alpinbiydan qolgan, ko'lda zang bosib yotgan kamonni faqat Hakimbek ota oladi. Alplik kamonining ko'lda zang bosib yotishi undan oldingi avlod o'z vazifasini oxirigacha bajara olmaganidan dalolat beradi. Bunday vazifani yangi avlod – Alplargina oxiriga yetkazadi.

Epic ijoddagi alplik tizimiga turlicha yondoshuv mavjud. Xorijlik olimlar Lord Raglen, Karl Rayxl, Ojal O'g'zular o'z tadqiqotlarida "Qahramonlik qolipi", o'zbek folklorshunoslari esa "alplik tizimi" degan atamani ishlataladi. Ya'ni folklordagi qahramon shunchaki qahramon emas, balki uning jasorati, mardligi, qahramonligini bo'rtirib turadigan jihatlar mavjud. Bu jihatlar dostonlarda epic qolip shaklida keladi. Ya'ni, qahramonlar ma'lum bir tizimga amal qilishadi. Bunday misollarni yana ko'plab kelirish mumkin.

Dostonlar muqaddimasining ilk jumlasidayoq ajdodlarimizning shonli o'tmishi bilan bog'liq tasavvurlar mustahkam o'rinn olgan. Demak, mazkur holat dostonning mifologik qatlami, yuzaga kelish davriga ham ma'lum darajada aniqliklar kiritadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xalqning ko'p ming yillik tarixi, tafakkur tarzi haqida juda boy va qimmatli ma'lumotlar beradi.

Xulosa qilib aytganda, doston muqaddimasi epic asarning syujet qurilmasida o'ziga xos asos vazifa o'taydi. Dostonda keladigan barcha keyingi voqealar ana shu boshlama bilan bevosita bog'langan holda ke-

ladi. Aytish mumkinki, muqaddima doston syujetni tashkil etuvchi motivlarning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

Muqaddima tinglovchini epik voqelikka olib kiradi. Doston kechayotgan joy, asosiy qahramonlar bilan tanishtiradi. Epik asar voqelarini yaxlit, bir butun holda jamlab turadi. Dostoning mazmun mohiyati ochib beradi, uning yaratilish davriga qaysidir darajada aniqliklar kiritadi.

Doston muqadimmalarining o‘rganilishi epik asarlarning asrlar osha yashab kelish sabablari, og‘zaki ijro san’atining o‘ziga xosligi, taraqqiyot bosqichlari, ijro holati haqida tasavvurlarni mukammalashtiradi, epik san’atdagi mifologik tasavvurlarning poetik tasavvurlarga aylanish jarayoni har bir janrda o‘z talab va mezonlaridan kelib chiqqan holda takomil topishini urg‘ulaydi.


Dostonning Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘lidan yozib olingan ikkinchi qismi ham an’anaviy syujetga mos. Dostonning ikkinchi qismida qahramonning yetti yillik zindonda yotishi, so‘ngra esa turli sinovlardan boshidan kechirib, uyga qaytishi bilan bog‘liq voqealar hikoya qilinadi. Qahramonning uyga qaytishi bilan voqealar ko‘pgina qahramonlik dostonlarida bir-biriga o‘xshab ketadi. Bu variantdagи qahramonning uyga qaytishi bilan bog‘liq epizodlar an’anaviy ko‘rinish olgan. Biroq Avliyoqul Mardonaqul o‘g‘li varianti o‘z ijro uslubi, badiiyati bilan o‘ziga xos farqliklarga ham ega.

Mazkur dostonning har ikkala variantning tahlilidan shu narsa anglashiladiki, Umir shoir Safar o‘g‘li va Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li “Alpomish” dostoni syujet qurilishi, motivlar kombinatsiyasi jihatidan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantiga juda yaqin turadi.

Har **ikkala** variant ham o‘zbek xalq epik ijodida o‘z o‘rnii va badiiy qimmatiga ega.

13

Jabbor Eshonqul



Aytuvchi: Umir shoir Safar o‘g‘li

Yozib oluvchi: Oxunjon Sobirov

Nashrga tayyorlovchilar: To‘ra Mirzaev, Jabbor Eshonqulov

Qadim zamonda Boysun tomonda o‘zbek xalqlaridan qo‘ng‘iroq urug‘idan Boybo‘ri va Boysari degan aka-uka o‘tgan edi. Boybo‘ri, Boysarining otasini **Davanbiy** der edilar. Davanbiyning otasini **Alponbiy** der edilar. Akasi Boybo‘ri, ukasi Boysarilar chorvadorlar edi. Ikkovi ham boy kishilar edi, Qo‘ng‘irotni[ng] e‘tiborli boshliqlari edi.

Ikkovining o‘g‘il-qizi bo‘lmanligi uchun, to‘ylarda, ma’rakamajlislarda har xil gaplardan xafa bo‘lib, ikkovi ovga chiqib ketdi, ov qilaverdi. Bir erda Boysari bir kiyikni ko‘rdi. Boysari buni Boybo‘riga ko‘rsatdi. Boybo‘ri:

– Ukam, sen o‘zing ot, ko‘zing **o‘tkirroq** ham epchilsan, – dedi. Boysari o‘zini otdan taylab, otni bir qoziqqa boylab, miltiqqa bir o‘qni joylab, shu kiyikni poylab, pana joydan mo‘ralab, chalov butalarini oralab, kiyikning dushpati miltiqni o‘qlab, piltani cho‘qlab, dagakka dori qotirib, piltani cho‘qqa botirib, kiyikka miltiqni yotqirib, ko‘kragiga miltiqni qoplab, chakkasiga tutib japiiy kiyikka tutib choqlab, otmoqchi bo‘lib qarovlanib tiklab turgan vaqt edi. Qarasa, kiyik bo‘g‘oz, elini bor ekan. Miltig‘idan o‘q otmadni, qaytarib oldi. Kiyik qirdan oshib, cho‘lga ketdi.

Boybo‘ri aytdi:

– Ukam, nima uchun kiyikni otmading? Boysari aytdi:

– Aka, kiyik bo‘g‘oz, elini to‘lgan ekan, shuning uchun, “bolalari ham hayf bo‘lmasisin”, deb otmadim. Keliningizning gumonasi bor, shuning uchun kiyikni otmadim.

Boybo‘ri xursand bo‘lib, ukasini yoniga chaqirdi. Ukasi kelib o‘tirdi. Boybo‘ri aytdi:

– Mening ham eshituvim bo‘yicha, chechangning ham gumonasi borday, kel, endi bu cho‘lda ikkimiz yaxshi niyat qilaylik, uka, endi shu vaqtgacha yurdik, turdik, hamma narsani ko‘rdik, davrni surdik, oqibat ikkovimizning armonimiz o‘g‘il-qiz bo‘lsa, kamchiligidimiz yo‘q. Endi sening ayoling o‘g‘il tug‘sa, mening ayolim qiz tug‘sa, ikkovimiz quda bo‘laylik, ikkovi ham, qiz bo‘lsa, bir-biriga do‘sot bo‘lsin, o‘g‘il bo‘lsa ham, do‘sot bo‘lsin, agar birimizniki o‘g‘il, birimizniki qiz bo‘lsa, haligi shartdan qaytgan pes bo‘lsin, – dedi. Boysari:

– Aka to‘g‘ri, shu gapimiz-gap, so‘zimiz-so‘z, – deb fotiha qilib, turib otlanib ketdi. Kunlardan bir kuni Boybo‘rining ayoli o‘g‘il tug‘di. Boybo‘ri shunda xursandchilik bilan o‘zining butun xalqiga har tomonga ot choptirib xabar qilib, o‘choq o‘yib, qo‘y so‘yib, qozon qo‘yib, to‘y qildi.

– El, hammang kel, – deb chaqirdi. Och-yalang‘och, kambag‘al-sanbag‘al demasdan bir hafta to‘y berdi.

Oradan uch oy o‘tgandan keyin Boysarining ayoli qiz tug‘di. Boysari ham qiz bo‘lsa ham o‘g‘il o‘rnida ko‘rib, bu ham akasi singari butun xalqning hammasini **bosh-adog‘ini** chaqirib, yaxshi-yomon, **yugruk chopon** demasdan, och-yalang‘ochlarni chaqirib, sakkiz kun to‘y berib, tomosha qildi.

Shu to‘yda o‘z atrofidagi xalqlariga o‘z niyatlarini e’lon qildi:

– Endi qavmi elatlar, bizning dunyoda armonimiz o‘g‘il-qiz edi, ikkovimiz ovlab yurib, cho‘lda bir niyat qilgan edik. Bu maqsadga etdik, ikkovimizning ayolimiz o‘g‘il tug‘sa, do‘sit bo‘lsin, qiz tug‘sa ham do‘sit bo‘lsin, agar biri o‘g‘il, biri qiz tug‘sa, quda bo‘lamiz, shu shartdan qaytgan pes bo‘lsin, degan edik.

To‘yga yig‘ilganlar bu aka-ukaning qilgan niyatini juda ma’qullashdi. Endi ikkovini olib kelib:

– El ichida ikkovimiz quda bo‘ldik, – dedi. To‘yga kelgan keksalar Boybo‘rining o‘g‘lining nomini **Hakimbek**, deb Boysarining qizining otini **Oybarchin** qo‘ydi.

Kundan kun, oydan oy o‘tdi. Hakim bilan Oybarchin olti yoshda bo‘lishdi. Hakim – o‘zi olti yoshda bo‘lsa ham, suyagi yirik alp bola edi. Shuning uchun uning otini el ichida Alpomish deb yuritdilar.

Olti yoshda ikkovini ota-enalari maktabga qo‘ydi. Ikkovi birga-birga maktabda o‘qib, yetti yoshga qadam qo‘ydi.

Alpomish o‘g‘il bola emasmidi, biroz sho‘xroq edi. Oybarchin bilan hazillashib, Alpomish Oybarchinni bir shapati urdi. Oybarchin ham erka qiz emasmi, yig‘lab uyiga, enasiga bordi. Oytug‘mish yig‘lab borgan qizini ko‘rib, joyidan irg‘ib turib:

– Qizim, sensan **rizqi-ro‘zim**, gavhardan tiniq ko‘zim, tasadduqman senga o‘zim, aytishing menga lozim, nima uchun **xafa bo‘lib** yig‘lab kelding? – deb so‘radi. Oybarchin erka qiz-da, enasiga:

– Alpomish mening chakkamga urdi, turtkilab, har kuni qo‘ymaydi, – dedi. Oytug‘mish ham og‘zi katta, gapini qaytarmagan boybicha emasmi, **qora uydan** tashqari chiqib, Alpomishga qarab:

– Tanasi – tentak, kallasi – katta kalpang juvommarg, nima uchun mening qizimni har kuni turtkilab urasan? Sening zamoningga ham bolalar tinch yuradimi yoki yurmaydimi? – deb baland ovoz bilan qarg‘andi.

Alpomishning enasi Kuntug‘mish ham bu gapni eshitgandan keyin qora uydan chiqib, **ovsini** Oytug‘mishga qarab bir so‘z dedi:

– Hu, og‘zi katta boybicha, nima deyapsan? Og‘zingdan chiqqan gapni qulog‘ing eshityaptimi? Sarg‘aytib nurli yuzimni, ko‘zga ilmaysan o‘zimni, dunyoda ko‘rgan rizqi-ro‘zimni, nima uchun qarg‘aysan

yolg‘iz qo‘zimni? Sening qizing ko‘zingga qanday ko‘rinsa, mening o‘g‘lim ham shunday ko‘rinadi. Bola bo‘lgandan keyin urishaveradi, ertaga yarashaveradi, undayin haddingdan oshib, yuraging toshib, **o‘zingdan ko‘p ketma**, “Tanasi – tentak, kallasi – katta kalpang”, deysan, shunday bo‘lsa ham, qizingning yori, urishadimi, so‘kishadimi – o‘zining yori, nima ishing bor? – dedi. Oytug‘mish aytdi:

– Ho‘, Kuntug‘mish boybicha, **og‘zingni borla**, mening qizim sening o‘g‘lingga yor bo‘lmaydi. Bu aytgan so‘zingga yurmayman, sening kalpang o‘g‘lingga qizimni bermayman. Tanasi – tentak, kalpang o‘g‘lingga Oybarchinni berguncha daryoga oqizib yuborganim yaxshi-roq. Kuntug‘mish aytdi:

– Boybicha, bermay **hudda qilolmaysan**, Oybarchin sening qorningda ekanligi-da mening o‘g‘limga **baxshida edi**. Yana Oybarchin er yuziga tushganda xalq o‘rtasida fotiha qilib, to‘y qilingan edi-ku, o‘zing bilasan-ku, – dedi. Shundan ikkovi bunisi bunday dedi, unisi unday dedi, uning ustidan bir-biri bilan yulishdi, bo‘lganicha bo‘lishdi, ikkovi **o‘lguday olishdi**.

Shu tobda Boysari dashtdan kelib qoldi. Bu ahvolni ko‘rib hayron bo‘lib, xotinidan:

– **Qani**, o‘zi nima gap? – deb so‘radi. Shunda xotini yig‘lab:

– Menden bu gapni so‘rama, Alpomish bilan Kuntug‘mishning **g‘azabida** birov shuytib yurama, – dedi. Xotinidan bu gapni eshitgandan keyin Boysarining achchig‘i chiqib ketdi, borib Kuntug‘mishga:

– Nima uchun bezovta qilasan, g‘azablanasan? – deb qiziqqonligi tutib, achchig‘i chiqib urdi, **boshini** yorib, hamma yog‘ini **qonga qorib tashladi**. Bir oz muddatdan keyin Boybo‘ri dashtdan kelib ko‘rsa, xotini Kuntug‘mish haligi ahvolda yig‘lab, holsizlanib yotibdi.

– Ha, qani, nima gap? – deb so‘radi. Xotini yig‘lab:

– So‘rab nima qilasan, ukang meni urib, hamma joyimni mayib qilib tashladi. O‘ldirib tashlar edi-yu, qo‘snilalarimiz oraga kirib, shunchalik ayirib oldi, – deb yig‘ladi.

Boybo‘rining achchig‘i chiqib ketdi. Ukasi Boysarining eshigiga borib, Boysariga:

– **Juvonmarg**, rahmsiz, beaql, bola-bachaning **orasiga kirib**, nima uchun shunday qilib tashlaysan? – dedi.

Boysari birni gapirdi, Boybo‘ri birni gapirdi, ikki aka-uka **so‘kisha** ketdi. Bir-birini urib, beti-boshlarini yorib tashlashdi. Atrof-boshlari, tengi-to‘shlari, qavm-qardoshlari – hammasi kelishib:

– Nima bo‘ldi aka-ukaga, nima gap, – deb to‘p bo‘lishib, kelib qoldi. Boysari yig‘ilganlarga arz qilib dedi:

10

Qulq solinglar, qavmi-elim,
Bunday qolmaydi bu ahvolim,
 O‘z akamdan ko‘rib zulm,
 Rozi bo‘linglar, qavmi-elim,

Men endi bunda turolmayman,
 Buytib **izza eb** yurmayman,
 Yana yuzini ko‘rmayman,
 O‘lsam qizimni bermayman.

Endi men qaytay – netaman,
 Bu erdan ko‘chib ketaman.
 Boshqa bir joyga borib,
 Istiqomat qilib yotaman.

Keng cho‘lga o‘zi sig‘maydi,
 Bilaman, endi qo‘ymaydi.
 Eshiting **tengi-to‘shlarim**,
 Atrof **xeli-xeshlarim**,
 Qanday bo‘ldi bu ishlarim?

20

Fido bo‘lib aziz jonlarim,
 Qanday o‘tadi kunlarim?
 Endi biz ketdik bu joydan,
 Rozi bo‘ling, og‘a-inilarim.

Qutilsam bunday **qahardan**,
 Bu kun qiyildi zahardan.
 Nasibani qaydan totdi,
 Bilmayman qaysi shahardan?

30

Men endi bunda turmayman,
 O‘z akamdan sitam ko‘rmayman,
Zakotbosh bunda bermayman.
 Rozi bo‘ling, aka-ukalar,
 Yana ko‘raman, yo ko‘rmayman.

Sizlar edinglar bizga ko‘ngil to‘q,
 Alpomish bo‘lsa bugun bek.

Rozi bo‘ling, qarindoshlar,
Yana ko‘ruv bormi yoki yo‘q.

Boysarining **yuragin yorib**,
Yurmayin bu joyda,
Bunday sitamni ko‘rib.
Rozi bo‘ling, qarindoshlar,
Boshqa joyda o‘lsam g‘arib.

Alqissa, janjalga yig‘ilgan **atrof-betdagি** og‘a-ini, qavmu qarindoshlari, Yortiboy oqsoqol, Nodir elbegi, Ko‘char elbegi, Shozamon mergan, Chuvdali so‘filar Boybo‘ri va Boysarini chaqirib olishib, maslahat qilib, bularga bir so‘z deyapti:

40 O‘n to‘rtda to‘ladi osmonda oylar,
Bu ahvol qandaydi[r], Boybo‘ri boyolar?
Bu cho‘lga sig‘masmi chorva-qo‘ylar,
Hammamiz **og‘ayin**, qarindosh ellar!
Kimga torlik qiladi keng sahro-cho‘llar,
Bu cho‘lga sig‘masmi chorva-mollar?

19

50 Yig‘ilishib keldi qarindosh bari,
Bu gapdan qaytgin endi, Boysari.
Turpa bo‘lib, ayrilib chiqmagin xildan,
Endi qaytgin sen bu sherlik yo‘ldan,
Qayda ketarsan ayrilib og‘ir eldan?

Bir achchig‘ing bilan gapirding o‘zing,
Bizlarga ma’qul emas bu aytgan so‘zing.
Alpomishga bag‘ishla Oybarchin qizing,
Bu joylarga termulib qolmasa ko‘zing.
Qora ko‘zdan qonli yoshing eshilib,
Qayda bo‘lsang, eldan chiqma **cheshilib**,
Nima uchun yig‘laysan bag‘ring teshilib?

60 Xazon urmay, bog‘da gullar so‘larmi,
Aka-ukaniki bunday urushi bo‘larmi?
Eldan chiqib ketma buytib bo‘linib,
Qayda bo‘lsang, el bilan yur ilinib.

Agar ko‘chib ketsang boshqa joylarga,
El qadri qolmasin-da bilinib.

70

Sening aytgan bu so‘zingga yurmaymiz,
Eldan ketishingga javob bermaymiz.
Aka-ukaning urushi bo‘lmaydi,
Bu janjalni ikkovingdan ham ko‘rmaymiz.
Achchig‘ing bilan bu so‘zlarni aytasan,
Boysari, sen shu so‘zingdan qaytasan,
Bu eldan ayrilib, qayga ketasan?

Qanday chiqib ketasan qavm-qardoshingdan,
Bu yomon so‘zingni olib tashlagin, boshingdan,
Buytib kechib ketma emikdoshingdan,
Ham atrofdagi qavmi-qarindoshingdan.

Termultib ketmagan xalqning barini,
Ham akang-emikdosh Boybo‘rini,
Qayga musofir qilib olib ketasan,
Alpomishning sevimli Barchin yorini?!

20

Alqissa, Boysarining achchig‘i tarqamasdan xalqlariga qarab, qich-qirib, bir so‘z deyapti:

80

Xalq – qarindoshim, eshit mening so‘zimni,
Bu yo‘ldan qaytarolmaysizlar o‘zimni.
Nima bo‘lsa, endi ketishim lozimdi[r],
Boybo‘riga endi bermayman qizimdi.
Qarindoshlar, bil, bu erda turmayman,
O‘z akamdan sitam ko‘rib yurmayman,
Boybo‘riga men qizimni bermayman.
Bundan ketdim boshqa joylar eliga,
Men bermayman Boybo‘rining uliga,
Erka qizimni Kuntug‘mishning qo‘liga.

Alqissa, Boybo‘ri ukasiga:

– Hoy Boysari, nima deyapsan, boshida va’dang nima edi? Xalqlar hammasi eshitgan edi-ku, – deb qichqiryapti:

90 Achchiq bilan olaytirma ko‘zingni,
Xalqlar o‘rtaga olib nasihat qildi o‘zingni.
Hamma eshitib edi o‘zing so‘zingni,
Xalq o‘rtasida berib eding-ku qizingni.

Boysari, sen muncha ketma o‘zingdan,
Ishonmasang, so‘ra o‘zing qizingdan,
Nima uchun **tonasan** so‘zingdan?
Bu niyatlar avvaldan edi dilda,
O‘zing nima deb eding **yo‘lda**,
O‘sha shart qib eding jazira[ma] cho‘lda.

100 O‘zing aytib eding: ikkovi ham qiz bo‘lsa,
Bir-biriga do‘sit bo‘lsin,
Biri o‘g‘il, biri qiz bo‘lsa,
Shu shartdan qaytgan pes bo‘lsin.
Endi xalq nasihatini olmaysan,
Shuncha el gapiga qulq solmaysan.
Qarindosh-qavmning qadrin bilmaysan,
O‘zing gapirib gapga ega bo‘lmaysan,
Elning iltimosi shumi o‘zingdan?

O‘zing aytib, qaytgan bo‘lsang so‘zingdan,
Bermasang umidim yo‘q qizingdan.
110 Bor, ketsang, eldan chiqib ketaver,
O‘lsamam yo‘qlamayman izingdan.

21

Boybo‘ridan bu so‘zni eshitgan xaloyiq endi xafa bo‘lishib:
– Ikkovi yomon achchiq qilgan ekan-ku, bir-biriga **gapi chap tushib qoldi-ku**, – deyishib jimgina turdi. Endi Boysari cho‘lda yurgan chorva-mollaliga va cho‘ponlarga va tuyaboqarlarga ham, yilqiboqarlargacha chaqiritib, butun mollarning hammasini haydatib keltirib, chorvador xalq emasmi, tuyalarga jahaz qo‘rab, yilqilarga ham jobuv jobni qo‘rab, goh anjomlar, uy asboblarini, tuya va yilqilarga ortib, mahkam belini tortib, bola-bachalarni tuyaga mindirib, “bor endi allayor”, deb yo‘lga ravona bo‘ldi.

Xalqlari ham qavmi-qarindosh, atrof-boshlari va tengi-to‘shlari ovul-ovulidan chiqishib va Nodir elbegi, Qo‘char elbegilar va Yortiboy oqsoqollar piyoda-siyoda, ayol-bachchadan tashqari yuzcha otliq bo‘lib, Boysarining ko‘chingning qabatini olib, Boysariga qarab:

– Endi ketishingmi? – deb yana nasihat qilib yig‘lashib, bir so‘z deb qichqirishib ketyaptilar:

Ergashibdi elning bari,
Quloq sol gapga, Boysari.
Bizlarni shunda tashlab,
Ketayapsan-ku tiri[k].

120

Ba’zilari yurak-bag‘ri teshilib,
Ketayotir ko‘chlar bilan qo‘shilib.
Nega eldan ketayapsan cheshilib,
Ba’zilarini[ng] yurak-bag‘ri tilinib,
Sen ketgan so‘ng o‘rning qolar bilinib,
Nega eldan ketayapsan bo‘linib?

Eldan chiqib ketayapsan o‘zing xonda[y],
Boybo‘rini tashlab bunda[y].
Og‘a-ini shunda[y] bo‘lama,
O‘lmay ayrilib zinda.

22

Ergashgan elning bari,
Boysariga qilgan zori.
Aka-uka bir-biridan,
O‘lmay ayrilarmi tiri[k]?

130

Barchinning baxtini boylab,
Ketmagin ko‘ngilni loylab.
Aka-uka shunday bo‘larmi,
Xalqni ketayapsan taylab.

Endi bu ahvol qalaydi[r],
Manglaydan kimlar silaydi?
Qancha xalq ergashibdi,
Izg‘in tortib yig‘laydi.

140

Kunduz bo‘larmi kechalar,
Yig‘lashib bola-bachalar.
Har ovuldan chiqayapti,
Olloh yor, deb boybichalar.

Barchin yig‘laydi tuyada,
Xush qoling, opa, chechalar.

Sarg‘ayib borar rangi-ro‘y,
Qayg‘udan ko‘pdi[r] kulfat o‘y.
Tuya ustida yig‘laydi,
Xush qolinglar, deb Barchinoy.

Ergashibdi ovul, el,
So‘lganday bo‘ldi qizil gul.
150 Har ovuldan chiqayotir,
Bola-bachalar, qizu-ul.
Xush qolinglar, deb yig‘laydi,
Tuya ustida Barchin gul.

Qarasa otasining o‘ziga,
Otasi qulq solmadi,
Shuncha xalqning so‘ziga.
Qaytmaguday otasi,
Endi qaytib iziga,
160 Endi g‘am tushib yig‘ladi,
Boysaribiyning qiziga.

23

Jamoli oyday to‘libdi,
Yoshi yettida bo‘libdi,
Rangi gulday bo‘b so‘libdi,
Endi o‘ylasa Barchinoy,
Sevikli yori Alpomish,
Yordan ayrilib qolibdi.

Chuvashayotir ovul-el,
Chong‘irg‘ab qoldi uzoq cho‘l.
Yordan ayrilib qolibdi,
170 Alpomishday yolg‘iz ul.
Endi o‘kinib yig‘laydi,
Ketib boradi Barchingul.

Ergashib elning bari,
Qaytmayotir Boysari.

O‘ylab tursa Barchingul,
Qolib ketgan suyukli yori,
Ayrilib borar tiri[k].

180

Yuragi g‘amdan to‘lib,
Bu dard yurakka g‘olib,
Yori ayrilib qolib.
Gumburlar tog‘lar darasi,
Ajrayapti orasi.
Damba-dam qarasa Barchingul,
Ko‘rinmaydi Jonadilning qorasi.

Hech bo‘lmadi bu ishlarning chorasi,
Tog‘larning boshini tuman cholibdi,
Sevikli yor endi, bildi, qolibdi,
Yordan ayrilib ketarini bilibdi.

Oybarchin endi o‘ylab tursa, avval ko‘chayotganda ko‘ngilga buncha gap kelgani yo‘q edi. “Dev urdimi, otam xalqning nasihatini olar, gapiga quloq solar, ko‘chmay qolar”, degan edi. Endi otasi qaytmasligini bilib, eldan chiqqanini bilib, Oybarchin bir so‘z deyapti:

190

Otam xalqning nasihatini olmadni,
Aka-uka bir-birining qadrin bilmadi.
Bek otama, bek boboma na bo‘ldi?

Otam olmadi xalqning so‘zini,
Musofir qilib menday qizini,
Bek otama, bek boboma na bo‘ldi?

Otam tashlab qarindosh, qavmi, elini,
So‘ldirganday bo‘ldi bog‘ning gulini,
Yoridan ayirib bobom ulini,
Bek otama, bek boboma na bo‘ldi?

200

Quloqqa tutmadni xalqning zorini,
Izidan chobitib elning barini,
Yo‘llarda yig‘latib Hakimning yorini,
Bek otama, bek boboma na bo‘ldi?

Achchig‘i bilan eldan chiqdi qoqinib,
Ko‘p yig‘lashim kerak yorni sog‘inib.
Bek otama, bek boboma na bo‘ldi,
Otam ko‘rmadimikan izini o‘ylab?

Nima uchun chiqdi ellarni taylab,
Meni olib ketyapti ipsiz boylab,
Bek otama, bek boboma na bo‘ldi?

210 Kelarmikan yana qaytib aylanib,
Achchig‘i kelibdi otam xuylanib,
Yorimdan ayrilib, baxtim boylanib,
Bek otama, bek boboma na bo‘ldi?

Bu dardimning topilarmi darmoni,
Qolmasin-da bu ko‘ngilda armoni,
Shundaymikan bu taqdирning farmoni,

Bek otama, bek boboma na bo‘ldi?! – deb yig‘lab ketayotgan edi.
Boysari qarasa, hali ham xalqlar ergashib kelayotir. Endi Boysari ko‘ch-
larni to‘xtatib, “xalqiga xayr”, deb bir so‘z deyapti:

25

220 Qolayapti o‘ynab-o‘sgan cho‘llarim,
Shunqor tepib sindimikan bellarim?
Ko‘p ergashmay xush qolinglar, ellarim,
Qayg‘udan ko‘p bo‘ldi mening o‘ylarim.
Qolib borar o‘ynab-o‘sgan joylarim,
Xush qolinglar, endi chorvador boylarim.

Chappa aylanganday bo‘ldi ishlarim,
Chagadan uchdimi olg‘ir qushlarim,
Endi xush qolinglar, qarindoshlarim,
Sizlarga tasadduq mening jonlarim.
Bu ko‘zimdan oqdi yoshu qonlarim,
Xush qolinglar, og‘a-ini, qadrdonlarim.

230 Bu joyda o‘tirishga chidamay bardoshlarim,
Xumor ko‘zdan to‘kib qonli yoshlарim,
Xush qolinglar, qadrон qardoshlarim,

Bunday emas edi mening niyatim,
Oltin sadoqli jopsar, po'latim,
Xush qolinglar, ergashmay elatim.

240

Boybo'ri-ku, o'z eliga bo'lsin bek,
Qaerda bo'lmasin menga ko'ngil to'q,
Endi sizlarni ko'ruv bormi yoki yo'q?
Nasiba ko'tarildi, turmadim bunda,
Bilmayman, nasibani tortgan qayda?
O'lmasak ko'risharmiz yana ham zinda,
Ko'p ergashmay, xush qolinglar, elatim.

Boysardan, bu gapni eshitgan xalqlar: "Obbo, endi bildik, qaytmaydi ekan, bizga chinini aytmaydi ekan. Endi bildik, gap qulooqqa kirmaydi ekan. Aytgan so'zga yurmaydi ekan. Endi bu elda turmaydi ekan. Endi bildik, ketar ekan, to'xtamay tog'dan o'tadi ekan, nasibasi qaerga tortgan bo'lsa, etadi ekan", deb maslahat qilib:

– Endi yigitlar, shunday qilmaylik, endi eldan bir o'zi chiqib ko'chib chiqib, ketmasin, elning qadri o'tmasin. Boysari, Boybo'ri xalqimizning boshliq, obro'li kattakon kishilari edi. Biz ham Boysari bilan endi birga-birga tog'larga, yaylovga chiqib to kuzgacha qo'ylnari o'tlatib, kuzda Boysarini olib qaytib kelamiz, – deb maslahat qilishib:

– Boysari uka, bizga chiningdi aytmaydigan, qaytmaydigan bo'lsang, bizlar ham ko'chamiz, ola ketgin. Uch-to'rt kun shu erga hayallab to'xtaysan, – deb Yortiboy oqsoqol, Nodir elbegi, Ko'char elbegi, O'tagan boyvachcha, Shozamon mengan, Chuvdali so'filer, Ovul parroqilar, ana bular mingta uy bilan, qancha qo'y bilan, ming uyli uy bilan, qancha mol bilan, qancha tuyalarga, qancha yilqilarga ko'chlarini ortib, boylari bilan birgalashdi. Chorvador xalq emasmi, qo'ylnarini tog'larda, yaylovlarda o'tlatib, kunning ko'pi bilan Qalmoq yurtga oshib ketgan edi. Hozir qalmoq urug'idan bu hududda qolmagan. Bu chorvadorlar ko'chib borsa, Chilbir degan cho'lga ko'zi tushdi. Chorvadorlar aytdi:

– Ana, yigitlar, yaxshi joyga kelib qoldik. Bu chorva joylaydigan keng o'tloq, cho'l ekan. Buning xalqi qanday el ekan? – deb qo'ylnarini cho'lga haydab, Chilbir cho'lga joylab, otlarni boylab, saf to'qson boshli uylarni tikib, *chiylarni tutib* qolgan edi. Ammo cho'ponlarning ba'zilari o't bilan ekinni ayira olmas edi. Shu ekin ekmaydigan chorvador xalqlar ba'zi joylari "o't ekan", deb ekinlardan qo'ylnarini qaytarmagan edi. Qalmoq xalqlari ko'rsa, ba'zi maysalarda qo'ylnari o'tlatib yuribdi. Buni Qalmoq xalqlari ko'rib, qo'ylnari oldiga solib surib, cho'ponlarni urib,

ba’zi cho‘ponlarning kallasini yorib, ba’zilarining betini qonga qorib, suruv-suruv mollarni bir-biriga qo‘shib surib, ba’zilari cho‘ponlarni boylab, oldiga solib haydab, kallasiga qamchi tashlab:

– Sen xalq o‘zi qanday balosan? Nima uchun qo‘yni ekinga solasan? Endi bari-bir o‘lasan. O‘zing qaerdan kelasan? Qo‘yingni ekinga qo‘yib, qarab turasan, darrov oldima tushib yurasan, bu ekinni to‘lab berasan. Bo‘lmasa, kuningni ko‘rasan, darrov gapir chiningni, endi ko‘rasan kuningni. Kim deydi kattakoningni? Haydayman sening baringni, qistirayinmi sho‘ringni. Kim deydi sening zo‘ringni, ekinga yopib qo‘yingni, kuydirayinmi uyingni? Kim deydi ovul boyingni? – deb to‘dasini oldiga solib haydadi. Boysari chorvasini, boylar podasi – qo‘ylarini surib, cho‘ponlarni urib, uyga haydab keldi. Buni chorvador boylar ko‘rib, yuragi lorsillab urib, hammasini to‘da qilib surib, ovullarga etishib qoldi. Yortiboy oqsoqol Boysari boboga:

– Yomon bo‘ldi-da musofirlik joyiga keldik-da, ana endi rangimiz so‘ladi. Musofir mamlakat shunday bo‘ladi, ana shunday joyda qo‘ydi suradi, shuytib cho‘ponni uradi, bul endi xalqni qiradi. O‘z mammakatimizda bo‘lganimizda qo‘yni surgi tugul, yoniga birov yaqinlasholmas edi. Ana endi ko‘r bo‘laylik,[- dedi]. Chorvador boylar hammasi bir joyga to‘p bo‘lib, ko‘p[bo‘lib] turdi. Ba’zilari cho‘ponlarni tashlab, qalmoqlardan yigirma-o‘ttiz otli[q] keldi. Yugurishib bular otini boylab, qora uyga joylab, to‘shak taylab, tandir o‘yib, shirboz qo‘zillardan so‘yib, tandir go‘shtini osib, katta tovoqqa bosib, ziyofat qildi. Qornini to‘q qilib, dimog‘imi chog‘ qilib, nasiyani naq[d] qilib, yozib shoyi das turxonni, ustidan tashlab oq nonni, mehmon qilib ko‘p kishini, shirboz tandir go‘shtini to‘kib tashlatdi. Ovqat qilib, dimog‘in chog‘lab, bitta-ikita gapga etari:

– Qani, sizlar qaerdan kelgansizlar, qanday xalqsiz, qanday elsiz? Cho‘ponlaringiz butun ekinlarni edirib qo‘yan. Shuning uchun ham hammangiz oldimizga tushib yurasiz, podshoning oldiga borib javob berasiz. Taqdirda borini endi ko‘rasiz. Eganingiz tandiri kabob, podshoga berasiz javob, mayliga podsho qilsa javob,[–dedi].

Endi chorvador boylar o‘ylanib, nima deyarini bilmay, Yortiboy oqsoqol gapga etari:

– Ukalariningni nima qilsalaring, o‘zlarining bilasizlar, bizlar bo‘lsa bu joylaringga ko‘chib kelgan chorvador. O‘zbek xalqining Qo‘ng‘irot degan urug‘idanmiz. Tog‘ oshib, tosh bosib, orqa yurt mamlakatidan mol o‘tlatib kelgan xalqmiz. Ba’zi cho‘ponlarimiz bosh chiqarmagan maysa, ekin bo‘lsa, shuni o‘t, deb molni qaytarmagan bo‘lsa kerak. Shuning

uchun sovdan edirgan, bo‘lmasa ko‘ra-bila turib ekinga mol qo‘ymaydi. Ana endi, o‘zlarining bilasizlar, bizlarni podshoning oldiga to‘dalab haydab borib, nima qilasizlar?[- dedi].

Ba’zilari ko‘nadiganday, ba’zilari ko‘nmadi, bo‘lmadi, bo‘lingizlar, biz qo‘ymaymiz, deb haydaydigani aniq bo‘ldi. Endi qo‘ng‘irotlar maslahat qildi:

– Endi yigitlar, olib bormasdan qo‘ymaydi. Endi gapi o‘tar ovul boylaridan yigirma-o‘ttiz kishi maslahat qilishib, “kulgali xotin suymalik”, degan gap bor, podshoning oldiga quru[q] bormaylik, shirolg‘a bilan boraylik, – deb qishda tug‘ilgan sara oyoq qo‘zidan besh yuztani podshoning oldiga haydadi. Qalmoq podshohining oldiga bordi.

Qalmoq podshosini Toychixon podsho der edilar. Qalmoq darvozasi dan to‘g‘ri bo‘ldi. Qalmoq podshosining oldidagi alplar, otlilar, polvonlar qarasa, yigirma-o‘ttiz kishi katta kunatta salsa o‘ragan, uzun-uzun choponlardan kiygan, bularning kiygan kiyimi, jasadlari bu shaharlarning odatiga, bu joylarning odamiga o‘xshamaydi. Shunda bo‘lsa ham, Toychixon podsho otiqliqlarga:

– Kim bo‘lsa olib kelinglar, – deb olib borib, ko‘shkida mehmon qildi. To‘sak tashlab, otlarni boylab, yaxshi joyga joylab, dasturxon taylab, hurmatlab mehmonini, yozib dasturxonini, ustidan taylab oq bug‘doy nonini, o‘rtoqlik nuri sizu biz, yana ustidan tayladi soyaki mayda mayiz, taom jo‘natdi izma-iz, havo salqin daryo gum, zo‘r oldida kam zo‘rning harvaq[t] ko‘rsangiz bo‘yni xam, la’lichada tutayotir chaqilgan pista-bodom, podsholikda nima kam, tag‘in qatnaydi dam-badam, tortildi qancha taom, mahram qo‘lida tilla jom ekan idish-tovoq. Mehmon qilib shuncha kishini, bu chorvador boylar obod ko‘rdi Toychixon podshoning qo‘shini. La’lichada olib kelyapti sof devzira guruchdan sevgan oshini, yana la’lida olib keldi qovurgan kabob go‘sh[t]ini.

Alqissa, “Podshoning ko‘shkidan yaxshi ziyofat edik”, deb boylar xursand bo‘lishdi. Bir vaqt qarasa, ikkita cho‘pon saf shirboz qo‘zidan besh yuztasini haydab kelibdi. Podshoning oldida turgan Tunjirxon de gan mahramiga Yortiboy oqsoqol:

– Podshoni ko‘rgani kelganmiz. Shuning uchun sovg‘a qilib o‘zimizda boridan olib keldik, – dedi. Tunjirxon mahram podshoning oldiga kirib:

– Bular ko‘chmanchi Chorvador xalqiga o‘xshaydi. Shuning uchun sizni ko‘rgani besh yuzta shirboz semiz qo‘zi sovg‘aga olib kelibdi, – dedi. Podsho aytdi:

– Mahramlar, yaxshi hurmatlab kelibdi-da, ikkita-uchtasini oldimga olib kiring, gap so‘raylik bulardan.

Turjirxon mahram:

– Qani, uchta-to‘rttangiz bilan podsho gaplashar ekan, kiringizlar. Biz bilan bila yuringizlar. Podshoning oldiga kiringizlar, odob bilan turingizlar. Agar gap so‘rasa, yaxshigina javob beringizlar. Bizning podshoni ham ko‘ringizlar, – deb ergashtirib bordi. Podsho qaradi. Shunday peshanadan boradi. Ichkariga kiradi. Podshoga salom beradi. Toychixon podsho ko‘radi. Katta kunatta salsa o‘ragan, uzun-uzun to‘n kiygan, bu joylarning odamiga mengzamaydi. Qaysi joydan, qaysi shahardan ekanligini bilmadi. Podsho:

– Endi sizlar bilan tanishaylik, – deb bularga bir so‘z aytib qichqirib turibdi:

Malol olmang, gap so‘raymiz sizdan bizlar,
Qaysi urug‘, qaysi xalqsizlar?
Men aytsam sizlarga yorug‘ oylardan,
Asli sizlar o‘zi qaysi joylardan?

250

Gullar ochilar bahordan,
Bulbullar sayrar sahardan,
Asli sizlar qaysi shahardan,
Keldingiz tog‘u cho‘llardan,
Qaysi urug‘, qaysi ellardan?

29

Bog‘larning xizrab bitgan bodomi,
Bu erlearning odamiga o‘xshamaysizlar nodami,
Endi sizlar qaysi mamlakatning odami?
Bugun kelib, bizga mehmon bo‘ldingiz,
Nasiba tortib qanday joydan keldingiz?

260

Kelishingiz uzoq manzil yo‘llardan,
Xayolima kelib tog‘u-cho‘llardan,
Asli sizlar qaysi urug‘-ellardan?
Boshqaga o‘xshaydi gapirgan so‘zingiz,
Uzun-uzun kiyim kiygan o‘zingiz.

Yortiboy oqsoqol podshoga bir so‘z deb turibdi:

Bepilik yonmaydi chiroqning moyi,
Boquvdan etilar tulporning toyi,
Arzimiz bor sizda, Qalmoqning shohi,
Turnalar ayrilib chiqibdi xildan,
Bizlar kelib qoldik uzoq yo‘ldan.
Kelishimiz so‘rsang, Orqa yurt cho‘ldan,
O‘zimiz o‘zbek qo‘ng‘irot eldan.

- 270 Kelishimiz so‘rsangiz uzoq joydan,
Boshimiz chiqmadı qayg‘u-o‘ydan,
Siz gap so‘rasangiz, bizlar chorvador boydan.
Biz keldik tog‘laru adirdan oshib,
Chilbir degan cho‘lga kelgandik tushib,
Ham yuradigan yo‘ldan qoldik adashib,
Necha tog‘u-toshlardan keldik o‘tib,
Bu Chilbir degan cho‘lga nasiba tortib,
Cho‘ponlarni haydadi oldiga tushib.

- 30 280 Baland tog‘lar bag‘ri bo‘lar bo‘ktar qor,
Podshoyim, qulq soling, sizda arzim bor.
Hozir sizga bo‘lib kebmiz gunohkor.
Chilbir Cho‘liga kelgandik qo‘sixona tashlab,
Odamlaringiz cho‘ponlarni oldi ushlab,
Urib haydadi kallaga mushtlab.

- 290 Cho‘lda xalqingiz qo‘ylarni surib,
Cho‘ponlarni ko‘p haydadi tayoqlab, urib,
Ba‘zilarining kallasini urib **yorib**.
Nima uchun bu cho‘lga endi kebsan, deb,
Butun ekinlarning barini ebsan, deb.
Cho‘ponlarni bosib boylab,
Oldiga solib haydab,
Gunohkorsan, deb kallaga qamchi taylab.

Chilbir cho‘l ekan bir dashti sahro,
Agar qabul qilsangiz biz ham sizga kunyora,
Olisda qoldi joyimiz,
Biz chorva, cho‘l boyimiz.
Mingcha bor qora uyimiz,

Biz ham Qo'ng'irot elimiz.
Chorvamiz ko'pdi[r] molimiz,
Qanday bo'ladi holimiz?

300 Keldik Chilbir cho'lingizga,
 Oshib Qalmoq elingizza.
 Nima bo'lsa podshohim,
 Ixtiyorimiz qo'lingizda, – deb arz qiladi. Qalmoq shohi bularning so'zidan ham o'zidan gap so'ragani tushunarli bo'ldi. Bular olis joydan kelib, Chilbir cho'liga qo'ngani, bularni Qalmoq xalqlaridan biroz izza ko'rib, kelib arz qilgani ma'lum bo'lgandan keyin:

– Sizlarning cho'ponlaringni kim urib, kim surib haydab keldi bu erga, – dedi.

Tunjirxon mahramni chaqirib:
– Kim bularni haydab kelgan, – deb so'radi. Tunjirxon mahram haydab kelgan dehqonlarni:
– Bu erga kelinglar, – deb chaqirdi. Ular bordi. Podsho qaradi. Bular dan gap so'radi.

– Uzoq joylardan ko'chib kelgan Chorvador xalqlar ekan. Nima uchun bularning cho'ponlarini urib, qo'ylarini surib azob berdilaring? – dedi. Bular aytdi:

– Ekinlarga mollarini qo'yib yuboribdi, ekinlarni eb ketibdi. Shuning uchun sizning oldingizga olib keldik. Nima chora ko'rsangiz, o'zingiz bilasiz-da, – dedi. Yortiboy oqsoqol aytdi:

– To'g'ri, bizning ba'zi bir cho'ponlarimiz chorvador xalq bo'lib, biday cho'lda qo'y boqib yurib, ba'zilari bosh tortmagan maysa ekinni o'tdan ayira olmaydi. Shuning uchun ham bilmasdan qo'ylarga ekin ni edirgan bo'lsa kerak. Bo'lmasa, ko'ra-bila, qasddan ekinni qo'yga edirmaydi. Shunday bo'lib sizga kelgan bo'lsak, nima desangiz, o'zingiz bilasiz. Podsho aytdi:

– Sizlar bir yoqqa ko'chib ketmaysizlarmi? Yortiboy oqsoqol:
– Ketib qayoqqa boramiz, el bo'lsa, o't bo'lsa, suv bo'lsa, o'tirav eramiz, fuqaromiz-da. Biz ketib qayoqqa boramiz? – dedi.

Endi Qalmoq podshosi haydab borgan yigitlarga:
– Shunday ekan, bular uzoq yo'ldan, Uzbek eldan kelgan chorvador xalq ekan. Dehqonchilik ish bilan shug'ullanmagan ekan. Bularning ota-bobosi chorvador xalq ekan. Shuning uchun ham bularnikini o'til qilaylik. Ming ta uy bo'lsa, ko'p xalq ekan. Ko'rgan zararlaringizni, mol egan ekinlarin-gizni[ng] oliq-solig'ining bir yilligini o'tib yubordim, – dedi. Dehqonlar:

-
- Xo‘p, bo‘pti, – deb ketdi.
 Ana endi bularni podsho oldiga chaqirib:
 – Endi qo‘ng‘irot boylar, Chilbir cho‘lim keng chorvaning joyi. Sizlarga Chilbir cho‘lni berdim. Elga el kelsa, elning davlati, eldan el chiqsa, elning mehnati, degan gap bor. Biz yana shuncha xalq bo‘lsa ham, **bakar ketadi**, deb ana sizlarning yetti yilgacha zakot-boj, ixrojla-ringizdan ham kechib yubordim. Chilbir cho‘lni joylab, otlarni boylab, bahuzur yotaveringizlar, – deb polvonlardan uch-to‘rt kishini
 – Chilbir cho‘lining hamma joyini ko‘rsatasiz, – deb hamroh qilib yubordi. Shunday qilib, bular Chilbir cho‘lida joylashib qoldi.

Chorva o‘sadigan joy ekan, yil-yildan chorvalari o‘sib, hammalar to‘q bo‘lib, dimog‘lari chog‘ bo‘lib, Chilbir cho‘lini Bo‘stonobod qildilar. Qalmoq podshosining odamlari ov-ovlab, ovdan qaytganda Boysari boynikiga kelib tushib, ziyofat eb ketar edilar. Qalmoq podshosi bularga avvalgi aytgan gapiga binoan, oliq-soliq demasdan keldi. Bular shundan etti yil Chilbir cho‘lda yashadi. Bir kuni podshoning uchta odami ovdan kela turib Boysarinikiga tushdi. Bittasi xazinachi, bittasi tug‘achi, bittasi dasturxonchi. Bularning otini yugurib boylab, to‘shak taylab, oq o‘tovga joylab, qo‘y so‘yib siylab, bir kecha yotdi, ertasiga tong otdi. Choy-poy ichib jo‘nashga harakat qilayotgan edi. Boysariboyning qiziga to‘satdan mahramlarning ko‘zi tushib qoldi. Oybarchin ham jamoli oyday to‘lgan edi. O‘n to‘rt-o‘n beshlarda edi. O‘zi ham boyning qizi emasmi, juda ham kelishgan chiroyli edi. Tugarak, ovqi ko‘zli bir muncha nozli, shirin tilli, labi xolli, nozolim, mohitabonbon, yuzi oyday bo‘lgan, qoshlari yoyday bo‘lgan, gardani nayday bo‘lgan qiz bola edi. Ammo uchta mahram: “Oyning ajoyib qizi bor ekan-da”, deb bir-biriga ajus qilishdi. Bular bu erdan turib, otlanib ketdi. Qalmoq shahriga etdi. Qalmoq podshosining oldiga kirib bordi. Podsho aytdi:

– Qani, mahramlar, qayoqdan keldilaring? – deb so‘radi. Uchalasi podshoga bir so‘z deb turibdi:

Bizlar minib sap olma ko‘z bedovga,
 Sayil qilib chiqqandik ovga,
 Ov soldik borib Zil tovga.
 Sayr qilib endik Chilbirday cho‘lga,
 Kecha mehmon edik Qo‘ng‘irot elga,
 Mehmon bo‘lib tushdik Boysariboyga.
 Chilbir cho‘li to‘lib qobdi,

Sap chorva qo‘yga,
Ham oq buzarda qora uyg'a.

Bizning yugurib otimizni boyladi,
Sap ozoda to‘saklar tayladi.
Baxmaldan yopilgan o‘tovga joyladi,
Tong otguncha ziyofat qilib siyladi.

320

Mehmon bo‘ldik, borib boyning o‘ziga,
Lekin ko‘zimiz tushib qoldi suluv qiziga.
Boyning qizi shunday suluv qiz ekan,
Bir nozalim uzuk, oftob yuz ekan.
Qoshlari misli yoyday ekan,
Jasadi o‘n to‘rtga to‘lgan oyday ekan.
Tomosha qildik chorvalarning barini,
Ko‘rib qoldik boyning zulfakdorini,
Hech erda ko‘rmagan edik,
Shunday nozolim parini, – deb podshoga boyning qizini
mahramlar juda maqtadi.

– Chunki bir ko‘rganning aqli lol bo‘lmasdan iloj yo‘q, – dedi. Podshoning ko‘ngli shunday hurullab ketib qoldi:

– Endi, mahramlar, boy qizining kuyovi bormikan yoki bo‘ymikan? Mahramlar aytdi:

– Unchasini bilmadik. Lekin juda xushro‘y qiz ekan. Podsho aytdi:
– Bo‘lmasa, sizlar yana bir boringizlar, qani, bir kecha yotib, qo‘ng‘irot chorvadorlarining kattalarini chaqirtirib, bir maslahatimiz bor, deb hammasini to‘plab, sekingina, yaxshi, shirin so‘z bilan tu-shuntiring, borib,sovchi bo‘lib keltinglar, – deb buyurdi. Uchta mahram ikkinchi kuni yana boynikiga tushib, mehmon bo‘ldi. Bahuzur bu kecha ziyofat eb yotdi. Ertalab tong ham otdi. Endi mahramlar Boysariboyga bir-ikki og‘iz so‘z deb turibdi:

330

Ul tabama bul taba,
Bu dardlarga bormi davo?
Maslahatimiz, boy bobo,
Biz keldik, bobo, sizga.
Maslahat bering bizga,
Quloq soling aytgan so‘zga.

33

Keldingiz Qalmoq joylarga,
Siz kattasiz ming uylarga,
Xabar yuboring boylarga.
Keldingiz Chilbir cho‘llarga,
Xabar yuboring ellarga.

340

Boqildi bedov otimiz,
Bugun bor maslahatimiz,
Erisin tog‘ning qori,
Chilbir cho‘lni joyladingiz.
Yetti yillardan beri,
Tezroq etib kelsin,
Gapga etarning bari.

Boysariboy endi bularning gapi mazmunidan o‘z ichida aytdiki: “Bularni podsho yuborganga o‘xshaydi. Chunki bu yildan podsho boz-zakot olishi kerak”, – deb darrov ovul-ovulga, **dush-tushiga** ot choptirib yubordi. Ikki-uch soat ichida soyda-qirda o‘tirgan chorvador boylar otlanib kelaverdi. To‘p-to‘p, ko‘p kuno‘p bo‘lib kelaverdi. Hammasi kelib bo‘lgandan keyin mahramlar bilan so‘rashib, ko‘rishib turibdi. Chorvador boylar bu odamlarning nima ishga kelganini bilmay, hayron bo‘lib turibdi. Endi mahramlar bularga qarab:

– Chorvador xalqlar, qo‘ng‘irot ellar, sizlar bilan bugun bir maslahat qilgani keldik. Shuning uchun yaxshi tinglab turasizlar, – deb nima ish bilan kelganligini aytib turibdi:

O‘n to‘rtda to‘ladi osmonda oylar,
Siz kelib joylashdingiz Qalmoqday joylar.
Chilbir cho‘lga qator tikildi oq uylar,
Cho‘lni bosib yetibdi tuyu-qo‘ylar,
Maslahatimiz bor sizlar bilan chorvador boylar.

350

Sizlar joylashdingiz Chilbirday cho‘llar,
O‘tib ketdi oradan yetti yillar,
Cho‘llarni bosib ketdi chorva mollar,
Maslahat bor, sizlar bilan chorva ellar.
Sizlar joylashdingiz sahro-dashtlar,
O‘tib borar necha yozu necha qishlar,
Sizlar bilan maslahat bor, qardoshlar.

-
- Maslahatimiz sizlar bilan shu bo‘ldi,
Sizlarga makon Chilbir cho‘l bo‘ldi,
Hisoblasangiz, qardoshlar, yetti yil bo‘ldi.
- 360 Endi birgalashib, bir maslahat qilaylik,
Bir-birimizning qadrimizni bilaylik,
To‘y-tomosha qilib o‘ynab-kulaylik,
Bir-birimizga qiz berishib, qiz olaylik.
Maslahatni bugun shunday qilishib,
Qalmoqda yashaylik o‘ynab-kulishib,
Bir-birimizga qiz berishib, qiz olishib,
Bir-birimiz qadrimizni bilishib,
Sizlar ham ketingizlar bizlarga aralashib.
- 370 Bugun maslahat so‘ragani keldik sizlardan,
Sizlar ham qiz oling borib bizlardan.
O‘zlarining bilasizlar Qalmoq shohini,
Sizlarga berdi-da Chilbir joyini.
Qalmoqda qilaylik o‘g‘il-qizlarning to‘yini,
Tomosha bo‘lsin-da ellar o‘yini.
- 380 Kelishimizni sizlarga qildik bayon,
Bu gaplarni eshitdilaringiz ayon.
Bir-birimizga bo‘laylik tog‘ayu jiyan,
So‘zlar gapiraversak bo‘lmaydi ado.
Qiz berishib, qiz olishda sizlarda qanday rasmi qida,
Bugundan boshlab bir-birimiz bilan bo‘ldik quda.
- Quloq soldilaringizmi mahramlar so‘ziga,
Tushundilaringizmi gapning iziga,
Biz avval sovchi bo‘lib keldik boyning qiziga.
Piliksiz yonmaydi chiroqning moyi,
Hammangiz ham davra ko‘rgan cho‘l boyi,
Bizni yubordi u – Qalmoq ning shohi.
- Bir-birimiz qadrimizni bilganmiz,
Otti yildan bermag‘on qadrdon ham bo‘lganmiz,
Boy boboning qiziga sovchi bo‘lib kelganmiz.
Erkin davr suringizlar,

Maslahat qib ko‘ringizlar,
Agar lozim topsangizlar,
Boyning qizini beringizlar.
Bilmadi qayg‘u-o‘yini,
Bilasiz Qalmoq shohini,
Haydab kelamiz to‘yini.

Mahramlardan bu so‘zlarni eshitgan chorvador xalqlar xabarsiz kel-gandi, yig‘ilib, hammasi erga qarab qoldi. Nafsi qiyilib, qobog‘i uyilib, kelgandi bari jam bo‘lib, biron og‘iz gapirmasdan hammasi qoldi dam bo‘lib, erga qarab bo‘yni xam bo‘lib.

Mahramlar chorvador boylarning bir narsa deya olmasdan erga qarab qolganini bilib:

– Bo‘lmasa, o‘zlarining maydonga chiqib, bir maslahat qilib, ishning bo‘lar-bo‘lmasi haqida bizlarga bir va’da beringizlar, – deyishdi. Ikkov-uchov, beshlab-o‘nlab maydonga chiqib ketaverdi. O‘zлari hammasi bir joyga to‘p bo‘lib, yig‘ilishib, ko‘p bo‘lib, o‘zaro maslahatga kelishdi. Yortiboy oqsoqol Boysariboyga:

– Qani, boy bobo, mahramlar gapining mazmunini angladizingizmi, nima deymiz endi? Bular podshosi uchun Barchinoya sovchi bo‘lib ke-libdi, bularga nima javob aytamiz endi? Siz bularga javob bering, – dedi. Boysariboy rangi so‘lib, ko‘zi yoshga to‘lib:

– Men nima deyin. Menden bugun nima deyishni so‘ramanglar, – deb qarindoshlariga yig‘lab, bir-ikki og‘iz so‘zlab turibdi:

Bino bo‘lmasin-da boshim,
Keksaribdi endi yoshim,
Ketib qoldi aql-hushim,
Sadqa bo‘lay, qarindoshim.
Qulq solgin tengi-to‘sishim,
Chapga aylanganday ishim.

Qurmadi-da qizil tilim,
Boysariga bersin o‘lim.
Shunqor tepib sindi belim,
Qalmoqdan ko‘rgudayman zulm.
O‘zlarining bil, qavmi-elim,
Sarg‘ayganday endi yuzim.
Endi o‘yilsin-da ko‘zim,

-
- 410 Eldan ayrilib o‘zim,
Boysariga o‘lim lozim.
- Eridi tog‘ning qori,
Kelgandi qarindoshning bari,
Yig‘laydi bobo Boysari:
– Yetti yillardan beri,
Kelmadi akam xabari.
Boybo‘ri bormikan tiri[k],
Qolib ketgan xeli-xeshim,
Endi qanday bo‘ldi ishim?
Biroq, xabari bo‘lmadi,
Boybo‘riday emikdoshim.
- 420 Bekor chiqibman elimdan,
Qutulish qiyin zamonda,
Barchinjon ketsa qo‘limdan,
Menga qattiqdi[r] o‘limdan.
- Mustar bo‘b qoldi eli,
Ketdi Boysarining so‘li.
Hammang bilasan, elatim.
Bag‘sida akamning uli.
- 430 Bekor chiqdim-da joydan,
Akam Boybo‘riboydan,
Ayrilsam Barchinoydan.
Nasiba tortdi bunda,
Qolgan bunday qattiq kunda.
Gap so‘rama elatim,
Boysari yurmasin zinda.
- 440 Bekor bo‘ldi kelishim,
Kim deb qadrin bilishim,
O‘zing bilgin, xelu-xeshim.
Lozim bo‘ldi-da o‘lishim.
- Adashibman yurgan yo‘ldan,
Davlatlik og‘ir eldan.

Erka qizim ketsa qo‘ldan,
Ahmoqlik qilibman avvaldan.

450

Qora ko‘zdan qora yoshi,
Qator-qator eshilib.
Endi yig‘ladi Boysari,
Yurak-bag‘ri teshilib:
Bekor kelibman, elatim,
Boy og‘amdan cheshilib.
Musofirlik bilinib,
Yig‘laydi bag‘ri tilinib.
Bekor keldim, elatim,
Boy og‘amdan bo‘linib.

460

Ayrilib xeli-xeshdan,
Maslahat tengi-to‘shdan.
Biron xabar bo‘lmadi
Boybo‘ri emikdoshdan,
Ham yo‘lbarsim Alpomishdan.

470

Yig‘laydi bag‘ri kavob,
Ko‘rsam qilayin tavob.
Kelib qolar Hakim yo‘lbarsim,
Qanday aytaman javob?

Gumbirlar tog‘larda dara,
Sum yurakning go‘shti pora.
Juda olis yo‘li ora,
O‘zlarining ko‘ringlar chora.
Shul Hakimday yo‘lbars kelsa,
Bo‘larmenmi yuzi qora?

Qolmayin yo‘lida qarab,
Alpomishim kelsa so‘rab.

Alqissa, Boysari atrof-boshiga qavmi-qarindoshiga bir dardini aytib, bedor bo‘lib yig‘ladi.

Oybarchin oq o‘tovdan, japsarni yorib qarab turgan edi. Nodir elbegi, kuchar elbegi, Yortiboy oqsoqol, Shodmon mergan, Chuvdoli so‘pilar to‘p bo‘lib turibdi. Otasining bularga qarab yig‘lab turganini Barchin ko‘ribdi. Oybarchin kanizak qizdan otasini chaqirtirdi. Asta-sekin Boysari odamlar o‘rtasidan chiqib, qora uy eshigiga ravona bo‘ldi. Baxmal banotdan yopilgan o‘tovning oldiga keldi. Oybarchin qaradi, xafa bo‘lib boradi. Sekin otasini oldiga chaqirib:

– Ota, nima gap bor, – deb so‘rab turibdi:

480 Qayg‘udan ko‘p bo‘ldi o‘yim,
Sarg‘ayganday rangi-ro‘yim.
Boy otam ham qiblago‘yim,
Ko‘rgandaysiz jabri jafo,
Nima uchun bo‘ldingiz xafa?
Xalqlarga nima yig‘lab,
O‘zingizga o‘lim tilab?

39

Yig‘ilib atrof-boshingiz,
Ko‘zdan oqibdi yoshingiz?
Nega yig‘laysiz, bek ota,
Ezilib yurak to‘shingiz?

490 Keldingiz Qalmoqday joyga,
Siz kattakonsiz ming uyga,
Nima gap bo‘b chorvador boyga,
Dardingni yor Barchinoyga.

Ko‘chib kelib Qalmoq elga,
Ham desa bu Chilbir cho‘lga.
Nima bo‘ldi Qo‘ng‘irot elga?
Gapiring-da, Barchingulga.

Oy tug‘ib shul’asi urib yuziga,
Sitam o‘tganday Boysarining o‘ziga,

500 Endi dardini yorib Barchin qiziga:

– Sarg‘aydi bugun yuzim,
Qalmoq elga kelib o‘zim.
Endi o‘yilsin ko‘zim,
Otangga o‘lim lozim,
O‘lsin otang, ardoq qizim.

Davrimda qolganday chalam,

Qalmoqqa etmaydi xalam.
Ovul-ellardan ayirdi
Yaratgan Olloh taolom,
Otang o‘lsin, jonim bolam.

510

Qalmoq yurtdan keldim menam,

Endi o‘lsin g‘arib tanam.
Qalmoqlardan sovchi keldi,
Otang o‘lsin, jonim enam.
Sitam qilib Qalmoqning kori,
Kimga etar otangning zori?
Qolib ketgan og‘am Boybo‘ri,
Yetti yillardan beri,
Biror bo‘lmadi xabari.

520

Sahroda ot elmadi,
Yo‘lbars mulla Hakim kelmadi,
Uning xabari bo‘lmadi.

Alqisa, Oybarchinga Qalmoqdan sovchi kelib, otasining ahvolini tang qilgani bilindi. Otasining ko‘nglini xushlab, yuragiga tatildirik berib, Oybarchin bir so‘z deb qichqiryapti:

Oftob bo‘lmay qizil gullar so‘larmi,
Qazo etmay, qashqa chivin o‘larmi?
Ming uyning boshliq boyi sizday bo‘lama,
Uning uchun, yo‘lbars otam, yig‘lama,
Bu yig‘lagan Qalmoqda foyda qilama?

Osmon ayoz bo‘lsa, havoning tegi ko‘k,
Bu yig‘lashdan, bu Qalmoqda foyda yo‘q,

-
- 530 Buning uchun xafa bo‘lma, ota bek.
Hova jovsa har soylardan kelar sel,
Obod bo‘lib yotar Chilbir cho‘l,
Nima maslahat berdi bu Qalmoqqa kelgan el?
- Uqripadi cho‘lda chopgan bedov ot,
Atrofdan bosib kelgan elat,
Sovchilarga berdi nima maslahat?
Suvning boshi taram-taram,
Tepa sochim to‘qqiz buram,
Badavlatli bokaram,
Xafa bo‘lmang, boy otam,
Kelib qolar yo‘bars to‘rang.
- Mingani tulpor pirog‘im,
Jaybir joyli yarog‘im,
Shu kunlarima keragim,
O‘pka bilan yuragim,
Orqa, bo‘ksa, ko‘kragim,
Rustamday yo‘bars tirkagim,
Xafa bo‘lmang, bek ota,
Kelib qolar sohibdaragim.
- 550 Oq ayildagi tug‘am,
Oq sovut to‘ndagi yoqam,
Bulbul qush qo‘ngan yoqam,
Xafa bo‘lmang-da, boy otam,
Kelib qolar-da bosh egam.
- Ot chopib tog‘u cho‘llarga,
Safar qilib uzoq yo‘llarga,
Izlab kelsa shu ellarga,
Kelib qolar Chilbir cho‘llarga.
- 560 Minar bedov tulporning beliga,
Jaybir-yoy tutib qo‘liga,
Izlab kelib qolar eliga,
Xafa bo‘lmang-da, boy ota,
Qolmasman Qalmoq qo‘lida.

Oybarchinning otasiga aytgan gapi Boysarini juda quvontirib, yuragining g‘amini chiqarib, juda xursand qilib yubordi. Oybarchin otasiga:

– Sovchilarga nima maslahat berdingiz, shundan gapiring, – dedi. Otasi:

– Qizim, hech maslahat bermadik, chorvador boylar menga qaradi, men erga qaradim, nima deyarmizni bilmadik, – dedi. Endi Oybarchin aytdi:

– Ota men maslahat bersam, bo‘ladimi? – dedi. Boysari:

– Qani, gapir qizim, – dedi. Barchin:

– Ota, bo‘lmasa, sovchilarga shunday deyish kerak: Yaxshi kelibsizlar, binoyi kelibsizlar. O‘zlarimizning ham shunday maslahatimiz bor edi. Qalmoq podshosi bizlarga yaxshi qarashdi. Bizlarga boj-zakot, oliq-soliqdan rayo qildi. Yetti yildan bermag‘on Chilbir cho‘lini bizlarga berib, juda chorvalarimiz o‘sib ketdi. Endi bular bilan qaytadan qarindosh, quda bo‘lish, o‘ynab-kulish, qiz berib-qiz olish qilaylik, degan edik. “Juda yaxshi bo‘libdi”, deyish kerak. Tag‘in qo‘pol gapirib, “biz sizlarga qiz berib, qiz olishmaymiz, quda-bilish bo‘lishmaymiz”, deyilmasin. Yo bo‘lmasa, “sizlar sovchi bo‘lsangiz, sizga boyning qizini berdik”, deyish ham mumkin emas. Olti oy muhlat so‘rash kerak. Olti oygacha bizlar ham maslahat qilaylik. “Ko‘p xalqomiz, olti oydan keyin qiz berib-qiz olishni boshlab yuboramiz, deyish kerak”, dedi.

Boysari Barchindan bu gapni eshitib juda xursand bo‘b ketdi. Ana endi chorvador boylar, to‘p bo‘lib borib sovchilar bilan Yortiboy oqsoqol gaplashayapti. Sovchilar aytdi:

– Qani chorvador boylar nima bo‘ldilaringiz? Yortiboy oqsoqol sovchilarga:

– Biz shunday maslahat qildik, – dedi.

– O‘zimiz ham endi siz bilan qiz berib, qiz olishlikni maslahat qilgan edik. Bizning Chilbir cho‘liga kelganimizga yetti yil bo‘ldi. Yetti yildan buyon bizlarga oliq-soliq, zakot demadi. Endi sizlar ham biz bilan quda, jiyani, yaxshi kelibsizlar, biz ko‘p xalqomiz. Boysaribiy hammamizning kattamiz. Shuning uchun bosh adoqlarimizga, xalqimizga maslahat solib ko‘raylik. Endi sizlardan iltimosimiz, olti oy muhlat berasizlar, olti oydan keyin qiz berish, qiz olish, quda bilish, bo‘lish, to‘y-tomoshamizni boshlab yuboramiz, – deb javob berdi. Sovchilar aytdi:

– Juda to‘g‘ri, xo‘b bo‘libdi. Sizlar ham bizlardan xohlagan qizlar ringizni olingizlar. Bir-birimizning qadrimizni bilamiz, to‘y-tomosha qilamiz, o‘ynab-kulamiz, – deb xayrashib, otlanib ketishdi. Sovchilar ketgandan keyin bir muddat o‘tib Boysariboy o‘z atrofidagi qarindoshi bilan maslahat qilib, bir so‘z deb qichqiryapti:

Quloq soling so‘zima, tengi-to‘shlarim,
Og‘irga aylanganday bo‘ldi ishlarim,
Quloq solinglar so‘zga, qarindoshlarim,
Makonimiz Chilbir cho‘Ining sarasi.
Olis qoldi Orqa yurtning orasi,
Sovchilardan oltoy muhlat oldingiz,
Endi nima bo‘lar ishning chorasi?

570

Boysarining beti endi qotadi,
Oltoy degan bir faslda o‘tadi,
Boybo‘riga qachon xabar etadi?
Xabarchi bo‘b bu erdan kim ketadi?
Boysaribiy atrof-boshga qaradi,
Boybo‘riga kim xabarga boradi?
Borar kishi bormi deydi, so‘radi.
Arzi-dodim Boybo‘riga aytguday,
Harna tezroq borib qaytguday,
Kim boradi xabarchi bo‘b ketguday?

580

Harna muddatidan olti oy o‘tmasa,
Chopag‘onchi bo‘lib birov ketmasa,
Bu ahvolim Boybo‘riga aytmasa,
Muhlat bitmay, Barchinni olib ketmasa.

43

590

Turna izlaganday o‘zining xilini,
Dog‘di odam borsa bilar yo‘lini,
Tez yuborsa Alpomishday ulini,
Borib aytsa Boysarining dodini,
Cho‘llarda chopguday bedov otini,
Qo‘limdan ob ketsa omonatini.
Yordam dedim, men sizlarday elimdan,
Shunqor keb tepmasa yaxshi belimdan,
Nima bo‘lsa olib ketsa qo‘limdan.

Boysaridan so‘z eshitgan qarindosh atrof-boshlari:

– Mana biz boramiz, Alpomishga biz xabar beramiz, – deyolmay jim goldi. Ba‘zilari Boysaribiyga eshittirmay:

– O‘zları, Boysaribiy, orqa yurtdan ko‘chayotganda qancha qarindoshlar yig‘lashib, “ko‘chma”, deb izidan ergashib, bir kun yurganda

hech iziga qaramagan edi. Endi biz qaysi bet bilan, qaysi yuz bilan borib, Boybo‘ri boboga qaysi bet bilan bu so‘zлarni gapirolamiz? Qalmoq eliga ko‘chib borgan edik. Qalmoq podshosi Oybarchingasovchi bo‘lib, bizlarning ahvolimizni tang qildi. “Boysaribiyning qizini berasan, bermasang, kuningni ko‘rasan, biyning qizini olaman, bo‘lmasa yetti yillik zakotni olaman” deb yotir, deb aytolamizmi? Betimizga ko‘p bir toba gap gapisadi. Boybo‘ribiy aytadi: “Ko‘r bo‘l, bundan ham battar bo‘l. Bu erda elat bir kun izlaringdan ergashib yig‘lab yurgan edi. So‘zingni olmasman, bir chaqaga, aytgan so‘zлaringga yurmayman. “Endi bu joyda turmayman. Boybo‘rining o‘g‘liga qizimni bermayman. Alpomishga bergandan daryoga tashlab yuboraman”, deb ketgandinglar. Endi nima uchun keldilaring? Tur, yo‘q bo‘l, ko‘zimga ko‘rinma. Qaerdan kelgan bo‘lsang, shu erga yo‘q bo‘l”, deb, avvalo, o‘ldiradi, o‘ldirmasa ham uyaltirib, rangimizni so‘ldiradi, qayta yurakni g‘amga to‘ldiradi. Obro‘imizni to‘kib, qamchilab haydab yuboradi. Shunday obro‘yim to‘kilgandan ko‘ra, bormasak-chi, – deb to‘zishib ketdi.

Boysari juda susqini qiyilib, alami yurakka yig‘ilib qoldi. Uyiga borib, yig‘lab, xafa bo‘laverdi. Boysarining xotini Oytug‘mish:

– Ha, chol, nimaga xafa bo‘lyapsiz? – deb so‘radi. Boysari xotiniga:

– Ke qo‘y, dardimni qo‘zg‘ab, gap so‘rama. Bu ishlar avvalda sendan bo‘lgan edi. Meni eldan, qavmu qarindoshdan, aka-ukadan, ini-og‘adan bezdirib, ayirib, ko‘chirgan sen eding-ku. Kuntug‘mish bilan yulishib, shattalab, “Tenasi-tentak, kallasi katta, kalpan Alpomishingga qizimni bermayman”, deb ishni sen boshlab eding-ku avvaldan. Endi ko‘r bo‘l, battar bo‘l, qizingni qalmoqqa ber. Endi qavmi-elat, qarindoshni, Boybo‘riday emikkoshni menga ko‘rvu bormi, yo‘q, – deb yig‘layverdi. Oytug‘mish ham juda xafa bo‘lib yig‘ladi. Kun ham kech bo‘lib qoldi. Namozshomdan ham o‘tib ketdi.

Cho‘lda cho‘pon qo‘y boqib yurar edi. Uning otini Elomon der edilar. Elomon sag‘ir bola edi. Ota-onasi yo‘q. Boysari, Boybo‘rining uyi-da uloq-qo‘zi boqib, ota-ona, deb ketgan edi. Endi xadimi, katta polvon bo‘lib, qo‘y boqib yurgan edi. Qo‘yni dashtga, qaqvatga tashlab, “non ob kelayin”, deb keldi. Kelsa, Boysari bobo, Oytug‘mish momo ikkovi yig‘lab o‘tiribdi. Elomon qarab, xafa bo‘lganini bilib:

– Ha ota, nimaga xafa bo‘ldingiz? – deb so‘radi. Endi Boysari Elomonni ko‘rib, joyidan turib, yurak-bag‘ri erib, bu arzini aytib turgan joyi:

So‘lgandayin qizil gulim,
Boshima qorong‘i zulm,

600

Elomonjon, jonio ulim,
Qarindoshga o'tmay so'zim,
Termulib, qoldi-da ko'zim,
Yoshligida boqqan qo'zim,
Bobongga o'lim lozim.

Shu vaqt tang bo'ldi holim,
Ketib qoldi toza galim,
Olisda qolib ketgan elim,
Qaramadi qarindoshim.
Ezildi jigar go'sh[t]im,
Chapga aylanganday ishim.
Attang, olisda qoldi,
Boybo'riday emikdoshim.

610

Gapim qulooqqa kirmadi,
Boybo'rige xabarga
Biron kishi bormadi.
Topilmay dardning darmoni,
Qoldi ko'ngilning armoni.
Xabar bersa kelar edi,
Alpomishjonday polvoni, – deb yig'lagandan so'ng, El-
omon ham xafa bo'ldi. Elomon aytdi:

45

– Ota, xafa bo'lman, hech shuncha qarindoshdan biron kishi borma-
gan bo'lsa, mana men tayyor, – deb turgan joyi:

Etakni belga chotaman,
Chopsam, otdan o'taman.
Xafa bo'lman, biy ota,
Mana men o'zim ketaman.

620

Etakni belga cholaman,
Tayoqni qo'lga olaman.
Mana ketadi Elomon,
Etakni belga cholaman,
Yo'lini o'zim bilaman,
Xabarni o'zim qilaman,
Alpomishni olib kelaman.

Oshaman tog‘larning belidan,
Necha buzuq yo‘lidan,
Alpomishni olib kelsam,
Olar qalmoqlar qo‘lidan.

Men ketaman Boybo‘riga,
Tortib tog‘larning o‘riga,
Barchin singil xabariga,
O‘zim xabarni beraman,
Bor sevikli yoriga.

Chopsam, otlardan o‘taman.
Quvsam, olini etaman,

Men tayyorman, ketaman, – deb Elomondan gap eshit-gan so‘ng Boysari:

– Balli, o‘g‘lim, qani, unday bo‘lsa, senga ishonaman, suyanaman ham tayanaman, – deb qorong‘ulikda kampir chiroqni yoqaverdi. Kampir qora chiroqni yoqib oldiga olib keldi. Boysari oynagini ko‘ziga qo‘yib, davot-qalamni qo‘liga olib, o‘rgimchak o‘rmalaganday qilib, xat yoza berdi. “Boybo‘riga salom”, deb nima boshidan o‘tganning hammasini solib, qog‘ozni mahkam buklab, Elomonning elkasiga tikib, kampiriga:

– Kampir, endi bu er-u erga chopib biron ikki yuz non top, chunki piyodaning xaltagi non degan gap bor. Yo‘llarda, cho‘llarda och bo‘lib qolmasin, – dedi. Oytug‘mish boybicha ovullarda non qidirayotibdi. Ba’zi ovuldagi ayollar:

– Opa, nimaga non qarab yuribsiz, – deb so‘rayapti. Cho‘ponlardan biri keldi.

– Cho‘ponlar ko‘p oshib kelmaydimish, – deb bu er-u erdan ikki yuz non qoqishtirib berdi. Elomonning bir chanag‘ ko‘lbari bor. Uch yashar juvonaning terisidan bo‘lgan ko‘lbarga nonni tiqib oldi. Bir mesh suvni ham tiqib oldi. Ikki etagini belga choldi. Chanag‘ kulbarni silkib yag‘ringa soldi, tayog‘ini qo‘liga oldi. Elomonning o‘zi shunday g‘ayratli, kuchli bola, bo‘yi novcha, shilding poycha, saratonda o‘rib eydi tarvuz sapcha. Tiramohda birday so‘yib eydi serka, tuycha, o‘zi cho‘ponning sayog‘i, qo‘lida chaqqon tayog‘i, erga tegmaydi oyog‘i. Boysaribiy bilan kampiri ergashib, maydonga chiqib, Elomonga ikki og‘iz gap tayinlab turibdi:

Yuragim bo‘lmasin alam,
Elomonjon, jonim bolam.

650

Zinda bor bo‘lsa Boybo‘ri,
Mendan aytak ko‘rgin salom.

Piyoladosh sherigim,
Shu kunima sen keragim.
O‘pka bilan yuragim,
Boybo‘riga salom degin.

Elomonjon chirog‘im,
Senga ishondim o‘zim,
Yo‘lingga to‘rtdi[r] ko‘zim.
Kunduzlikka bormagin,
Kechalab borgin, qo‘zim.

Ergashayotir iziga,
Quloq sol boboning so‘ziga.
Qog‘ozimni bermagin,
Ber Boybo‘rining o‘ziga.

Qizil gulim so‘lmasin,
Borganing birov bilmasin.
Bilib qolsa og‘ir el,
Betga toba bo‘lmasin.

660

Xumor ko‘zdan oqqan yoshim,
Bilmasin boshqa qardoshim.
O‘ziga bergen xatimni,
Zinda bo‘lsa emikdoshim.

Yo‘llarda bo‘lmafigin beg‘am,
Sendan boshqa yo‘qdir egam.
Salom aytgin Boybo‘riga,
Zinda bor bo‘lsa bek og‘am.

670

Yurakda qolmasin yaram,
Ko‘ngilda bo‘lmadi oram.
Salom aytgin Boybo‘riga,
Endi bor bo‘lsa shirxo‘ram.

Qalmoqdan ko‘rmayin zulmni,
O‘ziga aytgin holimni,
So‘radi emikdoshini,
Qob ketgan xeli-xeshini,
Qanday bo‘lmasin yuborsin,
Polvon Alpomishini.

So‘ldirmasin bog‘ning gulini,
Izlasin kelgan elini.

680 Zinhor yuborsin Boybo'ri,
Hakimbek, yo'lbars o'g'lini.
Olti oy muddat o'tgan so'ng
Qo'ldan ketadi kelini.

Gap eshitsang, o'g'lim, bizdan,
Hayallamay kelgin tezdan,
Qalmoqda judo bo'lmayin,
Erka o'sgan Barchin qizdan.

48

690 Khin manglaydan shaydr.
Ishondim senga, Elomon,
Izg'in tortib yig'laydi.

Sitam o'tganmi o'zidan,

Yosh oqib xumor ko‘z

Salom ayt Boybo‘riga, deb
Ergashayotir izidan.

Ana endi Elomonga Boysari:

— O‘g‘lim, jonu dilim, bog‘da ochilgan gulim! Zinhor-bazinhor kunduzlik elga oralab, bittaga o‘zingni ko‘rsatmagin. Nima bo‘lsa, Boybo‘ri zinda bor bo‘lsa, qog‘ozimni o‘ziga ber, kechalab qayt, — deb tez tayinladi. Endi Boysarining xotini Elomonga ikki og‘iz gap tayinlayapti:

Quloq sol momongning so‘ziga,
Mendan salomni aytib bor,
Kuntug‘mishning o‘ziga.
Oylar nechasi nechaga,

700 Qoldim qorong'u kechaga.

Mendan salomni tayin ayt,
Kuntug‘mishday boybichaga.

Qiyolab oylar botadi,
Labi holsirab qotadi.
Muddati bitguncha olib ketmasa,
Kelini qo‘lidan ketadi.

710

Ahmoq bo‘lib chiqibmiz eldan,
Adashdim yurgan yo‘ldan,
Agar o‘g‘lini yubormasa,
Kelini ketadi qo‘ldan.

Uzoq bo‘ldi maydon aro,
Bu ishlarga yo‘qdi[r] chora,
Alpomishni yubormasa,
Men ularga yuzi qora.

So‘m yuragim kuya-kuya,
Mehnatim ketmasin zoya.
Zinhor polvonini yuborsin,
Biz bo‘lmaylik yuzi siyo[h].

720

Kecha-kunduz yursin yo‘lni,
Yuborsin-da polvon ulni,
Olib ketsin Barchin gulni.

49

Tayin aytasan so‘zimni,
Telmurtib ketmasin,
Buytib qora ko‘zimni,
Alpomishday arslonini,
Tayin yuborishi lozimdi[r].
Qalmoqda musofir qilmasin,
Ardoqlab boqqan qizimni, – deb Elomonga tayinlab
goldi. Elomon katta gapirdi:

– Ota-onasi yubormayman, desa ham, o‘zim olib kelaman-da, – deb.
Abjil piyoda ketyapti. Soyu qirlardan o‘tyapti, ba’zi qushlarning ketidan
quvib etyapti. Qarang, piyodaning zo‘riga xizmat qildi. Boysariga zo‘r
qilib, tortayotir, ba’zi tog‘larning o‘riga zo‘r qilib, tog‘u cho‘lda yuryap-

ti. Chanag‘dagi nonni olib har o‘rtiga uryapti. Nonni kovshab boryapti. Kunlar chalsa, tog‘u toshga kelayotir cho‘li-dashtga, xabarchiday Al-pomishga. Cho‘llarda uchadi lochin, bo‘rboyiga solib kuchin, bul piyoda yo‘l tortishi, kutib qolgan Barchin uchun, xabarchi Boybo‘ri boyga, ketayotir qiru soyga, bu piyoda tortishi kutib qolgan Barchinoya.

Ketayotir yurak toshib,
730 Soyu qirlardan oshib.
Chopishiga chopish qo‘shib,
G‘ayrati haddidan oshib.

Jo‘nagan Chilbir cho‘lidan,
To‘g‘rilab ketayotir bizni tog‘ni belidan,
Bachchalikda kattargan Boysarining qo‘lidan.
Boybo‘rini ko‘rmaganga olibdi,
Yetti yildan hali charchamay ketguday,
Soyu qirlardan o‘tguday.
Shu sozda ketaversa,
740 Qisqa vaqtda etguday.

50 Elomon yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, suvsiz aro cho‘l yurib, necha kunlar yo‘l yurib, Oqdaryoga etib bordi. Oqdaryoning bo‘yiga borib, chanag‘dagi nonning hammasini svuga to‘g‘rab, qornini xo‘p to‘ydirib, noni ham qolmadi. Boshqa hech narsa ham qolmadi. Endi o‘ylasa, Oqdaryodan cho‘l g‘uborsib ko‘rinadi, Dabriz degan cho‘l changirqab ko‘rindi. Cho‘lini ko‘rgandan Elomonning xayoli buzildi. Chunki, tug‘ilgan, kindigining qoni tomgan, o‘ynab-o‘sgan joylari ya-qin qolibdi. “Endi Oqdaryodan o‘tdim bedard”, deb Dabriz cho‘liga chiqib ketib boryapti:

Qarchig‘aylar qoyada,
Yo‘l tortdi zo‘r piyoda.
Yetti yildan bermag‘on,
Alam o‘tgan ziyoda.

Nasiba tortib ketgan,
Boysaribiy bilan birga.
Chiqayotir Elomon,
Balandlik, soyu qirga.
Ko‘zi tushib boradi,

750 Bachchalikda yurgan erga.

Ba'zur xayoli buzilib,
Yo'l tortadi suzilib.
Tug'ilgan joyini ko'rgandan,
Yurak-bag'ri ezilib.

Qayg'u tushibdi sariga,
Xizmati bor Boysariga,
Qarang, piyodaning zo'riga.
Yugurinib tortdi Elomon,
Dabriz tog'ning o'riga.

760 Tayog'ini olgan qo'liga,
Etagini cholgan beliga.
Necha kun bo'ldi yurgani,
Qalmoqning uzoq yo'liga.
Borayotir Elomon,
Tug'ilgan-o'sgan eliga.

Kun cholgan tog'lar toshiga,
Qayg'u tushganday boshiga,
Oyoqlar chovlab qabardi,
Tog'ning paraxa toshiga.
Qarang, piyoda kishiga,
Xabarchi bo'lib borayotir,
Boysarining emikdoshiga.
Chiqib ketdi Elomon,
Dabriz tog'ning boshiga.

51

Baland tog'larning bastiga,
Gap keladi payvastiga.
Chiqib bordi Elomon,
Paraxa tog'ning ustiga.

780 Daryo toshar tarma erib,
Xilidan ayrligan g'arib,
Necha kunlar yo'l yurib,
Tog'ning ustiga borib,

O‘tov betini tuman olib,
 Tog‘ betini tuman cholib,
 O‘zi charchab, juda tolib,
 Non ado bo‘lib, ochqab qolib,
 Soyu qirlardan o‘tib,
 Tog‘ ustiga bordi etib.
 Borib yiqildi Elomon,
 Ochdan biroz yuragi ketib.

Qomati yoyday bukilib,
 Ochqab, yuragi to‘kilib.
 Tog‘ning ustida Elomon,
 Bir maydon yotdi yiqilib.

Kelishi uzoq joydan,
 Dam olib yotdi bir maydon.
 Chiqibdi tog‘ning boshiga,
 Bir sahar yotib Elomon,
 Keldi aql-hushiga.

Alqissa, Elomon bir soatlar rohatlanib, hushi o‘ziga kelib, yurak to‘xtab, tog‘ bulog‘idan suv ichib, butun oyoqlari toshga qabarib qolibdi. Oyog‘ini echib, suvlarda yuvib, yana paytavani chorib[bog‘lab], mahkamlab mo‘kkini kiyib oldi. Tog‘ning cho‘qqisiga chiqib qaradi, atrof-boshga. Orqa cho‘Ining Jonadilning cho‘llari, Alpon katta ko‘llari, yurgan, turgan, ko‘rgan joylari tog‘ pastida, g‘uborsib qora qumlar pastida ko‘rinaverdi:

Osmonning yarqirab yorug‘ oylari,
 Ko‘nglida bormi qayg‘u-o‘ylari.
 Elomonga tog‘ ustida ko‘rindi,
 Bachchalikda o‘ynab-o‘sgan joylari.

Baland ekan ba’zi tog‘ning bellari,
 Bu oradan o‘tgan yetti yillari,
 Olisda qob ketgan Chilbir cho‘llari,
 Bo‘linib chiqib ketgan,
 Qancha Qo‘ng‘irot ellari.
 Tog‘ ustidan Elomonga ko‘rindi,

810 Bachchalikda yurgan Alpon ko‘llari.
Baland ekan qoya tog‘ning boshlari,
Ezilib borayotir jigar go‘shtlari,
Xumor ko‘zdan oqayotir yoshlari,
Yetti yildan buyon ko‘rmay qarindoshlari,
Olib ketgan xeli-xeshlari,
Tog‘ ustidan Elomonga ko‘rindi,
Bachchalikda o‘ynab-o‘sgan erlari,
Ochiladi bog‘da gulning lolasi,
Qolmasin-da bu ko‘ngilning chalasi.
820 Tog‘ ustidan Elomonga ko‘rindi,
Jonadilning baland-pastli qal’asi.

Yetti yildan bermag‘on yo‘q ko‘rgani,
Esiga tushdi bachchalikda o‘ynab yurgani.
Tog‘ ustidan Elomonga ko‘rindi,
Jonadilda O‘tapirning qo‘rg‘oni,
O‘zi piyodaning ayg‘ir pirog‘i,
Yetti yildan bermag‘on yo‘q daragi,
Tog‘ ustidan Elomon ko‘rdi qarab.

53

Endi, Elomon tog‘ ustidan qarab ko‘rib:

– Kel endi, Qalmoqning Chilbir cho‘liga bormasak, – deb xayoli
buzildi. Lapanglab, tog‘dan cho‘lga tashladi. Oqgaza degan maydonga
chiqib ketdi.

830 Bo‘ston bo‘lib yotibdi cho‘llar,
Cho‘lda yotibdi chorva-mollar,
Butun cho‘lni joylagan Qo‘ng‘irot ellar,
Bachchalikda ko‘rgan joylar.
Cho‘lni bosibdi boylar,
Butun cho‘lda ko‘rinadi,
Sap to‘qson boshli uylar,
Cho‘l joylagan chorvador boylar.

840 Fido bo‘lib aziz jonlar,
Yurdi cho‘lu biyobonlar,
Gaza-gazada yotibdi,
Chodir tikkan cho‘ponlar.

	Tog‘-bag‘rida qiyalar, Erdan ko‘kargan giyo[h]lar, Cho‘lni bosib yotibdi, Bo‘ta bilan tuyalar.
	Tomoshadi[r] – o‘yin kulgi, Chorvalarning moli-mulki, Soy-soyni bosib yotibdi Qulunli haydovli yilqi.
850	Aziz jonlar bo‘lsin fido, Cho‘llar bo‘ston, obod juda, Adirni bosib yotibdi, Sigirlar hamda poda. Necha qirdan o‘tyapti, Elomon-ku ketyapti.
	Chiqib ketgan shunday eldan, O‘zi ko ‘rgan yo‘llardan. Oshayotir necha beldan, Duch keldi necha ovuldan. Baland tog‘larning pastidan, Borayotir Elomon necha quduq ustidan.
860	Elomon shunday ketibdi, Necha ovuldan o‘tibdi. Ko‘p quduqning ustidan, Elomon cho‘pon etibdi, Chorvador xalqlar qo‘yiga, Bari suv tortib yotibdi.
	Elomon borsa, butun xotin, bola-chaqa – hammasi suv tortib yotibdi. Elomon aytdi: – Boysari bobo tayinlagan edi, birovga ko‘rinma, kunduz kuni borma – degan edi. – Endi qanday qilsam? – deb hayron bo‘ldi. Eng pastda uchta yosh kelinchak suv tortayapti. “Endi xotin kishilar meni tanimasa kerak, bir suv ichayin, Boyburining borligini bilayin”, deb bir burildi. Elomon

shunday bordi. Sekin qaradi. Suluv kelinchaklarni ko‘rdi. Elomon hali chiroyli, suluv yosh bola emasmi, indamay suv ichishni ma’qul ko‘rma-di. Xotinlardan suv so‘rab turibdi.

870

Gullarning o‘zi g‘uncha-g‘uncha,
Yo‘llar yurib kunduz-kecha.
Suv ichish mumkinmikan,
Suv tortib yotgan uch checha?

Zulfagi suluv kelinchak,
Uzoq bo‘ldi yurgan yo‘lim,
Suvsizdan qotdi tilim,
Suv ichishga mumkinmikan,

Suv tortib yotgan uch nozanin?
Baland tog‘larning bag‘ri qora,
Alvon ko‘ylakni to‘zitar,
Suv ichishga mumkinmikan,
Suv tortib yotgan zulfakdor?

880

Kelishim uzoq yo‘llar,
Siz ham-ku, qo‘ng‘irot ellar,
Suv ichishga mumkinmikan,
Qiyiq qoshli, nozik bellar?

Kelishim-ku uzoq dashtlar,
Siz ham qo‘ng‘irot qardoshlar.
Suv ichishga mumkinmikan,
Bodom qovoq, marjon tishlar?

890

Ochilibdi gul lolalar,
Kelishim jazira dalalar.
Suv ichishga mumkinmikan,
Suv ichib yotgan xolalar?

Ayollar aytdi:

– Bechora suvsab kelayotgan yosh bola ekan o‘zi, – deb obxonadan boshqarmay qovg‘adan: – Mana, – deb suv tutdi. Elomon suvni ichib:

– Rahmat, opalar, – dedi. U vaqtarda har soyda yigirma-o‘ttiz ovul o‘tirar edi. “Bu ovullar kimniki”, desa boyni aytar edi. Elomonning ko‘ziga ko‘p ovul ko‘rindi, bu ovulni so‘rayapti Elomon:

900

Yarqillab to‘lin oylaringiz,
O‘tloq ekan joylaringiz.
Semiz ekan qo‘ylaringiz,
To‘qson boshli uylaringiz,
O‘n to‘rt tog‘li chiylaringiz,
Tol xipchaday bo‘ylaringiz.
Shu vaqt kebdi go‘ylaringiz.
So‘ramoqda ayb yo‘qdir,
Kimdir ovul boylaringiz?

Obod ekan cho‘llaringiz,
Semiz ekan mollarlingiz,
Juda shirin tillaringiz,
Qaysi urug‘, ellaringiz?

56

910

O‘t ekan-da erlaringiz,
Chorvador xalqsiz barilaringiz,
Kimdir ovulda zo‘rlaringiz,
O‘tloq ekan dashtlaringiz,
Ovul davlatli boshlaringiz,
Yoz ekan-da qishlaringiz,
Zavqi zafar yoshlaringiz,
Marjon sadaf tishlaringiz,
Kim ovulda boshlaringiz?

U kelinchakning birovini Oyxumor der edilar. Sariqul elbegining keline edi. Kelinchaklar aytди:

- Bu ovulning kattasini Sariqul elbegi, – deydi.
- Ha, shundaymi,
- Boybo‘ribiy deganning ovulini bilasizlarmi? – dedi, Elomon.
- Boybo‘ri boboniki Jonadilda, taniysizmi? – dedi kelinchak.
- Ha-ha! Qudug‘ini ham bilasizmi? – dedi Elomon.
- Ha bilaman, shu quduqning bo‘yida. Qirqta uy bor, shu Boybo‘rini, – dedi kelinchak.
- O‘zi uyda bormikin? – dedi.

– Bo‘lsa kerak-da, qaerga boradi, – dedi ayollar.
Elomon jo‘nab qo‘yaverdi, kecha bo‘lib qoldi. Chaqqon bachcha ketib borayapti. Ovullarning ustidan bordi. Ovullarning ko‘ppak itlari tashlandi. O‘rtacha ko‘ppaklarni yondashtirmay, qichqirib, ovulning ortidan borib: “Gap berguday odam bormikin?” deb qichqirdi. O‘zi kechaning ishi, oldiga chiqib keldi bir kishi. U kishi bilan salom berib ko‘rishdi. Bu odam qaradi, bir chaqqon bachchani ko‘radi, Elomondan gap so‘radi:

– Uka, qaydan bo‘lasan? Qayga boryapsan, – dedi. Elomon aytди:
– Men bir nontalab cho‘ponman. Boybo‘ri boboning ovuliga bormoq-chiman, – dedi. Kishi:
– Boybo‘ri bobonikini so‘rasang, yozdagi o‘tirgich qudug‘ini bilasanmi? – dedi.

– Ha, ko‘rgadim, bor, – dedi.
– Bo‘lmasa, ish joyga tikka bor, – dedi. Elomon ikki-uch soydan o‘tib, borib qarasa, Ko‘kgaza ustida saf katta uylar ko‘ziga ko‘rindi, yurib bordi. Ko‘rsa ham, ko‘zi adashgan ekanmi, katta oq o‘tovning ortidan borsa, qator tikilgan, sekin-sekin *mo ‘ralab* har tomonga qarab: “Chorvador xalqining yomon kuchugi ko‘p ovul ekan-da”, deb bir muddat turdi. Damini rostlab qarasa, kecha bevaqt bo‘libdi. Odam uxlab qolgan bo‘lishi kerak, nima bo‘lsa ham “boybobo”, deb qichqirayin, deb tayog‘ini ko‘krakka tirab, oyoqni bir o‘rab, o‘tov uylarga qarab qichqiraverdi.

Boybo‘ribiyning Ko‘kqashqa degan iti bor edi, olg‘ir ediki, bo‘ri, boshqa narsani yaqinlashtirmsidi. Bu cho‘ponlar bilan ketmasdan ovulda qolgan ekan. Elomon Qalmoqqa ketmasdan avval Boybo‘ri bobonikida ham yurar edi. Shunda Ko‘kqashqa kuchukni ovqat berib kattartirgan edi. Elomonning “boybobo”, deb ovozi chiqqandan joyidan turib, jo‘nab qo‘yaverdi, dabiri otning dabiriday.

57

Yondab kezar tog‘u toshga,
Ovozi juda boshqa.
Bu kecha ketmagan dashtga,
Jo‘nab qo‘yaverdi Ko‘kqashqa.

Kim bilar kechaning ishini,
Kechalab boybobo, deb,
Elomonning tovushini.
Safar qilsa olisga,
Uzoq safar bo‘lsa qisqa,

-
- Baland chaqadan Ko‘kqashqa,
Tashlab qo‘yaverdi pastga.
- 930 Erigan tog‘ning qori,
Uxlab qolgan xalqning bari.
Elomonga boraverdi,
Boybo‘rining vafodori.
Elomon bir vaqt qaradi,
Ovul ko‘ppagining bari,
Hovullab to‘kilib boradi.
- 940 Elomonning aqli shoshib,
Ko‘ppaklar bordi etishib,
Kechaning bevaqt ishi,
Elomonga boradi shing‘illagan tovushi.
Ko‘ppaklar tashlab o‘zi[n],
Chorvador xalqning ovulida,
Ko‘ppakning bari qo‘rqdi,
Ko‘kqashqaning xilidan.
Kuchukli ko‘k vafodor,
Qaytargan Elomon qo‘lidan.
Elomonni ko‘rmaganiga,
Oshibdi yetti yilidan.
- Suv oqadi do‘lab-do‘lab,
Ko‘ppaklarni Ko‘kqashqa,
Ketiga qaytardi talab.
Tashlanayotir Ko‘kqashqa,
Elomonga erkalab.
- 950 Bordi Elomonning qoshiga,
Yaqinlab bordi tushiga,
Shingillayotir vafodor,
Shunday borib qoshiga.
- Elomon kelibdi kechalab,
O‘zi tug‘ilgan joyiga.
Erkalab osilaverdi,
Elomonning bo‘yniga.

Elomon qarasa, it shing‘illab bo‘yniga osilavergandan keyin:

– Ha attang-ga, Ko‘kqashqa degan kuchugi bo‘lar edi. Shu qo‘yning ortida bo‘ron, sovuqlarda qo‘ynimga olib yotar edim. Jonivor, yetti yildan buyon mening tovushimni unutmagan ekansan, – deb elkasidan siypayverdi. Boybo‘ri boboning kampiri Kuntug‘mish Elomon “boybobo”, deb ovoz chiqarganda uyg‘ongan edi. Shu ovulning ko‘ppagi jo‘nagan, Ko‘kqashqaning ham jo‘naganidan xabardor edi. Ko‘kqashqaning odatini biladi. Hovliqib Boybo‘ri boboni uyg‘otib:

– Chol, eshikka chiqib bir quloq sol, bilmayman kechaning ishi, “boybobo”, deb chiqqandi birovning tovushi, ko‘ppaklar bilan Ko‘kqashqa ketgandi, yutib qo‘ydimi, turib bir xabar olgin, – deyapti. Boybo‘ri joyidan turib, kalishni topib kiygancha sekin, asta-asta uydan dashtga chiqib:

– Qichqirgan kim? – deb ovozi chiqdi. Elomon aytdi:

– Beri kelavering, – dedi. Sekin bordi, qarasa;

– Assalomu alaykum, boybobo, – dedi. Elomon :

– Boybobo, ko‘rishaylik, – deb ko‘rishdi. Boybo‘ri qarasa, bo‘yi novcha shilding poycha, o‘zi abjir, chaqqon bachcha, yarimga etishgan kecha.

– Ha o‘g‘lim, – dedi Boybo‘ri.

– Sizni so‘rab, keldim, – dedi Elomon. Boybo‘ri aytdi: “Bu cho‘pon novcha yuraman”, deb kelgan bo‘lsa kerak dedi.

– Uyga yur, – deb ergashtirib ketaverdi.

– Kampir, chiroq yoq! – deb ergashtirib bordi.

– Kel, o‘g‘lim, – deb ichkariga kiritdi. Elomon irgadan borib o‘tirdi. Kuntug‘mish chiroq yoqquncha ko‘p vaqt o‘tdi. U vaqtida chiroq yo‘q. Qora cho‘yan chiroq, chaqmoq urib, olov qilguncha ancha vaqt o‘tdi. Cho‘yan chiroqqa pilik solib, yoqquncha ham olam vaqt o‘tdi. Chiroqni yoqib, o‘rtaga qo‘yib, Boybo‘ri qaradi. Uy irgasida erga qarab o‘tirgan chaqqon cho‘pon bachchani ko‘radi.

– Kampir, bachchaga non, qatiq ol, ovqatlansin, – dedi. Kuntug‘mish “cho‘ponlar keladi”, deb yigirmata katta nonni dasturxonga o‘rab qo‘ygan edi. Olib kelib oldiga qo‘ydi. Katta xarsang tovoqda qatiqni ham oldiga olib kelib qo‘ydi. Elomon ham ikki kun bo‘lgan ovqat emaganiga, qoshiq-poshiqqa qaramasdan, bir nonni ikki bo‘lib, nonni qoshiq qilib o‘rtiga, og‘ziga tiqaverdi. Bir ozdan keyin non, qatiq tamom bo‘ldi. Boybo‘ri aytdi: “Abjir, besh-o‘n kishini ursa ham, yiqitgich ekan”, deb o‘tiribdi. Ovqat egandan keyin Boybo‘ri sekin so‘radi.

960

Sen kelding-ku meni so‘rab,
Tanimayapman qarab.
Ochilsin qizil gulim,
Seni tanimadim, o‘g‘lim.

Piyodada ziragim,
Chaqqon yo‘lbars diragim,
Men seni tanimadim,
O‘zing tanit, chirog‘im.

O‘tmadimikan ko‘zim,
Tanimadim-ku o‘zim,
So‘rab kelgan qo‘zim,
Tanitishing menga lozim.

970

Gap so‘ylasa, shirin-shirin tillisan,
Qanday bog‘larning
G‘uncha, ochilgan gulisan.
Men-ku seni tanimadim, chirog‘im,
Ayt otangni, o‘zing kimning o‘g‘lisani?

60

Sening kelishing qaylardan,
So‘rading meni uylardan,
Kelishing qanday joylardan?
Etaging belga chalishing,
Avvaldan bormi bu ishing,
Chirog‘im, qaydan kelishing?

980

Uzoqmi yaqin yo‘ldan,
Meni so‘rading ovuldan,
Asli o‘zing qanday eldan?
Gumbirlar tog‘lar darasi,
Qanday bu ishning chorasi,
Ota-bobongni kim deydi,
Sen kimning nabirasi?

Elomon yosh bachchaligida o‘zlarining uyida katta bo‘lgan bo‘lsa ham, Boybo‘ri tanimadi, ketishda bachcha edi. Bachchalikdagi rangi buzilgan, ham kechaning ishi, tanimaganini bilib, endi ko‘ngli buzilib,

yuragi biroz ezilib, xumor ko‘zdan yosh tizilib, Boybo‘riga o‘zini ta-
nityapti:

990

Ul tabadan bul taba,
Dardima bormikan davo?
Siz meni tanimadingiz,
Tanitayin, biy bobo.

Etagim belga cholaman,
Uzoq joylardan kelaman,
Boysari biylardan bo‘lamан.
Otim o‘lgur Elomon,
Shuytib sizga kelaman.

Men ayrilgan xillardan,
Kelishim uzoq yo‘llardan.
O‘zim Qo‘ng‘irot ellardan,
Kelishim Chilbir cho‘llardan.

1000

Kulfatdan qayg‘u saridan,
Kelishim Qalmoq shahridan.
Qo‘ng‘irot el Boysaridan,
Eshiting, bobo, so‘zimni,
Elomon deydi o‘zimni.

61

Men aytsam osmon, oylardan,
Kelishim Qalmoq joylardan,
Ko‘chib ketgan ming uylardan.
O‘lsin otim Elomon.
O‘zim Boysari biylardan.

1010

Erisin tog‘ning qori,
Hech bo‘lмаган edi xabari,
Termulib qoldi Boybo‘ri.
– Hali sen Elomonmi, deb,
Yig‘lab qo‘yaverdi Boybo‘ri.

Qo‘l soldi jigar go‘sh[t]iga,
Kechaning bevaqt ishiga.

-
- Shoxlab olib Boybo‘ri,
Bir maydon bosib to‘shiga.*
- 1020 *Yig‘laydi o‘z tavriga,
Dardmand yurakning hovriga.
Elomonmisan, chirog‘im.
Birmaydon bosib bovriga.*
- Ochilmaymi gulday lolam,
Ko‘ngilda ko‘p edi alam,
Elomon bo‘lsang, jon bolam.
Talpinaman-da o‘zim,
Nimkala bo‘libdi-da ko‘zim,
Gapirishing endi lozim.*
- 1030 *Yetti yillardan beri,
Hech kelmagan edi xabari,
Omonmi elning bari?
Zindami bobong Boysari?*
- 62 *Ketib qoldi aql-hushim,
Katta-kichik xeli-xeshim,
Baysariday emikdoshim,
Omonmi, bari omonmi?*
- Nasibani tortib unda,
Ko‘rish ekan jahonni,
Boysari bormi zinda?*
- 1040 *Sarg‘ayib rangi-ro‘ylarim,
Ko‘p edi qarz o‘ylarim,
Ming uyluk chorvador boylarim.*
- So‘radi elning barini,
Ko‘rishga intiq zorini.
Yig‘layotibdi Boybo‘ri,
Qayta-qayta so‘radi,
Emikdosh Boysarini.*

O‘zi bevaqt bo‘lgan kecha,
Boribdi Elomon bachcha.
1050 Hali sen Elomonmi, deb,
Ko‘risha berdi Kuntug‘mish.

Turna ayrilgan xilidan,
Oshibdi yetti yilidan.
Elomon kattargandi,
Kuntug‘mishning qo‘lida[n].

Elomonga qarayapti,
Oytug‘mishning ovsini,
Omonmi, deb so‘rayapti,
Qalmoqqa ketgan ming uyni,
1060 Kelini Barchinoyni,
Omonmi, deb so‘rayapti.

– Endi, o‘g‘lim, bizga kelishingdan ayt. Boysari bormi, zindami? – deb hovliqaverdi. Elomon aytdi:

– Omon-eson, hammaning dimog‘i chog‘. Qalmoq degan elga bordik. Chilbir degan cho‘lga bordik. O‘zimizning joylarimizday sahro, yaxshi joy ekan. Hamma juda dimog‘i chog‘, o‘tiribmwiz.

– O‘g‘lim, endi senga ishonaman, Boysari bormi? – deb so‘radi Boybo‘ri.

– Bobo, siz hovliqmang. Boysari bobom yubordi meni. “Sen bir borib kel. Biy bobongni ko‘rib kel. Besh-olti kun yurib kel, biron oycha turib kel. Qarindoshlarni bilib kel. Besh-olti kun tomosha qilib kel. Ham biroz o‘ynab-kulib kel”, deb yubordi-da. Boybo‘ri aytdi:

– Tomosha qilib kelmaysan, nima ish bilan kelganiningni ayt, – dedi.

– Biy bobo, siz mening gapimga ishonmaysizmi? Boysari boboming sizga salom qog‘ozzi ham bor, – dedi.

– Shu qog‘ozni olgin, bo‘lmasa, – dedi. Elkasiga tikilgan qog‘ozni olib, Boybo‘ri boboning qo‘liga berdi. Boybo‘ri bobo Boysarining qog‘ozini olib:

– Kampir, chiroqni olib kel! – dedi. Chiroqning yorug‘ida qog‘ozni oshib, ko‘ziga oynagini qo‘yib, qora chiroq xira bo‘ladi. Shunday bo‘lsa ham, avvaldan o‘qib yurgan xati-da, hijjalab o‘qidi. Xatning mazmunini ko‘rsa:

Boybo‘rijon og‘am,
 Sendan boshqa bo‘lmadi egam,
 Sen ham ul joyda yurmagil beg‘am.
 Sen bilan urishib, ahmoqliq qilibman o‘zim,
 Endi o‘yilsin ko‘zim.
 Qalmoqda talash bo‘ldi erka qizim,
 Tezdan kelib, olib ketishing lozim.

- 1070 Ahmoqlik qilib, ayribman xilimdan,
 Adashib qolibman yurgan yo‘limdan,
 Keliningni tez-tez olib ket qo‘limdan.
 Kutib o‘tiraman yo‘lingga,
 Qizim bag‘ishlangan polvon ulingga,
 Tezdan kelib, olib ketgin elingga.
 Qalmoq ot aylantirmasin boshima,
 Sharmanda bo‘lmayin tengi-to‘shima,
 Pushaymon qildim-da qilgan ishima.
 Menday turna ayirlganda xilidan,
 Endi oshib borar yetti yilidan.
 1080 Tezroq kelib, olib ket Boysari qo‘lidan,
 Nasibasi uzilsin Chilbir cho‘lidan.

Olis bo‘ldi maydon ora,
 Yuragim bo‘lmasin pora.
 Men-ku senga yuzi qora,
 O‘zing iloj qilmasang, bilmadim chora.

- 1090 Ahvol so‘rasang, shul bizdan,
 Ma’ni ayirsang qog‘ozdan,
 Hayallamagin-da tezdan,
 Kunim qoldi-da zo‘rga,
 Kirarman qanday go‘rga?
 Alpomishxonni yuborgin,
 Elomon bilan birga.

Alqissa, Boybo‘ri Boysari ukasining bu qog‘ozini o‘qib ko‘rib, Elo-monga qarab:

- Hali shundaymi gap, ahvol? – dedi. Elomon aytdi:
- Ana, boy ota, shunday, – dedi. Boybo‘ri xotiniga:

-
- Ma, bu qog‘ozni olib qo‘y, – dedi. Elomonga qarata:
- Xo‘p, senga gapim shu, sening bu erga kelgанинги, тенгиси то‘шдан, qариндошдан бир киши билдими юки билмадими? – dedi.
- Yo‘q-yo‘q, bir kishiga aytganim ham yo‘q, bildirganim ham yo‘q. U yoqdan Boysari bobomning aytgan gapi shunday edi, “birovga bildirma, birovga ko‘rsatma”, degan edi.
- Ana shunday bo‘lsa, sen asta qaytib ketaver, – deb Boybo‘ri kam-piriga aytди:
- Bu er-u erga chop, pichchi non top, – dedi. Bu erga bordi, u erga bordi, bir yuzcha nonni topdi, Elomonning *chanag‘ga* solib, Elomonni yupatib, orqasidan xayrlashib, Boybo‘ri bir-ikki so‘z aytib turibdi:

So‘lmasin qizil gulim,
Bilmasin-da ovul elim,
Endi Olloh yoring bo‘lsin.
Jonadildir makon, qal’am,
Sirdan bo‘lsin Olloh taolom,
Elatga mendan salom,
Qalmoqqa etmaydi xilom.
Olloh yoring bo‘lsin-da, bolam.

1100

65

Shuldi[r] senga tayin so‘zim,
Borolmayman endi o‘zim.
Boysari Qalmoq eliga,
Qizini berishi lozim.

1110

Uzoq yo‘lga yurolmayman,
Qalmoq elga borolmayman.
Olloh yoring bo‘lsin endi,
Boysari holin so‘rolmayman.
Bul ishni udda qilolmayman,
Joy, yurtni bilolmayman,
Qalmoqlarning qo‘lidan,
Barchinni olib kelolmayman.

Taqdiridan ko‘raversin,
Davrini suraversin.
Suyib borgan Qalmog‘iga,
Oy Barchinni beraversin.

Boybo‘ri bir zid bilan Elomon bilan xayrlashdi.

– Tong otmasdan, yorug‘ bo‘lmasdan, Dabriz tog‘idan oshib ketasan,
– dedi. Elomon Boybo‘rining o‘ngiridan mahkam ushlab, bir so‘z deb
deyapti:

Boy bobo, kelgandim bunda,
Meni qo‘ymang bu kunda.
Alpomishni qo‘shmasangiz,
O‘ldiring, qo‘ymang zinda.

1120

Erisin tog‘larning qori,
Sitam qilar Qalmoq bari.
Kutib o‘tiribdi sizni,
Chilbir cho‘lda elning bari.

Alpomishni qo‘shmasangiz,
O‘ldiring, qo‘ymang tiri[k].
Shuytib Qalmoqda qolarmi,
Alpomishning sevganli yori?

66

1130 Tog‘ning betini tuman cholarmi,
Elda zo‘ri, boy ota, sizday bo‘larmi?
Polvon yorini Qalmoq ellar olarmi,
Oybarchin yoridan ayrilib qolarmi?

Elomonning qora ko‘zda qonli yoshi eshilib,
Ellardan ketmayin chiqib echilib,
Hakimboying ketsin menga qo‘shilib.

Boybo‘ri aytdi:

– Elomon o‘zing kelibsani, endi o‘zing ketaver, mening boshimga
bir g‘avg‘o-kulfatni solma, xalqqa meni ko‘p sharmanda qilma, kalla
yorilib, kalla boshning ostida bo‘lsin. Alpomish aslo sezmasin, boshi
shu gap aytig‘an edi. Boysari shuncha elning so‘zini biron chaqaga ol-
masdan, qizimni bermayman – deb ketgan edi. Endi shu gapida tursin.
Bor, endi ket, – dedi. Elomon angladiki, Alpomishni ham yubormaydi.
Hech bormaydi ham, hayrlashdi yig‘lab-yig‘lab, tong Dabrizdan os-
hib ketdi. Endi Elomonning kelganini Boybo‘ri bilan Kuntug‘mishdan

boshqa hech kim bilmadi. Alpomish ham jamoli oyday to‘lgan, yoshi o‘n to‘rtdan o‘n beshga o‘tgan, bilak kuchi sapchaday to‘lgan, haddili polvon bo‘lgan edi.

O‘zbek-qo‘ng‘irot xalqining oshiq o‘ynaydigan rasm-qoidasi bor edi. Alpomish ham oshiq o‘ynar edi. Alpomishning bir oshiq soqqasi bor edi. Govaz soqqa der edi. Ichiga besh pud qo‘rg‘oshin quyilgan edi. Bir kuni oshiq o‘ynayotgan edi, govaz soqqani zarb bilan otdi, bilagining kuchliligi shuncha, govaz soqqa erga bir tegib dolg‘ib ketdi. Simyon kampir degan bir kampir charx yigirib o‘tirgandi, charxiga havola bo‘lib etdi. Charxni maydalab, sindirib o‘tdi.

Kampirning g‘ovdirab, charxi sinib, ishi tinib, esi ketib, sillasi qotib goldi. Darrov Alpomish:

– Momo, bizning soqqa shu erga o‘tdimi? – deb etib keldi. – Momo, bizning soqqa o‘tdimi, ko‘rdingizm? – dedi. Kampirning dimog‘i kuyib o‘tirgan edi.

– Ha, boshingdan soqqa qolgur, senikimidi? Soqqa mening charximni sindirib, ishimni tindirib ketdi-ku, endi men qaysi go‘rga boramman, charxi kalabadan ovqat, kun kechirar edim. Sening kuching menga o‘xshagan o‘zidan qolgan, charx kalabadan ovqat kechirgan mubtalo kampirga etadi-da. Zo‘r bo‘lsang, Qalmoqdagi Barchin yoringni olib kel. Yoring Qalmoq yurtida talash bo‘lib, Qalmoq elida, Chilbir cho‘lida toy talashga tushib yotibdi. Qalmoqlar olaman, deb boshiga o‘lim solib yotibdi. Otangga xabarchi keldi. Qalmoqqa beraversin, deb javob berib yubordi. Zo‘r bo‘lsang, shu yoringni Qalmoqlar qo‘lidan olib kel-da, menga o‘xshagan kampirga kuching etguncha, – dedi.

Alpomish soqqasini olib kelib, kampir yoniga o‘tirib: – Momo, siz hozirgi gapni menga bir tushuntirib bering, –[dedi]. Kampir aytdi:

– Aytmayman. O‘zi charxim sinib, ishim tinib qoldi. Alpomish aytdi:

– Momo, charxingizning narxini to‘layin, aytинг, – dedi. Kampir aytdi:

– To‘lasang, aytaman, – dedi. Alpomish kissasiga qo‘lini urdi, to‘lganicha bir changal tangani chiqarib berdi. Kampir aytdi:

– Endi bir parrasining narxi bo‘ldi, – dedi. Alpomish kissasiga yana qo‘lini urdi, yana bir changal tanga chiqarib berdi. Kampir Alpomishni aldab, ko‘p tangalarini shildi:

– Endi ikki hissasining narxi bo‘ldi-da, – dedi. Alpomish aytdi: – Charxingizning necha parrasi singan o‘zi? – dedi. Kampir aytdi:

– Mana, uch parrasi sinib qolgan-ku, – dedi. Alpomish yana kissasiga qo‘lini urdiyu, yana bir changal tangani berdi. Kampir:

— Endi uch parraning narxi bo‘ldi, usta xaqi bor-da, usta haq oladi, — dedi. Alpomish bu kissasiga qo‘lini urdi-da bir changal tanga tag‘in chiqarib berdi.

— Momo, endi bo‘ldimi? — dedi. Kampir:

— Ana, tasadduq bo‘lay, endi o‘tir, — dedi. Alpomish juda yuragi toshib o‘tirdi.

— Agar ota-onangga bu gapni meni aytdi, demasang, aytaman. Alpomish aytdi:

— Momo, sizni aytdi, deb aytmayman, — dedi.

— Bo‘lmasa, sening otangning ukasini Boysaribek der edilar, bilasanmi? Alpomish aytdi:

— Ha, bilaman, — dedi.

— Ana shu Boysarining qizini Oybarchin der edilar. Shu Oybarchining sen bilan yoshi teng edi. Ikkoving onalaringning qornida ekaningda senga fotiha qilingan, qallig‘ing edi. Otang bilan akang bir gapdan urishib, kalla yorishib, bir-birlarini qonga qorishib, bu joydan mingta uy bilan ko‘chib ketgan edi. Qalmoq eliga ko‘chib borgan edi. Ana shu Oybarchin yoringga Qalmoq podshosi sovchi yuborib, shu qizingni menga berasan, bermasang kuningni ko‘rasan, deb ahvolini tang qilib yotibdi. Shunga xabarga Elomon degan bir kishi kelgan edi. Qaysi bir kecha itlar vovullab hurib, bir kishining tovushi chiqdi. Otang uydan chiqib, shu odamni ergashtirib, uyiga olib bordi. Men uyqum kelmay yotgan edim. Sekingina poylab bordim. Turib, uyning japsarini yordim, shu odamni ko‘rdim, ko‘p vaqtlar turdim. Otang Boysari akangni yod olib yig‘layotgan ekan, enang Kuntug‘mish ham yig‘layotgan ekan. Elomon bitta qog‘oz chiqarib berdi. O‘qib ko‘rib, otang onangning qo‘liga berdi. Shu kelgan xabarchi Elomonga shu “kechadayoq ketasan”, deb “non toptirib berib, hech kimga bildirmay, biron kishiga ko‘rinmay, lekin Alpomish bilmasin, men borolmayman, Qalmoqqa qizini beriversin”, deb jo‘natib yubordi. Endi, Alpomishjon, shu qog‘oz enangning qo‘lida, meni hech aytdi, demasdan enangga borib sen bir yolg‘iz, erka o‘g‘ilsan, jon ena, deb tizzasiga bosh qo‘yib, “sutingning hurmati Qalmoqdan kelgan Boysari akamning qog‘ozini bir o‘qib ko‘rayin”, deb iltimos qilib yolvor, shunday qilmasang bermaydi.

Alpomishning yuragi lorsillab urib, joyidan turib, o‘z uyiga bordi. Kuntug‘mish o‘tigan edi. Alpomish kirib bordi, borib qobog‘i uyilib, alam yuragiga jiyilib, enasining tizzasiga bosh qo‘yib, bo‘ynidan quchoqlab, betoqat, behol, nochor bo‘lib: — Jon ena, sendan bir gap so‘rayman, oq sutingning hurmati, yolg‘on aytmay, chin gapirarsan, — deb so‘rab turibdi.

Oq suting emib, etildi tanam,
Sendan gap so‘rayin men ham,
Bu gapning to‘g‘risini gapirgin sen ham,
Sutingning hurmati rost gapir, onam.

1140

Sarg‘aytirma bugun qizil yuzimni,
Hayronda qilmagin mening o‘zimni.
Bu gapimga chin aytishing lozim-da,
Shunqor kelganday Boysarining belidan,
Nima xabar keldi Qalmoq elidan,
Adashganday bo‘ldi yurgan yo‘lidan.

Tog‘ betini g‘urumbat tuman cholmasin,
Bul ishlardan o‘g‘ling bexabar qolmasin.
Oybarchin yorimni Qalmoq olmasin,
Menday yorining rangi so‘lmasin.

1150

Onajon, eshitdim gapning izini,
Qalmoq olsa Boysari akam qizini,
Bir ko‘rsatgin akamning qog‘ozini.
Quлоqqa tut Alpomishning zorini,
Qalmoq olib ketmasin-da yorini.

69

Qog‘ozni ber, ona, o‘qib ko‘rayin,
Boysarining nima bo‘lganin bilayin.
So‘ldirmagin Alpomish jasadini,
Bir o‘qiyin akam yozgan xatini,
Bu qog‘ozda qilgan arzi-dodini.

1160

Xazon bo‘lmay, qizil gullar so‘lmasin,
Bu qog‘ozdan Alpomish xabarsiz qolmasin.
Bu yuragim qayg‘u-g‘amga to‘lmasin,
O‘zim o‘lmay, yorim Qalmoq olmasin.
Bu ko‘ngilning qolib ketmasin armoni,
Topilarmakin bu dardning darmoni,
Kelgan elchisiga otam farmoni, – deb Alpomish onasi-
dan so‘radi. Kuntug‘mish o‘g‘liga qarab, bir so‘z deb, yig‘lab turibdi:

1170

Nega sarg‘aytirasan qizil yuzimni,
 Qog‘oz so‘rab, hayron qilma o‘zimni.
 Nima uchun o‘pka-bag‘rim ezasan,
 Betimga termulib ko‘nglim buzasan?

Nima uchun kelib yig‘laysan qoshimga,
 Xumor ko‘zni to‘ldirmagin yoshimga.
 Buytib yara solma yurak-go‘sh[t]imga,
 Onajon, deb osilasan to‘s.imgur

Sensan mening ochilgan qizil gulim,
 Ham ardoqlagan jonim – dilim.
 Oldingda onangga bersin o‘lim,
 Ne sababdan o‘kinding, yolg‘iz ulim?

1180

O‘pka-bag‘rimni buytib tildirma,
 Yuragimni qayg‘u-g‘amga to‘ldirma,
 Kuntug‘mishni bugun buytib o‘ldirma.
 Hut kirsa, g‘uborsiz tog‘ning darasi,
 Kim qancha yo‘l Qalmoq elning orasi,
 Qalmoq elda otangning *shirxo ‘rasi*.

Yolg‘iz o‘g‘ilga Kuntug‘mishoy yig‘ladi,
 Qalmoqning xabarini kim biladi?
 Obod bo‘lsin Jonadilda makon-qal‘am,
 Qayda bo‘lsa yursin-da sog‘u-salom[at],
 Qalmoq xabarini kim biladi, jonim bolam?

Alqissa, Kuntug‘mish Alpomishga:

– Bu xabarni, o‘g‘lim, hech bilmayman, qog‘ozni kim biladi? Qalmoqda ularning o‘z xabari o‘zi bilan, – deb Alpomishga chin aytmadи. Alpomishning bir singlisi bor edi, otini Qaldirk‘och der edilar. Jamoli oyday to‘lgan edi, yoshi o‘n ikkida bo‘lgan edi. Bu Qalmoqdan kelgan qog‘ozni bo‘xchani kovlayotganda topib olgan edi. O‘zi ham maktabda o‘qib, xat o‘qiydigan savodxon bo‘lgan edi. Shu qog‘ozni o‘qib ko‘rsa, Boysaridan kelgan. Qaldirk‘och o‘qib ko‘rgan edi. Qalmoq elida Chilbir cho‘lidaman, degan Boysarining Boybo‘riga yozganini, Oybarchin us-tida Qalmoqda g‘avg‘o bo‘lganini bilgan edi. Shu tobda Kuntug‘mish-

ning qizi Qaldirg‘och maktabdan kelib qoldi. Qaldirg‘och qarasa, Kun-tug‘mish onasidan Alpomish qog‘oz so‘rab xafa bo‘lib turibdi. Onasi:

– Hech xabarim yo‘q, bilmayman, – deb turganini Qaldirg‘och bildi. Qog‘oz Qaldirg‘ochning kissasida edi. Qog‘ozni chiqarib, Qaldirg‘och Alpomishga berdi. Qaldirg‘och bir so‘z deb turibdi.

1190 Ona, sarg‘aytirma og‘am yuzini,
 Nima uchun hayronda qilasiz o‘zini?
 Qalmoq olsa yaxshimi akam qizini?
 Alpomishjon, o‘qigin Oybarchin qog‘ozini.

Suvlarning boshi taram,
Ko‘nglim bo‘lmaydi orom,
Mana o‘qib ko‘r shirxo‘ram,
Bino bo‘lmay ketsin boshim,
O‘n ikkida bo‘ldi yoshim.
Qog‘oz kelgandan beri,
Qolmay qoldi aql-hushim.
1200 Mana qog‘ozni o‘qib ko‘r,
 Singling o‘lsin emikdoshim.

71

Qizil gulning sarg‘aygani – so‘lgani,
Mard o‘g‘ilning uyalgani – o‘lgani.
Uch-to‘rt kun bo‘ldi qog‘ozning kelgani,
Senday bo‘larmi Qo‘ng‘irot elning polvoni?

1210 Quloq solma, ota-onang so‘ziga,
 Yigit xalqi tushmasmi yorning iziga,
 Qalmoq sovchi qo‘yib akangning qiziga.
 O‘zing polvon bo‘lib Qo‘ng‘irot eliga,
 Oybarchin kutib turgan yo‘lingga,
 Bor, og‘am, chiqqin Alpon ko‘liga.

Qayg‘u tushib yurmasin buytib saringga,
Botir bo‘lsang, talash nomus-oringga.
Chiqib borgin Qultoy bobo miroxuringga,
Bir ot minib ket sevikli yoringga.

1220

Unday yurish, og‘am, nomardning ishi,
Yorni izlab ketish mard o‘g‘il ishi.
Kerak bo‘lsa bir tona polvon oshi,
Qalmoqda bo‘lsa botirning savashi.

Mingin tulpor bedov otning beliga,
Gaybir joy yaroq, anjom olib qo‘lingga.
Yoring izlab ketgin Qalmoq eliga,
Chorvador xalqlar qoldi Chilbir cho‘liga.

O‘z elingda o‘zing polvon, zo‘r bo‘lib,
Oybarchin qolmasin kelishingga zor bo‘lib.
Yetti yil oradan o‘tib,
Tezroq borgin-da ot irg‘ab etib,
Oybarchinoy o‘tirgandi[r] yo‘lingni kutib.

1230

Sevikli yoringning qo‘lini tutib.
Ulkar borib tog‘ boshiga tayalmay,
Bunda qaytib yurasan sen uyalmay,
Yori ham ori uchun qonga bo‘yalmay.

72

Alpomishjon Qaldirk‘ochdan bu so‘zni eshitgandan keyin nor kallasi xumday shishib, g‘ayrati juda toshib, g‘ayratiga yana ham g‘ayrat qo‘shib, sevikli yori esiga tushib, ot-anjom, egar-sozni olib, Alpon ko‘lga qarab ravona bo‘ldi. Alpon ko‘lda yilqisi bor, yilqiboqar Qultoy bobo edi. “Kel-e, Qultoy bobomga borayin, bir yaxshi ot so‘rayin, egar-anjom ustiga quray-in, yorning izini so‘rayin, qalmoqlar bilan bir ko‘rayin”, deb chiqib ketdi. Orqa cho‘liga egar-yuganni ko‘tarib beliga, ana-mana deguncha etdi. Alpon ko‘liga. Qultoy bobo yilqining beliga minib, besh gaz surig‘i qo‘lida yilqining hammasini to‘dalab ko‘lga to‘kayotib edi. Qarasa, cho‘lda bir qora ko‘rindi. Ana-mana deguncha etib bordi. Qari odam ko‘zi borlamaydi. O‘zi piyodaga o‘xshamaydi. “Kim ekan?” – deb turdi kutib, bir pasda bordi etib, Qultoy bobo shunday qaradi. Alpomishni ko‘radi. Bundan uch-to‘rt kun avval Boybo‘riboy shu yilqiboqar Qultoy boboni chaqirtirib borib, bir narsani aytgan edi:

– Qultoy bobo, senga gapim shul. Senga Alpomish kechami-kunduzmi bir ot bering, deb so‘rab borsa, aytgan so‘ziga yurmagan, ot tugul, toy ham bermagan, ko‘zini qo‘rqtib, quyrug‘iga ikki tayoq sermagin, aytgan gapiga kirmagan, bor ket, men sendan ot qarzim yo‘q, deb siyo-

sat qilib haydab yuborgin, – deb tayinlagan edi. Alpomishni ko‘rgandan keyin Boybo‘rining gapi esiga tushib turibdi. Alpomish yaqinlab chiqib bordi. Qultoy bobo yilqini qamchilab-qamchilab qo‘riqni oldiga o‘ngarib, tanimaganday bo‘lib,

– Kimsan, piyoda kelayotgan? – deb siyosat qilib Alpomishning oldini o‘rab: – Kimsan, deb so‘rab to‘xtadi. Alpomish o‘zicha, “Qari odam meni tanimadi shekilli”, deb o‘yladi. Egar-yuganni erga tashlab, yoshi ulug‘ qari odamga salom berib, o‘zini tanityapti:

Ul tabadan bul tabam,
Bu dardlarga sizdan topilsa davom.
Assalomu alaykum, qadrdon Qultoy bobom!
Bugun izlab keldim sizni,
Tanimadingizmi, bizni.

1240	Baland tog‘larning bag‘ri qor. Javlon urib intizor, Qadrdon bobom, arzim bor. Iltimosim bugun sizdan, Gap so‘rang, bobo bizdan, Bir ot tilab keldim sizdan.
------	--

73

Lekin bugun ahvolim xarob,
Shuytib chiqdim ko‘lga qarab,
Sizdan keldim bir ot so‘rab.
Suv keladi do‘lab-do‘lab,
Ko‘nglim safar qildi talab,
Sizdan keldim bir ot tilab.

Bobo, arzimni so‘rarsiz,
Bir g‘ayrat qilib ko‘rarsiz,
Qanday bo‘lmasin, bir yaxshi ot berarsiz
Safarga tolmay ketguday,
Uzoq manzilga etguday,
Uchgan qushdan o‘tguday,
Dushmandan or olib qaytguday.

Bobo, bir yaxshi ot berasiz,
Cho'llarda tolmay chopguday.

1260 Izlasa yorni topguday,
Tuyog‘i erni qazguday,
Chopsa, poygadan o‘zguday,
Dushmanning bag‘rini ezguday,
Bobo, bir yaxshi ot berasiz.

Qultoybobo endi o‘ylasa, “Boybo‘ridan xabarsiz, yorini izlab, Qalmoq yurtiga safar qilib ketadiganga o‘xshaydi. Yosh bola, ra'yini sindirmay, bir ot berayin”, desa, Boybo‘ri aytgan ediki,

– Agar Alpomishga ot bersang, ajalingni to‘ldiraman, rangingni so‘ldiraman, zo‘rligimni bildiraman, seni aniq o‘ldiraman, ajalingni to‘ldiraman, bo‘yningni yuldiraman, – degan edi.

– Kel-e, bunga ot berib, qiyinchilikni o‘zimga olguncha bir qaytaryin, – deb Alpon tapaning ustidan Alpomishga qarab siyosat qilib qich-qiryapti:

Bog‘laringda guling g‘uncha,
Mahmadonalik qilma buncha.
Oldimda holing qancha,
Nima deyapsan, sen bachcha?
Nimaga kelding Hakimbek,
Sening menda oting yo‘q.
Mendan ot olishga qo‘lingda,
Qog‘oz bilan xating yo‘q.

1270 Aytgan gapingga yurmayman,
Ot tugul, toy bermayman,
Agar tezroq ketmasang,
Qo‘riq bilan sermayman.

Egar-jugan olib qo‘lga,
Nega kelding Alponko‘lga?
Nima deyapsan Qultoy cholga?

1280 Quloq solmayman so‘zingga,
Ot bermayman o‘zingga.
Darrov qaytaver izingga,
Egar-yuganeg egningga,
Darrov qaytaver keyningga,
Qo‘riq sermayman bo‘yningga.

1290

Alpomish qarasa o‘ziga,
Quloq solmaydi so‘ziga,
Burilib qaytdi iziga.
Tog‘ning boshi tumanday,
Ot beruvi gumonday,
Qultoyning nag‘zi yomonday.

Qultoy bobo etyapti,
Qo‘riq bilan elkasiga,
Ot ustida turtyapti.
Yana qaytdi kelgan yo‘ldan,
Ot ololmay Qultoy choldan,
Chiqib ketdi Alponko‘ldan.

Endi Alpomish ot olmasdan iziga qaytib ketayotgan edi. Qaldirg‘och uchta-to‘rtta kaniz qiz bilan Alpomishning Alpon cho‘lga chiqib ketganidan xabarsiz edi-yu, Alpomish u erlarda ko‘rinmaganidan keyin, “Shu yoqqa chiqib ketgandir”, deb izidan kelayotgan edi. Qaldirg‘och qarasa, akasi egar-yuganni ko‘targan, sekin-sekingina xafa bo‘lib kelapti. Qaldirg‘och so‘radi:

– Ha, qaerdan kelyapsan? Alpomish aytdi:
– Alponko‘lga Qultoy cholga borib edim. Bir yaxshi ot so‘rab edim, bermadi. Shuncha gapim qulog‘iga kirmadi. Qayta yag‘rinimga bir-ikki suyruq sermadi, – dedi. Qaldirg‘och aytdi:

– Ha, shu g‘ayrating bilan, shu og‘zi bo‘shlik bilan o‘z otangning yilqiboqar cho‘ponidan bir ot ololmasdan, qaytib Qalmoq yurtga oshib, Barchinoyday yorni qanday olib kelaman, deb o‘ylayapsan? Endi bildim, sen bu elning, xalqning o‘rtasida to‘y-tomosha, xalq yig‘ilishlarida, to‘y-marakalarda betingga toba qilib qo‘y. “Alpomish, sening yoringni Qalmoq olib, g‘ing demasdan bu erda o‘zing qolib”, degan so‘zlarni eshitib yurar ekansan-da bo‘lmasa? Qultoy kim o‘zi? Bir yilqiboqar, cho‘pon chol-ku! Vijdon-g‘ayrat bilan Qultoy cholga darrov borib, “ot berasan, ot bermasang kuningni ko‘rasan”, deb bormaddingmi? – dedi. Qaldirg‘ochning bu so‘zi Alpomishning badanini bujurlatib, vijdonini qaynatib, g‘ayratga endirib yubordi. Bu gap ta’sir qilib ketdi Alpomishning o‘ziga, darrov qaytdi iziga. Yuragi qaynab ketibdi, bir pasda ko‘lga etibdi. Qultoy bobo qaradi, yana Alpomish boradi. Avvalgidan g‘ayratini baland qilib, siyosat bilan Alpomishning oldiga chiqib, bir so‘z deyapti.

Sen kimni ahmoq qilasan,
Nimaga tag‘i[n] kelasan?
1300 Ot ololmasligingni o‘zing bilasan.
Qolmay ketaver yo‘ldan,
Ot ololmaysan miroxur choldan,
Vaqtida chiqib ket cho‘ldan.
Quloqqa tutmadingmi so‘zimni,
Ahmoq deyapsanmi o‘zimni,
Endi qattiq urishim lozimdi[r].

Qultoy bobo otni do‘ndirib, Alpomish ustiga keldi. Alpomish Qultoy boboga bir og‘iz gapiryapti:

Dardimga topa olmaysan davo,
Hazillashmaysan, bobo.
Tog‘larning boshi tuman,
1310 Bobo, achchig‘im yomon.
Agar bir otni bermasang,
Tirik qolishing gumon.

76
Tanib qo‘y menday zo‘ringni,
Qistiraman sho‘ringni,
Qazib ko‘maman go‘ringni.
Tog‘larda qozamizor.
Bu ko‘lingda o‘rdak suzar,
Qalmoq elga og‘di guzar,
Agar bir otni bermasang,
1320 Alponko‘lda bo‘lding mozor.

Keldim, bobo, senga munda,
Endi qo‘ymayman zinda,
Yilqi boqtirib bu kunda.
Hazarim yo‘q o‘limdan,
Buytib kelma yo‘limdan.
Agar bir ot bermasang,
Ajaling to‘ldi qo‘limdan.

Qultoy bobo Alpomishning jasadiga qarasa, polvon o‘g‘lon, kallasi xumday, qobog‘i chimday bo‘lib ketibdi. Achchig‘i *yomonday*, qopga

tiqqan somonday, agar bir ot bermasa, qutiluvi gumonday, yomon ko'rdi achchig'ini ko'ziga, qulq solmaguday so'ziga, qaytmaguday iziga, shayton minganday bo'yniga, ot afzali iyniga, qaytmaguday keyniga. Qarasa, Hakimbek gapga kirmaguday, qaytmay bordi-da tikka. Qultoy bobo Alpomishning g'ayratidan juda qo'rqli. "Endi bu qaytmaydikan. Endi uzoq yo'lga, Qalmoq elga ketsa buning bir kuchini sinayin", dedi.

– Alpomish, – sen ot oladigan bo'lsang, bir shartim bor. Shu shartni bajarib ol, – dedi Qultoybobosi. Alpomish:

– Bo'pti, shartingizni ayting, nima? – dedi.

– Shartim, shul maydonga chiqib, meni bos-da, otni ol, bo'lmasa, senga ot bermayman, – dedi. Alpomish:

– Bo'pti, – deb egar-yuganni erga tashlab yubordi. Qultoy bobo ham suruqni tashlab, otidan tushib, belini mahkam bog'lab, chirpinib maydonda aylanaverdi. Alpomish Qultoy boboning do'qlaridan qo'rqladi. Alpomish polvon xuddi norday bo'lib, ham sherdai bo'lib, maydonga chiqdi. Kelishdan qo'l uchidan ushlab, Qultoy boboni otib yubordi. Qultoy bobo:

– Bola, men puxta ushlay olmadim, – dedi.

– Xo'p, ikkinchi keling, bo'lmasa – dedi. Ikkinci keldi. Qultoy boboni Alpomish yana ilib otib yubordi. Qultoy bobo:

– Bola, hali bu bekor, oyog'im toyib ketdi. Uchinchi marta olishaman, – dedi. Uchinchisida Alpomishning juda g'ayrati kelib, Qultoy boboning egnidan ushlab, bir qo'li bilan belidan ushlab havoga ko'tardi va sekin erga tashladi. Qultoy boboning ikki qovurg'a suyagi sinib, ishi tinib, joyidan tura olmay qoldi. Qultoy bobo: "Haddili polvon bo'lgan ekan. Buning changaliga tushgan polvon omon qolmas ekan".

– Bo'ldi, Alpomish, haloling bo'lsin. Men senga "ana otni ol", demayman. Endi shuncha yilqining ichida qaysi yilqi kelib, yuganga kallasini solsa, shunga egar bosaver. Tepaga chiqib "qur hayt", deb chaqir, – dedi.

Alpomish Alpon tepaning ustiga chiqib qarasa, bu atrofi ham yilqiga to'la, u atrofi ham to'la, shu tarafi ham to'la, sap zotli otlarning qu'luni ko'lda yotibdi. Alpomish qo'liga Yuganni olib, qur haytlab, chirilay berdi. Boshqa otlar kallasini o'tdan ko'tarmaydi. Uch-to'rt yashar bo'lgan bir olachipor ot kishnab, jo'nab qo'yaberdi. Alpomishning yuganiga kelib kallasini soldi. Alpomish otni nazariga ko'p olmadi, boshi tub yilqiga qarab qur haytladi, yana chibor ot yuganga kallasini soldi. Alpomish aytdi:

– Ey jonivor, seni nima qilaman, men uzoq yo'lga safar qilmoqchiman. Qalmoq eldan or olmoqchiman, Barchinoyday sevikli yor olmoqchiman, – deb haydab yubordi. Uchinchi to'p yilqiga qarab qur haytla-

di. Uchinchisida ham kelib yuganga soldi chipor ot. Qultoy bobo buni ko‘rib turgan edi. Yilqiboqar Qultoy bobodan boshqa kishi bu otning qandayligini bilmas edi. Yilqi boqar Qultoy Alpomishga qarab, bir so‘z aytib qichqiryapti:

1330

Alponko‘l enadan tug‘ilgan joyi,
Yiligidan yo‘g‘on ortingi poyi,
Asli o‘zi tuyaparinining xonazot toyi,
Sol Yuganni, bos egarni, chirog‘im.

Enadan tug‘ilgan seshanbaning qaytish kechasi,
Ko‘lga chopsa, botmas keyingi sochasi,
Hamma otdan zo‘rdir hamma michasi,
Sol Yuganni, bos egarni, chirog‘im.

78

1340

Oriq bo‘lsa yiqilmaydi,
Semizlikdan tiqilmaydi,
Chopsa poyini urmaydi,
Egasin toqqa bermaydi,
Sol Yuganni, bos egarni, chirog‘im.

Olti oy chopsang karlamaydi,
O‘n oy chopsang, terlamaydi,
Tulpor otning sini bo‘lmas,
Ko‘rgan odam borlamaydi,
Sol Yuganni, bos egarni, chirog‘im.

Quloqlari tog‘larning andiziday,
Tuyoqlari katta korsonning og‘ziday,
Ko‘zlarini bor osmonning yulduziday,
Sol Yuganni, bos egarni, chirog‘im.

1350

Tizginidan aslo birov tutolmas,
Bahs qilsa, qanotli qush o‘tolmas,
To‘rt oyoqli hayvon quvsasi etolmas,
Sol Yuganni, bos egarni, chirog‘im.

Boshqa otlarga aslo xayol bo‘lmafigin,
Qalmoq ketsang, Chibor otdan qolmagin,

Boshqa otga aslo egar solmagine,
Sol yuganni, bos egarni, chirog'im.

Ot chopganda cho'lning betin ozadi,
Poyga bo'lsa ot baridan o'zadi,
1360 Bahs bo'lsa, dushman bag'rin ezadi,
Sol yuganni, bos egarni, chirog'im.

Safar qilsang, Qalmoqlarning eliga,
Sol yuganni, bos egarni beliga,
Oybarchinni bermas qalmoq qo'liga,
Sol yuganni, bos egarni, chirog'im.

Safar qilsang Qalmoq yurday olisga,
Uzoq yo'llar buning oldida qisqa,
Aslo chopsa tolmas tog'u pastiga,
Sol yuganni, bos egarni, chirog'im.

1370 Tog'larga chiqqanda har tomonga qaraydi,
Mard o'g'ilning ahvolini so'raydi,
Qancha qistov bo'lsa o'zi yaraydi,
Asli o'zi tulporning xonazot oti,
Senga shuldi Qultoyning nasihatni,
Qo'ltig'ida bordi[r] tulpor qanoti.

79

Qultoy bobo buni yaxshi biladi,
Qalmoq eldan borgan oyni oladi,
Qo'ng'irot elga kelin olib keladi,
Sol yuganni, bos egarni, chirog'im.

Alpomish o'y lab tursa Qultoy bobo shu otdan boshqa otni olma,
deyapti.

– Ha, keling bo'lmasa, – deb,

– Qultoy bobom ham otamday qadrdon bobom-ku. Albatta, mening
yaxshiligmni ko'zlaydi, – deb otning boshiga yuganni solib, egarning
qoshiga olib keldi. Shu topda Qaldirg'och kanizlari bilan kelib qoldi.
Alpomish Alpon ko'lda ot abzalining qoshiga bir ola otni ushlab turibdi.
Alpomishga Qaldirg'och:

– Nima bo'ldi? – dedi. Alpomish aytdi:

-
- Qultoy bobo shu otni berdi.
Qaldirg‘och otning oldiga, ortiga o‘tib, terilarini siypalab ko‘rdi,
sag‘risini bir siypadi,
– Ha, yaxshi, abzalini qurang, – dedi. Alpomish polvon terlik, chirgi,
egar, ayil, pushtanini tashlab, mahkam belini tortdi.
– Endi, turgin, yo‘lbars og‘am, Qultoy boboning oldiga borib bir duo
olib ketasan, – dedi Qaldirg‘och. Alpomish Qaldirg‘och bilan beli mayib
bo‘lib yotgan yilqiboqar Qultoy boboning oldiga borib:
– Qadrdon g‘amxo‘r bobo, aytgan otizinga egar qurib, tayyorlanib
keldim, bir duo bering, – deb to‘xtabdi.
Qultoy bobo qarasa, o‘zining aytgan otiga egar bosib kelib turibdi.

1380

Bobo, egar bosdim Chibor beliga,
Niyat qildim qalmoqlarning eliga.
Duo bering Boybo‘rining uliga,
Qisqa vaqtda etsam Chilbir cho‘liga.

Kecha-kunduz demasdan yo‘l yurayin,
Qisqa vaqtda Qalmoq elga borayin,
Oybarchinday yorning holin so‘rayin,
Duo bering *hayallamay* ketayin.

1390

Tog‘u qirlardan kesib o‘tayin,
Qisqa vaqtda Qalmoq elga etayin,
Sevikli Barchinning qo‘lin tutayin.
Chibor otни jaz[i]ra cho‘lda elayin,
Qalmoqdagi elning holin bilayin,
Dushman bo‘lsa, boshiga kun solayin,
Qalmoq eldan sevikli yor olayin,
Sog‘-salomat yana qaytib kelayin.

Biyobonga Chibor otни surayin,
Qisqa vaqtda Qalmoq etib borayin,
Barchin yorning shakar labin so‘rayin,
Yana sizlarni sog‘-salomat ko‘rayin.

1400

Yorim izlab ketayin men ham,
Qalmoqda talash bo‘lib Barchinday sanam,
Or uchun polvon oshi bo‘lsin bir tanam,
Ketishimdan xabarsiz ota-onam.

Qanday bo‘lar Qalmoqda mening ishim,
Chilbir cho‘lda qolib ketmasin qarindoshim.
Qaldirg‘och ham sirdoshim, emchakdoshim,
Uzoq yo‘lda bu Boychibor yo‘ldoshim, – degan Al-pomishxonni ko‘rib, Qultoy bobo qaddini ko‘tarib qarasa, Qaldirg‘och qavatida Boychiborga egar bosib kelyapti. – Xoy o‘g‘lim, jonu dilim, bog‘da ochilgan gulim, chamanda sayragan bulbulim, – deb safarga otlangan Hakim polvonga duo beryapti.

1410

Xayr, omin, yo‘lbars bolam,
Yoring bo‘lsin Olloh t[a]olom,
Omonda kelgin sen ham.
Ot chopib tog‘lar belidan,
Omon kel Qalmoq elidan,
Yoringni olib qalmoq qo‘lidan,
Obro‘ ol Chilbir cho‘lidan.

Minib obsan tulpor toy ni,
Olib kelgin Barchinoy ni.
Harna yo‘lingga qaratma,
Kuntug‘mish – farzand gadoyni.

1420

Nasibangni haydab o‘nda,
Qalmoqqa etgin tez kunda.
Obro‘ olib Qalmoqdan,
Biy otangni ko‘rgin zinda.

81

Sayidning nomi savob,
Ota-onang yig‘lab qolar,
Sen kelguncha bag‘ri kabob.
Kuntug‘mishning sutiga,
Tezroq bergin javob.
Sog‘-salomat Qalmoqdan kelib,
Ota-onangni qilgin tavob.

1430

Kezib hayda tog‘u cho‘lni,
Yo‘lingga qaratma elni.
Sog‘-salomat olib kelgin,
Qalmoqdagi Barchin gulni.

- Baland tog‘larning bag‘ri qor,
 Barchinni qilmay intizor.
 Yo‘lingga qarab o‘tirgan,
 Sevikli yoring zulfakdor.
- 1440 Eshit boboning so‘zini,
 Qultoy chol deydi o‘zini.
 Sog‘-salomat olib kelgin,
 Boysaribiyning qizini.
 Lekin yo‘lingga termultma,
 Ota-enangning ko‘zini.
- Gap so‘ylasa tog‘lardagi tilisan,
 Ota-onangning ardoqlagan qizil gulisan.
 Boybo‘ri boyning, Kuntug‘mishoyning,
 Suyangan yolg‘iz o‘g‘lisan,
 Bor, o‘g‘lim, Olloh yoring! – deb duo berdi. Qultoy-
 dan duo olgandan so‘ng Qaldirk‘ochga qarasa, bir emchakdan sut emi-
 shgan, suyangan ham tayangan yolg‘iz og‘asi emasmi, xayoli buzilib,
 jigari ezilib, xumor ko‘zdan qator-qator yoshi tizilib, yig‘lab turibdi.
 Alpomish xafa bo‘lganini bilib, ko‘nglini ko‘tarib, ko‘ngliga juda dalda
 berib, Qaldirk‘ochga bir-ikki og‘iz so‘z aytib turibdi.
- 1450 Qizil gulsan, sarg‘ayib ham so‘limagin,
 Qaldirk‘ochjon, xafa bo‘lib qolmagin,
 O‘ynab-kulib yurgin singlim, o‘limagin.
 Chibor otni bu cho‘llarda elarman,
 Bu Qalmoqdan sog‘-salomat kelarman.
- Yana sizlar bilan o‘ynab-kularman.
 Mingan otim cho‘llarda suvlig‘in talab,
 Qalmoq elga ko‘ngil istadi talab.
 Endi qolavergin akangning sog‘ligin tilab,
 Emikdoshim, xafa bo‘lib qolma yig‘lab.
- 1460 Akang hech qo‘rmaydi dushman xilidan,
 Sog‘-salomat kelar Qalmoq elidan,
 Barchin chechang kelar Chilbir cho‘lidan.

Akang sog‘ligini tilab turasan,
Barchin chechang sog‘-salomat ko‘rasan,
O‘ynab-kulib munda davron surasan.

Attang bo‘lmay qizil gulday so‘lmasin,
Enangning ko‘ngliga bir gap kelmasin,
Ketganimni ba‘zi ellar bilmasin.
Qaldirg‘ochjon, tayin aytgin enama,
Mening uchun xafa bo‘lib qolmasin.

- 1470 Safar qilib ketdim uzoq yo‘llarga,
Yig‘lab chiqmasin-da Alpon ko‘llarga,
Qirq kun to‘y beramiz Qo‘ng‘irot ellarga.
Qush g‘aflatda bo‘lsa tushar saydga,
Agar etsam ko‘ngildagi niyatga,
Barchin to‘yini berarmiz ko‘p elatga.

- Niyat bilan mindim tulpor toyini,
Chiqararmiz ko‘ngil g‘amning chuyini,
Barchin bilan olib qaytsam,
Chorvalarning ming uyini,
1480 Qirq kun beramiz-da Barchin to‘yini, –
deb Alpomish singlisini shod qilib,

– Xafa bo‘lma, – deb Boychiborga ikki qamchi urib, cho‘lga va
yo‘lga ravona bo‘ldi. Qaldirg‘och baland tepaga chiqib, qarab turdi. Bir
pastda cho‘lga bo‘ldirab, qatag‘on suvlig‘i shildirab, ajrab ketdi orasi,
qarab tursa shirxo‘rasi, ko‘rinmay ketdi qorası. Alpomish iziga qarasa,
orqa cho‘llar, Alponko‘llar ko‘rinmasdan qolib ketibdi.

Alpomish Boychiborning belini ikkinchi kotirib, tortib tug‘a-tug‘aga
etib, bir maydon Boychiborni chopyapti.

83

Mingan Chiborning beliga,
Yugannni tutib qo‘liga.
Bugun cho‘lda qarasangiz,
Boybo‘ri boboning o‘g‘liga,
Tezroq etkaz Boychibor,
Qalmoq yurtning eliga.

-
- 1490 Tog‘u toshlardan oshib,
Polvonning g‘ayrati toshib,
Sevikli yor esga tushib,
Boychiborning chiqqan changi,
Borayotir ulashib.
Ketayotir Boychibor,
Chopishga chopish qo‘shib,
Selkin daryoday toshib.
- 1500 Soyu qirlardan o‘tib,
Ot tilov qo‘lni qabartib,
Korson tuyoqdan chiqqan chang,
Havoning betini tutib,
Barchin o‘tirganday kutib,
Tezroq borsa etib.
- 1510 Yol-quyrug‘ing serak-serak,
To‘rt oyog‘ing xidra terak.
Ikki ko‘zing mash’al chiroq,
Mushkul ishga bo‘lding kerak,
Qalmoqqa etkiz ertaroq.
To‘rt oyog‘ing qoqqan qoziq,
Badanlaring qizdan nozik,
Bag‘ring kengdir, savring yoziq,
Beling kalta bo‘yning uzuk.
Mindim senday tulporning beliga,
Safar qildim Qalmoqlarning eliga,
Qisqa vaqtda etkiz Chilbir cho‘liga.
- 1520 Yol-quyrug‘ing Qultoy bobo kuzagan,
Egaringni Jamshid nusxa tuzagan.
Agar bir oylik safar bo‘lsa,
Uch shabro‘zga bezagan,
Seni mingan Alpomish suyukli yorni izlagan.
Yol-quyrug‘ing Qultoy bobo silagan,
Egaringni Jamshid nusxdan ulagan,
Qaldirg‘ochoy esonligim tilagan.

-
- Suyuklar bu yo‘limda yig‘lagan,
To‘rt sutimi boybicha pishgan kubiday,
Kezanaging kemachining ipiday,
Quloqlaring tikka kelgan kelinning tikkan sepiday,
Sovrilaring kelishgan armonining tupiday.
- 1530 Quloqlaring g‘alchoq-g‘alchoq,
Bosgan ering qiyirchoq.
Ot chopdi cho‘llar ozilib,
Boychibor korson tuyog‘i,
Erning betiga qazilib.
Banot chirgidan oqqan ter,
Tuyoqning betiga izilib,
Ketayotir Boychibor,
Quloch bo‘yni cho‘zilib,
Juftagi borar suzilib.
- 1540 Qarasangiz Hakimbekka,
Safar qildi o‘zi yakka.
Tulpor otning ketishi,
Etkizmas otgan o‘qqa.
Dushman ko‘rsa Alpomish,
Qaytmay ot qo‘yguday tikka.
- 1550 Tebargisi tirqillab,
Otni “chuv”, deb qimtisa,
Uzangisi shirqillab.
To‘shidagi choroyna
Oy chiqqanday yarqillab.
Yag‘rinidagi qalqoni,
Qatiqday bo‘lib erkillab.
Tulporga qamchi tegibdi,
Ust-ustiga shirpillab.
Ketayotir Boychibor,
Abrashin kokil jalpillab.
- Boychibor hali ketguday,
Tog‘u toshlardan o‘tguday,

-
- Shu chog‘da ketaversa,
Qalmoqqa tez etkuday.
- 1560 Savrisining kengishligi,
 Ikki kishi qavat tutguday.
 Chatanining kengligidan,
 Yuk ortgan tuya o‘tguday,
 Oldidan ko‘ndalang kelganni
 Ikki yamlab yutguday.
 Tulpor otning *chatani*
 Misoli chordaraday,
 Sirti bor qo‘rg‘on qal’aday.
 Cho‘lda ketib boradi,
 Osmondan engan boladay,
 Ketishi yomg‘ir-jaladay.
- 1570 Erisin tog‘larning qori,
 Qultoyning bergan tulpori,
 Ko‘p ekan Bo‘riboyning zo‘ri.
 Boychiborga kor qilmaydi,
 Tog‘larning nishab o‘ri.
 Alponko‘ldan chiqqandan beri,
 Qurimas chirgining teri.
- 1580 Tuyog‘i erga botibdi,
 Katta korsonning og‘ziday.
 Tuyoqdan chang cho‘zilar,
 Cho‘llarning to‘zon-duziday.
 Qulog‘ining kattaligi,
 Tog‘larning andiziday.
- Ko‘zi lovullab yonar,
 Havoning yulduziday.
 Bo‘ktargi go‘shtiga qarasa,
 Chillaning qotgan muziday,
 Haliyam dami singan yo‘q,
 Tulkini quvgan toziday.

1590 Tali mo‘yobi suyuqday,
Sag‘rilari ko‘cha bog‘day,
Tuyog‘i korson tovoqday,
Dovulga uchgan qamchoqday,
Haliyam ketib boradi,
Mergandan qochgan kiyikday.

O‘zi tulporning toyi,
Olis qoldi chiqqan joyi,
Iligidan yo‘g‘on payi.
Chiqqan ekan yorin izlab,
1600 Haydadi Qalmoqni ko‘zlab,
Ketayotir Chibor chizlab.

Oq ayillarning to‘g‘asi,
Ustida polvon egasi.
G‘ayrat bilan borayotir,
Qaldirg‘ochoyning og‘asi,
Gumburlar tog‘larning darasi,
Olis ekan orasi.
Har balandliklardan qarasa,
Ko‘rinmas Qalmoq qorasi.
1610 Etsam, deb ketib boradi
Oybarchinjonning to‘rasi.

87

Tog‘u cho‘ldan o‘tsam, deydi,
Qalmoq yurtga etsam, deydi,
Barchin qo‘lidan tutsam, deydi,
Barchinoyni ko‘rsam, deydi,
Tezroq etib borsam, deydi,
Nozik bir shakar labidan,
Ham suyunib so‘rsam deydi.

Alqissa, Alpomish tog‘u toshlardan, sahro-dashtlardan o‘tib, kecha va kunduz demasdan, yo‘l tortib ham mo‘l tortib ketgan ekan. Shu vaqtlar Qalmoq chegarasiga o‘tgan ekan. Otini haydadi, tepaga ko‘zi tushdi. Katta balandlik tepaga, Boychibor ham lekin och, ichi-ichlariga qovushib, ayil-pushtan to‘sriga yopishib qolgan ekan. Tepalikda qovdan xos ko‘p ekan. Alpomish: “Ot bir ovqatlansin”, deb otdan

tushib, beliga otning ipini o‘rab ushlab, pushtan-ayillarini bo‘shatib, yotib qoldi. Kecha-kunduz yo‘l tortib kelayotgan kishi emasmi, ko‘zi uyquga ketib qoldi, shu paytda qotib qoldi. Bu orada bir kechayu kunduz o‘tib qoldi.

Ana endi, Chilbir cho‘ldan, qo‘ng‘irotlarning elidan xabar eshitasiz. Elomon xabar berishga ketgan edi. Boysariby Elomonning kelishini kutgan edi. Elomon etgan edi. Boybo‘rining ko‘ngil uzdirganini aytgan edi.

– Boybo‘ri akangiz shunday dedi, bobo, – degan edi. Boysari endi g‘amlikda: “Hay attang, gulday so‘ldim-da, armonda bo‘ldim-da, endi jazo oldim-da”, deb yig‘lashib qolgan edi.

– Elomon kelibdi. Boybo‘ribiy “borolmayman”, debdi, – deya shivirlaganlar qo‘ng‘irot ellarining hammasiga etgan edi. Bu ovul, u ovul, shu ovullar eshitib qolgan edi. Ovulning katta, gapga etarlari so‘z qilishib turgan edi.

– Alpomish kelmagan bo‘lsa, Boybo‘ribiy bir narsa demagan bo‘lsa, chotoqlashdik-da, qalmoqqa bergen muhlat bitayozdi. Sovchilar ke-lib qolsa, endi nima qilamiz, ahvolimiz yomon bo‘ldi. Bu Qalmoqda boshimizga qora tuman bo‘ldi, ketishimiz gumon bo‘ldi. Sovchilar endi katta biyning qizini oladi, boshimizga keyin kunni soladi. Bu qo‘ng‘irot ellar yurtiga ketolmay qoladi, shunday bir yomon kun bo‘ladi, – deb turishgan edilar.

Bu gap qalmoqlarga ham sezilib qolgan edi. “Sovchilarga ayyorlik qilib, Boysaribiy olti oy muhlat olib, yurtiga xabarchi yuborgan emish, chunki, o‘z xonining o‘g‘li Alpomish degan polvoniga biyning qizi bag‘ishlangan ekan, ham to‘y qilingan ekan. Shu Qo‘ng‘irotning xoni ke-lar emish, biyning qizi Barchinoyni olib ketar emish”, degan mish-mish so‘zlar Qalmoqda yurgan edi. Qalmoq podshosi polvon alplariga:

– Yigitlar, bexabar bo‘lmanglar, xabarsiz yurmanglar, bu biyning qizini o‘zining xoniga bermanglar, har vaqt xabardor bo‘ling, Chilbir cho‘li-dan, zo‘rlik bilan tortib oling qo‘lidan, ehtiyyot bo‘ling keladigan yo‘lidan, – degan edi. Qalmoqning uchta tulpor oti bor edi. Ko‘kqulon degan oti bor edi, sakkiz yoshda. Ko‘kchunoq degan oti bor edi, olti yoshda. Ko‘kdo‘nan degan oti bor edi, to‘rt yoshda edi. Uchalasi ham tulpor zotli edi. Ayniqsa, Ko‘kdo‘nan ildamlikda hammasidan oldinda edi. Har otni qishin-yozin, kecha-kunduzi bilan ostini shipirib, oxurlariga kechasi sham yoqib, Qalmoq tablasida boqar edi. Uch kun bo‘lib edi, shu do‘nan ot ovqat emasdan emishni olmay, tablada yotibdi. Har zamon o‘qraniib, bir kishnab qo‘yadi. Otboqar sayislar bu otning kasallanganini polvon otlarning boshlig‘i Ob-dal ham Ko‘kaldosh polvonlarga ma’lum qildi. Ko‘kaldosh beshta-o‘nta

otboz minishkorlarni olib kelib otni ko‘rsatdi. Bu otboz minishkorlar, otni tabladan chiqartib, ko‘rib chiqdi.

– Otning badanida kasal yo‘q. Ot bir toydan xafalanganga o‘xshaydi, – dedi. Ko‘kaldosh sayislarga suqilib:

– Otni yaxshi joylarini shopirib, qashov qilmasdan, yaxshi qaramasdan, yolini taramasdan, otni xafa qilibsizlar, – dedi. Otboqar sayislar Ko‘kaldoshga:

– Yo‘q, ayniqsa, do‘nannning joyini shipirib, ko‘p qarashamiz, – dedi. Podshoning o‘rdasida xizmat qiladigan Maston momo degan kampir bor edi. O‘zi ham shunday bilimdon, ayyor kampir edi. Ham qurandoz edi. Shum kampirni ayttirib kelib, otni ko‘rsatdi.

– Momo, shu otning kamchiligi nima? – deb so‘radi. Kampir otning uerini ko‘rdi, bu erimi ko‘rdi. Otning badanida kasal yo‘q, kampir darrov qur’asini qo‘liga olib, har tomonga qur’ani tashlay berdi. Tog‘larga, gulgarga ham bandarga, yo‘llarga qur’a tashlab qaray berdi. Qur’ada sababi chiqdi. Alpomishning Qalmoqqa oshgani bilindi, kampiri maston, u polvonlarning va Qalmoq podshosining oldida qur’ada ko‘rganini aytayti:

Piliksiz yonmaydi chiroqning moyi,
1620 Do‘nan ot-ku, tulporning joyi,

89

Arzimni eshiting, Qalmoqning shohi.
Meni so‘zdan toydirib qilmasang gunohkor,
Men gapiroq qur’ada ko‘rganim xabar.
Qulqol soling, bu mastonning arzi bor,
Alp polvonlar, sizlar qolib-siz-da bexabar.

Osmon aziz bo‘lsa havo bo‘lar ko‘k,
1630 Do‘nan otning badanida kasal yo‘q.
Qalmoqqa yurish qilganday Hakimbek,
Buni anglab tabladagi do‘nan ko‘k.
Alp polvonlar, tez-tez qiling maslahat,
Shuning uchun do‘nan bo‘lgan betoqat,
Shuning uchun yolin silab do‘nan ot.

Tog‘lar darasini tuman cholganday,
Qo‘ng‘iroq xoni yorin izlab kelganday,
Bu narsani tabladagi ot bilganday,
Alp polvonlar, sizlar xabarsiz qolganday.
Uning ostida tulpor pirog‘i,

1640

Qirov ko‘rinadi yovu yarog‘i,
 Izlab kelib qolganday sohib daragi.
 Qo‘ng‘irot elni izlab kelganday,
 Chilbir cho‘ldan xabarchisi kelganday,
 Yorni izlab bu Qalmoqqa etganday,
 Biyning qizi kelishini kutganday.

Oltin sadog‘ini belga cholg‘uday,
 Hech hazar qilmay shu Qalmoqqa kelguday,
 Agar kelsa, Barchin yorni olguday,
 Biy qizidan sizlar quruq qolguday,
 Bu juvonmarg, shirin jondan kechguday,
 Barchin yorni kelib beldan quchguday,
 1650 Chilbir cho‘lni bo‘shatib, xalq ko‘chguday.

Alqissa, Maston kampirdan bu gapni eshitgandan keyin Obdal polvonlar bir-birini chaqirishib, bir-biriga baqirishib, to‘p bo‘lib yig‘ilishib, ko‘p bo‘lib podshoning oldiga kelib:

– Nima qildik endi, – deyapti. Polvonlar ichida bittasi bor edi. Uni Qorajon der edi. U polvonlardan zo‘r edilar.

– Chop, Qorajonni top, o‘zi nima gap? – deyishib, hovliqishib qolishdi. Qorajonni Ko‘kaldosh bilan podsho oldiga olib kelib, vazifa topshiryapti.

Qorajon, sen o‘zing polvon bo‘lasan,
 Tog‘larning badarga yo‘lini bilasan.
 Qo‘ng‘irot xoni kelayotgan yo‘l bandargohini olasan,
 Yo‘ldan o‘tkazmay qo‘lini keyinga cholasan.
 O‘zbeklar polvonini boylab kelasan,
 Agar boylab kelolmasang, o‘zing o‘lasan.
 Tez-tez otlan, shu xizmatni qilasan.

1660

Biyobonga haydar otingni surasan,
 Kelayotgan yo‘lni poylab turasan,
 Qo‘lin boylab, kallasiga urasan,
 Asir qilib olib kelib berasan,
 Berolmasan, bu kuningni ko‘rasan.
 Kelayotgan yo‘lin kutib poylaysan,
 Kelabersa, otdan erga joylaysan,

Otidan ag‘darib, qo‘lin boylaysan,
Asir qilib oldingga solib haydaysan.

Pushaymon qilsin, enag‘ar, qilgan ishiga,
Elansa ham, sira qo‘yma hushiga.
Qo‘lin boyla, chim botsin bilak go‘sh[t]iga,
1670 Borolmay qolib ketsin qarindoshiga.

Tanitib qo‘ygin Qalmoqning zo‘rini,
Ololmay o‘lib ketsin Barchin yorini,
Tez-tez jo‘na, qilib kel kuni-korini.
Sening dampingga chidab o‘ltirolmasin,
Chilbir cho‘liga, xiliga borolmasin,
Oybarchinni o‘lguncha ko‘rolmasin.

Ahmoq bo‘lib kelganday Qalmoq eliga,
Borolmay qolib ketsin Chilbir cho‘liga,
Bandi qilib haydab kelib berasan qo‘limga.
1680 Xeli-xeshi kelolmasin izidan,
Ahmoq bo‘lib juda ketibdi o‘zidan,
Umid qilib kelganmi boyning qizidan?

Alqissa, alplarning boshlig‘i o‘ylanib, Qorajonga so‘ylanib:
– Qorajon tez-tez ket, – deyapti. Qorajonning otboqari tabladan otni
tortib, darrov tayyor bo‘ldi.

91

Qorajon yarim soat ichida sakkiz sayisni qavatiga olib, Qalmoqning
cho‘liga, Algomishning kelayotgan yo‘liga chiqdi. Sakson yo‘lning so-
togi‘i, to‘qson yo‘lning tobog‘i, yuz yo‘lning bandargasiga keldi. Har
tomonga yo‘l ayrilayotgan bandargaga kelib qaradi. Algomish ham, av-
valgi chiqqan tepada bir kechayu kunduz uxbab qolib, Boychibor Qora-
jonning cho‘lda qorasini ko‘rib, betoqat bo‘lib, kishnayverdi. Algomish
uyquda Boychiborning achchiq tovushini eshitib, irg‘ib turib, darrov
durbinini olib, har tomonga qaradi. Qorajonning changigan qorasini
cho‘lda ko‘rdi, darhol otining belini mahkam qilib tortib, irg‘ib beliga
mindi, qalqonni yag‘riniga tashladi. Chor oynani to‘siga boyladi. Gay-
bir joyga o‘q joyladi, olisdan ko‘ringan qoraga qaratib haydadi. Qora-
jon o‘tirgan yo‘lda kutib, Boychiborning changi havoni tutib, bir pasda
bordi etib. Qorajon panalab, durbin bilan qaradi, durbinda aniqlab, Al-
gomishni ko‘rdi, kirar aqli kirmagan, chiqar aqli chiqmagan, bilak kuchi
to‘limgan, mo‘ylovi yo‘q oq, lodon bolaga o‘xshaydi. Qorajon aytdi:

– Qo‘ng‘irotning polvoni shu bo‘lsa, bu non, go‘sht ekan-ku, – dedi.
Darhol otining beliga irg‘ib minib, Alpomishning yo‘liga chiqib, dovul
urib, siyosat qilib chiqyapti.

Ot haydading biyobona,
Qorajon kirdi maydona.
Alpomishga qarab duna,
Donqillatib dovul urib,
Qorajon maydonga kirib,
Qichqiradi shovqin berib:

1690 Biyobonda ot surasan,
Yosh bola, qayga borasan?
Shunday joyingda turasan,
Bizdan o‘tingda ko‘rasan.

Ixtiyoring ketdi qo‘ldan,
O‘tolmaysan shu yo‘ldan,
Sen bola qanday eldan?
Tog‘larning boshi tuman,
Yo‘ldan o‘tuing gumon,
Qo‘limdan qolmaysan omon,
Otimni so‘rasang Qorajon,
1700 Bul boshingga oxir zamon.

Ta’zim qil, otdan taylab,
Bo‘lmasa, olaman boylab.

Alpomishxon turdi o‘ylab,
Alpomish shunday qaradi,
Oldini dushman o‘radi,
Kelishini so‘radi:

1710 Maydonda otni elishim,
Qo‘ng‘irot orqa yurtidan,
Qalmoq eliga kelishim.
Turma oldimni o‘rab,
Manzil-makonim so‘rab,
Xolingni qilaman xarob.

Sherday bo‘lib mulla Hakim,
Qorajon polvonga qarab:

Besabab chiqmaydi mard o‘g‘il joni,
Sen bo‘lasanmi Qo‘ng‘irot ellarning xoni?

Menga shuncha gap gapirma, bema’ni,
Qalmoq eldan tuyib omon chiqaman seni,
Tanisang, Qorajon deydi meni.

1720 Qutulolmay deganingni o‘zing bilasan,
 Bu Qalmoqda o‘zing nima qilasan,
 Nima ish bilan Qalmoq elga kelasan?

Otimni haydadim orqa cho‘limdan,
Xazarim yo‘q to‘g‘ri kelgan o‘limdan,
Qalmoq bo‘lsang, tez-tez chiqqin yo‘limdan,
Ajaling to‘lganga o‘xshaydi qo‘limdan,
Xabar olsam Chilbir cho‘lday elimdan.

1730 Qorajon aytadi: buytib gap gapirma muncha,
 Mening oldimda sening holing qancha?
 Qo‘ng‘irot elda senday bormi ahmoq-a?
 Gaybir joyni osib taylay egningga,
 Unday bo‘lsa, darrov qaytgin keyningga,
 Qalmoqdan qasr chiqibman o‘zingga,
 Ajal savdo ko‘rinmasmi ko‘zingga,
 Bunday bo‘lsa tez-tez qaytgin izingga.

1740 Yosh bolasan, buytib ahmoq bo‘limagin,
 Yoring izlab yurtimizga kelmagin,
 Qalmoq yurtinda g‘arib o‘limagin,
 Yosh bolasan, bekorga bo‘limagin hayf,
 Davlating ketganday boshingdan toyib,
 Men shunqorman, tepsam qilaman mayib,
 Bu Qalmoqda sening o‘ligingga kim soyib,

Alqissa, Qorajonning bu gapi Alpomishning yurak-bag‘ridan teshib
o‘tib ketdi. Alpomish polvonning labi gezarib, manglayi tozarib, bir-

dan Qorajonning ustiga ot haydadi. “Odamga meros o‘lmoq, yo‘lingdan chiqqan qalmoq”, deb Qorajonga qarab qichqirayapti.

Quloq solgin, menday polvon so‘ziga,
Or talashib keldim boyning qiziga,
Jondan qo‘rqib polvon qaytmas iziga,
Qashqa parang merganlarning izniga,
Botir jon o‘limni olib bo‘yniga,
Kelgan polvon qaytib ketmas keyniga.

1750 Bog‘ning guli xazon urmay so‘larmi,
Jondan qo‘rqqan yorni istab kelarmi,
Qazo etmay, qashqa chivin o‘larmi,
Kelgan polvon sendan kamroq bo‘larmi?
Kelgin polvon, tanam polvon oshidi[r],
Sendan qo‘rqish nomardlarning ishidi[r],
Qaytib ketgan juda nomard kishidi[r].
Hulkar yulduz tog‘ boshiga tolpinmay,
Qaytib ketavermas uyalmay,
Kerak bo‘lsa, qizil qonga bo‘yalmay.

1760 Men qaytmayman bo‘ganimcha bo‘lishmay,
Sening bilan sher boladay olishmay,
Choparatga yalov, tig‘ni solishmay,
Men qaytmayman maydonga kirishmay,
Qora kallani maydon ichida yorishmay,
Sening bilan qizil qonga qorishmay,
Bul maydonda kuch sinashib ko‘rishmay.

Qorajon aytdi:

- Hoy, o‘zbek, sen meni tanimaysan, tush otingdan.
- Alpomish otdan tushib maydonga kirdi. Ikkovi ham polvon, duch bo‘ldi. Bir-biridan bet qaytarish qattiq ish bo‘ldi. Alpomish aytdi:
 - Ey polvon, har elning har xil rasmi bor. Bizning o‘zbek xalqining rasmi olishishdan oldin bir ko‘rishadi. Qorajon aytdi:
 - Bo‘lmasa, shu rasmni qilaqol. Alpomish:
 - Bo‘lmasa, ko‘rishaylik, – deb ikki qo‘ltiqning ostidan siqib ushlab oldi. Qorajonning xayolida yuragi og‘zidan chiqib ketadigandek bo‘lib goldi. Qorajon Alpomishga bir so‘z deb qichqirayapti.

G‘ayrat bilan chiqibsan o‘z elingdan,
Bilmasdan chiqibman sening yo‘lingdan,
Qutiluvim guman bo‘ldi qo‘lingdan,
Jon do‘stim, tort qo‘lingni belimdan.

- 1770 Men senga endi aytsam chinimni,
Gavdadan siqib chiqarguday bo‘lding jonioimni,
Bildim endi to‘kasan-da qonimni.
Ilojim yo‘q, men ham qanday qilayin,
Bir qo‘lingni bo‘shat, damimni olayin,
O‘lgunimcha seni bilan birga bo‘layin,
Qavatingda xizmat bo‘lsa qilayin,
Qorajon deydi, Qalmoqda o‘zimni.

- 1780 Qulog‘ingda tutgin aytgan so‘zimni,
Sening bilan do‘st bo‘lishim lozimdi[r].
Rangi-ro‘yimni bunday qilib so‘ldirma,
Paymonamni o‘z qo‘lingdan to‘ldirma,
Men senga qoyilman, do‘stim, o‘ldirma,
Duchor keldim senday bo‘lgan zo‘rga,
O‘lgunimcha sening bilan men birga,
O‘ldirib tiqmagin qorong‘u go‘rga.
Changak solding buytib yurak go‘sh[t]ima,
O‘lim savdoni do‘ndirding boshima,
Do‘st bo‘lib kecha kirganding to‘shima,
Safar qibsan Qalmoqlarning eliga,
Duchor keldim senday zo‘rning qo‘liga,
Seni bilan birga ketayin Chilbir cho‘liga.
Chilbir cho‘lga seni bilan borayin,
Bu Qalmoqda senga yordam berayin,
Sening uchun Qalmoq bilan ko‘rayin,
O‘ldirma, bo‘shatgin, do‘stim, qo‘lingdan,
O‘lguncha sendan ayrilmay yurayin.

- 1790 Buytib oldingga bugun kelaman,
O‘lgunimcha xizmatingni qilaman,
Sening bilan birga Qalmoq elida
1800 Bu qalmoqqa men ham g‘avg‘o solaman,

Boshlab ketaman-da Chilbir cho‘liga,
Chilbirda joylab yotgan Qo‘ng‘irot eliga,
Qalmoq aplari duch kelolmas xilingga,

Alpomish o‘ylab tursa, chin dildan yig‘lab, do‘stlik nishonini bildirayin deyapti. Alpomish aytdi:

– Ha, keling, bir kishi-da – deb qo‘lini bo‘shatdi. Qorajon biron soatdan keyin hushiga kelib, ko‘zini ochdi. Qorajon Qalmoqdan kelgan sayis ot ushlovchilariga:

– Boringlar, sizlar ketinglar. Meni so‘rasa, Qo‘ng‘irot xoni boylab olib ketdi denglar, – deb javob berdi. Qorajonning sayis, ot ushlovchilar ketdi. Qorajon:

– Endi, do‘stim, hayda endi, senga bir xizmat qilaman, – dedi. Alpomishning oldiga tushdi. Baland tog‘ning ustiga chiqib qaradi. Qalmoq chegarasini endi ko‘radi. Alpomish Qorajondan gap so‘radi.

Yov ko‘rsa objo‘sh bo‘ladi badan,
G‘uborsib qoladi sahro-biyobon,
Men sendan bir gap so‘rayman, Qorajon,
Alpomish ham durbindan qarab ko‘rgan,
Ko‘ziga ko‘rindi baland bir qo‘rg‘on.

1810 Alpomish hali-hali o‘zi yosh bola,
Baland bo‘lib ko‘rindi ko‘ziga bir qora,
G‘uborsib ko‘rinar ko‘zga dashti sahro.
Yaqinlashaverdi bora-bora,
Har joyda ko‘rinadi qora-qura.

Qorajon qoshida ketib boradi,
Alpomish-ku Qorajondan so‘radi:
– Bu yo‘llaring qaysi elga boradi,
Har tomonga ketayotir karvon yo‘l?
– Hakim do‘stim, g‘uborsigan Chilbir cho‘l,
Qora-qura ko‘ringani o‘z yurtingdan kelgan el,
Past tomonda yarqillagan Ayg‘ir ko‘l.

1820

Alpomishning bundan oldin yo‘q ko‘rgani,
Joy ko‘targan Qo‘ng‘irot elning mergani.
Baland lovullab ko‘ringan,
Ul qalmoqlarning qo‘rg‘oni.

Hali olisday orasi,
Bormi, bu ishning chorasi.
Baland yarqillab ko‘ringan,
Qalmoqning minorasi.

Endi Qorajon Alpomishga hamma joyni ko‘rsatib, Chilbir cho‘lidan enyapti. Ikkovi Chilbir cho‘liga tushib ketib boryapti. Chorvadorlarning qo‘yini cho‘lda ko‘ryapti. Ba’zi cho‘ponlardan qo‘ylarni so‘rayapti. Qo‘y, tuyalarining ustidan borayapti. Cho‘ponlar Alpomishga qarayapti. Cho‘ponlar bir-biriga gap so‘rayapti:

– Alpomishxon emasmikan? – deyishib qoldi. Kechroq bo‘lgandan keyin, Chilbir cho‘lini oralab ketyapti. Cho‘lni joylagan chorvador boylar qator-qator tikilgan saf katta uylar yaltirab ko‘rinadi. Qorajon ergashtirib kelyapti, har ovulning ustidan o‘tyapti. Nodir elbegining uyiga kechqurun ergashtirib bordi. Nodir elbegining baxmaldan yopgan o‘toviga tushirdi. Kech bo‘lgandan keyin top-topga chaparasta ot choppilib ketdi. Alpomishning kelganini hammasiga bildirdi. Boysaridan, Barchinoydan ayol-bachalar chopishib, suyunchi olib qoldi. Endi qavmu elat, qarindoshlari Alpomishxonni ko‘rgani kelaverdi. Selov-selov, to‘p-to‘p, ko‘p-ko‘p, dasta-dasta chaparasta kelishib ko‘rib, hammasi o‘rtaga olib tanishib qoldi.

Endi Qorajonning odamlari Qalmoqqa etib bordi. Ko‘kaldosh qaradi. Qorajon yo‘q, sayislar bor.

– Qorajon qani? – deb so‘radi.

– Qorajoningni bilmadik biz. Bandarga yo‘lda Qo‘ng‘irotning xoni-ga duch bo‘ldi. Undan qutuluvi qattiq ish bo‘ldi. Yoz ham bo‘lsa, qish bo‘ldi. O‘rab chiqqandik yo‘lidan, odam qutulmas qo‘lidan, chil solib oldi belidan, tortib qo‘lini boyladi. Kallasiga ko‘p qamchini tayladi. Chilbir cho‘liga qarab haydadi, – dedi

Ko‘kaldosh darg‘azab bo‘lib ketdi. Bosh-doqqa chopar yubordi. Otlarning barini toptirdi. Kallasi xumday, qobog‘i chimday, yag‘rini qopday, murti sopday polvonlar bilan jo‘nay bergen edi. Qorajon ham mazza qilib Alpomish bilan yotgan edi. Chilbir cho‘lidan g‘urpullab chang chiqib, otlarning kelayotganiga ko‘zi tushib, Alpomishga qarab, bir so‘z deb turibdi.

97

Baland tog‘larning bag‘ri bo‘ktar qor,
1830 Polvon do‘stim, qo‘ldan berma nomus-or,
Seni eshitib kelayotir Qalmoqlar.

1840

G‘ayrati oshganday Ko‘kaldoshning chog‘idan,
Chang chiqadi Chilbir cho‘li zil tog‘idan,
Aslo qo‘rqma, qalmoqlarning do‘qidan,
Aslo xazar qilma qalmoqlarning o‘zidan,
Aslo qo‘rqma aytgan gurpi so‘zidan,
Parvo qilma, o‘zim bor, senday polvonisidan.
Qo‘rquitishga kelayotir elingni,
G‘ayrat qilib mahkam bog‘la belingni,
Aslo tortma qalmoqlardan tilingni.

To‘pi buzulmay kelayotir Qalmoqlar mukka,
Senday bo‘lgan Hakimbekka,
Ular ko‘pchil[ik], sen o‘zing yakka,
Qaytmay gaplashaver tikka.

Talashib kelibsan yoringga,
O‘zim chopaman oringga.
Kurmalmasin qizil tiling,
Ustun keladi qo‘ling.

98

“Kentning kesagi uradi”, degan so‘z bor. Qalmoq alclarining siyosatiga Alpomishning yuragi ozroq g‘alt urib turibdi. Qalmoq polvonlari har ovulga boryapti.

– Xoning qaerda? – deb so‘ryapti. Qaytmay boryapti. Chachov kelmadи lukka, shunday kelib qoladi tikka, Qorajon qalmoq alclarining oldiga chiqdi. Ko‘kaldosh Qorajonga yomon ko‘zi bilan tikilib:

– Ha, Qorajon ahmoq, nima ish qilib yuribsan? – deb so‘rayapti. Qorajon aytdi:

– Ko‘kaldosh, men ham yurdim, turdim, bunday bolani ko‘rganim yo‘q edim, – dedi.

– Haliyam o‘lmay qoldim, shunga ham vaqting xush bo‘lmaydimi? Mening ishim tingan, ishonmasang ko‘r, olti qobirg‘am singan. Hali ham mard o‘g‘il ekan, oldiga solib, shu erga haydab keldi.

Ko‘kaldosh aytdi:

– Qorajon, menga sen ko‘p safsatani gapirma, qaerda shu Qo‘ng‘iroting xoni?

Qorajon aytdi:

– Shu baxmal o‘tovda yotibdi, ishing bo‘lsa, boraqol – dedi. Ko‘kaldosh lab urib:

– Qo‘ng‘irotning xoni, qani chiqib, bir ko‘zimga ko‘rin, – deyapti.
Alpomish uydan chiqib qarab, Ko‘kaldoshni ko‘rib:

– Ishing bo‘lsa, gapir, – dedi. Ko‘kaldosh Alpomishga qarab, bir-ikki og‘iz gapiryapti:

1850 Sahro-cho‘lda otingni muncha elasan,
Agar gul bo‘lsang, sarg‘ayib so‘lasan,
Nima ish bilan bu Qalmoqqa kelasan?
Ko‘kaldosh mingan bedovning beliga,
Siyosat qilib Boybo‘rining uliga,
Nima uchun kelasan Qalmoq eliga?

Qush uchadi havoda qanotini yoyib,
Men shunqorman, tepsam qilaman mayib,
Yosh bola ekansan, bo‘lding-da hayf.
Omon ketolmaysan Qalmoq elidan,
Senday ahmoq adashibdi yo‘lidan,
1860 Omon ketišing gumondi[r] Ko‘kaldosh qo‘lidan.
Bunda kim kelsa, ketmaydi omon,
Boshingga solaman qorong‘u tuman,
O‘zing kebsan, o‘zing ketgin shu zamon.

99

– Ko‘p guppi gap gapirma menga qarab,
Achchig‘lansam ahvoling qilaman xarob,
Men kelganman yorimni so‘rab,
Achchiqlansam, qobog‘imni yirtaman,
Qahrlansam, oting bilan ko‘kka otaman,
Yorim olib, o‘z elimga ketaman.

1870 Tog‘u cho‘lda otimni chopdim xezlab,
Bunda keldim sevikli yorni izlab.
Maqsadingni aytgin menga, Ko‘kaldosh,
Maydonga chiqaman gaybir joy sozlab.

Xazon ursa, bulbul uchar gulshanga,
Kasartki yondasholmaydi ilonga,
Guppi gapni ko‘p gapirmay, Ko‘kaldosh,
Talab qilsang, mana, chiqaver maydonga.
Men qo‘rqmayman sening guppi so‘zingdan,

- 1880 Polvonlarni ergashtirib izingdan.
 Bu guppi gapni ko‘p gapirma, Ko‘kaldosh,
 Buncha ketasan o‘zingdan.
- Niyat qilib otlandim orqa ko‘limdan,
 Duo olib chiqdim Qultoy cholimdan.
 Xazarim yo‘q to‘g‘ri kelsa o‘limdan,
 Manmansiragan nobud bo‘lar qo‘limdan.
- 1890 Nima desang, aytganingga yuraman,
 Talab qilsang, mana, maydon kiraman,
 Zo‘rlik qilsang shuncha elni beraman.
 Maydonga kirishlik mardning ishi,
 Or uchun ham, yor uchun ham mard polvon oshi,
 Bo‘lsa men qaytmayman Qalmoq savashi.
- Qizil gullar xazon urmay so‘lmaydi,
 Jondan qo‘rqan yorni izlab kelmaydi,
 Guppi-semiz gaping amal bo‘lmaydi.
 Tog‘larda gullaydi qozamizor,
 Ko‘llarda g‘irqillab so‘nalar suzar,
 Bahs qilgin qo‘limda bo‘lar g‘ar[ib]mozor,
 Lochin qush uchadi havolab ko‘llarga,
 O‘rdak, so‘na aylanadi ko‘llarga,
 O‘zim polvon Chilbir cho‘lday ellarga.
- 1900 Baland tog‘larning bastiga,
 Gap kelar payvastiga,
 Bir jonni o‘rtaga qo‘yganmiz.
 Suyukli yorning ustiga.
 O‘zim Qo‘ng‘irotning xoni,
 Sen-ku qalmoqning polvoni,
 Ko‘p gapirding bema’ni.
- 1910 Qarasangiz Hakimbekka,
 Sizlar ko‘psiz o‘zim yakka,
 Qo‘rqmay gaplashdi tikka.

Alqissa, Qorajon aytди:

– Ko‘kaldosh, bu gapdan nima ma’ni topasan, u sendan kam emas, qo‘rmaydi. Chunki, men uni sinadim.

Ko‘kaldosh shu gap bilan qaytib, chorvadorlarning ovuliga tushib etishib qoldilar. Polvonlar izidan Qalmoq podshohi qancha odamlari bilan kelib, ancha g‘avg‘o bo‘ldi. “Endi janjal, taloto‘pdan ko‘ra, boshqa bir fikrga kelaylik”, deyishdi. Qorajon aytdi:

– Alpomish aytgan gapga yurmaydi. O‘zi o‘lmasdan Barchin yorini sizlarga bermaydi. Agar maydonga chiqsalaring, bir boshingdan sermaydi. Ha desang, mard o‘g‘il maydonga kiradi. O‘zi mergan emasmi, yakkalab teradi. Agar gaybir yoy qo‘liga tushsa, bir boshidan qiradi. Shunday g‘ayratli o‘g‘il ekan-ku, nor kalla xumday shishadi. G‘ayratiga yana shuncha g‘ayrat qo‘shadi. Agar maydonga chiqsalaring, or tala-shadi.

– Bo‘lmasa, nima qilamiz? – deyishdi. Qalmoq podshosi aytdi:

– Shunday fikrga kelamiz, – dedi.

– Yetti yil Chilbir cho‘lida joyladi. Boyning qizi yettida bo‘lsa, o‘n to‘rt-o‘n beshlarda bo‘ldi. Endi qo‘limizdan berib yubormaymiz. Uchta shartni o‘rtaga qo‘yamiz. Besh yuz otni bir joyga yig‘amiz. Shu poygada uch otdan qaysi ot oldin kelsa, boyning qizini shu kishi olsin. Ikkinchisi, to‘qsonta polvonning eng birinchisini maydonga chiqib yiqlitsa. Uchinchisi, sakson-yuz balandlikdan oltin qovoqni urib tushirsa, haloli bo‘lsin, kim bo‘lsa olsin. Qorajon, borib ayt, – dedi.

Qorajon Alpomishga kelib:

– Do‘stim, qalmoqlar izma-iz kelib ko‘payyapti. Ishing og‘irlashadi-ganga o‘xshayapti. Lekin shapaloq bilan ish bitsa, mushtlashishning hojati yo‘q, degan bir gap bor. Shuning uchun og‘ir el ham mamlakatning usti urushib, surishib, kalla yorishib, qonga qorishib yotgandan ko‘ra, Oybarchin uchun bemalol, bejanjal uchta shart qo‘yildi. Shuni bajarsa bo‘lmaydimi? Alpomish aytdi:

– Nima shart qo‘ydilar? – Sharti besh yuz ot. Lekin shu otlarni sinchi ko‘radi. Sinching yuborgani boradi. Yubormagani bormaydi. Shu qalmoqning uch otidan Boychibor oldin kelsa, qalmoqlar hech indamay qoladi. Polvonlar ichida hammasi mendan yiqlidi. Lekin Ko‘kaldoshning mendan kuchi ko‘p. Kurashga Ko‘kaldosh kiradi. Ko‘kaldoshni bossang, bemalol Oybarchinni olasan. Uchinchisi, sakson-yuz gaz balandlikdagi oltin qovoq tillani urib tushirish. Unga Qo‘nar mergan chiqadi. Qo‘nar mergan ham unday chakana mergan emas. Agar buni ham otib qolsang, bemalol olaverasan, janjal, gap-so‘z yo‘q.

Alpomish aytdi:

– Polvon kurashidan uncha xazarim yo‘q. Lekin poyga chatoqroq bo‘lmasa, – dedi. Qorajon aytdi:

– Poygaga o‘zim ketaman, poyga chatoq bo‘lmaydi. Sen polvon kуrashiga dam olib yotaver.

Alpomish Qo‘ng‘irot boylarning gapga etarlarini chaqirtirgan edi. Hammasi yig‘ilgan edi. Bularning kattakonlarini Nodir elbegi, Ko‘char elbegi, Shozamon mergan, Suvdali so‘filar edi. Alpomish aytdi:

– Qalmoqlar shart qo‘yibdi. Shunga nima deymiz?

Hamma xalq aytdi:

– Xo‘p, bo‘pti. Qo‘ng‘irot xoni davlatli-ku, katta-kichik tilakli bo‘lib turamiz-da, – dedi. Alpomish aytdi:

– Qorajon, bo‘lmasa, mayli, borib aytasan, otlarini yig‘sins, tez to‘plasin, – dedi. Qalmoqlarga bu xabar etgandan keyin, bu yoq-u yoqqa choptirib, yaxshi otlarni toptirib, qo‘y degandan keyin har tarafga ot chopilib ketayotir.

Qarang, Qalmoqning ishiga,
Ot choptirdi tush-tushiga,
Xabarchilar ketyapti,
Qishloqlarni titayapti.

102

Dol bedov o‘ynab, dovul tuyildi,
Yaxshi otning bari birdan tintildi,
Poygachi, armonda qolmay, boraver,
Biying qizi poyga boshga qo‘yildi.

Kelayotir qancha kishi,
1920 Bu poyga yugruk otning ishi,
Biying qizi poyga boshi,
Ham desa polvon oshi.

Ildam otli kelaverdi,
Shunday xabar bo‘laverdi.
Gurumbot bo‘b Chilbir cho‘li,
Qalmoqlarga to‘laverdi.

Ot chopildi chaparasta,
Qalmoq ellar chaparasta,
Ot chopmoqqa havasda,
1930 Ot chopildi chaparasta.

1940

Osmomonning yorug‘ oylari,
Sap chorvaning boylari,
Bu poygaga qo‘yildi,
Biyning Barchinoylari.

Qurashdi poyganing o‘zi,
Bilmam, qanday bo‘lar izi,
Poyga boshi biyning qizi.
Poygachi otlar keb bo‘ldi,
Hammasi yig‘ilib, to‘p bo‘ldi,
Xil-xiliga saf-saf bo‘ldi,
Tomoshabin juda ko‘p bo‘ldi,
Odam bosdi Chilbir cho‘ldi,
Tomoshabin ko‘p bo‘ldi,
Kim oladi Barchin guldi?

Endi tomoshabin ko‘p bo‘ldi. Sinchidan otlar o‘taverdi, besh yuz otni sinchidan o‘tkazib, sinchi birinchi Ko‘kdo‘nan, ikkinchi Ko‘kchinoq, uchinchi Ko‘kqlan ot, deb qo‘ygan edi. Ko‘kaldosh aytdi: – Qo‘ng‘irot boylar, sizlar ham oflaringni sinchidan o‘tkazinglar endi.

Qo‘ng‘irot boylari Boychiborni o‘rtaga etaklab olib keldi. Qalmoqlar:

– Qo‘ng‘irotning oti shu otmikan? – deb qarasha berdi. Bir-biridan so‘rasha berdi. Ba’zilari:

– Qo‘ng‘irotning oti shul bo‘lsa, Ko‘kdo‘nancha yo‘q, – deyishaverdi. Boychiborni sinchingining oldiga to‘g‘ri qildi. Ko‘kaldosh aytdi:

– O‘zbekning otini juda yaxshi tekshirib, sina, – dedi. Sinchi Boychiborning keyingi joyidan birdan siypalab ko‘rib chiqdi. Sag‘risidan siypalab to etim yолигача ko‘rib chiqdi. Qo‘ltig‘idan siypalab to to‘shigacha ko‘rib chiqdi. Terisini bir cho‘zib ko‘rdi, otning yoli kokillarini siypalab ko‘rdi. Otning chatonlaridan siypalab ko‘rdi, tomoshabin qarab turibди. Sinchi ko‘rdi, otning hamma tomoniga qarab ko‘rdi. Sinchi otning sag‘risiga astagina bir shapatlab, qalmoq xalqinga qarab otning qandayligini bayon etyapti:

Poyga joydur Chilbir cho‘li,
Quloq soling, qalmoqning eli,
O‘n to‘rtida yarqillab to‘lar osmonning oyi,
Iligidan yo‘g‘on ekan ortingi poyi,

- Asli o‘zi tulporning xonazot toyi,
Qimmatbaho ot ekan, o‘zbekning oti.
- Onadan tug‘ilgan seshanbaning qay kechasi,
Qumga chopsa, aslo botmas poygasi,
O‘n sakkiz qarich chiqadi uchasi,
Hamma otdan ziyod keldi muchasi,
Qimmatbaho ekan o‘zbekning oti.
- Tizginidan aslo birov tutolmas,
Bahs qilsa qanotli qush ucholmas,
To‘rt oyoqli hayvon bunga etolmas,
Qimmatbaho ekan o‘zbekning oti.
- Ipakdan mayin ekan dum bilan yoli,
Sag‘rinida bor ekan ikkita xoli,
Chopganda qisqarar Chilbirning cho‘li,
Quloq solyapsizlarmi, qalmoqning eli.
- Quloq soling, sinchingin aytgan so‘ziga,
Or talashib kelgan boyning qiziga,
Otning barin tashlab kelar iziga,
Yorin bersa bo‘lar ekan o‘ziga,
Qimmatbaho ekan o‘zbekning oti.
- Qarayotir Qalmoq yurtning elati,
Asli tulpor ekan o‘zbekning oti.
Qo‘ltig‘ida bor ekan-da qanoti,
Qimmatbaho ekan o‘zbekning oti.
- Sag‘rini tushnagan to‘qsonning muziday,
Quloqlari tog‘larning andiziday,
Ko‘zлari havoning yulduziday,
Buning xaridori boyning qiziday.
- Qalmoq eldan obketguday orini,
Cho‘lda tashlab kelar otning borini,
Men sinadim, to‘rt bo‘rboyning zo‘rini,
Olib ketguday Barchinoyday yorini,

Agar chopsa, arning beti ozilar,
Tuyoq bosgan eri o‘raday qozilar,
Jiyribil juftak otgan so‘ng,
Qo‘ltig‘idan qanot yozilar,
Otning bori keyinda qob uzilar.

Bu poygadan aniq sabil o‘tadi,
Bu tulporqa qanday hayvon etadi,
Yorini olib o‘z eliga ketadi,
Orga chopar ekan o‘zbekning oti.

- 1990 Olti oy chopsa, karlamaydi,
 O‘n oy chopsa, terlamaydi,
 Tulpor otning sini bo‘lmas,
 Sinchidan boshqa borlamaydi.

 O‘zbekning oti o‘tguday,
 Quvganini etguday,
 Xayolimda, yorini olib ketguday.

105

Alqissa, sinchingin gapiga hamma termulib qoldi. Ko‘kaldoshning yuraklari siltab urib, goh sinchiga, goh otga qarayverdi. Sinchini Ko‘kaldosh chetga imlab chaqirib oldi. Ko‘kaldosh sinchiga aytdi:

– To‘g‘risini gapir, odamni qo‘rqitib tashlading-ku. Ko‘kdo‘nandan Qo‘ng‘irotning oti o‘tadimi? – dedi. Sinchi aytdi:

– Hozir men nima dedim, eshitmadingizmi? O‘zbekning otining oldida Do‘nan otlar tushovlanganday bo‘lib qoladi. Bu o‘zbekning otining oldida bu otlar eshak-ku! – dedi.

Ko‘kaldoshning bir achchig‘i chiqib ketdiki, choqlab turib shapaloq tortib yubordi. Qulquning tubi etdi. Ko‘kaldoshning shapalog‘ining zo‘rligidan sinchingin bir ko‘zi erga oqib tushdi. Qulquning tubi kuyishib, badani uyushib, bejon bo‘lib yiqlidi.

– Uying kuysin, sen sinchingin, shu Do‘nan ko‘k podsholar bo‘yicha, oldiga ot o‘tib ko‘rmagan ot-ku! Senga qolganda qo‘ng‘irotning otining oldida eshak bo‘ladimi? Agar shu poygada o‘zbekning oti oldin kelsa, sening ko‘zingning xunini to‘layman. Agar Do‘nandan keyin kelsa, bu ko‘zingni ham o‘yib olaman[– dedi].

Poygachilar endi tayyorlanib, jo‘namoqqa shay bo‘ldi. Qurajon Al-pomishning oldiga kelib:

– Qani do‘stim, qalmoqlar bo‘lsa toq bo‘ldi, endi jo‘nashga taxt bo‘ldi. Endi do‘stlikning nishoni ishonsang, otingni menga bersang. Sening nomingdan poygaga men ketsam, sen uzoq yo‘ldan kelib charchagansan, dam olib yotsang, qanday bo‘ladi? – deb aytdi. Alpomish:

– Xo‘p, – deb Boychiborni egarlab, Qorajonga to‘g‘ri qildi. Jilovini ushlatib:

– Do‘stim, otning ixtiyori senda, – deb Alpomish Boychiborni Qorajonga ishonib topshiryapti:

Qorajon do‘st, eshit maslahatimni,
Ishonib topshirdim chibor otimni,
O‘zing ham polvon Qalmoq eliga,
2000 Ishonib topshirdim, do‘stim, qo‘lingga,
Tilakchi bo‘b turdim ketgan elingga.

Seniki bo‘ldi endi Chibor ot,
Qalmoqlardan bo‘l ehtiyot,
Havasim Qalmoq elingdan,
Kecha-kunduz jilovini boshqaga berma qo‘lingdan.

106

Tayin gapim, shuni zinhor qilasan,
Zinhor otimga ehtiyyot bo‘lasan,
Ishonib topshirdim, o‘zing bilasan.
Qalmoqlar qilmasin mening korimni,
2010 Ishonib topshirdim Boychiborimni,
Qalmoqda qoldirma Barchin yorimni.

Men bilan do‘st bo‘lgin-da o‘lguncha,
Menda toqat bo‘lmas sen kelguncha,
Poyga toyi Bolqon tog‘ning boshida,
Hech kimni yo‘lattirma otning qoshiga,
Bugun oylarning nechasi,
Uxlama tong otguncha poygaga chopadigan kechasi.

Kutib to‘xtayman sening yo‘lingni,
Men bilmayman, qanday bu elingni,
2020 Chopgan vaqtda boshqarib hayda yo‘lingni,
Jiloviga aslo tegizma qo‘lingni.

Tizginini qalmoq eling tutmasin,
Seni aldab, oldingga qalmoq o'tmasin,
Qalmoq eling firib berib ketmasin.
Jilovidan hech kimga sen choldirma,
Oldingni o'ratib keyinga qoldirma,
Qalmoq elga aslo siring bildirma,
Ot qoshiga birovni aslo keltirma,
Qalmoq elda qizil yuzim so'ldirma,
2030 Barchin yorni Qalmoq elga qoldirma.

Jilovini tugib tagiga tashlagin,
Egardan ikki qo'llab mahkam ushlagin.
Ishondim, poygadan otim qoldirma,
Jiloviga qalmoqqa qo'l soldirma,
Bu ellarda qizil yuzim so'ldirma.

– deb Alpomish Qorajonga otni topshirdi. Poygachilar poyga joyga chiqib ketdi. Qalmoqlar qarasa, Qorajon o'zbekning otini minib poygaga boryapti. Ko'kaldosh Qorajondan gap so'rayapti.

– Qani, Qorajon, o'zbekning otini minibsanmi? Unga Qorajon:
– O'zbekni galdiratib, otni 2000 tangaga oldim-da, – dedi. Ko'-kaldosh aytdi:

– Qo'y, shu hiylangni, sen og'ayni, aka-uka, qarindoshlikdan kechib-san-da, – dedi. Qalmoqlar Qorajonni o'rtaga olib, gaplashib boryapti.

– Qorajon, endi o'zing bilasan, shu poygada ukalik qilasan, harna keyniga saqlab qolasan, poygaga minibsan Qo'ng'irot Chiborini o'zbekka ketkizmagil qalmoq orini, senga topshirayin otning ixtiyorini, poygadan qoldirgin tulporini. Minib chiqibsan tulpor beliga, o'zi og'aynilik qilgin endi elingga. Biyning qizini berib yubormaylik bir qo'ng'irotning qo'liga, – deb tayinlashyapti.

Alqissa, Qorajon alplarga shunday deb borayapti:

Qalmoq, aytganingga yurmayman,
Aldagan so'zingga qulq solmayman,
Jiloviga qo'l solganiningni sermayman,
Agar, oti o'tsa, poygani senga bermayman.

2040 Qalmoq ellar, nasihating olmayman,
Aldagan so'zingga qulq solmayman,

Agar, ot o‘zi keyin qolsa, unda bilmayman,
 Lekin, jilovini qoqib keyin qolmayman.
 Katta gapirdim xonning o‘ziga,
 Qulq solmayman hech kim so‘ziga,
 Ot yarasa talashma biyning qiziga,
 Qasddan tilov qoqib, qob ketmayman iziga.

2050 Barchin uchun bu poygada besh yuz ot,
 Ishonib topshirdi otni omonat,
 Omonatga qilolmayman xiyonat.
 Sizlar bilan bu poygaga boraman,
 Otini qoldirsam, yuzi qoraman,
 Ot yarasa, or talashib ko‘raman.

Bu poygada do‘stligimni bildirib,
 Tashlamayman bekning rangin so‘ldirib,
 Ishontirib chiqdim ko‘nglin to‘ldirib,
 Katta qilsang, qalmoq, ketarsan o‘ldirib,
 Ot o‘tkazsang zo‘rligingni bildirib.

Shunda Ko‘kaldosh Qorajonga aytdi:

2060 Qorajon senga bir balo bo‘lami,
 Aka-ukangning rangi-ro‘yi so‘lami,
 Qalmoq xalqlar endi uyalib qolami,
 Biy qizini Qo‘ng‘irot xoni olami?

Qorajon aytdi:

Ko‘kaldosh, bu gaping nomardning ishi,
 Biyning qizi poyga boshi,
 Notantilik qilgan nomard kishi.
 Aytgan gaping nomard ishi bo‘ladi,
 Oti ildam biyning qizin oladi.
 Oti yaramagan cho‘lda qoladi,
 Kerak bo‘lsa, poygadan kelmay o‘ladi.

Alqissa, qalmoqlar Qorajonning kayfini yomon choqladi. Qalmoqlar
 aytdi:

– Uying kuygur Qorajon gapga qulqoq solmaydi. Shuncha nasihatni olmaydi. Qancha gap aytganing ko‘ziga ilmaydi. O‘zbekning oti yarasa, o‘lsa keyin qolmaydi. Qulqoqqa tutmaydi, bu og‘ayinning zorini erga qaratadi. Qalmoqlarning borini, poygada qilmasak buning korini, Bolqonda qazmasak buning go‘rini, – deyishaverdi. Poygachilar jo‘nab uch kecha-kunduz yurdi. Bolqon tog‘iga etib bordi. Poyga boshlig‘i:

– Yigitlar, poyga boshi ana shu tog‘, shu kecha dam oling, otga em bering, erta bilan poygani qo‘yamiz, – dedi. Tog‘ning boshida alplar bir bo‘lak, Qorajonning o‘zi esa bo‘lak joyga tushdi. Poygachilar:

– Kel, Qorajon, birga ovqat eymiz, – dedi. Qorajon:

– Yo‘q, ovqat emayman. Otning badanini qashlab, etaklab sovitaman”, – dedi. Ko‘kaldosh aytdi:

– Bu kelmaydi ham, shu kecha uxlamaydi ham, ish qilib besh-o‘ntalarin shuni angib chiqinglar.

Qalmoqlar har tomonga bo‘linib, Qorajonni angib yotdi. Qorajon uxlamasdan, otga ehtiyyot bo‘lib chiqdi. Qalmoqlar esa Qorajonning uxlashini kutib turibdi. Tong vaqt Qorajonni uyqu bosib, uyquga ketdi, beshta-o‘nta qalmoq Qorajon ustiga etdi. Qorajonni uyquda bog‘lab, urib-urib,

– Avvali o‘lasan, o‘lmasang ham, bu poygadan qolasan, – deb mahkam bog‘lab tashladi. Boychiborning to‘rt oyog‘iga to‘rt mix urdi. Qorajonga Boychiborni bog‘lab, tog‘ning boshiga tashlab:

– Ana endi o‘zbekning ottini o‘tkarganining ko‘raylik, – deb qalmoqlar poygani qo‘yib ketdi. Qorajon bilan Boychibor Bolqon tog‘ining ustida qolib ketdi. Tong otib, kun chiqdi, poyganing iziga qarasa, chang ham ko‘rinmaydi. Qorajon kelmayotir hushiga, arqon botib ketgan bilagining go‘sh[t]iga. Boychibor charx urib, Qorajonning boshida tuyog‘ini erga bosolmay turibdi. Qorajonning arqonini tishlab, shuncha silkilasa-da, badanining go‘sh[t]i titilib qolgan, turolmaydi. Boychibor qattiq-qattiq kishnadi.

109

2070 Bolqon tog‘ning boshin tuman cholganday,
Bu poygadan Boychibor ot qolganday.
Biyning qizin qalmoqlar olganday,
Qorajon yotibdi, xuddi o‘lganday.

Gurkirab chiqadi tulpor tovushi,
O‘ksib kishnar ezilganday yurak go‘sh[t]i.
Boychibor tovushiga tog‘lar sado beradi,

- Ko‘rinmaydi qalmoqlarning qorasi,
 Adrab ketganday qalmoq orasi,
 Og‘irday-da, Qorajonning yarasi.
 2080 Boychiborning o‘ksib kishnagan zoriga,
 Gumbirlayotir tog‘ning darasi.
- Qalmoqlar poygani qo‘yib ketibdi,
 Qorajon o‘lganday sulyab yotibdi,
 Kishnay-kishnay ovozi bitibdi,
 Qorajon hamon shunday yotibdi,
 Yotganiga bir kecha-kunduz o‘tibdi.
- Boychibor aylanib Qorajon boshiga,
 Boychiborning o‘ksigan tovushiga,
 Qorajon endi keldi arang hushiga.
 2090 Armonda qib ketgan qalmoqlar o‘zini,
 Kallasin ko‘tarib, ochsa ko‘zini,
 Boychibor ovozi o‘ksib bitibdi,
 Qorajon boshi aylanib turibdi,
 Qalmoqlar-ku, boylab ketibdi,
 Ketganiga bir kecha-kunduz o‘tibdi,
 Chipor bilan Bolqon tog‘da yotibdi,
 Qorajon bildi keyin qolibdi,
 Armon bilan tog‘ boshida turibdi,
 Bizning qizni, attang, qalmoq olibdi.

Qorajon dovdirab turib, otning belini mahkam tortdi. Bir ahvolda otga minib, jilovini ot yoliga tashlab qo‘ydi. Qorajon: “Yotib qolguncha, otib qol, tavakkal, bir haydab qolay”, deb tog‘dan cho‘lga endi.

Qorajon Boychiborga qarab bir so‘z deyapti:

- 2100 Chayqaldimi yo‘lbars egang davlati,
 Yo‘lingga ko‘z tutgan o‘zbek elati.
 Bir ko‘zingni ochgin-da, polvon oti,
 Gulday bo‘lib so‘lmasin egang jasadi.
 Qorajonning shuldir zori,
 Ketibdi otlarning bari,
 Och ko‘zingni, Alpomish tulpori,
 Qalmoq elda qolmasin egangning sevikli yori.

Bolqon tog‘ning boshi qoya,
Mehnatingni qilma zoya.
2110 Yig‘lab qolmasin Barchinoy,
Yurak bag‘riya kuya-kuya.

G‘uborsiydi dashti sahra,
Alam qilar bora-bora.
Badanimga solgan yara,
Poygada o‘zing ko‘rmasang chora.

Qalmoqlar ketmasin o‘zib,
Yurak-bag‘rimni ezib,
Keynidan etgin cho‘zib.
Qorajonning labi qotyapti,
2120 Ot oyog‘ining ostida mix bor,
Ko‘p yoza olmay ketyapti

Qorajonning otning oyog‘iga mix urilganidan xabari yo‘q edi. Boychibor oyog‘ini toshlarga ura-ura, mixning uchtasini tushirdi. Qorajonning xayolida shamol balandga ko‘targanday bo‘ldi.

111

Boychibor engillashdi,
Toshqin daryoday toshdi,
Chopishga chopish qo‘shdi,
Changi changiga ulashdi.
Boychiborning ketishiga,
Qorajonning aqli shoshdi.

2130 Qarasa, Chibor ko‘rguday,
Soy-qirlardan o‘tguday,
Oldiga ot ko‘ndalang kelsa,
Og‘izda yalmab yutguday,
Shu sozda ketaversa,
Quvib qalmoqni etguday.

Ochilar gulning lolasi,
Olisda Qalmoq qal’asi,
O‘zing tulporning bolasi,

- Oybarchinning davrining,
Qolib ketmasin chalasi.
- 2140 Qarang, chiporning o‘ziga,
 Or talashganga o‘xshaydi,
 Boysariboyning qiziga.
 Armonda qolib ketgan,
 Besh yuz otning iziga.
- Har balandga chiqqanda Qorajon,
 Qarasa, ko‘rinmas qalmoq ko‘ziga.
 Sigirdan ayrilmas buqa,
 Ketayotir cho‘lda yakka.
- 2150 Uyaltirmagin, jonivor,
 Yo‘lbarsday bo‘lgan Hakimbekka.
 Soyu qirdan o‘tayotir,
 Kesib borayotir tikka.
- Qarchig‘ay qushday quyulib,
 Jilovi yolga yoyilib,
 Tirab tuyog‘in bosgan joy,
 Uchtaday bo‘lib o‘yilib,
 Chirgidan oqqan achchiq ter,
 Badandan borar quyulib.
- 2160 Kemalar qalqib suzar,
 Daryoning do‘lab guliga,
 Boychiborning bu ketishi,
 Qo‘ng‘irot elning nomiga.
 Qalmoqlarning tulporini,
 Cho‘lda soladi damiga.
- Erisin tog‘ning qori,
 Ketibdi otlar ilgari,
 To‘rt bo‘rboyning ko‘pdir zo‘ri,
 Erga tomib boradi
 Badandan oqqan teri.

2170 Abzali ola qayishdan,
Qolmaguday uchgan qushdan,
Kami yo‘q ekan tulporning,
Ham yugurish va chopishdan.

Chatanning kengligidan,
Yuk ortgan tuya o‘tguday,
Qorajon qarab qo‘yadi,
Hali hech tolmay ketguday,
Poyganing ortidan etguday.

2180 Uch kechayu kunduzlik yo‘ldir poyga orasi,
Quyun turganday changiy berdi,
Cho‘lning dashti sarasi.
Aqlini rostlab qarasa Qorajon,
Ko‘rinar changning qorasi.

Tuyog‘i erni qazib,
Qorajon tashlab yubordi,
Jilovini yolga cho‘zib,
Qalmoqlarga eta berdi,
Tuyog‘i erni qazib.

2190 Yaxday shamoli boradi,
Qalmoqlar bir vaqt qaradi,
Qorajonni ko‘radi.
Chuvillashib qalmoqlar,
Qorajon, deb shovqin beradi.
Keynib etib boradi,
Otlarning o‘rtasin yoradi.

Solgan ekan damiga,
Hakimbekning nomiga,
Qalmoq bo‘lsang qolaver,
Yana o‘tarsan galiga.

2200 Bir pasda qorasi ko‘rinmay,
Ketdi cho‘lga childirab,
Qatag‘on sulug‘i shildirab,

Soyu qirdan o‘tib ketdi,
Ko‘rinmay ketdi buldirab.

O‘rdak uchsa, ko‘l loylanib,
Tulporlar ketdi saylanib,
Ko‘zini ocholmas Qorajon,
Boshi boradi aylanib.

Tog‘ni tuman chalganga o‘xshaydi,
Cho‘lda qalmoqlar chuvab qolganga o‘xshaydi,
Poygani Qorajon olganga o‘xshaydi,
Qorajon sekin jilovin tortdi.
Qalmoq qob ketdi keyniga,
Tortsa etmaydi bo‘yniga.

114

Qolmadi ko‘ngilning g‘ubori,
Qob ketdi qalmoqning bari,
Ketmadi egangning ori.
Fasl damningni rostlab ol,
Alpomishbekning tulpori.

Silkib-silkib jilovini.
2220 Qorajonni tortyapti.
Soy-qirlardan Boychibor.
Hali ham tez o‘tyapti.
Qorajonga jilov bermay,
Silkib-silkib ketyapti.

Qorajon ot ustidan yerga enkayib qarasa, ikki otning izi ketibdi.
Cho‘lda hech ko‘rinmaydi otning qorasi. Besh metrdan chiqadi har qa-
damining orasi. Tuyog‘i yerni qazib, ketganday. Qorajon:

– Aytdim to‘xtamading, otlardan yana oldin ketgan[bor] ekan-da.
Oldin ketgan ikki otning biri Obdalning Ko‘kqulon oti bo‘lsa kerak.
Bittasi esa Ko‘kdo‘nan bo‘lsa kerak. Shu ikkovidan o‘zadigan ot yo‘q
edi, bor-e, jonivor, ixtiyor o‘zingda, – deb otning jilovini o‘z ixtiyoriga
tashladi. Ana-mana deguncha Tepaning ustiga chiqdi. Qorajon qarasa,
Qulon tog‘dan Ko‘kqulonning oshib borayotganini ko‘rdi.

Ot maydonda oshladi,
Jilovini Qorajon
Yana yolga tashladi,
Ko‘kqulonning ortidan,
Chipor quvib nishladi.

- 2230 O‘qiganning hamma qoyil zehniga,
Qorajon jilov tashladi otning bo‘yniga,
Otning bori terlab qolibdi, chiporning ketiga,
Ko‘rib qoldi Boychibor Qulonni u ko‘ziga,
Nishlar Qulonning iziga.

- Qomati yoyday bo‘lib,
Badandan teri to‘kilib,
Tuyoqqa mix qoqilib,
Ko‘kqulon qolibdi tig‘ilib.
Kela-kela Ko‘kqulon,
O‘mboshib ketdi yiqlilib.

- 2240 G‘uborsib cho‘lu biyobon,
Qarasa Obdalday polvon.
Yaxday shamoli boradi,
Obdal shunday qaradi,
Qorajon etib boradi,
Jilov saqla Qorajon, deb,
Obdal tovush beradi.

- 2250 Quloq solmaydi so‘ziga,
Qaramaydi yuziga,
– Qorajon dema uni
Qolib ketgan poyganing iziga.

Tog‘larni tuman cholgan,
Qorajon ortda qolgan,
Qorajon, deb qichqirma.
Qorajon Bolqon tog‘ belida,
Bir ot bilan o‘lib qolgan.

Qulooqqa tutmas zorini,
 Qorajonning qildilaring korini,
 Qorajon, deb yana qichqirasan,
 2260 O‘zing qazib kelib eding go‘rini, –

deb Obdalga qaramasdan o‘tib ketdi. Qorajon balandga chiqib qara-sa, Chilbir cho‘li g‘uborsib yotibdi. Poyga joy yaqin qolibdi, bir qora cho‘lda ko‘rinadi. Qorajon achchiq bilan ikki qamchi tutdi Boychiborga.

Ikki qamchi tashlab Chipor chotiga,
 Alpomishning chipor otiga,
 Hakkalab arning betiga,
 Bilagichi polvonning,
 Endi qamchi tortibdi,
 Zahar qamchi badaniga botibdi,
 Ko‘kaldoshning oti oldin ketibdi,
 Yo‘lbars egang senga ishonib yotibdi,
 Tomoshabon poyga joyni tutibdi,
 2270 Birdan ko‘zin ochib qarasa Qorajon,
 Ko‘kdo‘nanga elib Chipor etibdi.

Osmon ayoz bo‘lsa bo‘lar havo ko‘k,
 Ko‘kdo‘nandan Ko‘kaldoshning ko‘ngli to‘q,
 Bu vaqtgacha ot o‘tkazib ko‘rgan yo‘q,
 Ko‘kdo‘nan burilib qaradi,
 Boychiborning etganini ko‘radi.

Jo‘nab qo‘yaverdi jilovini yoyib,
 Tuyog‘i erni o‘yib,
 Bu poygani bermaguday besoyib,
 Mingan bedov beli sovib,
 2280 Ketidan etdi quvib,
 Ko‘kaldosh Qorajonni ko‘rib,
 Qorajon, deb shovqin berib:

Qorajon deydi o‘zingni,
 Menga qarab och ko‘zingni.
 Tingla akang dodini,
 Qaytar o‘zbekning otini.

2290 Quloq sol akang so‘ziga,
Tashlading biyning qiziga,
Nima bo‘ldi, Qorajon,
Saqlab qolgin-da, iziga.

Qolib ketdi otning bari,
O‘zim hammadan ilgari,
Ketmasin qalmoqning ori.
Fido bo‘lsin aziz jon,
Objo‘sh bo‘b ketganday badan,
Quloq solmaydi Qorajon.
Ikkovi chopdi bir maydon,
Qirqib o‘tayotir soydan.

2300 Osmon ayoz, havo ko‘k,
Juyruqligidan ko‘ngli to‘q,
Hozirgacha Do‘nanko‘k,
Ot o‘tkazib ko‘rgan yo‘q.
Qarang, otlarning zo‘riga,
Oybarchin uchun ikkovi,
Og‘iz solar bir-biriga.
Poyga joydan tomoshabin qaradi,
Bir-biriga ikki ot,
Og‘iz solib boradi.

117

2310 Ochsa o‘rdak quvar lochin,
Sinashib bir-birin chin,
Ikki otning talashishi,
Biyning Barchin qizi uchun.
Ikki ot qavat boryapti,
Tomoshabin ko‘ryapti,
Keng cho‘lga *sabillar* sig‘maydi,
Bir-birini ikkovi oldinga qo‘ymaydi,
Biyning qizini sabillar,
Bir-biriga qiymaydi.

Poyga joyda tomoshabinlar durbinda qarasa, ikki ot bir-biri bilan yo‘l talashib ketayotir. Tomoshabinlar tepa-tepalikka chiqib qarayotir. Qo‘ng‘irot chorvadorlarning xotin-bolasigacha tepalikka chiqib qaradi.

Oybarchin ham sakkiz kanizi bilan, doira sozi bilan, qancha chanqovuzi bilan, har bir nozi bilan Salqinchoq tepaning ustiga chiqib qaradi. Al-pomish yov tepaning ustiga chiqib Oybarchin va cho'lga qarab turibdi.

- 2320 Necha qora kelayotir buldirab,
 Bu cho'llarda soyu qirda guldirab.
 Qatag'on suvlug'i shildirab,
 Turib edi Alpomish kutib,
 Changi havoni tutib,
 Bir-biriga yo'l bermasdan,
 Ikki ot kelaverdi etib.
 Shunda qarasa Hakimbek,
 Bu poygada Chipor yo'q,
 Savil birovi Do'nanko'k.

Boychiborning badanining gulini qalmoqlarning urgan mixi tilgan va chang otning chiporini ko'rsatmay tashlagan edi. Shunda Alpomish: "Boychibor o'libdi-da, kelmabdi-da, attang", deb yig'lab, bir so'z aytib turibdi:

118

- 2330 Otlanib chiqqandim orqa cho'limdan,
 Duo olmay chiqdim-a, oxir elimdan,
 Suyukli yor ketib qoldi qo'limdan.
 Bu Qalmoqda shunqor tepdi belimga,
 Kim xabardor endi mening holimdan?

Ota-onam xabarsizdir o'zimdan,
Norozi bo'b yig'lab qolgan izimdan.
Endi xumor yoshlar to'ldi ko'zimga,
Ayrilib qoldim-da, sarvinozimdan.

- 2340 Ey, attang-a, ado bo'ldim,
 Bu Qalmoqda gado bo'ldim.
 Sut bergen ota-onadan,
 Nega bunday judo bo'ldim?

Yodimga tushib Barchinday sanam,
O'z boshimcha safar qildim-da men ham,
Norozi bo'b qolganmi ekan ota-onam?

2350

Piliksiz yonmaydi chiroqning moyi,
Bu poygada o‘larmi tulporning toyi?
Qalmoqda qolarmi Barchinday oyi?
Norozi bo‘b qolganmi ota-onam,
Shu dunyoda bo‘lib farzand gadoyi.

Qizil gulim oftob bo‘lmay so‘lganday,
Qalmoq oti bu poygani olganday,
Chipor bilan Qorajon-ku o‘lganday,
Oybarchinoy yig‘lab qolganday.

2360

Bir bo‘lganday Qalmoq ellarning bari,
Qisganday-da Qorajonning sho‘ri.
Qazilganday Bolqon tog‘larda go‘ri,
Albatta Qorajon bo‘lsa biri,
Kelmasmidi Boychibor hammadan ilgari,
Tog‘larda gullaydi qozamizor,
Bu qalmoqqa og‘ib kelgandi guzar,
Bolqon tog‘da Qorajon bo‘ldimikan go‘r-mozor, – deb
qomati yoyday bukilib, xumor ko‘zidan yosh to‘kilib, yuzturban bo‘lib
qoldi yiqilib. Bir-ikki tosh yo‘l qolganda otning biri orqada qolib, biri
o‘zib ketdi. Poygada shunday bo‘ladi. Qoida bayroq tikiladi poyga joy-
da, poygachi ot ikki ko‘zi bayroqda bo‘ladi, chunki hamma vaqt bay-
roq to‘lg‘anganini ko‘rib, o‘zini otib chopdi. Qorajon egarning orqasiga
tushdi. Shunday bo‘lsa ham, egarning boshidan ushlab keldi. Salg‘in-
choq tepada Oybarchin qarab turgan edi. Yakkalab Chipor o‘ta berdi.
Chatani keng ot emasmi, chatanidan olasi ko‘rinib ketdi. Barchin bil-
diki, Boychibor ekan. Shunda Barchin boshidan ro‘molini olib, elpib,
Boychiborga qarab chaqirayotir:

119

Tashlab kelding cho‘lga otning barini,
Qalmoqlardan olding egang orini,
Sevintirding biyning zulfakdorini,
Quriy-hayt, yo‘lbarsning oti!

Ot bariga o‘tkazding-da zo‘ringni,
Mening uchun chiqarding achchiq teringni,

2370 Ko‘rsatib olding Qalmoqdan oringni,
Quriy-hayt, polvonning oti!

Cho‘llarda kelishing lochin,
Otlarga o‘kta endi chin
Shibirtkidi[r] senga sochim,
Bu xizmating mening uchun,
Quriy-hayt, polvonning oti!

2380 Kokillaring taram-taram,
Yol-quyrug‘ing butam-butam.
Seni tanimasdan qolib ketdi,
Xafa bo‘lib yo‘bars to‘ram,
Quriy-hayt, to‘ramning oti!

Qulqlarling olchoq-olchoq,
Yol quyrug‘ing bor bir quchoq.
Tirab tuyoq bosgan joying,
Qazilib qolar taqirchoq,
Menday nozanin shish emchak,
Qo‘ng‘irot ellarga kelinchak,
Quriy-hayt, xonimning oti!

2390 Men egang sevikli yori,
Qolib ketdi otning bari,
Egang polvonning zo‘ri.
Men ham yo‘lingga qaradim,
Xuddi uch kundan beri,
Quriy-hayt, yo‘barsning oti!

To‘rt oyog‘ing qoqqan qoziq,
Qiliqlaring qizdan nozik,
Uchang keng-da, bag‘ring yoziq,
O‘ng qo‘limda tilla uzuk,
Quriy hayt, to‘ramning oti! – deb qichqirib qoldi. Poy-gachi, otni tutganlar, oti poygaga ketganlar, tomoshabinlar poyga joyda qarashib turgan edi. Boychibor borib qoldi, uni hamma ko‘rib qoldi. Chorvador xalqlar ham kutib turgan edi. Har tarafдан Boychiborning jilovini oldi. Qorajonning biroz nafasi qisilgan ekan, otdan suyashib

tushirib olib, belini ehib shamollatishdi. Shu vaqtida Boychiborni ko‘rgani Barchinoy kanizlari bilan kelib qoldi. Oybarchin ko‘rdiki, otning badaniga qon bilan chang yopishib qolgan. Barchin iliq suv kelti-rib, otni tozalab yuvintirdi, ro‘mol bilan artdi. Kanizlariga qarab:

– Qizlar, oftob yuzlar, chopib suyunchi oling sizlar, polvonniki bo‘ldik bizlar, – dedi. Sakkiz qiz izma-iz Hakimbekka suyunchiga borayotir:

2400 Qoshu ko‘zлari biyona,
 Xollari dona-dona,
 Yo‘lga bo‘lar-da, ravona,
 Jilva berib qizgina,
 Chopishib ketdi izma-iz.
 Sog‘in inakday suluv qiz,
 Boraverdi yuzma-yuz.

2410 Balxi ro‘moli boshida,
 Marjon sadafi to‘sida,
 Chopishgan suluv qizlar,
 Yetishdi polvon tushiga,
 Yaqindan bordi nishiga.

121

Oy qiyalab botibti,
Suluv qizlar etibti,
Qoshiga borsa kanizlar,
Bag‘rin qo‘yib yotibti.

– Qoshu ko‘zimiz qiying-chi,
Chipor otingiz o‘yinchi,
Xo‘ja, qioso, *churinchи*,
Tulporingiz poygadan keldi,
Bek aka, bergin suyunchi.

2420 Baland tog‘ning bag‘ri qor,
 Alvon ko‘ylakning to‘zi tor,
 Opam yubordi zulfakdor,
 Suyunchi bering bek aka,
 Keldi poygadan Boychibor.

O‘kranadi chopgan ot,
Chayqalmasin arkon davlat,
Suyunchi bering, bek og‘a,
Poygani oldi chipor ot.

2430 Badani botibdi changga,
 Biz qizlar sizga yanga,
 Bera bering tilla tanga,
 Poygani oldi chipor ot.

Bo‘yimiz xuddi nov terak,
Yaxshi hammaga kerak,
G‘alt urib qolmasin yurak,
Suyunchi berish kerak.

2440 Suyunchi deymiz sizlarga,
 Ko‘proq bering bizlarga,
 Bizday yanga qizlarga.
 Ko‘rgan tushlarni yo‘raymiz,
 Biz ham sizga qaraymiz,
 Bek og‘a, tillani ko‘p bering,
 Ro‘mol olib o‘raymiz.

Alpomish qizlarning chopib kelib, suyunchi so‘rashidan hayron bo‘ldi. Yov tepa ustiga chiqib qarasa, Barchin Boychiborni ro‘mol bilan elpib turibdi. Alpomish xursandligidan bir so‘z deb turibdi:

Xafa edik juda bizlar,
Suyunchi deysizlar sizlar,
Rahmat sizga, suluv qizlar,
Obod bo‘lgan Chilbir cho‘llar,
Cho‘l joylagan chorva ellar,
Rahmat kaniz, dasta gullar,
2450 Mana, sizga tanga pullar, –

deb Alpomish har bir qizga bir changaldan tanga berdi. Qizlar xursand bo‘lishib, pulni ro‘molga tugishib olishdi. Alpomish qarasa, kun kech bo‘lib ketibdi.

– Qizlar, – dedi, – otni olib borib, yaxshi qaratib saqlaysizlar. Keyin Qorajonning qoshiga keldi. Qorajon bilan quchoqlashib ko‘rishib:

– Rahmat do‘stim, do‘stligingni ko‘rsatding, – deb minnatdorchilik bildirdi.

Bu Qalmoqda mening holim bilganim,
Bu poygada obro‘yimni olganim,
Ot o‘tkazib ilgariga elganim,
Rahmat, do‘stim Qorajon, jon polvonim.

Bu do‘stlikni yo‘lda sendan topganim,
Bu Qalmoqda orima ot chopganim.
Qalmoqlarga zarbdir har bir aytganim,
Rahmat do‘stim, Qorajonday polvonim.

2460 G‘ayraring oshibdi bu kun chog‘idan,
Hech qo‘rqmabsan qalmoqlarning do‘qidan,
Salomat kelding Bolqon (Balx) tog‘idan,
Balli, do‘stim, Qorajonday polvonim.

123

Uyaltirding o‘z elingning barini,
Ayniqsa, Ko‘kaldosh zo‘rini,
Qalmoqqa bermabsan o‘zbek orini,
Cho‘lga uloqtirib tashla barini,
Balli, do‘stim, Qorajonday polvonim.

2470 Xizmat qilding menday do‘sting o‘ziga,
Qo‘rqqan edim qob ketgan deb poyganing iziga,
Sen ko‘p xizmat qilding biy qiziga,
Endi kurash bo‘larmikan poyga iziga.

Qorajon joyidan turib, Alpomishga bir so‘z dedi:

Qalmoq bilan bo‘lganimcha bo‘ldim,
Sal bo‘lmasa Bolqon tog‘da o‘lib edim,
Oting bilan juda keyin qolib edim,
Poyga kecha qalmoqlar atrofim poylab,
G‘aflatimda ko‘plashib oldi boylab,
O‘lguday qib cho‘zib ketgan ekan taylab.

Ketibdi-ku, Barchin yoring,
Yordam qildi-da, tulporing,

- 2480 Tilakchi ekan elating,
Harna chopdi davlating,
Bizga ko‘p yordamlar qildi,
Boychibor tulpor oting.
- Rangimni qalmoq so‘ldirib,
Ichimni qonga to‘ldirib,
Qariyb bo‘lmasa qalmoqlar,
Keta yozgan ekan o‘ldirib.
- Aytayin ko‘rgan ishimni,
Qalmoqlarning kaltagi,
2490 Ezib badan go‘sh[t]imni,
Bir kecha-kunduz o‘tgan so‘ng,
Bildim aql-hushimni.
Shunday turib qarasam,
Oting suyabdi boshimni.
Joyimdan adl turib,
Tavakkal, deb qo‘lim sirib,
Kuymadi otning mehnati,
Qo‘ltiqdan yozilib qanoti.
Oshiq oting zo‘r ekan,
2500 Qo‘ltiqda qanoti bor ekan.
- Qalmoqlar ketgandi o‘zib,
Cho‘zilar cho‘lda tulporing,
Qo‘ltiqdan qanotin yozib,
Tuyog‘i erlarni qazib.
- Jilovini tashladim yолига,
Jonivor boshlab ketdi poyga yo‘лига,
Juda alam qildi Qalmoq eliga,
Ko‘kqulon qolib ketdi,
Qulon tog‘ning belida.
- 2510 Surdi Do‘nanning izini,
Damga qo‘ymay etib oldi o‘zini,
Bir tin[yi]ga olmadim Ko‘kaldosh so‘zini,
Termultirib tashlab keldim ikki ko‘zini.

Hech ot kelolmaydi bunga barobar,
Bu poygani shuytib oldi Boychibor,
Ko‘p ekan-da, Chiboringning o‘yini,
Poyga ekan asli ishning qiyini,
Qilaversang Oybarchinning to‘yini.

2520 Men gapirdim shu poyganing boshidan,
Sen sinab qo‘rqturishni Ko‘kaldoshidan,
Qasd qilsang, Ko‘kaldoshni ham otasan,
Yoring olib tez kunlarda qaytasan,
Ketishingda men ham olib ketasan.

Alpomish:

– Mayli, olib ketaman, hamroh bo‘lasan-da, albatta, – dedi. Endi kurasnai e’lon qilishdi. Maydonga odamlar to‘p-to‘p kelib qoldilar. Bir tomondan qalmoqlar to‘p bo‘lib, ikkinchi tomondan Chilbir cho‘ldan chorvadorlar to‘p bo‘lib, kurash maydoni odamga to‘lib qoldi. Chorvador xalqlarning chor kampirlarigacha kelib qoldi. Oybarchin ham o‘z kanizlari bilan uzoqroq joydan qarab turibdi. Qalmoq aplari va xonlari Ko‘kaldoshni sozlab, karkning terisidan bo‘lgan chapkanni yag‘riniga tortirib maydonga chiqardi. Ko‘kaldosh kallasi xumday bo‘lib, qobog‘i chiday bo‘lib, muruti shopday bo‘lib, maydonga chiqib aylandi. Qo‘ng‘irot xalqlari Ko‘kaldoshga qarasa, burni mo‘riday, kipriklari xariday, halqumi tomning to‘riday bo‘lib, bir aylanib kelib o‘tirdi. Polvon oqsoqollari:

– Qani, qo‘ng‘irot boylar, xonlaring va polvonlaring chiqsin maydonga, – dedi. O‘zbeklar, necha bobolar:

– Alpomishxon, g‘ayrat qilib bir maydonga chiqing qani, – deb kelistidi. Alpomishxon bulg‘or chakmonini egniga solib, bel bog‘lab xalqiga:

– Ha ellar, qarindoshlar, bu kun mard maydoniga chiqishima bir duo beringlar! – dedi. Qo‘ng‘irotlar Alpomishga qarab “omin”, deb turibdi:

Duo olib, o‘g‘lim, qavmi-elingdan,
Yigit piri madad bersin belingdan.
Boybo‘rini ajratma tilingdan,
Alp polvoni ham yiqlisin qo‘lingdan.

Bizlarda bordir nima ixtiyor,
Qalmoq elda bo‘lsin, o‘g‘lim, baxting yor,

2530 Duo qilib turar Qo‘ng‘irot eling,
Qalmoqlarga ustun kelsin-da qo‘ling,
Tilagingda bo‘lsin opa-singiling,
Kir maydonga, bizlar duo beramiz,
Hammamiz tilaging tilab turamiz.

Xalqning hammasi duo berdi. Alpomish norday bo‘lib, xuddi sherdai bo‘lib, ov ovlagan ajdahoday bo‘lib maydonga chiqib, bir aylan-di. Alpomishxonning tus-rang, chiroyi, hamma joyi tutash kelgan, har kÿkragi xumday bo‘lgan, qoboqlari chimday bo‘lgan bola emasmi, qalmoqlar Alpomishni ko‘rib;

– E, yosh bola ekan-da, Ko‘kaldosh buni bir ushslashda otib yuboradi-ku, – deyishdi. Ikki ajdarho polvon maydonga chiqib bir-biriga xez qila berdi:

2540

Tomosha bo‘p maydonlar,
Bir-biriga haybat urib,
Chiqdi maydonga polvonlar,
Qarang, polvonlar zo‘riga,
Haybat qilib bir-biriga,
Har biri o‘z origa,
Tomosha Qalmoq shahriga.

Tomoshabinlar ko‘ring,
Qo‘ng‘irot xalqi izidan,
Obro‘ ber, deb turibdi.
Bir-birin polvonlar tutadi,
Qartillashib etadi.

2550

Tomoshabinlar qaradi,
Ikki polvon bir-biriga,
Yo‘lbarsday chang sob boradi,
Alpomishning belidan,
Ko‘kaldosh bilak o‘tadi,
Qalmoq xalqlari ko‘radi,
Ot, deb shovqin beradi.

Qarang Ko‘kaldosh o‘ziga,
Korson tovoqday ko‘ziga,
Balandga silkib ko‘tarib,

Chiqarib oldi tiziga.
Tushibdi zo‘rning qo‘liga,
Qarang, qalmoqning eliga,
Yana silkib ko‘targanda,
Ko‘kaldosh chiqardi beliga.

2560
Qarasa, ko‘z qamashib,
Tomoshabin jamashib,
Qo‘ng‘irot el yig‘lashib,
Tilovchi-da, xudoylashib.

Ko‘kaldosh ko‘tarib turibdi,
Tomoshabinlar ko‘ribdi,
Qancha muysafid chollar,
Tilakchi qo‘ng‘irot ellar,
Obro‘ ber, deb yig‘layapti,
Qancha opa-singillar.

O‘zbeklarning chorvador boyi,
Alpomish Qo‘ng‘irot shohi.
Obro‘ ber, deb aytayapti,
Chorvalar xayr-xudoyi,
Tomosha joy Chilbir cho‘li,
Ehtiyot bo‘l, biyning o‘g‘li.
Bora-bora bo‘sayberdi,
Ko‘kaldoshning endi qo‘li.

127

2580
Kelmadi Hakimbek chog‘iga,
Chil beradi Hakimbek,
Ko‘kaldoshning oyog‘iga.
Zo‘ru kamzo‘rlik bilindi,
Alpomish chang solgan badani,
Ko‘kaldoshning yulindi.
Alpon polvonning oyog‘i,
Ko‘kaldoshga ilindi.

2590
Qarpillatib tutadi,
Changak solib tutadi,
Yo alp, deb otadi,

Titilgan badanning go‘sh[t]i,
Chuvillab Qalmoq tovushi,
Erni qo‘pordi Ko‘kaldosh,
Ketib qoldi aql-hushi.

Qalmoqlar aytdi:

– Ko‘kaldosh buni titib tashlaydi, degan edik, Qo‘ng‘irot polvoni ayyormikan, yo sehrgarmikan yo shunday bo‘lsa ham, o‘zi zo‘rmikan, bilmay qoldik Ko‘kaldoshning er qopqonini. Qo‘ng‘irot xalqlari;

– Balli, polvon! – deb xursandchilik qilib qoldi. Ikki shartni qildi, tilla nishonani urish qoldi. Oqsoqollar aytdi:

– O‘, qo‘ng‘irot boylar, nishonani boshlaymiz, – dedi. Sakson gaz balandlik yog‘och kerak, boshiga oltin qovoqni yopishtirib, bir yuz ellik qadam joydan aylantirib to‘r tutdi. Nishona joyini belgiladi. Mergan otishga, odamlar tomoshaga yana to‘plandi. Yana oqsoqollari:

– Qani, o‘zbeklar, mergan tayyormi? Birinchi navbat sizlarga, – dedi. Chorvador boylar:

– Yo‘q, avval sizlar otasizlar, – dedi. Navbatni qalmoqlar oldi. Qalmoqlarning Qo‘nori degan mergani bor edi. Havodagi qushni chohib tashlar edi. Qo‘nori merganga otishga buyurdi. Mergan tayyorlana boshladi. Hamma qarab turibdi:

2600

Nishondagi tanga pulni urgani,
Chiqayotir qalmoqlarning mergani.
Tomoshabin bari ko‘rgan,
Avval navbatni bergan,
Miltig‘ini qo‘lda ushlab,
Chiqayotir Qo‘nor mergan.

Nishona joyiga bordi,
Hamma merganni ko‘rdi,
Qanon mergan miltiqni oldi egnidan,
Qalmoq eli tilakchi bo‘b keynidan.

Pilab piltani cho‘qladi,
Summalab miltiq o‘qladi,
Qo‘nor mergan choqladi,
Qo‘ltiqqa qisib qopladi.

2610

Chohkaga tutib joyladi,
Qorovuldan tikladi.

Dakaka dorini qotirdi,
Piltani cho‘qqa botirdi.
Oltin qovoq o‘rtangdan, deb,
Miltiqni shunday yoqtirdi.

2620

Miltiq o‘t eb ketdi toqqa,
Etishdi tilla qovoqqa.
Bordi nishona tushidan,
Uch gaz oshirdi boshidan,
Hamma qarab ko‘rib turgan,
Uch gaz balandlab oshirdi,
Otolmadi Qo‘nor mergan.

Qalmoqlar xafa bo‘lib dedi:
– Obbo, bo‘lmadi bizniki, qo‘ng‘irotlar, menganlaring chiqsin qani
endi. Shunda Alpomish:

129

Tilakchi bo‘linglar deb eliga,
Sari yoyini olib qo‘liga,
Ravona bo‘ldi Alpomish
Qovoq nishona yo‘liga.

2630

Gaybir yoyni qo‘liga tutadi,
Nishona joyga etadi,
Tomoshabin keynidan joyni olib,
Egnidan sariyo qo‘liga ushladi.
Nishonaga nishladi.

Chohka qoplab tutadi,
Egiltirib yoy tortadi,
Hamma qarab Hakimbekka,
Shartillab tilla qoboqqa,
Mergan ishini oshirdi,
Nishonani urib tushirdi.

Qalmoqlar aytdi:

– E yigitlar, o‘zining bag‘ishlangan yori ekan-u, bunga bekor talash qilib, “olib qolamiz”, deb ahmoq bo‘libmiz-da. Ana endi nima bo‘ldi, ham tulpor otlarning, ham polvon alplarning, ham merganning obro‘si tushdi. Haloli bo‘lsin Qo‘ng‘irot xonining, – deb qalmoqlar to‘zib keta boshladi. Endi Qo‘ng‘irot ellar to‘p bo‘lib, oqsoqollari bilan jup bo‘lib, Boysaribiya bordi:

– Qani biy bobo, endi to‘yni qilaylik. Alpomish ham bu erda ko‘p hayallab yotmasin, ota-onas, opa-ukalari kutib o‘tirgan bo‘lsa kerak. Boysari aytdi:

– Mening ham maqsadim shu. Chilbir cho‘lni joylab yotgan elga to‘yga, – deb chaparasta ot choptira berdi:

Ot chopildi chaparasta,
Xabar bo‘ldi bir pasda,
2640 Biynikiga to‘yga deb
Odamlar kelib dasta-dasta.
Xabar ketdi dush-dushiga,
Xursandchilik Chilbir dash[t]iga,
Chaqiruvchi keta berdi,
Hamma qavmu qarindoshiga.

130

So‘yildi semiz qo‘ylar,
Qo‘ng‘irot chorvador boylar,
Tikilgan o‘tov uyular,
Tomosha bo‘ldi to‘ylar.

2650 Chorvalar bari yig‘ildi,
Semiz qo‘ylardan so‘yildi,
Qozon-o‘chog‘i o‘yildi,
To‘y qilishdi chorva ellar,
Kelayotir kampir-chollar.

Quruq qolmaylik to‘ydan bizlar,
Qizil juvon, xotin-qizlar.
So‘ybidi semiz qo‘yidan,
Quruq qolmay, deb kelayotir
Barchinoning to‘yidan.

Endi butun to‘y-tomoshasini qilib, o‘zlarining rasmii bo‘yicha nikoh qilib, Alpomishning yangalari o‘zlarining “Qo‘l ushlatar”, “Soch siypa-

tar”, “Oyna ko‘rsatar”, “Kampir o‘ldi”, degan rasmlarini qilib, Alpomish bilan Barchinoyni baxmal o‘tovga solib, “ana endi, yashay beringlar”, deb ketishdi hammasi. Alpomish akasi Boysaribiya bir so‘z deb turibdi:

2660 Endi, aka, ko‘ching Chilbir cho‘lidan,
Qalmoq kelib oshdi yetti yilidan,
Turna qush ham ayrilmaydi xilidan,
Uzoq bo‘ldi mening kelgan yo‘llarim,
Endi Qalmoqda turmasin ellarim,
Har kim o‘z elida, o‘rdak qushlar ko‘lida yaxshi.

Tog‘u tosh, necha joylardan o‘taman,
Xabar qiling, Barchin olib ketaman,
Necha tog‘lardan oshaman,
Ba’zi vaqtida o‘zim to‘lib-toshaman,
2670 Xabar qiling, ota, Chilbir cho‘llarga,
Hammасini o‘z eliga qo‘shaman.
Qizil gullar oftob bo‘lmay so‘lmasin,
Bu ovullar Chilbir cho‘lda qolmasin,
Bu ko‘chishni Qalmoq ellar bilmasin.

131

Boysari o‘zicha: “To‘g‘ri aytdi bu”, deb chorvachilarning kattalarini chaqirib maslahatlashdi. Ular aytdi:

– To‘g‘ri, lekin biz ko‘p og‘ir ko‘ch-da. Endi maslahat shunday bo‘lsin. Alpomish Barchinni olib bir-ikki kishi bilan tezroq ketsin. Boybo‘ri bilan Kuntug‘mishga vaqtliroq etsin. Biyobonga yo‘l chan-gitib tulporni ursin, yo‘llarda hayallamay, tez-tez yursin, Boybo‘ri bilan Kuntug‘mishni tezroq ko‘rsin. Biz kunning ko‘pi bilan ko‘chib bora-veramiz. Ko‘cha-ko‘yi, yo‘llarga tusha-tusha, ko‘p oyog‘i bilan bir yoki besh oyda boraveramiz. Lekin Alpomish tezroq ketsin, – deb maslahat berishdi. Alpomish Oybarchinni olib, kanizlari va Qorajon bilan birga xalqlar bilan xayrashib:

– Tezroq boringlar, – deb ketdi. Endi Alpomish ota-onaning xumori olib qochgan, kecha-kunduz yo‘l tortib bordi. Tog‘u toshlardan o‘tib boradi. Hayallamay tez ketib boradi. Yuragi toshib bordi. Ota-onai yodiga tushib boradi. Necha kecha-kunduz yo‘l tortdi. Boychibor seldanak otdi. Lekin jilov qo‘lni qabartdi. O‘z mamlakatining chegarasiga shu kecha-kunduzda o‘tdi. Tabrez tog‘ining ustiga chiqib ketdi. Qirq kun, deb va‘da berib chiqqan edi uyidan. Olti oy o‘tib ketibdi. Alpomish tug‘il-

gan joyini ko‘rib, Jonadil qal’asi ko‘ziga ko‘rindi. Qorajonni qoshiga chaqirib, o‘z mamlakatini ko‘rsatib shunday deyayotir:

Oshna necha kun bo‘ldi bu yo‘lga yurganim,
Olti oydan beri bo‘lmadi ko‘rmadim,
Shu ko‘ringan Jonadil qo‘rg‘onim.

2680 O‘tib ketdi oradan olti oylar,
Bu cho‘lni joylagan chorvador boylar,
G‘uborsib ko‘rinayotgan ovul uylar,
Ana, do‘stim, bizning tug‘ilgan joylar.

Qalmoqqa ketganimga o‘tib yarim yillar,
Olisda qob ketdi Chilbirday cho‘llar,
Otimni toldirdi bu uzoq yo‘llar.
Yarqillab ko‘ringan Alpon ko‘llar,
Bu cho‘lni bosib yotgan ovul ellar.

Alpomish Boysaribiylar bilan Qalmoqqa ketgan Cho‘lboy gazarni ham olib qaytayotgan edi. Cho‘lboyni Qorajon yoniga hamroh qildi.

– Cho‘lboy, sen Qorajonni olib ket, yorug‘ borida, vaqtli et. O‘zing shu joyda tug‘ilgan bolasan, bu arning o‘r-qirini bilasan, Qorajonni qavatingga olasan. Asta yurmay qattiq yurasan, tez etib borasan, Boybo‘ri, Kuntug‘mishga xabarim berasan, Qaldirk‘ochdan suyunchi olib turasan,

– deb buyurdi. Cho‘lboygazar aytidi:

– E, Alpomishxon, shuni yaxshi esimga soldingiz, bu xizmatni darrov qilaman. O‘zim tog‘ yo‘lining hammasini bilaman. Otangdan suyunchiga ming tilla olaman, – dedi va Qorajonga

– Hayda, – deb tog‘dan tashlab ketdi. Soy-qirlardan kesib ketayotibdi. Kech bo‘lmay Jonadilga etayotibdi. Endi Alponko‘lning ustidan bora berdi. Qorajonga aytidi:

– Alponko‘l shu bo‘ladi.

Qorajon bu joylar bilan tanish emas. Qorajon so‘radi:

– Shumi Alpomishning Alponko‘li? Alpomish shu ko‘l bo‘yida Qaldirk‘ochga va‘da berib: “Qirq kunda qaytib kelaman”, degan edi. Olti oy o‘tdi, hech xabar yo‘q, bormi-yo‘qmi, ochmi-to‘qmi, o‘z daragi o‘zi bilan ketgan edi. Kuntug‘mish esa betoqat, behol, nochor bo‘lib turgan edi. Darak kelmay yolg‘iz o‘g‘lidan, hech xabar bilmay Qalmoq elidan qolgan edi. Yolg‘iz o‘g‘il xumoriga devona bo‘lib:

– Qaldirg‘ochjon, betoqat bo‘ldim o‘zim, yo‘liga to‘rt bo‘ldi ko‘zim, hamroh bo‘l, jonio qizim, shu cho‘llarga, Alponko‘llarga bir tomosha qilay, – deb uni yoniga olib kelgan edi. Qaldirg‘och:

– Ena, mana shu joydan og‘am otlanib ketgan edi, – dedi. Shu vaqt-da Cho‘lboygazar Qorajon bilan Ochgazaning yo‘lidan o‘ta bergen edi. O‘zлari shoydam, toylari shoydam, **bo‘ktargi** bo‘ktargan otlar ingichka bo‘lib, charchab qolganday ularga ko‘rindi.

Qaldirg‘och aytdi:

– Ena, ikki otliq o‘tyapti, uzoqdan safar qilib kelayotganga o‘xshay-di. Shuning oldini o‘rab, gap so‘rab qolay, – dedi. Chopib, otliqlar oldi-ga o‘tib, ulardan gap so‘rab turibdi:

Baland tog‘larning bag‘ri bo‘ktar qor,
Qatorimdan echilganday qora nor.
Ochgazadan o‘tayotgan otliqlar,
2690 Og‘alarim, jilov saqlang arzim bor.

Ot jilovin jazra cho‘lda o‘rganlar,
Uzoq yo‘ldan yo‘l yurib kelganlar,
Yo bu cho‘lda ovlab yurgan merganlar,
Fasl jilov saqlang, sizga arzim bor.

133

Ko‘rgan to‘shim yaxshilikka yo‘rayman,
Shoydam akam, men sizlarga qarayman,
Shuning uchun oldingizni o‘rayman,
Saqlab jilov, sizlardan gap so‘rayman.

Ezilgan bo‘pti yurakning go‘sh[t]i,
2700 Dami kuyib chopibdi, etdi tovushi,
Shunday qarar ikki kishi,
Chopqillab labi qotibdi.
Qara, shunday bir qiz bola,
Ikkovining oldiga o‘tibdi.

Gap berib keting bir maydon,
Kelishlaringiz qanday joydan?
O‘tayotibsiz yo‘ldan,
Turna ayrilgan xildan,
O‘tgandaysiz tog‘u-cho‘ldan,
2710 Kelishingiz aytib keting, qanday eldan?

Gul ochiladi bahordan,
Bulbul sayraydi saharden.
Aytib keting, og‘alar,
Kelish qanday shahardan?

Sarg‘ayganday nurli yuzi,
Gap so‘rashga intiq o‘zi.
Oldin o‘rab, gap so‘radi,
Kuntug‘mishning erka qizi.

2720 Tog‘ni tuman choladi,
Cho‘lboy hayron qoladi,
Ne sababdan qiz bola,
Bunday otlarni oladi.

Qorajon aytdi:

- Cho‘lboy, to‘xta bir gap berib ketaylik, – dedi. Shu vaqtda Kuntug‘mish ham etib keldi. Cho‘lboy aytdi:
 - Chinimiznimi aytamizmi, yolg‘onni? Qorajon:
 - Chinimizni aytamiz, – dedi. Qorajon kelishini aytib turibdi:

134

2730 Maydonda ot elishimiz,
Uzoq joydan kelishimiz.
Bu joylarda biron yo‘qdir,
Bizning oshna, bilishimiz.
Oshdik tog‘larning belidan,
Uzoq safarli yo‘lidan.
Asli bizning kelishimiz,
Qalmoqlarning elidan,
Chilbir degan cho‘lidan.

Ot chopdik maydon daladan,
Qutuldik harna balodan,
Kelishimizni so‘rasangiz,
Olisda Qalmoq qal’adan.
Qayg‘u tushdi saradan,
Gap so‘radi bir-biridan.
Asli kelishim so‘rasangiz,
Qalmoqlarning shahridan.

Shunda Kuntug‘mish ularga yaqin borib, shunday deyapti:

2740 Ochilsin qizil gullarim,
 O‘tdi-da, yarim yillarim.
 Rostdan gapirib keting,
 Jondan ortiq o‘g‘illarim.

Chin aytishlaringiz lozim,
Termulib qoldi ko‘zim,
Olti oydan bermag‘on,
Bir xabar eshitmay o‘zim.

2750 Maydonda otini elganim,
 Uzoq yo‘llardan kelganim,
 Qalmoq safar qilgan edi,
 Alpomishday polvonim.

Jonadildir makon qal‘am,
Ko‘ngilda qolmasin chalam.
Qalmoqqa safar qilib edi,
Mulla Hakimday yolg‘iz bolam.

135

Mingan oti tulporlarning Burog‘i,
Gaybir yoyda otning sadoq yarog‘i.
Ezilib so‘rar Kuntug‘mish yuragi,
Olti oy bo‘ldi, kelmadi-da, daragi.

2760 Kuntug‘mishman, menda toqat bo‘lmadi,
 Va’daga qirq kun edi, kelmadi,
 Olti oy o‘tdi, hech xabar bo‘lmadi.

Qorajon o‘ylab tursa, Alpomishning enasi Kuntug‘mish, Qorajon o‘zini otdan otib tashladi. Endi Alpomishning daragini aytyapti:

So‘zlaganda shirin-shakar tiliman,
Men ham bog‘larning ochilgan guliman,
Oting Kuntug‘mish bo‘lsa,
Senday enaning o‘g‘liman.

Alpomishning do'stiman men ham,
 Qalmoqdan kelgandi Barchinday sanam,
 Agar Kuntug'mish bo'lsang,
 Ham Alpomish ham menga sen enam.

2770

Chirqillab uchadi ***torchi***,
 Qishloqlarga chopsin jarchi,
 Alpomishdan biz xabarchi,
 Boychibor tulpori o'yinchi,
 Biz olamiz suyunchi.

2780

Alpomishni olib kelamiz,
 Biz xabarchisi bo'lamiz.
 Tog'larda bor qozamizor,
 Qalmoq eldan og'di guzar,
 Hamrohim Cho'lboygazar.

Ochilar bog'da gulingiz.
 Davlatli ekan elingiz,
 Biz sizning o'g'lingiz,
 Ot haydadim tog'u-cho'lga,
 Ko'p kun bo'ldi yurdik yo'lga.

2790

Bizni Alpomish yubordi,
 Barchinoy bo'ldi shirolg'a,
 Qalmoqqa soldi g'avg'o,
 Minib Boychibor bedovga,
 Barchinoy Qalmoqdan sovg'a,
 Alpomishxon kelib qoldi,
 Chiqib edi Dabriz toqqa.

Eshitdingiz xabarini,
 O'tkazib Qalmoqqa zo'rini,
 Olib qaytdi Barchin yorini,
 Yo'ldosh qilib ko'p kishini,
 Otdi alplarning boshini,
 Juda o'tkazdi ishini,
 Olib qaytdi buvishini.

Kuntug‘mish bu gapni eshitganidan so‘ng quchoq ohib, Qorajon bilan ko‘rishdi. Qaldirg‘och ham. Uylariga olib borib, har tarafga xabar eta berdi. Xalq Alpomishning oldiga peshvoz chiqa berdi. Har tarafga suyunchixo‘r keta berdi, bunday xabar o‘ta berdi, dasta-dasta, chaparasta, selov-selov, to‘p-to‘p, ko‘p-ko‘p bo‘lib, qo‘ng‘irot xalqi kelib qoldi. Qalmoqda qilgan to‘y Boysariniki edi, “bu to‘y Boybo‘ri bilan Kuntug‘mishniki”, deb Boybo‘ri o‘choq o‘yib, qo‘y so‘yib, butun ellarni yig‘ib, kurash, ko‘pkari, har xil o‘yinlar qilib, yigirma kunda to‘yni tarqatdi. Alpomish, Oybarchin bilan suhbat qilib yota berdi.

Endi gapni Qalmoqda qolgan Boysaridan eshiting. Alpomish ketganidan bir oydan keyin, Qalmoq xoniga juda malol kelgan ekan Alpomishning Ko‘kaldoshni mayib qilgani, Barchinni olib ketgani. Qalmoq podshosi alplarni yig‘ib, maslahat qildi. Yigitlarga dedi:

– Chilbir cho‘lidagi chorvador boylargacha qilgan yaxshiligidan oxi-ri yomonlik bo‘ldi-da. Bular tog‘ oshib, ko‘chib kelgan edi. Boshida, ularga Chilbir cho‘lini berib yetti yillik bojdan ham kechib yuborgan edim. Endi ko‘rdingizmi, ular bizga “olti oydan keyin qiz beramiz, qiz olamiz”, deb aldab, xonini chaqirib, bizga qilar ishini qildi. “Endi qilganga qil”, degan gap bor, yetti yillik xirojni o‘n to‘rt yillik qilib to‘latib olinglar. Agar yaxshilikcha bersa – bersin, bermasa mollarini talov qilib olasan, qayoqqa ketsa – ketsin o‘zлari, – dedi.

Ko‘kaldosh hamma joyi bo‘lib mayib, urchug‘i chiqib ketgan edi. Toyib, yura olmay qolgan edi. Obdalni bosh qilib, Bolta polvon, Xalta polvon, Uzun polvon, Kalta polvon, Sher polvon, Shercha polvon, Archa polvon, Norcha polvon, Zo‘rcha polvon, Oy polvon va Boy polvonlarni hamroh qilib, Chilbir cho‘liga jo‘natib yubordi, ketayotibdi:

2800 Otlar o‘ynab alvon-alvon,
 Chiqdi Qalmoqdan ko‘p polvon,
 Gap kirmaguday qulooqqa,
 Yayov yurmaydi lukka,
 Chilbir cho‘lga nishlatib,
 Haydayotibdi tikka.

Baland tog‘ning bastiga,
Boysarining qasdiga,
Qalmoqning polvonlari,
Chilbir cho‘lning ustiga.

-
- 2810 Mingan bedovlar beliga,
Chiqdi Chilbirning cho‘liga,
Bugun zulmni qilguday,
Qo‘ng‘irotning eliga.
- Qalmoqlar ketyapti,
Soyu qirdan o‘tyapti,
Chilbir cho‘lga etyapti,
Qo‘ng‘irot xalqi ko‘ryapti,
Cho‘l changitgan qalmoqlar,
To‘da bo‘lib borayapti.
- 2820 Bir xil qarasa mo‘ralab,
Qoldi ovulga oralab,
Keb qoldi Chilbir cho‘lga,
Oralab chorva elga,
Tushib qoldi qalmoqlar,
Boysarining ovuliga.
- Zil tog‘ning boshi tumanday,
Bosib borishi yomonday,
Har polvonlar kelib qoldi,
Qopga tiqqan somonday.

Boysari qo‘rqdi. Qalmoqlar achchiq bilan kelganga o‘xshaydi. Otlarini boylab, tappa-tappa taylab qoldi. Ziyofat qilib, ovqat egandan so‘ng Obdal polvon Biyboboga:

– Ovul oqsoqollariningizni to‘plang, maslahatimiz bor, – dedi. Boysari ot choptirib, odamlarini to‘plab berdi. Hamma kelib qoldi. Obdal chorvador boylargaga qarab, so‘z aytib turibdi:

- 2830 Quloq sol, Qo‘ng‘irot ellari,
Sizga berilgandi Chilbir cho‘llari,
O‘tib ketdi o‘rtada yetti oylaringiz.
Chilbir cho‘l bo‘ldi o‘tirgan joylaringiz,
To‘qson boshliq uylaringiz,
Yetti yildan beri bezakot qo‘ylaringiz.

2840

Ko‘p bo‘ldi cho‘lda mollaringiz,
To‘q bo‘lib ketdi ellaringiz,
Podshoning yaxshiligini ko‘rmadingiz,
Olti oylik va’dada turmadingiz,
Yetti yillik zakotni bermadingiz.

Endi aytasizlar shuning vakilini,
Ming ovulning zakot bilan bojini,
Yetti yillik podshoning iqrorligini,
O‘n to‘rt yillik boz zakotlar berasiz,
Bermasangiz, kunlaringiz ko‘rasiz.

Bizlar keldik ana shunday ish bilan,
Shuning uchun beringiz siz xush bilan,
Qalmoq kelib to‘q bilsalar o‘zlarining,
Beklaringga nasib qilsin qizlarining.

2850 Nima ziyon ko‘rdingiz qalmoq elidan,
Ko‘chsangiz ham mayli Chilbir cho‘lidan.
Makoningiz Chilbirday dashti sahro,
Qalmoqqa sitam qildi bora-bora,
O‘n to‘rt yillik qilib zakot bermasangiz,
Ko‘ramiz sizlarga og‘ir chora.

139

Shu achchiq bilan Obdal shu gapni aytdi. Chorva elatlari qo‘rqib, jim bo‘lishib qoldi.

Chorvadorlar aytdi:

– Xo‘p, yaxshi aytasizlar. “Karvon boji bilan chopilmaydi”, degan maqol bor. Podsholikka zakot berishga haqlimiz, albatta, zakot bera-miz. Qalmoq podshosining o‘zi aytgan edi-da, “Yetti yilgacha zakot ol-mayman”, deb shunga ko‘ra zakot bermagan edik-da. Chorvadorlardan Nodir elbegi va Ko‘char elbegilar ming ovulning hamma molu xirojini hisoblab yig‘ib, olib borib beradi. Ozroq vaqt muhlat beringizlar. Alplar:

– Xo‘p, – deb o‘n to‘rt yillik zakotni to‘plashni aytdi va jo‘nashib ketdi. Chorvador boylar o‘zaro maslahat qildi. Boysariga:

– Biybobo, boshimizga bir qora tumanday, qalmoqlar nafsi yomonday, “Har kim elida, o‘rdak ko‘lida”, degan gap to‘g‘ri. “Yo‘ldan chiqsang chiq, eldan chiqma”, degan gaplar bor-ku. Endi asta qochgan nomarddir, degandek, sekin-sekin ketaylik, hamma birdan ketishga

to‘g‘ri kelsa, har ovul har kechada bo‘lak-bo‘lak ko‘chib keta bersin.
Boysari aytdi:

– Men ovul boshlig‘iman, men keyin qolayin, sizlar ko‘cha boshlanlar, – deb maslahat berdi, – asta-asta, qo‘na-qo‘na, qo‘ylarni o‘tlatib oshib boramiz-da, – dedi. Shunday maslahat qilishib ketishdi. Har kecha ovul-ovul Chilbir cho‘lini bo‘shatib keta boshladи.

Qalmoqlar har vaqt xabarli yurar edi. Chorvadorlarning ko‘chayotganini sezib qoldi. Qalmoqlar podshosiga:

– Chilbir cho‘ldagi chorvador boylar zakot bermasdan, ko‘chib keta-yotir, – deb xabar berdi. Podshosi achchiqlanib, alplarga qarab, bir so‘z deyapti:

Kelinglar polvonlar zo‘ri,
Ketganday chorvaning bori,
Barchindan qolgandik quri[q],
Chilbir cho‘lda o‘tirib yetti yildan beri.

2860 Sap mininglar bedov otni,
Bu qanday oqibatdi[r].
Etib ketidan olib qoling,
Yetti yillik zakotni.

Ketganday Chilbir cho‘lidan,
Ot choping ketgan yo‘lidan,
Qo‘ng‘irot chorva elidan,
Talab olib qoling qo‘lidan,
Haydagan chorva molidan.

2870 Ketidan eting birdan,
Olib qoling chorvalardan,
Talab olib qoling zo‘rdan,
Joylatib Chilbir cho‘lini,
Olib qoling molu mul[k]ini,
Agar hushiga bermasa,
Bog‘lab oling qo‘lini,
Podsholik qiling molini.

Ot choping qulotuzdan,
Tezroq eting izidan.

2880 Quruq qolganingiz etadi,
Boysaribiyning qizidan.
Sahroda otlar chopasiz.
Qaerga borsa topasiz,
Darrov tez-tez ketasiz,
Ketidan qarmab etasiz,
Ketgan izini surasiz,
Ko‘rni iziga burasiz,
Rioya qilmay urasiz,
Chorva mollarini uning,
Podsholik[ka] olib berasiz.

Qalmoq alplari, askarboshilari karnay tortib, anjom-qurolini ortib, dasta-dasta, chaparasta, tayyorlandi bir pasda.

– Haydang chorvadorlarning ustiga, – deb boshliqlari ilgari yo‘l bosib keta berdi.

2890 Ixtiyor berdi podsho bizga,
Otlarni soldik rozga,
Otlar boradi pirqillab,
Yerning beti irkillab,
Chopganda olar changi,
Havoga chiqdi g‘urpillab.

141

Haydang, deyberdi birdan,
O‘tayotir soyu-qirdan,
Talab olmoqchi zo‘rdan.
O‘tayotir nishab o‘tdan,
Otlar botayotir terdan.

2900 Qasd qilgan chorva eliga,
Minib otlarning beliga.
Etishar qalmoq askari
Bostirib Chilbir cho‘liga.

Huvullabdi Chilbir cho‘llar,
Qayga ketdi chorva ellar?
Ko‘rinmadni ovullar,
Ketganga o‘xshaydi boylar,

-
- 2910 Bo'shab qolgan Chilbir joylar,
 Ko'chib ketganday uylar,
 Haydab ketgan chorva qo'ylar.
- Otga qamchi uradi,
 Ko'pdan qalmoq suradi.
 Qo'y haydagan cho'ponlar,
 Qichab ketib boradi,
 Alplar uni ko'radi.
- 2920 Tog'ning boshi xayollar,
 Har yil ko'karar giyohlar.
 Haydalib ketayotir,
 Chorva mollar, tuyalar.
- Ot chopdi dashti-sahroga,
 Etishdi qora-quraga,
 Ko'chning oldi etibdi,
 Qichab Tolxob daraga.
- Qalmoq solguday g'avg'o,
 Qistov qilib mingan bedovga.
 Ko'chning oldi etgan,
 Chilbirdan past Tolxob tog'ga.
- 2930 Chang havoni tuta berdi,
 Qalmoq alplar eta berdi.
 Ko'ch oldiga o'ta berdi,
 Atrofini qalmoqlar,
 To'xta, deyishib tuta berdi.
- Tolxob tog'ni bosdi tuman,
 Qarasa qalmoqlar yomon,
 Qo'yuvu bo'lganday gumon.
 Ko'chni qalmoqlar uyurdi,
 Podsho shunday deb buyurdi.
 Haydagan chorva mollari,
 Birdan iziga qayirdi.
- 2940

Sahro, dashtu biyobonlar,
Tuya haydagan sarbonlar,
Qo‘y haydagan cho‘ponlar,
Yetishdi Tolxob dashtiga,
Cho‘ponlarning u boshiga,
Qamchi tortadi boshiga,
Qarang, Qalmoqlarning ishiga,
Sira qo‘ymaydi hushiga.

- 2950 Qo‘ylarni qaytarib chiqdi.
 Chaparasta chopdi ot,
 Chorvalarga qiyomat.
 Talov qilganday qalmoqlar,
 Chorvalar qildi maslahat.

Ketidan etganni surib,
Duch kelgan cho‘ponni urib,
Yuzi, boshlarini yorib,
Endi yo‘q bu ishga hiylalar,
Izg‘in tortib yig‘lashadi,
Xotinu yoshi bolalar.

143

- 2960 Hali ham qalmoqlar kelyapti,
 Talov qilib olayapti,
 Butun xalq yig‘layapti.
 Sahroda otlar eladi,
 Attang, Alpomish bilmadi.

Yig‘lashayotir chorvalar,
Shu vaqt Hakimbek bo‘lmadi,
Xabarsiz qoldi, kelmadi.
Endi qandaydir holimiz,
Talov bo‘b ketsa molimiz,
2970 Uzoqda qolgan elimiz.

Chorvadorlar qarasa, qalmoqlar urgani urib, surib chorvalarni orqa-
ga haydatayotibdi. Chorvadorlar maslahat qilishdi: – Rangimiz gul-
day so‘lguncha, molu yuklardan ayrilib, bunday piyoda qolguncha, bir
urishib qolaylik o‘lguncha, – deyisha berdi. – Bularda ham yaxshi ot,

idrokli, botir yigitlar, sari yoy, qora miltiqlari bor edi. Qalmoqqa talatib piyoda qaerga boramiz, mol ustida o‘lganning ziyoni bormi, – deb chorvador yigitlar qalmoqlar ustiga otlandi:

Otlaning yigitlar qarab qolguncha,
Qizil gulday, bu sarg‘ayib so‘lguncha,
Bu erda o‘lmay, molni qo‘ldan olguncha,
Cho‘pon mollar ustiga,
Tashlab qolaylik o‘lguncha.

2980

Bu Qalmoqda taqdir Haqdan ko‘rilsin,
Mol ustida qora kalla yorilsin,
Kerak bo‘lsa, murda qonga qorilsin.
Haydab eting qalmoqlar ustiga,
Bor mulkdan ayrilib, qolguncha piyoda,
Qalmoq zulmi o‘tdi bizga ziyoda.

144

2990

Chorvalar ham emashdi,
Qalmoqlarga aralashdi,
Aralashdi qalmoqlarga,
Miltiq o‘q eb taqqa-taqqa,
Bet qaytarmay bordi tikka.
Aralashib eta berdi,
Chang havoni tuta berdi,
Chorvadorlarda ham mergan bor,
Nishlab-nishlab ota berdi,
Necha qalmoq yota berdi.

Cho‘llarda uchar lochin,
Qalmoqlar qaytargan ko‘chin,
Bu qo‘ng‘irotlar aralashishi,
Talov bo‘lgan moli uchun.
Nechovni otdan qulatdi,
Ba‘zilarin sulatdi,
Cho‘ponlarni yig‘latdi.

3000

O‘q otildi patir-patir,
Bir-birida yo‘qdi[r] xotir,
Ba‘zi qalmoq ag‘nab yotir,

O‘zbek xalqda ham bor ekan,
Yovdan qaytmas, qaysar botir.

Chang chiqadi gurpillab,
Qarag‘ay nayza so‘lqillab,
Ba’zi qalmoqlar otidan,
Ag‘nay berdi shilqillab.
Qalmoq hali kelayotir,
Ketidan dasta-dasta,
Ba’zi o‘zbek yigitlar,
Nayza solishga usta.

3010

Qo‘ng‘irot yigitlari mol ustida, asir tushgan el ustida, ham nomus bilan or ustida qalmoqlar bilan urishib, ham surishib, bir-birini qonga qorishib, bir kecha-kunduz talashib, chorvador xalqlar engildi. Chunki qalmoq askarlari iz-izidan etishib kela berdi. Qalmoqning xalqi ko‘p, kelyapti izidan katta-katta to‘p bo‘lib. Endi chorvadorlarga qiyin gap, moli cho‘ponlar, sarbonlar Qalmoqda asir tushib qolishdi. Buning ustiga chorvador xalqlari bo‘linib-bo‘linib, oldin ko‘chganlari xabarsiz qoldi. Qalmoqlarga qarshi maydonda birlasha olmadi. Chorva mollarini Chilbir cho‘lga podsholik ixtiyoriga haydab yuborishdi. Endi chorvador ellar o‘zlaricha:

– O‘z elimizga bormaymiz, qalmoqlarga talandik, mol-mulkdan ajralib, qaysi yuzimiz bilan o‘z xalqimiz ichiga aralashamiz, – dedi. – Xalqimizning: “Ko‘ch manglar, o‘z elingdan chiq manglar”, degan nasihatiga qaramay, Boysarining so‘zidan o‘tolmay, ko‘chib kelgan edik. Endi borishga uyat bo‘ldi, – deb Tolxob, Kampirak tog‘laridan o‘tib, chorvador xalqi emasmi, qolgan-qutgan moli bilan shu tog‘larda qolib ketdi.

Chorvadorlar Alpomishga bergen va’dasiga ko‘ra izidan bormagan edi. Hodisa Qalmoqda shunday bo‘lgan, Alpomish Barchin bilan suhbat qurib yotganiga bir yil to‘lgan. Oybarchin Jonadil qal’asida yotganida bir tush ko‘rdi. Tushida quyuq quyun, dovul turdi. Chilbir cho‘ldagi ovullarining ustidan borib, chorvadorlarning uyini buzib ketdi. Barchin uyquдан irg‘ib turib qarasa, sevikli yori Alpomishning qoshida, bu gaplarni ko‘ribdi tushida. Qo‘rqib o‘tirib-o‘tirib, yana uyquga ketdi. Yana tushida boshiga qora chodir aylanib kelib, soya soldi. Ikkinci marta irg‘ib tursa, tong otibdi. Oybarchin betoqat bo‘lib, yig‘lay berdi. Alpomish tursa, Barchin yor yig‘lab o‘tiribdi. Shunda, Alpomish Barchinni bu holda ko‘rib, joyidan turib, oq bilagini bo‘yni dan o‘rab:

– Nima uchun xafa bo‘lib yig‘layapsan? – deb undan gap so‘rab turibdi:

Hayronda qilma o‘zim,
Xafa bo‘bsan sarvinozim,
Menga aytishing lozim,
Ko‘rganday bo‘b jabru jafo,
Nima uchun bo‘lding xafa?

3020

Nozik xayolingni buzib,
Yig‘laysan, ko‘zdan yosh tizib,
Xafa bo‘lib, bag‘ring ezib.
Ne sababdan yig‘layapsan?

Ko‘nglingni qilma yarim,
Sen sevikli dildorim,
Ne sababdan xafa bo‘lding,
Sevikli zulfakdorim.

146

Ko‘zingdan to‘kding yoshing,
Eritib yurak to‘shing,
Ne sababdan xafa bo‘lding,
Sevikli yor, qalam-qoshim.

3030

Sochlaring bor tolim-tolim,
Bo‘yningga oshirdim qo‘lim,
Ne sababdan xafa bo‘lding?
Sevikli yorim, nozalim.

Alpomish joyidan turib,
Shakar labidan so‘rib,
Gapir, bu dardingni yorib,
Yig‘lab, ko‘nglingni qilma vayron,
Menday yoring qilma hayron,
Ko‘z yoshingni to‘kma giryon, – deb Alpomish Oybar-chinoydan emranib gap so‘radi. Oybarchin o‘zining xafa bo‘lish sabbini aytib turibdi:

3040

Suvlar oqar taram-taram,
Tepa sochim to‘qqiz buram,

Shu kecha bo‘ldim beorom,
Yoring o‘lsin, yo‘lbars to‘ram.

Ko‘p yomon ishlar ko‘rdim to‘srimda,
Qora chodir soya soldi boshima,
Har gap kelar, mening hushima.
Xafalikda ezilar mening yuragim,
Salqin, soyali mevador daraxtim,
Sizdan o‘zga yo‘qdir suyanganim,
Ham orqa bo‘ksa ko‘kragim.

3050 Daryo toshar qorlar erib,
Tushda yomon savdo ko‘rib,
Gapirsam dardimni yorib,
Ming ovul el qolib ketgan
Chilbir cho‘lda bo‘lib g‘arib.

Uzoq bo‘ldi mazgil joylar,
Qolib ketdi chorvador boylar,
Otam Boysari biylar,
Nima bo‘ldi ekan ming uylar?

147

3060 Kelganimga bir yil bo‘ldi,
Ko‘rgan to‘srim shu bo‘ldi,
Biron xabari bo‘lmadi,
Xalqlar nima uchun kelmadi,
Oybarchin hayron tushidan.

Qalmoqda g‘avg‘o tushganday,
Boysaribiyning boshiga,
Otam ahvoli qalaydi[r],
Musofir Qalmoq elida.
Kim peshonasini silaydi,
To‘xtatolmaydi Oybarchin,
O‘kinib-o‘kinib yig‘laydi.

3070 Ne bo‘ldi Qo‘ng‘iroq eliga,
Shunqor tepdimi beliga,
Qolib ketarmi biy otam,
Qo‘shilolmay eliga?

Bu so‘zni Alpomish eshitganidan so‘ng, yuragi behalovat bo‘ldi. O‘ylab tursa, Barchinning so‘zi to‘g‘ri. Haqiqatda ham bir yildan beri, bormi-yo‘qmi, ochmi-to‘qmi, fuqaromi-bekmi, o‘likmi-tirikmi, ho‘l-quruqmi – biron xabar yo‘q. Alpomish Barchinga:

– Xafa bo‘lma, tulporni minaman, u yoq-bu yoqqa ot suraman, tez kunda etib boraman, Chilbir cho‘lda elaman, bu ovullarni o‘zim ko‘chirib kelaman, – deb Oybarchinning vaqtini xushlab, chiroyini ochdi. Boy-chiborni tabladan chiqarib, egar-abzalini soldi, belini mahkam tortdi. Dubulg‘ani boshiga, choroynani to‘siga tortdi, yag‘riniga qalqonini tortdi. Yashin o‘tiga yalatilgan, oltin sadoqni beliga tortdi, lekin sariq yoyni olmadi. Alpomish: “Qo‘ng‘irotlar oldimdan chiqar, bo‘lmasa ham, Qalmoqqa borib qaytaraman”, deb jo‘nab ketdi. Avvaldan yo‘llarni bilar edi. Tog‘-toshlardan oshib, polvonning hayrati toshib, ot surib ketyapti, soy-qirlardan o‘tyapti, ot tobora qattiq ketyapti, otiga qamchi urib, tog‘u cho‘lda ketib boradi yo‘l yurib, qancha suvsiz cho‘l yurib. Alpomish Qalmoq eliga yaqinlashib qoldi. Oldidan ko‘ch chiqmadi. “Bular hali Chilbir cho‘lidan qo‘zg‘almaganmikan, endi Qalmoqqa bormay qaytmayman”, dedi. Endi yobi otga besh kunlik yo‘l qoldi. Qalmoqning Do‘nan oti yana sayisning qo‘lidan yem emay, kallanibdi. Alpomishning avval borishida ham o‘sha Do‘nan ot xuddi shunday kasal bo‘lgan edi. Sayis, otboqar muroxurlari Qalmoq podshosiga otning kasallanganini aytgan edi, darrov podsho qurandoz ayyor momoni chaqirtiribdi. Maston momo ham sinchi, ham qurandoz edi. Maston ko‘rsa, otning kasali yo‘q. Qur‘ani har tomoniga uzatib, qaray berdi. Kampir qur‘asida Alpomish ko‘rindi. Kampir Qalmoq xoniga qarab, bir so‘z deyapti:

Podshohim, Do‘naningiz betoqat,
Bo‘lguday Qalmoqda g‘avg‘o alomat,
Shuning uchun kasallangan Do‘nan ot,
Qo‘ng‘irot xoni xuruj qilibdi,
Yana Qalmoq elga yurish qilibdi.

3080

Chorvadorlarning xabari bo‘lganday,
Yashin o‘t olmosni belga cholganday,
Xuruj qilib, yana Qalmoq kelganday,
Zil tog‘ning boshi qora tumanday,
Mirg‘azabning bu achchig‘i yomonday,
Durbinda ko‘rindi, qanorga tiqqan somonday.

Hazar qilmay bu ustunga kelguday,
Agar kelsa, g‘avg‘oni solguday,
Qo‘ng‘irot elin orini olguday,
Bu Qalmoqda katta janjal bo‘lguday.

3090 Boychibor otini qaytmay surguday,
Ko‘ndalang kelgan dushmanni urguday,
Hazar qilmay Qalmoqqa kirguday,
Otlar bilan kuch sinashib ko‘rguday.

G‘ayrati oshganday, juvonmarg chog‘idan,
Qo‘rmaguday bu alplar do‘qidan,
Enib oshguday-da, Zil tog‘idan.

Qalmoq podshosi aytdi: – Shundaymi? Kampir:
– Ha, shunday, – dedi. Podsho:
– O‘zi kela olarmikan? Otlarga ko‘ndalang bo‘larmikan? Chor-
vadorlarning molini yana mendan olarmikan? – dedi. Kampir aytdi:
– Albatta, ko‘p katta g‘avg‘o bo‘ladi. Men Qo‘ng‘irot xonini senga
osongina qo‘lga tushirib beraymi? – dedi. Podsho xursand bo‘lib:
– Qani edi, momo, unday qilsangiz, sizga xizmat haqingizni to‘lay-
man-ku, – dedi. Kampir:

– Zil tog‘idan Chilbir cho‘liga oshadigan yo‘lning ustidan sakson
gaz zindon qazdirib ber. Undan keyin o‘nta qora uy, qizingizning kaniz-
larining chiroyligidan, o‘nta qiz hamroh qil. Lekin, shu qora uylarning
yopilg‘isi ko‘k banotdan bo‘lsin. Qizlarniki ham xuddi shunday ko‘k
banotdan bo‘lsin. Bir ko‘rayin, imkonli bor bo‘lsa, qo‘lga tushirib be-
rayin, – dedi. Podsho darhol besh yuz kishini er qazgich asboblari bi-
lan jo‘natdi. Sakson gaz chuqurlikda zindon qazdirib, kampirning o‘nta
qora uyi bilan qizlarni qo‘yib ketishdi. Kampir aytdi:

– Qizlar, oftob yuzlar, yo‘l kutamiz. Men yo‘lga chiqaman. Sizlar
har qaysingiz bitta uyda turasiz. Agar men Qo‘ng‘irot xonini ergashtirib
kelsam, chaqiraman. Shunda har qaysing har uydan yig‘lab chiqib, Al-
pomishning uzangisidan o‘pib:

– Bir tushib dam olib, choy ichib keting, deyaveringlar, – dedi. Qiz-
lar ham:

– Xo‘p, – deyishdi. Zil tog‘idan tushadigan yo‘lning o‘rtasiga kelib,
kampir Alpomishni kutib o‘tira berdi. Bir kecha o‘tib, ertasi kun chosh-

gohda Alpomish Zil tog‘idan ena berdi. Alpomish qarasa, yo‘l ustida bir kampir o‘tiribdi. O‘zicha aytdi:

– Bu ko‘zi ojiz ko‘rmi, yo qo‘li sholmi, o‘tkinchiga tilanib o‘tirgan gadoy kampirga o‘xshaydi. Bir changal tilla berib o‘tayin.

Alpomish yaqinlashgach, kampir joyidan turib, chapak urib, yig‘lab, Alpomishning oldiga chiqdi.

Bek Hakimbekni ko‘rib,
Ayyor kampir joydan turib,
Qarsillatib chapak urib,
3100 Dod Qalmoqda o‘ldim g‘arib,
Tulpor otini elganim,
Vaqt o‘tkansan kelganim,
O‘lsin Momong, polvonim.

Oshayotir bir yillardan,
Xabarsiz, Chilbir cho‘llardan.
Men ham Qo‘ng‘irot ellardan,
Ayrlidik molu pullardan.
Bugun kelibsiz bu yo‘llardan,
Safar qib, uzoq joylardan,
3110 Xabarsiz, siz ming uylardan,
Ayrlidik tuyu, qo‘ylardan,
Men ham Boysari biylardan.

Qalmoqdan ko‘rdim zulm,
Talovda qancha molim,
Qanday bo‘ladi holim,
Qalmoq alplari qo‘lida,
O‘lib ketti-da, o‘n o‘g‘lim.

Qalmoqda hodisa shu bo‘ldi,
Oybarchinni olib ketganingga,
3120 Men o‘ylasam, bir yil bo‘ldi,
O‘n kelin qoldi keynida,
O‘n kelinim tul bo‘ldi.

Baland tog‘ning pastidan,
Dod deb Qalmoqlar dastidan,

Enib bordi Alpomish
Ayyor kampirning ustidan.

Suv oqadi tobiga,
Qulq soladi Alpomish,
Ayyor kampirning gapiga,
Ish aylanganday chapiga.
3130

Mingan tulpor pirog‘im,
Yashin o‘qli yarog‘im,
Suyangan nov teragim,
Shunday nima keragim.

O‘pka bilan yuragim,
Orqa, bo‘ksa, ko‘kragim,
O‘lsin Momongiz chirog‘im,
Murdamga sohib, daragim.
Izg‘in tortib yig‘ladi,
O‘ziga o‘lim tiladi,
Dod, bizni Qalmoq taladi.
3140

151

Ketolmadik sog‘u salom[at],
Yurak bag‘rimda to‘ldi alam,
Qalmoq alplar qo‘lida o‘ldi
Suyukli o‘nta bolam.

Alplar zo‘rligin bildirdi,
O‘pka bag‘rimni tildirdi,
Qalmoqning zolim alplari
O‘nta o‘g‘limni o‘ldirdi.

Dard o‘zima bo‘ldi g‘olib,
O‘n o‘g‘lim Qalmoqda o‘lib,
Suyukli yorlari qolib,
Rangi gulday bo‘b so‘lib,
Qoldi ko‘kini chalib.
3150

Bosh egalari yo‘q bo‘lib,
Jo‘ra boshlari toq bo‘lib,

O‘nta kelin qolib ketdi,
Cholgani motam ko‘k bo‘lib.

3160 Nasibang tortdi bunda
Men qoldim yomon bir kunda,
Sol qiliching, yo‘lbars bolam,
Bunday yurmayin zinda.

O‘zing Qo‘ng‘irot elim zo‘ri,
O‘ylasam, bir yildan beri,
Bilmayman, qayda Boysari,
Bormadimi xabari.

3170 Qo‘ng‘irotimning yo‘lbarsi zo‘r
Bunday qo‘ymagin tiri[k],
Men ham Qo‘ng‘irot elingdan,
Kutdim kelgan yo‘lingdan,
Bunday qo‘ymagin, chirog‘im,
O‘ldirib ket o‘z qo‘lingdan.

152

Alpomish kampirning yig‘lashini eshitib, toqat qilolmadi.

– E, momo, hali Qalmoqda shunday hodisa bo‘lganmi? – dedi. Kampir:
– E, o‘g‘lim, biz o‘z elimizga ko‘chgan edik-da, Tolxob tog‘ning darasi-da alplar orqamizdan etib, har tomonimizni tutib, cho‘pon-cho‘liqlar-ni urib, xalqlarni qirib, qo‘ylarni oldiga surib, bola-chaqalar yig‘lab, Qo‘ng‘irot xalqini talab, ko‘plarni o‘ldirib, jigar-bag‘rini tildirib, mollarni podsholik qildirib, shunda o‘ldi-da o‘n ulim, shuytib qildi-da zulm, sinib qoldi-da belim, to‘zib ketti-da Qo‘ng‘irot elim. Oy qiyalab borar botib, bizlarga qadring o‘tib, shu vaqtlar kelmading etib, shuytib o‘tiribman kutib, – dedi. Alpomishning rangi so‘lib, yuragi qonga to‘lib qoldi. “Hay attang, Oybarchinning tushi shu hodisa ekan-da, – dedi.

– Momo, shu erda chorvador xalqlardan bormi-yo‘qmi? – dedi. Momo: – E, polvon ulim, bog‘da ochilgan gulim, jonu-dilim, mening o‘zi ketib qolgan galim, o‘lib o‘nta ulim, men nimani bilaman, chorvadorlar har qaysi har daraga to‘zib ketib qolgan. Faqat asir bo‘lib turgan cho‘ponlardan bitta-ikkita bo‘lishi kerak. Men o‘nta beva bilan o‘tiribman-da, shu ahvolda, – dedi. Alpomish aytdi:

– Ha, momo, xafa bo‘lmang, men bu hodisani hozir eshitdim, – deb momoga bir so‘z degani:

Oftob bo‘lmay, qizil gullar so‘libdi,
Bu Qalmoqda, shu hodisa bo‘libdi,
Xafa bo‘lma, Hakimbeging kelibdi,
Yashin o‘thi olmos belga cholarmen,
Qalmoqlarning boshiga kun solarman,
Qalmoqlarman bo‘lganimcha bo‘larman,
Xalqlarimning orin qaytib olarman.

- 3180 Xalqlarim uchun tanam polvon oshidi[r],
Qalmoqlardan qaytgan nomard kishidi[r],
Xalqi uchun o‘lish, mardning ishidi[r],
Endi, polvon orida qilar jonini,
Qalmoq alplar ko‘rsatayin kunini,
Istab keldim, o‘lganlarning xunini.

Hulkar botar, tog‘ boshiga taqalib,
Xizmat qilgan har joydan kelgan joy olib,
Har yig‘inda yurmayin men uyalib,
Qalmoq bilan bir ko‘rayin maydonda,
Kerak bo‘lsa qizil qonga bo‘yalib.

- 3190 153
Ot chopilsin, bu cho‘llarda surilib,
Jang dovullar tob-tobidan urilib,
Kerak bo‘lsa, qora kalla yorilib,
Dushman bo‘lsa, qolsin qonga qorilib.

Kampir Alpomishga aytdi: – Qani edi, o‘g‘lim, unday bo‘lsa, keyiningda duo qilib tursam, shu Qalmoq polvonlarining o‘lganini bir ko‘rsam. O‘g‘lim, endi bizning ovulga bir borib ket, hol-ahvolimizni so‘rab ket, esir bo‘b qolgan kelinlarni bir ko‘rib ket, – dedi. Alpomish:

– Keling, burilib bechoralarga bir nasihat qilib ketay, – deb otini bura berdi, kampir yonini olib, yura berdi, ko‘k banotdan yopilgan o‘n qora uyning ustidan bora berdi, Alpomish shu uylarni ko‘ra berdi. Alpomish o‘z ko‘nglida: “Bechoraning o‘nta o‘g‘li bor ekan, shu o‘g‘illari uchun uyigacha qilgan ekan”, deb bora berdi. Kampir o‘nta qizni chaqirib borgapti:

Gumbirlar tog‘da daralar,
Kampir ovulga oralar,

-
- Yo‘lbars polvonim keb qoldi,
Chiqinglar, baxti qoralar.
- 3200 Tog‘ning boshi qoyalar,
Mehnat bo‘lmasin zoyalar,
Yo‘lbars polvonim keb qoldi,
Chiqinglar, baxti siyo[h]lar.
Chipor ot mingan pirog‘im,
Yana yonguday o‘chgan chirog‘im,
Chiqinglar, kelinlar uydan,
Keb qoldi sohib daragim.
- Kampirning tovushini uydagi qizlar eshitdi. Qizlar qarasa, momo
Qo‘ng‘irot xonini ergashtirib kelyapti. Hammasi chiroyli qizlar, yak-
ka uydan chiqib, yig‘lashib, jo‘nasha berdi. Alpomish ko‘rib, juda xafa
bo‘ldi. Alpomishning bu yog‘idan, u yog‘idan kelib, uzangidan tavob
qilib, yig‘lasha berdi:
- 3210 Makon dashti sahro bo‘ldi,
Yurak go‘shtlar pora bo‘ldi,
Tasodifman, polvon og‘a,
Bu baxtimiz qora bo‘ldi.
Bu Qalmoqda ado bo‘ldik,
Shunday bo‘lib, gado bo‘ldik,
Bir yillardan bermag‘on,
Qo‘ng‘irot eldan judo bo‘ldik,
Dod-faryod, aftado bo‘ldik.
- Ketolmadik elimizga,
Qalmoq tepdi belimizga,
Ko‘p qaradik yo‘lingizga,
Bugun muhtoj qo‘lingizga.
- 3220 Qalam qoshimiz qiyilib,
Sochimiz qoldi yoyilib,
Boshimizga osmon nurab,
Qolib ketdi-da o‘yilib.

3230

Ko‘rdingiz, holimiz xarob,
Aza-motam qoldik o‘rab,
Yo‘lingizni kutdik so‘rab,
Yo‘lingizga oydan qarab.

Qalmoqda keyin o‘tar kunimiz,
Siz bizning kattakonimiz,
Sizga tasadduqdir jonimiz.

Boshimizga zulm tuman,
Bir kechaga bo‘ling mehmon,
Mehmon bo‘ling, otdan taylab,
Otingizni bizlar boylab,
Bir kechaga yotsak siylab.

3240

Cholganimiz ko‘k bo‘lib,
Jo‘ra boshimiz toq bo‘lib,
Izlab kebsiz bek bo‘lib,
Bir kecha mehmon bo‘lsangiz,
Qolsin-da, ko‘ngil choq bo‘lib.

Alpomish bularning bu ahvoliga achinib: “E, bechoralar, ha, xafa bo‘lishmasin, bir tushayin”, dedi. Alpomishni zindon ustidan tikilgan katta uyg‘a boshlab bordi. Zindon ustidan shu uyni tikkан edi. Zindon og‘ziga cho‘p-po‘p qo‘yib, og‘zini yopib, ustiga kigiz, ko‘rpa to‘shab qo‘ygan edi. Otni qizlar ushlab goldi. Ayyor kampir:

– Marhamat, mehmonjon, – deb uyg‘a olib kirdi. Alpomish qarasa, baxmal ko‘rpalar to‘shilib turibdi. Bo‘sag‘adan ikki qadam tashlaganda, “gurs” etib zindonga tushib ketdi. Ayyor kampir irg‘ib, Boychiborni mindi. Maston:

– Qizlar, qanday ekanmiz bizlar? Endi, sizlar o‘zlarining boraverasizlar, men Qalmoq podshosidan suyunchi olaman, – deb ketdi.

Alpomish zindonda afsus qilayapti: “Bir ayyor kampirning aldashi-ga giriftor bo‘ldim-da, Oybarchinning tushida ko‘rgan dovuli chorvador xalqimning to‘zib, xarob bo‘lgani ekan, boshiga qora chodir soya solgani mening boshimga tushgan qorong‘u zindon ekan. Hay, xafa bo‘lganim foydasiz”, deb yota berdi.

Qalmoq podshosi polvonlarini atrofiga to‘plab, xavf qilib turgan edi. Ayyor kampir Boychiborni minib, yuragi toshib, Qalmoq darvozasidan ko‘ndalang bo‘ldi. Darvozadan:

– Darvozani och, oldimdan qoch, – deb baqirayotir. Darvoza ochilgandan otni irg‘itib, ichkariga kirdi.

Qalmoqlar podshosi qarasa, kampir Qo‘ng‘irot xonining otini minib kelib turibdi. Podsho xursand bo‘lib: – Ana! Alplar, choppinglar, Maston momo yaxshi ish qilib kelganga o‘xshaydi, – dedi. Alplar kampirni ot-dan tushirib, podshoning oldiga olib bordi. Podsho:

– Momo, qani, nima bo‘ldingiz? – dedi. Momo: – Ishingiz bo‘lmasin, bopladi. Barchin uchun poygada qalmoqlarning otini tashlab kel-gan qo‘ng‘irotning oti shu, – dedi. Podsho:

– Egasi nima bo‘ldi? – deydi. Momo: – Egasini aldab, mehmon qilib tushirib, zindonga tashlab yuborib, “yota ber”, deb qaytdim, – dedi. Har tarafdan:

– Rahmat! Momo! Rahmat! – deb xursand bo‘lishib qoldi. Endi qalmoqlar:

– Yaxshi bo‘libdi-da, – deyishyapti. Alpomishni zindon qilib, Boy-chiborni olib kelgani uchun Mastonga:

– Bu ham sizga suyunchingiz, – deb xazinachiga aytdi, – Ikki la’li tilla berasan.

Endi, Qo‘ng‘irot xoni asir tushibdi, degan xabar tarqaldi. Qalmoqlar to‘y qilishdi. Chorvadorlarning ustidan qorovul qilib qo‘ygan devonbegini ham chaqirdi.

Hammasi birga yig‘ilishib, xursandchilik qilishdi. Devonbegi ham voqeadan xabardor bo‘ldi. Boychiborni sakkizta otboqarning qo‘liga topshirib: – Shu otni zindon tabлага solib, to‘rt oyog‘iga kishan urasan, em-suvini tashib berasan, – deb topshirdi. Podshoning To‘njirxon de-gan mirqosibi bor edi. Shu kishiga otning ustidan qarab turasan, dedi. Devonbegiga:

– Sen cho‘lga ket, cho‘ponlarning ustidan yaxshi nazorat qil, Qo‘ng‘irotxonini ham qo‘lga tushirdik, – dedi. Ko‘ngil endi joylash-di, har kim o‘z ishiga, tush-tushiga ketib qoldi. Devonbegi ham Chilbir cho‘lga etib qoldi. Devonbegi borsa, cho‘ponlar kechqurun qo‘tonga qo‘ylarni solib, semiz qo‘ylardan so‘yib, qozon qo‘yib, go‘sh[t]dan qor-ni to‘yib yotgan edi. Devonbegi borib turdi. Cho‘ponlardan biri:

– Devonbegi, kechikib qoldingiz? – dedi. Devonbegi :

– Ha, Qalmoqda to‘y-xursandchilik bor ekan, shunga hayalladim, – dedi.

– Qanday xursandchilik ekan? – dedi qalmoq cho‘ponlari.

– Qo‘ng‘irot xoni Qalmoq ustiga daf solib kelgan ekan, Maston momo qur’adan bilgan ekan, bir muncha kaniz qizlar bilan yo‘lga chiqib, oldini

olgan ekan. Zil tog‘ining etagidan zindon qazib, zindonga solgan ekan. Chibor otini shirolg‘aga olgan ekan, Qo‘ng‘irot xonini zindonga solgani uchun bizda xursandchilik bo‘lgan ekan, – dedi.

Qalmoq cho‘ponlari ham xursandchilik qilishdi. Cho‘ponlar ichida qo‘ng‘irot cho‘ponlaridan Elomon, Kayqubod, Zamon boyvachcha degan cho‘ponlar bor edi. Bu cho‘ponlarning eyayotgan ovqati tomog‘ida turib qoldi, sillasi qotib qoldi. Dardini ichiga yutib qoldi. Devonbegi:

– Cho‘ponlar, uxlangizlar, qo‘ylarni yoyasizlar, – dedi. Cho‘ponlar har biri o‘z suruvi boshiga kelib yotdi. Kayqubodning uyqusи kelmay, betoqat bo‘ldi. Qalmoq cho‘ponlari uxbab qoldi, kecha yarim bo‘ldi. Kayqubod sekin Elomonning qoshiga kelsa, bu ham uxbab olmay yotibdi. Kayqubod Elomonga qarab yig‘lab, aytib turibdi:

Qizil gulman, sarg‘ayib, men so‘lamан,
Endi ilojim yo‘q, qanday qilaman?
Alpomish kelganini qanday bilaman,
Yotasанmi, tur joyingdan Elomon.

Bu yotishda, bizga uyqu kelama?
Kayqubod qul, shunday o‘lmay qolama?
Og‘ayni-qarindosh bizday bo‘lama?
Tur joyingdan, ag‘nalib yig‘lama.

Ikki o‘ngirni, og‘am, belga solaylik,
3250 Zil tog‘ning pastidan xabar olaylik,
Hakimning kelganini bilaylik,
Tushgan bo‘lsa, bu zindonga polvonim,
Zindonga tashlab, birga o‘laylik.

Bu yurakka yara tekkanday,
Eshitishga Boybo‘ri uyi kuyganday,
Oybarchinday odam, aza kiyganday,
Zil tog‘ning boshini tuman cholganday,
Sizni, bizni izlab yo‘lbars kelganday,
Biz uchun qalmoqqa asir bo‘lganday,
3260 Oybarchinoy yig‘lab qolganday.

Ikki etakni, og‘am, belga cholaylik,
Uyqudan kechib, bir xizmat qilaylik,

3270

Yur Elomon, borib, xabar olaylik,
 Zinda yurmay, mayli, biz o'laylik,
 Tong otguncha, yana qaytib kelaylik.

Ketolmaydigan bo'ldik qalmoq elidan,
 Nasiba ko'tarilmadi Chilbir cho'lidan,
 Bir xabar olaylik biyning ulidan,
 Elomon turdi joyidan,
 Ikkchi chiqib jo'nadi qo'yidan,
 Chopqillab o'tayotir Chilbir soyidan.

3280

Ikkovi cho'lda yig'ladi,
 O'ziga o'lim tiladi,
 Yetti yil yurgan bu joyda,
 Hamma joyini biladi.
 Yurak topillab uradi,
 Ikkovi yo'l yuradi,
 Ikkchi cho'pon kechalab,
 Izillab yig'lab boradi.

Qarang cho'ponlar zo'rige,
 Yetaylik , der bir-biriga,
 Yetishayotir ikkovi,
 Mo'ljallagan eriga.

Bular bu joylarning o'tini, qorini, balandini, pastini bilar edi. Zil tog'ining pastiga, yo'ning ustiga kelib, qarasa, zindonning og'zi qop-qora bo'lib ko'rilib turibdi. Ikkovi zindonning og'zidan qaradi. Bundan avval yo'q edi qazilgan katta o'rasi. Alpomishning kelganini sezadi, ketdi yuragi ezilib, xumor ko'zdan yoshi tizilib, zindon boshidan qarar cho'ponlar bo'yni cho'zilib:

– Ahvolimiz qalay? – deb zindonni ko'rib yig'laydi. Ikkovi:
 – Bu choh yangi qazilgan. Endi otini aytib chaqiraylik, Hakimbek bo'lsa, ovozi chiqar, – dedi. Zindonga chaqirayotir:

Oq ayilda oltin to'g'am,
 Bo'z o'rdadagi bo'sag'am,
 O'lsam, bu tobutga egam,
 Qichqirayotir zindonga,
 Zindonda bormisan bek og'am.

3290 Sen eding, bizga ko‘ngil to‘q,
 Ko‘ruv bormi yoki yo‘q,
 Zinda bormisan zindonda,
 Istab kelgan Hakimbek.

Nasibangni haydab bunda,
 Bizlar qoldik yomon kunda,
 Bormisan, yo‘lbars zindonda,
 Biz ham yurmaylik zinda.

3300 Tulpor otini elganim,
 Bizlarni izlab kelganim,
 Zindonda bormisan zinda,
 Hakim nomli polvonim.

Erisin, tog‘ning qori,
 Qayda ketib, elning bari,
 Yo‘lbarsim bir yildan beri,
 Ko‘ra olmadim qaytib, tiri[k].
 Elatimning arslon zo‘ri,
 Barchinning sevikli yori,
 Bormisan zindonda tiri[k].

3310 Alpomishning xeli-xeshti,
 O‘zi kechaning ishi,
 Zindon tagiga etdi,
 Yig‘lagan cho‘pon tovushi.

Yo‘lbarsday joydan turadi,
 Zindon boshiga qaradi,
 Polvonim, degan tovush,
 Quloqqa etib boradi.

Alpomish hayron bo‘ladi,
 Yaxshilib qulq soladi,
 Elomonning tovushi,
 Hakimbek, deb keladi.

Elomon bilan Kayqubod vaqtida sag‘ir bola edi. Boybo‘ri bilan Boysarining uyida katta bo‘lishgan edi. Alpomish qulog solsa, shularning tovushiga o‘xshaydi. “Kambag‘allar izlab kelibdi-da, bularni xafa qilmay”, deb ularga bir so‘z deyapti:

3320 Xazon bo‘lmay, qizil gullar so‘lama,
Jondan qo‘rqqan, Qalmoq yurtga kelama,
Xafa bo‘lmanglar, bunday yig‘lama!
Yig‘laganing bizga foyda bo‘lama.

E, nomardlar, bu yig‘lashdan foyda yo‘q,
Hali zinda, Hakimbeging o‘lgan yo‘q,
Hozir menga hech qanday gap bo‘lgan yo‘q,
Xabar olishga kelgan bo‘lsanglar mendan,
Yig‘lab lablaring bo‘lmasin xandon,
Hech vaqo yo‘q qazgan ekan-da zindon.

3330 Hakimbek ukangiz bir ish qilolmas,
Bu zindonda Qalmoq damga kelolmas,
Chorvadorlarning molin butun ololmas,
Bir ish kelolmaydi Qalmoq qo‘lidan,
Yo‘lbarsing qo‘rqmaydi, qalmoq sheridan,
Xabar so‘rsang, yo‘lbarsxonning holidan,
Hammamiz sog‘-salomat ketarmiz, Qalmoq elidan.

3340 Bu sitamni hali qalmoqdan olarman,
Bu alamlarning boshiga kun solarman,
Barchin bilan yana o‘ynab-kularman,
Xafa bo‘lib, ko‘p yig‘lama, Elomon!
Tilak istab, chiqqandim ena cho‘limdan,
Xafa bo‘lma, hazarim yo‘q o‘limdan,
Qalmoq alplar nobud bo‘lar qo‘limdan,
Bir ayyor kampir chiqdi yo‘limdan.

3350 Lekin, kebsan xabar oglani munda,
Hech gap emas, yotishim bor zindonda,
Xafa bo‘lib yig‘lamanglar, hali yotibman-ku zinda,
Menga bormay, Chilbir cho‘Ining xabari,
Nimaligin bilmam bir yildan beri,
Hali xursand bo‘ldim, bor ekansizlar tiri[k].

Elimizga o‘lja bo‘lib ketadi,
Bu Qalmoqlarning saf zulfakdori,
Xafa bo‘lmanglar, barimiz birga ketarmiz!
Sog‘-salomat qarindoshga etarmiz,
Changak solib, kampir go‘shtin bitarmiz.

Qalmoq o‘rdak, ukang lochin – Alpomish,
Qalmoqlardan olar o‘chin Alpomish,
O‘lja qilar qalmoq ko‘chin,
Xafa bo‘lmang shuning uchun.

3360

Bor ekansizlar-da bunda, ketinglar,
Kelib, ahvolimni bunda bildinglar,
Xursand bo‘ldim, kelib xabar oldinglar.
Yig‘lar bo‘lsang, dashtdan-dashtga yig‘lagin,
Bir-biringning manglayingni silagin,
Xafa bo‘lmay, esonlikni tilagin.

Har vaqt zindon boshiga kelib turmanglar,
Yig‘lashib, tirkashib bunday yurmanglar,
Qalmoq kelganlaring bilmasin,
Ikkovingga qiyin kunni solmasin.

161

Kayqubod bilan Elomon qulqolsa, Alpomishning tovushi adl eshitilyapti. Elomon:

– To‘g‘ri aytayapti, ikkovimiz yig‘lashib turganimiz bilan Alpomishga nima foyda. Vaqtimizni topib kelamiz bo‘lmasa, birimiz ovqat tashlab ketaveramiz-da, ana bildik. Yuring, vaqtli ketaylik, tong otmay, qo‘yga etayik, – deb Alpomishga:

– Xayr bo‘lmasa, biz ketdik, – dedi. Alpomish:

– O‘, Elomon, Kayqubod, endi xafa bo‘lib yurmanglar. Imkon bo‘lsa, ovqatdan xabar olib turasizlar-da, – deb qoldi.

Kayqubod bilan Elomon kechaning bir vaqtida bo‘ri yo‘rtish qilib ketayotir, tong otmasdan qo‘ylarga etayotir. Devonbegi cho‘ponlarning hammasini uyqudan uyg‘otayotir.

– Cho‘ponlar, turinglar, qo‘yni haydanglar.

– Qo‘ng‘irot cho‘ponlar, senlar ham turdilaringmi? – dedi. Kayqubod aytidi:

– Biz har vaqt shunday erta turib haydaymiz-ku, mana haydayapmiz”. Zamon cho‘pon Kayqubod bilan Elomonning ketganini bilar edi. Zamon ularning qoshiga kelib dedi: – Nima gap o‘zi, odamning yuragi nojoyish bo‘ldi-ku? Kayqubod aytdi:

– Hakimbek kelgan ekan, zindonga solgan ekan. Zamon yig‘lab: – At-tang-a! Qo‘ng‘irot xalqining davlati qaytgan ekan-da, – dedi. Kayqubod:

– Hech parvo qilmaymiz. Bizga ko‘p nasihat berdi. Bizdan xursand bo‘lib qoldi. Ongsizdan armonda bo‘lib tushdim. Hammamiz qalmoqlardan o‘ch olamiz, – deb parvo qilmay yotibdi.

– Endi “Kalla yorilsa kalovining ostida bo‘lsin”. Qalmoq cho‘pon-larga aslo sir bildirmaylik. Vaqtimizni topib, ovqat berib kelaveraylik, – dedi. Uchovi Qo‘ng‘irot elidan-da, “xo‘p bo‘libdi”, deyishdi.

Endi, semiz qo‘ylardan dashtlarda so‘yib, tandir go‘sh[t] qilib, chanochg‘a solib, o‘nta-o‘n beshta qo‘yning go‘sh[t]ini berib ketayotibdi. Ba’zi vaqtlarda nechalab qo‘y yopganda, zindonga chohkalab qo‘ylar-dan tashlab ketyapti. Alpomishga bera-bera qo‘ylarning ichida semizi qolmay qolibdi. Devonbegi har vaqt-har vaqt qo‘ylarning oriq-semizini tekshirib turar edi. Bir kun qo‘ng‘irot cho‘ponlarining qo‘yini ko‘rsa, oriq-tirriq qo‘ylar qolibdi. Devonbegi: “A, qirilgur qo‘ng‘irot cho‘ponlar, “mollarning semizini sotib, pul qilib, bir kuni qochib ketamiz”, deb yurgan bo‘lsa kerak”, deb o‘yladi. Qo‘ng‘irot cho‘ponlarni chaqirib, Kayqubod, Elomon, Zamonalarga devonbegi bir so‘z deb turibdi:

3370 Olisda manzil joylaring,
 Endi kuydi uylaring,
 Qani semiz qo‘ylaring?
 Bugun qanday hollaring.
 Uzoqda tug‘ilgan ellaring,
 Qani semiz mollarling?

Fido qilaman joningni,
Teshmay so‘raman qoningni.
Gapiringlar chiningni,
Bo‘lmasa, ko‘rsataman kuningni,
O‘ltirib uzaman xuningni.

3380 Qabul qilmayman zoringni.
 To‘pon qilaman boringni,
 Qistiraman sho‘ringni,

Zindonda asir qildi,
Hakimbekday zo‘ringni.
Tez-tez qo‘ylarni topmasang,
Qazib, ko‘maman go‘ringni.

Chilbir cho‘llarda yotibsan,
Semiz qo‘ylarni sotibsan,
Endi mahkam ushlayman,
Kallangga qamchi tashlayman.

Tekshirishni boshlayman,
Agar qo‘ylarni topmasang,
Hakimbekning ustidan
Senlarni ham zindonga tashlayman.

Kayqubod, Elomon, Zamon cho‘ponlar dam bo‘lib, bo‘yni xam bo‘lib turishdi. Ular ichida gap biladigani Kayqubod aytdi:

– Biz sizning qo‘lingizdagи musofirmiz-da, o‘zingiz bilasiz-da, nima qilsangiz. Qo‘yning talaq degan kasali bo‘ladi, bu kasal semiz qo‘ylarga tegadi. Semizlarning hammasi ana shu talaq kasalidan o‘lib ketdi-ku. Devonbegi aytdi:

– Nimadan bo‘ldi shu talaq kasali? Kayqubod aytdi:

– Bizlar cho‘ponmiz, erdan ko‘kangan giyohlarning hammasi bir xil bo‘lmaydi. Talaq o‘t degan bir zaharli o‘t bo‘ladi. Shu o‘t oriq qo‘ylarga ko‘p kor qilmaydi. Semiz qo‘ylarni tez o‘ldirib tashlaydi. Shu o‘tlovda shu zaharli o‘t bor ekan. Zil tog‘ining etagi, zindon atrofi qo‘yni ko‘p semiz qiladi-da, – dedi. Devonbegi qo‘ng‘iroт cho‘ponlarini so‘kib-so‘kib ketdi. Uch cho‘pon maslahat qildi.

– O‘ziyam xayolimizga kelmay, hamma semiz qo‘ylarni tashlab yuboribmiz, – dedi. Elomon aytdi:

– Endi shunday qilaylik.

Qalmoq cho‘ponlari qo‘yning tusidan, enidan tanimaydi, cho‘ponlar o‘z suruvi bilan har biri har soyda yotib yuradi. Bular Beshqo‘ton degan joyda birga yotar edi. O‘tloq erlari sho‘r er edi. Elomon shunday epchil ediki, bir kechaning o‘zida bir necha suruvlarni kezib kelar edi. Zamon ham shunday epchil ediki, qo‘yga bo‘ri chopsa, bo‘rini surib, dumidan ushlab urib, o‘ldirar edi. Cho‘pon poygasida hamma vaqt oldin kelar edi. Kayqubod gapdon bo‘lsa-da, ularcha emas edi. Shu maslahatni qilib, uchalasi kechalari Kayqubodni qo‘yga tashlab, ikkovi ikki tomon-

ga ketadi. Uxlab yotgan cho‘ponlarning qo‘yidan ellik-yuztadan bo‘lib kela boshladi. Har kecha, shunday qilaverdi. Semiz qo‘ylar ko‘payib ketdi. Bir oy ichida har birining oldida mingtadan qo‘y yig‘ildi. Yana bir kun devonbegi kelib qoldi. Kayqubod aytdi:

– Keling, aka, u kuni bizni qancha urishdingiz, musofirsinib, biz sizga hech narsa demadik. Bizga sanab bergan qo‘yingizni sanab oling, biz so‘kish eshitib yurmaylik, qo‘yni sanamay, tekshirmay ko‘p so‘kindingiz, – dedi. Devonbegi qo‘ylarni sanab ko‘rsa, hammasi semiz, soni ham uch-to‘rtta ziyod. Devonbegi aytdi:

– O‘sha kuni qo‘ylaring oz, oriq edi-ku. Kayqubod aytdi:

– Shu kuni qo‘ylar to‘p-to‘p bilan yotgan edi-da, ham arning o‘ti mollarga yoqmas edi, qo‘ylar shuning uchun oriq edi. Talaq kasali endi ko‘tarildi. Siz ko‘rgan oriq qo‘ylar bir oyda semirib ketdi. Bizlar chorvador cho‘ponmiz, qo‘ylarni semirtirishni bilamiz, Kecha-kunduz bilan boqsak, yigirma kunda semiz qilamiz. Bizni xafa qilib, so‘ka berma-sangiz, – dedi.

Devonbegi: – Ha, cho‘pon bolalar, kechirasizlar-da. Shu kuni o‘zimning biroz dimog‘im kuyganday edi. – dedi. Kayqubod aytdi:

– Aka, cho‘ldagi qo‘ylarning hammasini shu erga olib kelsak, u qo‘ylar ham semirib ketar edi.

Devonbegi aytdi: – Ularni ham olib kelamiz. Qalmoq podshosiga borib sizlarni maqtayman, obro‘ilaringni ko‘taraman, ko‘p sovg‘a ham olib kelaman podsholikdan, – deb xursand bo‘lib ketdi. Qalmoq cho‘ponlariga borib:

– Endi sizlar ham Zil tog‘i atrofiga qo‘ylarni haydasalaring bo‘ladi, qo‘ng‘irot cho‘ponlarning qo‘yi semiz bo‘lib qolibdi, o‘t ko‘p er ekan, – dedi. Qalmoq cho‘ponlari ham rozi bo‘lishdi. Bularning qo‘yi ham qo‘ng‘irotlardan o‘ljaga tushirilgan qo‘ylar edi. Qo‘ng‘irot cho‘ponlar Alpomishni tashlab ketolmadi, cho‘pon bo‘lib yura berdi, endi gap shu bo‘ldiki, Alpomishning zindonda yotganiga olti yil to‘ldi.

“Alpomishning el-yurtiga, ota-onasiga, yoriga Alpomish Qalmoqda zindonda o‘libdi”, degan gap eshitildi. Oybarchinning bo‘yida olti oylik homila qolgan edi. Alpomish ketgandan keyin, o‘g‘il tuqqan edi. Otini Yodgor qo‘ygan edi. Alpomishning nomi o‘ldiga etib, Barchin ham Qaldirg‘och singlisi motam tutib, Boybo‘ri bir ko‘rishga zor bo‘lib, o‘zi qarib, qulqlari kar bo‘lib, oqibati sho‘r bo‘lib, o‘lgan odamga tir bo‘lib qolgan edi. Ultondo‘z degan bor edi. Eski vaqtarda boylarning qul, cho‘ri sotib olish odati bor edi. Boybo‘rining otasini Davanbiy der edi. Davanbiyning otasini Alponbiy der edi. Ana shu biylarning vaqtida Ultondo‘zning otalari

shu biylarga qul edi. Ultondo‘zning otalari “toz”, – degan xalqdan sotib olingen edi. Shuning uchun u o‘zi ulton (charm) pishirishga usta edi-yu, Ultondo‘z demasdan Ultontoz deb atalib ketgan edi. Ultontozning onasini Qo‘ng‘izbikach der edi. Ultontozning onasi hozir ham bor bo‘lsa kerak. Boybo‘ri vaqtida shu Qo‘ng‘izbikachni o‘ziga nikohlab qo‘ygan edi. Shu sababli Ultondo‘z bosh ko‘tarib, har tomondan o‘ziga kuch to‘plab, Boybo‘riga maslahat solmasdan, Alpomishning Jonadil qo‘rg‘oniga O‘tapir taxtiga chiqib, Sultonbek deydi meni, deb butun Qo‘ng‘irot eliga e‘lon qildi. Qo‘ng‘irot boylarini chaqirib:

– Boylar, tog‘ni tuman chalibdi, bo‘lmas ishlar bo‘libdi, Alpomish Qalmoqda o‘libdi, bu xabar aniq bo‘libdi, ko‘rasizlar, Barchin oylar motam cholibdi, O‘tapir poytaxti egasiz qolibdi, ota-bobodan qolgan: “O‘g‘il o‘Isa, otaga, ota o‘Isa, o‘g‘ilga; uka o‘Isa, akaga, aka o‘Isa uk-agaga”, degan gap bor. Mening enamni yoshligida Boybo‘ri ham olgan ekan, buni qari bobolar bilar, ena tufayli chin o‘g‘il bo‘lmasak ham, o‘gay o‘g‘il hisoblanamiz, shuning uchun bizni hammaga ma’lum qiling, biz Alpomishning yurtiga egamiz, – dedi. Xalqlar bu erish gapga ham ishondilar.

– Ha, mayli, bizga kim xon bo‘lib taxtga o‘tirsa, unga zakot berav-eramiz-da, – dedi. Ultondo‘z Alpomishning Alpon ko‘liga besh, o‘n kishi-si bilan, olg‘ir qushlarini olib ketayotgan edi. Ko‘chada Yodgorning ko‘zi tushdi. Sag‘ir bola emasmi, yig‘lab, ular izidan ergashib yurdi. Lekin bularning bittasi ham “kel”, – deb so‘z qotmadi. Sag‘ir bola iziga qaytib, ammasi Qaldirg‘och yoniga kelib, yig‘lab turibdi. Qaldirg‘och og‘asining o‘g‘lini quchoqlab: – Nimaga xafa bo‘lding? – deb aytib turibdi:

165

Yig‘lab bordi-yo ammasining qoshiga,
Otasining sut emishgan emikdoshiga,
Qaldirg‘ochoy quchoqladi to‘siga,
Darmon topolmay, yurak hovuriga,
Yodgorni quchoqladi bag‘riga.

3400

Ammang o‘lsin, bugun holim qalaydi[r],
G‘amxo‘r ekan, manglayingni silaydi.
Bugun o‘ziga o‘lim tilaydi,
Ammang o‘lsin, deb yig‘laydi.

Nega yig‘lab, o‘kinib kelding bunda,
Meni qo‘yib yomon kunda,

Yo‘lbars otang o‘lib zindonda,
Baxti qaro ammang yurmasin zinda.

3410 Otang edi Qo‘ng‘irotning zo‘ri,
 Olti yillardan beri,
 O‘lgan deb, keldi xabari,
 Ammang yurmasin tiri[k].

So‘ng yuragi kuya-kuya,
Mehnatim bo‘ldimi zoya?
Ammang o‘lsin, baxti siyo,
Yuragima solding yara,
Ko‘nglim qilding-da pora,
Ammang o‘lsin, baxti qora.
Qaldirg‘och Yodgorni quchib,
3420 O‘lsin ammang menday g‘arib,
 Nega o‘kinib yig‘laysan,
 Gapir dardingni yorib.

166

Qaldirg‘och “Yodgorni birov urgan bo‘lsa kerak”, deb o‘yladi. Yodgor ammasiga yig‘lab, shunday deyayotir:

Amma, javob bering, og‘ang uliga,
Bir ot chopib, mindirmasang beliga,
Bir ot bormasang bo‘lmaydi,
Otamning Alpon ko‘liga.

3430 Ovchilarni ko‘rib qoldi ko‘ziga,
 Bir maydon ergashib, choppdim izida,
 Quloq solmay, menday sag‘ir so‘ziga,
 Shuytib keldim, senday bobom qiziga.

Ot topib ber, amma, men ham borayin,
Yo‘lbars otamdan qolgan ko‘lni ko‘rayin,
Qayg‘u soldi Qaldirg‘ochning boshiga,
O‘kinib ko‘z to‘lgan, xumor yoshiga,
Bir ot topib ber, deb yig‘lab turibdi
Mulla Hakimbekning emikdoshiga.

Qaldirg‘och bu gapning uchiga etmadi. Yodgor esa janjal qila berdi. Qaldirg‘och qo‘lidan etaklab, bu dardni kimga yorarini bilmasdan, Qorajonga bordi, albatta, Qorajon do‘st bo‘lib sevishgan edi, bir-birini deyishgan edi. “Shunga borib dardimni yormasam, boshqa kimga ham yoramani”, dedi. Qorajon qarasa, Yodgorni etaklab, Qaldirg‘och kelayotir.

– Ha, Qaldirg‘och? – dedi. Qaldirg‘och nima uchun kelganini aytib turibdi:

3440

Qatorimdan uzilibdi qora nor,
Qalmoq eldan eshitdim yomon xabar,
Ahvolimni og‘irlashtirdi Yodgor,
Shuning uchun qulqoq solsang, arzim bor.

167

Qizil gulim sarg‘ayib qolganday,
Shu ellarda erish xabar bo‘lganday,
Yodgor shuytib yig‘lab qolganday,
Yo‘lbars og‘am Qalmoq yurtda o‘lganday.

Avvalo bunday bo‘lmasin-da boshim,
Qo‘limdan uchib ketgan olg‘ir qushim,
Sendan bo‘lak aytadigan yo‘q kishim,
Qalmoqda qolganday emikdoshim.

3450

Shunday deb, gap chiqargan qo‘ng‘iroq el,
Boray desam, uzoq Qalmoqning yo‘li,
Bugun bag‘rim ezdi yo‘lbarsning uli,
Endi o‘lsin menday bo‘lgan singili.

Gap so‘zlasa, tonglaydagi tilisan,
Qorajon sen ham Qalmoq elisan,
Sendan boshqa menga yo‘qdir ko‘ngil to‘q,
Jondan ortiq edi yo‘lbars bek,
Sendan o‘zga bugun menga g‘amxo‘r yo‘q.

3460

Bu gapga, Qorajon, qulqoq solasan,
Qalmoq elin o‘ri-qirin bilasan,
Shu joyda tug‘ilib, o‘sgan bolasan,
Bugun arzimni adl so‘rasang.

Do'stlik uchun bir xizmat qib ko'rasan,
Qanday bo'lsa, bir Qalmoqqa borasan,
Alpomish bormi-yo'qmi, xabar olasan.

Aniq bo'ljadi-da, menga xabari,
Qarib qolgan Boybo'riday padari,
Qolib ketdi keynida sevikli yori,
Mana ko'rsang, yo'lbars oshnang sag'iri.
Ko'llarda aylanib uchar o'rdak-g'oz,
O'tapirga ega bo'ldi, Ultontoz,
O'tib ketdi necha qishu, necha yoz.

Belidan oshib borayotibdi,
Senga mening arzim shu bo'pti,
Yo'lbarsning ketganiga olti yil bo'pti,
Suyukli yori Barchinoy tul bo'pti,
Barchin homilasi olti yashar ul bo'pti,
Hozir o'rniga bek Ultontozday qul bo'pti.

Qorajon o'ylanib qoldi: – Qaldirg'och, senga bu gaplarni kim aytdi?
Qalmoqdan senga odam keldimi? Qaldirg'och aytdi:

– Shamol turmasa, cho'p qimirlamaydi, og'izdan-og'izga bu gap yoyilib ketgan-da. Ultontoz O'tapir taxtiga chiqib, o'zini "bek", – deb e'lon qilibdi xalqlarga. Shuning uchun senga ishonamiz. Sen shu gapning anig'ini, akamning o'lik-tirikligini bilib kelsang, – dedi. Qorajon:

– Ora ko'p uzoq joy, tog'lar oshib, toshlar bosib qochon borar ekanman, – deb biroz o'yladi.

– Hay, kelng, bu qiyinchiliklarni engayin, do'stim uchun bir xizmat qilayin. Endi men kunduz borolmayman, kecha boraman, – dedi. Ipakdan yo'g'on qilib qirq quloch arqon eshtirdi. Katta chonoch ko'larning ichiga ozuqasi bilan tiqib oldi. Qorajon aytdi:

– Men piyoda ketaman, shunda ham otdan oldin etaman.

Qorajon hech kimga bildirmasdan kechalab ketdi. Qorajon zo'r polvon emasmi, tog'larning belidan oshib borayotibdi. Zil tog'ining ustiga chiqib har tomonga qarayotibdi. Tug'ilib, kindigining qoni tomgan joy emasmi, Qalmoqning hamma tomonini ko'rayotibdi, Chilbir cho'li ustiga qarayotibti, Zil tog'idan oshib, Chilbir cho'li tomonga borayotibdi. Oldi kech kirib qoldi. Har erdan o'tning shu'lesi ko'rina berdi. Qorajon aytdi:

– Qo‘ng‘irotning boylari hali Chilbir cho‘lida bormikan? – deb Zil tog‘idan tashlab, o‘tga qarab, nishlab yo‘l tortdi.

Ana-mana deguncha o‘tga etib qoldi. Qorajonning ko‘ziga ovul ko‘rinmadni. Qorajon pisib, bu yog‘idan qaradi, u yog‘idan qaradi, ya-qiniga etib boradi. Cho‘ponlar o‘t yoqib, go‘sht pishirib yotgan ekan, shuni ko‘radi. “Cho‘pon!” deb ovoz beradi. Qo‘ychi ko‘ppak itlar vovullashib, har tomonga qarab hura berdi. Cho‘ponlar esa Kayqubod va Elomonlar edi. Elomon chaqqon bola tez vaqt ichida atrofni aylanib chiqdi. Qorajonga duch kelib qoldi, salomlashib ko‘rishdi. Elomon qarasa, bo‘yi novcha, yugan paycha, egnida bo‘ktargisi bor, qo‘lida katta tayog‘i bor, non talab cho‘ponga o‘xshaydi. Elomon ergashtirib qo‘shxonasiga olib keldi. Kayqubod va Zamon poygachilar qarasa, katta baquvvat bir zo‘r yigitni ergashtirib olib keldi. Mehmon qilib katta semiz qo‘y so‘ygan edi. Go‘shtini qovurib, Qorajon oldiga olib keldi. Qorajonning ham och kelayotganiga ikki kechayu kunduzlar bo‘lgan edi. Bir qo‘yning go‘shtini eb qo‘ydi. Qorajon qornini to‘q qilib, dimog‘ini chog‘ qilib, nasiyasini naq[d] qilib, endi cho‘ponlarga tuslab qaradi. O‘zbek cho‘ponlarga o‘xshaydi. Qorajon bularga qo‘ylar kimnni-ki deb bir-ikki og‘iz qichqirib turibdi:

169

3480

Qo‘y boqibsiz biyobonlar,
Qo‘y boqib yotgan cho‘ponlar.
Olov chiqadi har yonlardan,
Qo‘l-oyog‘i chaqqonlar,
Bu cho‘lda qo‘y boqqanlar,
Qo‘ylar kimnniki, cho‘ponlar?

Bunda bormi ovul-uylar,
O‘zi qanday joy bu erlar,
Kimnniki yotgan qo‘ylar,
Qo‘y boqibsiz sahro-cho‘llar,
Siz qaysi urug‘ qanday ellar,
Kimnniki yotgan mollar?

3490

O‘t ekan turgan joylaringiz,
Semiz ekan qo‘ylaringiz,
Bormi ovul-uylaringiz,
Kim xo‘jayin boylaringiz?

Kayqubod Qorajondan bu gapni eshitgandan keyin nima deyarini bilmadi. Hayron bo‘ldi. Musofir bolalar emasmi, qo‘ng‘irot ellari esiga tushib, ko‘ngli vayron bo‘ldi. Bu qo‘y kimniki deyarini bilmadi. Qorajonga qarab Kayqubod:

- Qo‘ylarni so‘radengiz-da? – dedi. Qorajon aytdi:
- Ha, qo‘ylarni so‘radim.

Qorajonning-ku bu Qalmoqda nomini eshitar edi. Alpomish bilan do‘sit ekanligini ham bilar edi. Oybarchinni olib, Alpomish bilan birga ketganini ham bilar edi. Lekin Qorajon bilan birga suhbatlashib yurgani yo‘q edi. Bu cho‘lda qo‘y boqib yurgan cho‘pon bola edi, olti yildan buyon Qorajonning ham rangi-tusi o‘zgargan bo‘lsa kerak, Qorajonga Kayqubod bir so‘z, deb qichqirib turibdi:

Chilbir cho‘l deb bu joylarni,
So‘radengiz bu qo‘ylarni,
Ham bu cho‘ldan ovul-uylarni.
Avval obod edi bu joylar,
Chilbir cho‘lni joyladi, qo‘ng‘irot boylar,
Oboddir Bo‘ston soylar,
Bor edi bu cho‘lda avval
Mingta ovul-uylar.

170

3500

Avval obod edi bu Chilbir cho‘llar,
O‘tirar edi Qo‘ng‘irot ellar.
Elning boshlig‘in – Boysariboy der edi,
Qo‘ng‘irot xalqida zo‘r edi,
Qo‘ng‘irot eldan ko‘chib, bunda kelgan edi,
Shu vaqtarda Chilbir cho‘l ko‘p obod bo‘lgan edi.

3510

Saf bedov otlardan boylagan edi,
Bu Chilbir cho‘lni joylagan edi,
Oq o‘tovlarni baxmal yopib, tikib taylagan edi,
Bu joyda o‘tirgandi yetti yil,
Shu vaqtarda obod edi Bo‘ston cho‘l,
Bilmayman, endi qayga ketdi shuncha el.

Boysaribiy bobomizning qizi bor edi,
Uning otini Oybarchinoy der edi,

Ular o‘tirolmay qalmoq alplarning dastidan,
Janjal bo‘lib Barchinoyning ustidan.

Barchin uchun Qalmoq elda taloto‘p,
Bu orada qancha o‘tdi gap-gup,
3520 Ko‘p o‘yinlar soldi qo‘ng‘irot eliga,
Ko‘p o‘yinlar bo‘ldi, Chilbir cho‘lida,
Bu qo‘ylar qolib ketgan qalmoqlar qo‘lida.

Qo‘ng‘irot elining xonini Alpomish, der edi,
O‘zi polvon, gurillagan sher edi,
Qo‘ng‘irot elda o‘zi polvon, zo‘r edi,
Biyning qizi Barchinoyga yor edi.

Polvon edi o‘z elimizning zo‘ri,
Otasini deydi uning, Boybo‘ri.
Alpomishga borib Barchin xabari.
3530 Hakimbek zahmarchanib yo‘l yurib,
Ham yorining, ham elining izini surib,
Barchin uchun Qalmoq keldi ko‘p bo‘lib,
Alplar bari bir tomonga to‘p bo‘lib.

171

Bermaymiz, deb Boysaribiyning qizini,
Yakka ko‘rib Alpomishning o‘zini.
Qalmoq olib keldi polvon borini,
Bermaymiz, deb Barchinday yorini,
Qalmoqqa sotmadi nomus-orini,
Qoyil qilib Qalmoq polvonlarini,
3540 Olib ketgandi-da Barchin yorini.

Alpomish bu joylardan yor olib ketgandan,
Oradan biron olti oy o‘tgandan,
Qalmoq yana yuborib polvonlarini,
Yomon siqdi Boysaribiymizni,
Talov qilib oldi-da molu qo‘yimizni,
Ketgani qo‘ymadi o‘zining joyiga,
Ko‘p o‘yinlar soldi, Qo‘ng‘irot elining boyiga,
Olomonni talovchi qib qo‘yiga.

- Qo‘ng‘irot ellar ko‘chdi joyiga qarab,
 3550 Qalmoq alplar ahvolini qildi xarob,
 Quruq qob ketdi biyning qizidan,
 Qichab etdi, chorvalarning izidan.
 Omon ketkizmadi Chilbir cho‘lidan,
 Mollarini talab oldi qo‘lidan,
 Shunqor tepib Boysarining belidan.
- Bola-chaqalari cho‘llarda yig‘lab,
 Butun mollarini olib qoldi talab,
 Qo‘ng‘irot xalqi mollaridan bo‘ldi judo,
 Qo‘ng‘irot xalqini qildi obod,
 3560 Molini oldirgan chорvadorlar bo‘ldi gado.
 Qalmoq talab qoldi, keyinidan surib,
 Cho‘ponlarni boylab, kallasiga qamchi urib,
 Ko‘p cho‘ponlarni o‘ldirdi qoniga qorib.
- Chorvador ellar ketdi o‘z-o‘z kunini ko‘rib,
 Shu cho‘ponlar ichida, biz ham qolgan ekanmiz kirib,
 Shu gaplarga bo‘lib ketdi olti yil,
 Ketib qoldi har tomonga Uzbek el,
 Xarob bo‘ldi, shu vaqtlar Chilbir cho‘l,
 Bu qo‘ylar-ku, Qo‘ng‘irot ellardan qolgan mol.
- Jon aka, bizlar ham adashgan yo‘ldan,
 3570 Musofirmiz, ayrilib shuncha eldan,
 Ketolmaymiz Chilbir cho‘ldan.
 Kayqubod deydi o‘zim,
 Endi o‘yilsin ko‘zim,
 Qanday bo‘ladi izim,
 Musofirga o‘lim lozim.
- Yuribman Chilbir dash[t]iga,
 Ko‘nib Qalmoqning ishiga.
 Bizning yo‘q g‘amxo‘r kishimiz,
 3580 Ko‘zdan oqadi yoshimiz.
 Bu elini izlab kelgan ekan,
 Polvon Alpomishimiz.

Gap so‘rasang, aka mendan,
Yig‘lab, labi bo‘ldi xandon,
Yo‘lbars Hakimbegimiz,
Eli uchun bo‘ldi zindon.
Cho‘ponning labi qotibdi,
Qalmoqdan jabr o‘tibdi,
Hali ham xonim yotibdi.

- 3590 Qalmoqlar zindonga taylab,
Barchinoyning baxtin boylab,
Ketolmaymiz elimizga,
Hakimbek polvonni taylab.

Biz qolganmiz qiyin kunda,
Yo‘lbars xonimiz zindonda,
Hali o‘lgani yo‘q, zinda.
Cho‘ponning qilgan zori,
Olti yillardan beri,
Etmadimikan eliga,
Yo‘lbars beginning xabari.

- 3600
- Eshitmaganmi Boybo‘ri,
Barchinday suyukli yori,
Shuytib yuribmiz shu cho‘lda,
Ikki ko‘zimiz yo‘lda,
Nima gap bo‘ldiykan Qo‘ng‘irot elda?

173

- 3610
- Boshimizda shunday mushkul ish bo‘lib,
Har kun yo‘qlaymiz, ko‘zimiz yosh bo‘lib,
Alpomish ketarda bizga bosh bo‘lib,
Shuytib qoldik, ko‘zi bog‘li qush bo‘lib,
Oybarchinoy qob ketgandi tul bo‘lib,
Shundan beri, ketdi olti yil bo‘lib,
Ahvolimiz so‘rasangiz, aka, shul bo‘lib.

Musofir bolalarmiz avvalimiz, qalaydi?
Bilmaymiz, manglaydan kimlar silaydi?
Alpomish yotsa ham zindonda,
Sog‘lig‘ini tilaydi,
Qorajonga kamini aytib yig‘laydi.

- Birdan bijillab ketdi... badan,
 Yig'lama, deb joyidan turdi Qorajon,
 3620 Biring Kayqubodsan, biring Elomon,
 Tanimadinglarmi, men Qorajon bo'laman,
 Alpomishning izin izlab kelaman,
 Xafa bo'l manglar, bu zindondan olaman,
 Hali bu Qalmoqqa bir zulmat kun solaman.
- Yotgan bo'lsa Alpomishbek zindonda,
 Alpomishni izlab, keb qoldim bunda,
 Xafa bo'lma, Alpomishni ko'rasan zinda,
 Yoz oyida erir tog'larning qori,
 O'y lab tursam olti yillardan beri,
 3630 O'ldi, deb bordi bizlarga xabari.
 Sochin yoyib, yig'ladi Barchin yori,
 Izg'in tortib yig'lab qoldi Boybo'ri,
 Yo'l tortaman ko'p vaqtlardan beri,
 Bo'pti, hali Alpomish bor bo'lsa tiri[k].
- Alpomishni o'ldi deb Qo'ng'irot eli,
 Sinib qoldi Boybo'ribiyning beli,
 Bu gaplarni menga aytdi singli[si],
 Asli o'zi, men Qorajon bo'laman,
 3640 Qirq quloch ipak arqonni zindonga solaman,
 Qulochlab tortib, zindondan olaman.
- Ipak arqonni bog'lab beliga,
 Olib ketarman Qo'ng'irot eliga,
 Topishtiraman Barchin guliga,
 Olti yashar Yodgor qolgan uliga,
 Qarab turgandir Qaldirg'och yo'liga,
 Sizlarni ham olib ketarman Qo'ng'irot eliga.
- Achchig'lansam, qabog'imni chetaman,
 Qalmoq alclarini siltab otaman,
 Ko'ndalang kelganni yamlab yutaman,
 3650 Xafa bo'lib, yig'lamanglar, cho'ponlar,
 Sizlarni ham birga olib ketaman.

Qalmoq biylar Qorajonday zo‘rini,
Olib ketamiz qo‘ng‘irot el orini,
Hamda olib qolgan o‘ljalarining barini,
O‘zim qilaman, qalmoqning xunu-xarini.

Hammamiz ketamiz Chilbir cho‘lidan,
Obro‘y olib, bu qalmoqning elidan,
Bir ish kelmas alplarning qo‘lidan,
Chiqolmaydi Qorajonning yo‘lidan.

- 3660 Eshitinglar Qorajonning so‘zini,
Ob ketamiz Alpomishning o‘zini,
Kerak bo‘lsa, shirolg‘a qib ketamiz,
Qalmoqlarning suluv, yaxshi qizini.

Cho‘ponlarning uchalasi ham bu so‘zlarni eshitib, joyidan irg‘ib turdi.
– Alpomishning Qorajon do‘sti sizmi? – deb so‘rayapti.
– Xuddi o‘zim. Endi, sizlar menga Alpomishning zindoni qaerda ekanini aytib qo‘ying qani, – dedi. Qorajon Qalmoqning hamma joyini biladi.
– Zil tog‘ining Qalmoqqa tomon pastida, Qizil soyda katta yo‘Ining og‘zida, Qorovultepaning boshida, yaqinroq do‘sida. Qorajon aytidi:
– Ha, tushundim. Qorajon so‘raydi: – Cho‘ponlar, kechasi borish yaxshimi, kunduzi? Cho‘ponlar aytdi:
– Kunduzidan kechasi xavfsiz-da. Bizlar ham Alpomishga ovqatni kechasi olib borib beramiz.
Qorajon darhol ko‘lbar chanochni egniga silkib solib, tayog‘ini qo‘liga olib:
– Cho‘ponlar, mening kelganimni qalmoq cho‘ponlariga sezdirmaysizlar, – dedi. Cho‘ponlar:
– Kalla yopilsa ham kallapo‘shning ostida-da, – deb qo‘ydi.
Endi Qorajon yo‘lga ravona bo‘ldi. Keta berdi, soyu-qirlardan o‘ta berdi. Zindonga eta berdi. Tong ham shu’la berib ota berdi. Chohdan uzalib, enkayib qaradi. Chuqur zindonda hech zot ko‘rinmadni. Bu tomoniga o‘tib, qaradi. Alpomish zindon tagidan qarasa, bir kishi u tomonga o‘tib, bu tomonga qarayapti. Kim ekanligini bilmasdi. Alpomish:
– Sen kimsan? – deb qichqirib turibdi:

Bu choh boshidan qaragan,
G‘aribning holini so‘ragan,

-
- Chohda yotgan g‘aribni,
Tiriklikka juragan,
Boybo‘ribiy otammisan?
- 3670 Choh boshidan qaragan,
Musofir holim so‘ragan,
Choh tubida o‘lganni,
Tirikmi, deb so‘ragan.
Sahar turib uyg‘ongan,
Tol beshigimga tayangan,
Qaddi-bo‘yimga suyangan,
Chuchchi uxlab yotganimda,
Emchagingni berib o‘yangان,
Kuntug‘mishjon enammisان?
Ketgan yo‘limga qaragan,
O‘tkinchilardan so‘ragan,
Kechalab ko‘rgan tushini,
Yaxshilik kunga so‘ragan,
Choh boshidan qarab turgan,
Qaldirg‘ochjon singlimmisan?
- 3680 Choh boshidan qarab turgan,
G‘arib holini so‘rab turgan.
Choh tubida Alpomishni,
Tiriklikka jo‘rab turgan,
Ketgan yo‘limni kutgan,
Qalmoq yo‘liga ko‘z tutgan,
Oradan olti yil o‘tgan,
Suyukli yorim, Barchinmisan?
- 3690 Choh boshidan qarab turgan,
G‘arib holidan so‘rab turgan,
Tirikmi, deb yig‘lab turgan,
Ultontozday akammisan?
- 3700 Choh boshidan qarab turgan,
Bo‘ynin cho‘zib, ma‘rab turgan,
Ahvolimdan so‘rab turgan,
Yaxshilikka so‘rab turgan,

Boshda biz bilan suyishgan,
Qiyomat kuni deyishgan,
Sudrab sarpoj kiyishgan,
Xudoni o'rtaga qo'yishgan,
Qorajon polvon, do'stimmisan?

Qorajon o'ylab turdi: "Ultontozday kishidan keyinga tashlab so'raydi". Aytdi:

– Hay! Alpomish do'stim-ay! Otamni aytding, xo'p aytding, enamni aytding, yaxshi aytding, yoringni aytding, bo'g'inni bo'shatding, nima uchun Ultontoz quldan so'ng aytding, tog'lardan oshib, toshlardan bosib, ochu to'q, suvsab-chanqab, charchab, xorib uzoq yo'llardan sen uchun yo'l tortib kelgan edim, Ultontozcha bo'lmasam, avvali mening uyim kuysin-da, – dedi. Alpomish, Qorajon ekanini bildi. Alpomish aytdi:

– Hay! Qorajon do'stim-a! Esing bo'lsa, mendan o'pkalaysanmi. Men olti yildan buyon sakson gaz chuqurlik zindon tagida o'lib, rangim guldek so'lib, yurak g'amga to'lib, yo'lga ko'zimni tutib, tuproqlarga botib, g'arib bo'lib yotib, ba'zi kuni tuproqdan ovqat etgan, hushi-aqli ketgan, xayol bilan ota-enani yod etgan, musofir, g'arib kishidan o'pkalaysanmi? Men xayol bilan nima og'zimga kelsa gapirib yotgan kishiman-da, – dedi.

Qorajon o'ylab turdi-da: "To'g'ri aytdi-da. Hali ham polvon o'g'lon, bildirmay yotgan ekan-da. Agar boshqa kishi bo'lsa, g'amda o'lib ketmasmidi", dedi.

– Ey! Alpomish do'stim, men seni zindonda tirikligingni bilib, xur-sandlik bilan sho'xlik qilib gapirdim-da, – deb chonoch ko'larning og'zini echib, qirq quloch arqonni chiqarib, zindonga tashlab yubordi. Alpomish qarasa, ip keldi. Ipni ushlab ko'rsa, ipakdan eshilgan juda baquvvat mayin ip. Alpomish qo'ltig'ining tagidan beliga mahkam qilib bog'ladi. Zindon tagidan ipni silkitdi. Qorajon aytdi:

– Endi tayyorlanib turibdi, ipni beliga bog'labdi-da, – deb torta berdi. Alpomish juda og'ir, lekin Qorajon ham xaddi zo'r polvon-da, kuchini bilakka yig'ib tortganda, Alpomish bir quloch yuqoriga chiqib kelaverdi. O'n quloch joyga kelganda Alpomishning ko'ngliga gap keldi: "Meni bu chiqarib ketadi. To'y, maraka, majlislarda bu narsa betimga taba bo'ladi. "Alpomish, men seni Qalmoq zindonidan chiqarib olgan edim. Bo'lmasa, Qalmoqda o'lib ketar eding", deb betimga minnat bo'lmasin-da", deb o'yladi. Alpomish chohga tushayotganda oltin sadoq belida bog'langan edi. Shu bilan tushib ketgan edi. Shu oltin sadoqni ipga bir

tortdi. Ipni shartda kesib ketdi. Alpomish “gumbillab”, chohga tushib ketdi. Qorajon ipning o‘zini tortib olgan, ip kesilgan. Chohdan turib Alpomish aytdi:

– Ey Qorajon do‘stim, mening og‘irligimni bilar eding-ku, nima uchun baquvvat ip olib kelmasdan, chirib ketgan ipni olib kelibsan? Uzilib ketdi-ku, – dedi. Qorajon aytdi:

– Alpomish, qo‘y endi, men sening og‘irligingni bilib, ipakdan eshtirib kelgan edim. Endi, sen menga ipni chirik deguncha, ko‘nglim irik degin-da. Endi, Alpomish, sen ham mendan o‘pkalama. Men sen uchun ko‘p yo‘l yurib kelgan edim. Mening bu yoqqa kelganimni xalq bilmadi-yu, lekin singling Qaldirg‘och va Oybarchin biladi. Bular mening yo‘limga termulib turgan bo‘lsa kerak.

– “Men zinda bo‘lsa olib kelaman”, deb ishontirgan edim-ku. Ular oldimni o‘rasa, yig‘lab seni so‘rasa, nima deyman? – dedi.

– Endi Qorajon, bu narsalar taqdirda bor-da, “o‘lgan ekan”, deb qo‘ya qol-da, – dedi. Qorajon kayfi qochib, biroz xafalashib, cho‘ponlarning ham oldiga bormasdan Zil tog‘ining bag‘riga qarab chiqib ketdi. Alpomish zindonda qola berdi. Kayqubod va Elomonlar har kechasi navbat bilan ovqat olib kelib berib turar edi. Alpomishdan so‘radi:

– Alpomish aka, Qorajon keldimi? Alpomish bularni xafa qilmayin deb:

– Keyinroq kelmasa, hali kelgani yo‘q, – deb qo‘ydi. Endi Alpomishning zindonda yotganiga yettinchi yil bo‘ldi. Kayqubod bilan Elomon qalmoq elining cho‘ponlarining eng oldi, abjir, chaqqon, obro‘i yaxshisi edi. Cho‘ponlar devonbegi bilan aloqada bo‘lib ketgan edi. Devonbegi ham bu cho‘ponlarga ishonib qolgan edi. Yoz, bahor chiqqan edi. Shu devonbegiga Kayqubod aytdi:

– Chorvamiz o‘smayapti, to‘l qo‘shilmayapti.

– Nima uchun? – dedi devonbegi.

– To‘l vaqt, to‘l bo‘lmayapti-da. To‘l vaqtida qo‘yning boshida ovul bo‘lishi kerak. Bizda ovul yo‘q-da. Har kechada yigirma-o‘ttiz qo‘y tug‘adi. Shu tuqqan qo‘zilarni to‘lga solib ketsak, kechga kelsak, shulardan bitta ham bo‘lmaydi. Zil tog‘ning bo‘risi o‘rganibdi. Bo‘rilar olib ketyapti. Bir qo‘zi ham ololmayapmiz. Agar ovul bo‘lsa, bo‘ri kelolmaydi. To‘l to‘liq olinadi, – dedi. Devonbegi aytdi:

– Bo‘lmasa, podshoga ma’lum qilib, ovul chiqartiramiz-da. Kayqubod aytdi: – Shunday qilmasa, bo‘lmaydi-da.

Shuning bilan devonbegi podshoning oldiga har vaqt borib turar edi. Devonbegi podshoning oldiga borib, salom berib ko‘rindi. Podsho aytdi:

-
- Devonbegi, yaxshimiz?
 - Ha, yaxshi, – dedi.
 - Cho‘llar qanday, mollar qanday? Joylaringiz o‘tmi? – deb so‘ray berdi. Devonbegi aytdi:

- Bu yil ko‘p qo‘ylar semiz. Lekin tuqqan qo‘ylarning qo‘zisini isirib qolib ololmayapmiz. Podsho aytdi:

- Nima uchun?

- Har cho‘ponning boqqan qo‘yidan, kuniga yigirma-o‘ttizi tug‘adi. Cho‘ponlar to‘lga solib, qo‘y haydab ketsa, kelgunicha bitta ham qolmaydi. Zil tog‘ining bo‘risi o‘rganibdi, doim tashib ketadi. Agar boshida ovul bo‘lsa, qo‘zilarni bo‘ri olib ketolmaydi. Shuning uchun cho‘ponlar arz qilib qoldi. Ayniqsa, qo‘ng‘iroq cho‘ponlari: “Uch oygina ovul chiqsin”, deb qattiq iltimos qilib qoldi. Podsho aytdi:

- Bo‘lmasa, devonbegi, cho‘ponlarga ayt, uch oyga ovul chiqadi. Devonbegi cho‘ponlarning hammasiga:

- Endi to‘l olish uchun ovul keladi, – deb aytdi. Lekin podsho qanday ovul chiqarishni bilmay turgan edi. Podshoning ikkita qizi bor edi. Har qaysisining qirqtadan kanizi bor edi. Katta qizini Tovka der edilar. Kichkinasini Alavka der edilar. Kichkinasi o‘n olti yoshda edi. Ikkovi ham tiralib bo‘y etgan edi. Ikkovi ham bir-biridan chirolyi edi. Shirin so‘zli, oftob yuzli, kaklik ko‘zli, shunday nozli, dobil daryo sozli, qirqtadan kanizli qizlar edi. Qizlari cho‘lga qo‘yning boshiga otasi ovul chiqartirishini eshitib qoldi. O‘rdada kayvoni Maston momo degan bor edi. Podsho buning gapini erga tashlamaydi. Podshoning qizlari ham kanizlari Maston kampirga:

- Jon ena, ko‘z ena, otamga aytинг, Chilbir cho‘lidagi qo‘ylarning toshiga tomoshaga bizni chiqarsin. Biz qishin-yozin bu qal’aning ichida xafa bo‘lib zerikib qoldik. Uch oylik gap-da. Cho‘llarga chiqib, qo‘y sog‘ib, gilagay qilib, cho‘llarning qizil gullarini tomosha qilib bir bahramiz ochilib kelsin, – deyishdi. Maston kampir bu so‘zni podshoga juda yaxshi tushuntirib aytgan edi. Podsho:

- Hay, bo‘lmasa, borib shamollab kelsin-da, – dedi. Maston kampir qizlarga aytdi:

- Otangdan javob oldim. “Mayli borsin”, dedi. Lekin bizga shu cho‘ldan har yili qo‘nish joy bo‘ladi. Bir ko‘chki qo‘rg‘oncha soldirib bersin, – deb talab qildi. Podsholikka nima kam. Saf zo‘r kishilardan besh yuz kishini “uch kunda qo‘rg‘oncha tayyorlab berasan”, deb ustalar bilan yuborgan edi. Besh yuz kishi Chilbir cho‘liga chiqib Alpomish zindoni atrofidan uch kunda bir qo‘rg‘oncha yasadi. Bu cho‘ldagi

cho‘ponlar: “Podsho qizi ko‘chib kelishi uchun bir qo‘rg‘oncha soldiribdi”, – deb xursand bo‘lib yurishibdi.

– Podshoning qizlariga qo‘rg‘oncha bitdi, – deb xabar bordi. Endi podshoning qizlari podshoning norlarini olib keltirib, “norlar ham cho‘lda o‘tlaydi”, deb uy asboblarini, baxmal-banotdan yopilgan uylar ni, o‘rda-hovlilarni, toza yuk anjomlarni, yaxtin-yaxtin zarlarini norlar- ga orttirdi. Chilbir cho‘lga qarab Qalmoqdan chiqib ravona bo‘ldi.

Yuk ko‘targan qora norlar,
Ortilibdi yaxtin zarlar,
Qavatida zulfakdorlar,
Chiqdi Chilbirning cho‘liga.

3710 Tilab oldik buni bizlar,
Ketayotir suluv qizlar,
Qarang, ko‘ringiz kanizlar,
Cho‘lga chiqib ketyapti.

180

Yashnab yotir Chilbir cho‘llar,
Gupillab changiydi yo‘llar,
Ochilibdi har xil gullar,
Chilbir cho‘lga ketyapti.

3720 Tog‘larning boshi qoyalar,
Ko‘kargan har xil giyo[h]lar,
Yuk ko‘targan nor tuyalar,
Cho‘lga qarab ketyapti.

Qulf urib yashnaydi cho‘llar,
Ochilibdi har xil gullar,
Gul terishib, nozik bellar,
Cho‘lga chiqib ketyapti.

Kanizlar o‘ynab, kulishib,
Bir-biri bilan olishib,
Cho‘lni ko‘rib, shod bo‘lishib,
Cho‘lga chiqib ketyapti.

3730

Bir-biri bilan surishib,
Yugurishib, gul terishib,
Ajoyib gulni ko‘rishib,
Tomosha qilib ketyapti.

Qulf urib, yashnabdi dashtlar,
Ko‘rinadi tog‘u toshlar,
Gul berishib qalam qoshlar,
O‘yin qilib ketyapti.
Goh u yonlar, goh bu yonlar,
Yurdi cho‘lda cho‘ponlar,
Ko‘chibdi-da, deb opamlar.

3740

Alqissa, oftob yuzlar, qancha kanizlar cho‘lga chiqib, rang-barang ochilgan gullarni ko‘rib, shodlik qilib ketyapti. Kayqubod, Elomonlar qo‘y boqib yurar edi. Cho‘lda chang gurpillab cho‘zila berdi. Bir muncha qizlar, chopishib, gul terishgan kanizlarni ko‘rgandan so‘ng, Elo-monga Kayqubod:

– Suyunchi ber, Elomon! Ana, xo‘jayinlar ko‘chib kelib qolishdi-ku,
– deyapti. Norlar qo‘rg‘onchaga kelib, norlarni cho‘ktirib, yuklar erga tushib qoldi. Kayqubod aytdi:

– Ana, Elomon, podshoning qizlari kelib tushib qoldi. Endi nima qilamiz, – dedi. Elomon aytdi:

– Nima qilmaylik, siz yoki men bilan gaplashmasa. Kayqubod aytdi:

– Ey Elomon, podsho qizining dimog‘ini chog‘ qilishni o‘zim bila-man. Elomon so‘raydi:

– Bilsang, gapir qani.

– Bular, o‘rda-o‘tovini tikib, joylashguncha hut oyida tug‘ilgan, shirboz semiz qo‘zilar bor, erdan tandir o‘yamiz, qizitib, olov qo‘yamiz, shu shirvoz qo‘zillardan sakkiztasini so‘yamiz, shu semiz qo‘zilarning kallasini kesamiz, jik-jigidan o‘samiz (michalaymiz), tandir osamiz, tandirning ustini og‘ir qilib bosamiz, bir soatda pishiramiz, shilib tandir-dan tushiramiz, issig‘ida olamiz, ko‘lbar sanochga solamiz, shu tandir go‘shtni podshoning qiziga sovg‘a qilamiz, birovimiz olib boramiz, sizga sovg‘a, deb beramiz, shuning bilan podshoning qizini ko‘ramiz. Bir gap borki, kelinning eng avval betini ochgan issiq ko‘rinamiz, – dedi. Elomon:

– Kayqubod, shuni to‘g‘ri aytding, bo‘lmasa shunday qilaylik, – dedi.

181

Elomon abjir bola, semiz qo‘zilarning yugurishidan poychasidan cholayapti, Elomon kallasini olyapti, go‘shtini o‘syapti, tandirga bos-yapti. Bir-ikki soat ichida hammasini taxt qildi. Zil tog‘ining archasidan ustiga olib kelib, bostirgan ekan, archaning isi bilan go‘shti shirin bo‘lib qolibdi.

O‘zlari ham tandir go‘shtiga usta bo‘lib ketgan cho‘ponlar-ku, Elomon issig‘ida tandirdan go‘shtni olyapti. Kayqubod sanochga solyapti. Zamon poygachi cho‘pon ikkovining qoshiga kelyapti. Ikki cho‘pon kуlayapti. Zamonga:

– Ishing bo‘imasin, bir ish qildik. Bir tandir go‘sht qildik. Bu xo‘jay-in boybichalarimiz Qalmoqdan ko‘chib kelib qoldi-ku. Bularg‘a sovg‘a qilish uchun tandir go‘sht pishirdik, – dedi. Zamon cho‘pon aytdi:

– Juda yaxshi qilibsizlar.

Endi sakkiz shirvozning go‘shtini ko‘lbar sanochga tiqib, Kayqubod aytdi:

– Sen qo‘ylarga qarab tur, men olib borib berayin. Elomon aytdi:

– Yo‘q, Kayqubod, sen qo‘yga qarab tur, ertaga sen olib borasan.

Xullas, Elomon sanochni egniga solib, tayoqni qo‘liga olib jo‘nadi. Abjir bola soylardan, qirlardan o‘tdi. Go‘shtni ko‘tarib ketdi. Birpasda etdi. Elomon boradi, o‘tovlarga qaradi. O‘tovlarning uzuk tuvurliqlari zarrin pilladan, eshik bo‘sag‘asi tilladan, ba‘zi o‘tovlarining tuynuk-tuvurliqlari baxmal-banotdan, to‘qson boshli qo‘sh qanotdan, Elomon sanochni erga qo‘yib, tayog‘ini ko‘kragiga tirab, tayoqdan oyog‘ini chal-ishtirib bir o‘rab, o‘rda o‘tovga qarab, kimni chaqirishini bilmay turibdi.

Bulut burkaydi tovga,
Molxo‘r tashlaydi zovga,
Qichqiryapti Elomon,
Baxmal yopilgan o‘tovga.

Cho‘lda cho‘ponmiz bizlar,
Ko‘chib kebsizlar sizlar,
Chiqing o‘tovning dashtiga,
Ulfagi uzun, suluv qizlar.
Fido bo‘lsin shirin jonlar,
Ko‘chib kebsiz biyobonlar,
Shodlik qib cho‘lda cho‘ponlar,
Chiqing, o‘rdaning dashtiga.

3760

Ko‘chib kelgan xo‘jayinlar,
Yuk ortingiz qora nor,
Biz-ku cho‘pon darbadar,
Sizlarga mening arzim bor.

Keldingiz Chilbir dash[t]iga,
Qichqirar o‘z boshiga,
Keb boring cho‘ponning qoshiga,
Qo‘y boqaman Chilbir cho‘llariga,
Ochilibdi har xil gullar,
Qoshi qiyiq, nozik bellar,
Bir ish bilan kelaman,
O‘zimning otim Elomon,
Qo‘yingizni boqib yurgan,
Cho‘poningiz bo‘laman.

Elomonning tovushi O‘tov O‘rdaga etib bordi. Tovka aytdi:
– Qizlar, oftob yuzlar, bir kishining ovozi chiqadi, bir qaranglar.
Ikki kaniz tashqariga chiqib qarab, Elomonni ko‘rdi. Iziga darrov
qaytdi. Cho‘ponning kelishini Tovkaga aytdi.
– Opa, qo‘lida katta tayog‘i bor, bir cho‘ponmi keb to‘xtabdi. Tovka:
– Borib xabar olinglar, nima ish bilan kelibdi, so‘rab kelinglar, –
dedi. Kanizlar aytdi:

183

– Opa, cho‘lda yurgan cho‘pon bilan biz qanday gaplashamiz, – dedi.
Tovka:
– Sizlarga bir balo bo‘ldimi, sizlar pishgan olmami, cho‘pon og‘ziga
solami, bir ishi bo‘lmasa, bu erga cho‘pon kelami, bir ish bilan kelgan-
dir, – dedi. Elomon ikki ko‘zi O‘rdaning og‘zida tiklab turibdi. Qizlar
O‘rdadan chiqib jo‘nay berdi:

3770

Daryo to‘lqini toshadi,
Yomg‘ir bilan jaladan,
Ipakni tengsinmaydi,
Ro‘moli guli loladan,
Ikki kaniz jilva berib,
Kungirali qal’adan.

Shoyi ro‘mol boshiga,
Marjon sadafi to‘sriga,

Kelayotir ikki qiz,
Jilva qilib o‘z boshiga,
Go‘yoki etib keldi,
Elomonning qoshiga.

3780

Qosh-ko‘zlari biyona,
Xollari dona-dona,
Elomonga etishdi,
Jilva bersin qizgina,
O‘rtoqlikning nur ziyosi biz,
Yaqin bordi ikki kaniz,
Elomonga yuzma-yuz.

Elomon shunday qaradi, ikki qiz boradi. Ikkovi ham oqqiz, og‘zi to‘la saqqiz, uzun yo katta emas, o‘rta bo‘yli choq qiz. Agar ishingiz tushib qolsa, nasiya emas, naq[d] qiz. Elomon cho‘lda yigit bola emassi, qizlarni ko‘rib, aqli lol bo‘ldi. “Podshoning qizining o‘zimikan yoki qoshidagi kanizimikan”, deb turibdi. Ikkita kaniz aytdi:

– Cho‘pon aka, tayoqni qo‘lga oldingiz, buncha shovqin solderingiz, nima ish bilan keldingiz? Elomon aytdi:

– Qizlar, men cho‘pon emas, qo‘ziboqar bola bo‘laman. Lekin otim Elomon, shuytib sizlarga kelaman. Agar qo‘y sog‘salaringiz, qo‘zi bilan qo‘ylarni olib kelaman. Bog‘ingizda gulingiz g‘uncha, ko‘p kunlardan bermag‘on yo‘lingizga qaradik shuncha. Sizlar bizga og‘alik boybicha, men tuqqan qo‘ylar bilan qo‘zilarni boqar bola.

Kanizning birovi Gulbarchin der edi. Birovini Oybarchin der edi. Ikkovi podsho qizlari kanizing boshlig‘i edi. Oybarchin aytdi:

– Bizlar qo‘yni sog‘ishni bilmaymiz-da, qanday bo‘ladi, – dedi. Elomon aytdi:

– Men o‘zim qo‘y sog‘ishni o‘rgataman. Ko‘p kanizlar aytdi:

– Sumbul sochimizni taraylik, bo‘lmasa opama boraylik, opamdan bir so‘rayik. Elomon aytdi:

– Qizlar, to‘xtangizlar, sovg‘a olib kelganmiz bizlar. Bizning ham xo‘jayinimiz, ham ustimizga ko‘chib kelgan mehmonimiz, bizning Qo‘ng‘irotimizda bir qada bor – ovulning ustiga ovul ko‘chib kelsa, ko‘chib kelgan ovulning hammasini chaqirib, ziyofat qiladi. Shundayin bizning ustimizga ko‘chib kelgansiz, o‘zimizda boridan ozroq sovg‘a olib keldim. Olib borib beringizlar, – deb sanochni oshirdi.

Oybarchin, Gulbarchin sanochning ikki uchidan ushlab ko‘tarib ketdi. O‘rdaga etdi. Tovka:

– Qizlar, nima olib keldingizlar, kim ekan u odam? – dedi.

– Opa, cho'pon emas ekan: “Otim Elomon, tuqqan qo‘ylarning qo‘zi boqari bo‘laman. Qo‘y sog‘salaringiz, kechga haydab kelaman”, dedi – deb aytishdi. Tovka aytdi:

– Ha, “biz qo‘y sog‘ishni bilmaymiz, o‘zingiz o‘rgatsangiz, sog‘amiz”, ,demadilaringmi?

– Biz shunday aytdik. “O‘zim o‘rgataman qo‘y sog‘ishni”, deydi. Sizga kelib edik, – deyishdi.

– Bo‘lmasa, qo‘ylarni haydab kelsin, “sog‘amiz”, deb aytinlar. Bu olib kelganlari nima?

– Biz ham bilmadik, “sovga olib keldim”, deydi.

– Ochinglar, qani, nima ekan?

Ochsa, archa bilan tandirga bosilgan go‘shtning hidi keldi. Tovka go‘shtni olib ko‘rsa, go‘shti go‘shtsab semiz bo‘lib, tandirda pishgan. Yaxshi go‘shtni, ucha to‘snni sandiqqa solib, qolganini kaniz qizlarni chaqirib, eyishdi. Tovka aytdi:

– Ana qizlar, oftob yuzlar, go‘shtni birinchi eyishimiz bizlar. Maza kabobni cho‘ldagi cho‘pon qilar ekan-ku. Cho‘ponga aytin, har kuni bizga shunday go‘sht qilib, kelib bera bersin. Cho‘pon holi bilan bizlarni hurmatlab, sovg‘a olib kelgani uchun sanochni quruq yubormaylik. Sandiqni oching! Ikki qo‘shig‘ich tillani sanochiga solib, borib bering. “Qo‘y soqqali kelganmiz biz, haydab kel”, deb aytib yuboringlar, – dedi.

Elomonga sanochni olib borib:

– “Qo‘yni haydab kelsin, deb aytdi, – dedi.

– Xo‘p, – deb Elomon iziga qaytdi. Kayqubod o‘tirgan edi kutib, Elomon bordi etib. Kayqubod aytdi:

– Qani, Elomon, boardingmi?

– Ha, bordim, go‘shtni berdim, hammasi eyishib, “shirin go‘sht ekan”, deyishib qoldi. “Yana ham shunday go‘sht qilib kelib bersin”, deb qolibdi podshoning qizi. “Men ularga qo‘zi, sovliq boqar bola bo‘laman”, dedim. “Biz qo‘y soqqali kelganmiz, bizga qo‘y sog‘ishni o‘rgatinglar”, dedi. Men ertaga qo‘ylarni haydab boradigan bo‘ldim. Kayqubod aytdi:

– Ertaga men qo‘ylarni haydab borib, sog‘diraman, – dedi. Elomon aytdi:

– Bo‘pti. Goh sen, goh men boraveramiz-da.

Shunday qilib, bular qo‘y sog‘ishni o‘rgatdi podshoning qiziga, o‘rganib ham qoldi. Abjir bolalar emasmi, chaqqon xizmati bilan yaxshi ko‘rinib qoldi. Endi Tovka kanizlariga aytdi:

— Bu bolalar Boysariboylardan. Qo‘ng‘irot ellardan ekan. Lekin xafa qilib, qattiq gapirmanglar, musofir bolalar-da, — dedi. Bu Kayqubod va Elomon kechalab Alpomishga ovqat olib borib berishda podsho qizining cho‘lga ko‘chib kelganini bayon qildi:

— Qancha norga yuk ortib, qancha kaniz bilan qo‘rg‘oncha soldirib, ko‘chib kelib qoldi. Bizlar tandir go‘sht qilib, vaqtini xush qilib, qo‘ylar sog‘dirib, bizdan qochmay qoldi. Boshqa cho‘ponlar kelolmaydi. Biz har kuni qog‘onoq qilib, olib borib beramiz. Alpomish aytdi:

— Shu ishni juda yaxshi qilibsizlar-da. Eski ota-bobodan qolgan “Yo‘qlikning borligi bor, ochlikning to‘qligi bor, mehnatning rohati bor”, degan gaplarimiz bor, shundayin yaxshi mehnat qilsalaring, rohati bo‘ladi, harna g‘ayrat qilinglar. Obro‘-martaba mehnatdan chiqadi, — dedi. Endi bir kechasi oy to‘lgan, yorug‘ edi. Podsho qizining kanizlari bu cho‘lda o‘ynashga talab qildi. Kanizlar Tovkadan:

— Opa, oy bo‘lsa, oydin er bo‘lsa, tekis, ko‘kalam, muloyim joy, biz-larga hali ikki soatga ruxsat etasizmi, bir quvalashib o‘ynasak, — deb so‘radi. Tovka aytdi:

— Qizlar, oftob yuzlar, kanizlar, nima deyapsizlar, maydonda chopichib o‘ynashga asli zavqmand bizlar. Men otamdan uch oylik qo‘nishni shuning uchun so‘rab olganman-da. “Ko‘kalamzorda o‘ynaymiz”, deb keldik-da.

— Bo‘lmasa, tez yuring-da, — dedi. Tovka:

— Qizlar, to‘qson bovli bo‘xhani ochingizlar, bir sozlanib chiqayin, — deb kanizlariga qichqiryapti:

Girdimdagি oq qizlar,
Og‘zi to‘la saqqizlar,
O‘rta bo‘yli choq qizlar,
Bizdan ayb o‘tmasin,
Tilimiz toyib ketmasin.
3790 Tishima tishxoli seping,
Xom etima botmasin.

Yuzima lolab surting,
Ko‘p yoyilib ketmasin.
Qoshima o‘sma qo‘ying,
Bir-biridan o‘tmasin.
Ko‘zima surma torting,
Ko‘p cho‘zilib ketmasin.

3800 Kovush patagin qalin qilsin,
Oyoqni qavartmasin.

Munchoqni engil taqing,
Zavqim kelib, chopganda.
Oq siynaga zil etmasin.
Xil bilan shamol elpitng,
Oq badan terga botmasin.
Cho‘pon-cho‘liq ko‘rib qolsa,
Qarab, sillasi qotmasin.

3810 Qosh bilan ko‘zi biyona,
Xollari dona-dona,
Pardoz bergen qizgina,
Ko‘chkidan bo‘ldi ravona
Qatma-qat libos boshiga,
Qirq kovdan kaniz qoshiga,
Jilva bergen qizgina,
Chiqdi O‘rdaning boshiga.

3820 Avu, qizlar etib yur,
Keyin qolmay, etib yur,
Nuqra tilli chanqovuzni,
Bol og‘zingga tutib yur.
Chachav yurmay to‘p bo‘b yur,
Atrofimda ko‘p bo‘b yur,
Xil-xiliga saf bo‘b yur,
Atrofimni bosib yur,
Qizil gullardan osib yur,
Oldi-ortimni to‘sib yur,
O‘rtaga olib, qisib yur.

3830 Ipak qo‘ygan yuzi yarqillab,
Oyoqda kovush gurpillab,
Qobatida kanizaklar,
Kaklik qushday kirkillab,
Semiz qizlar boryapti so‘lqillab,
Sovdi ipakday so‘lqillab,
Abjir qizlar borayapti,

Zo‘rg‘a toyday bulkillab,
Necha kaniz o‘ynayapti,
Ikki imosi bulkillab.

Qaddi-bo‘yi nov terak,
Yaxshi hammaga kerak,
Shonasida besh taraq,
Kanizlar yurisharak.

3840

Qizlar qarasa, o‘yinning shavqi bilan ajrab ketibdi. O‘rdadan to‘rt chaqirim erlarga ketib qolibdi. Tovka aytdi:

– Qizlar, bunday qilib ajrab ketmangizlar, o‘yin degan ko‘p qiziq bo‘ladi. Bir-birini quvishib soyu-qirdan o‘tib ketsanglar, sizning, bizning va daryosozning tovushini eshitgan cho‘ponlar turgan bo‘lsa marab, poylab qarab, birovingiz bilagingizdan ushlab, orqasiga tashlab, olib qochsa cho‘lga boramizmi? Shu erga qo‘shxona tashlaymiz, – deb qo‘shxona tashladi. Qizlar sanoq bo‘lib:

- Opa, qancha o‘yindan o‘ynaymiz? – deyapti. Ba’zi qizlar:
- “Yashinmachoq” o‘ynaymiz, “Eshak mindi” o‘ynaymiz, ba’zilari:
- “Etib ketma”. Ba’zilari:

- “Tepishmachoq o‘ynaymiz”, ba’zi sho‘x qizlar:
- “O‘pishmachoq”, chaqqon qizlar ayrilib:
- “Quvishmachoq” o‘ynaymiz, – desa, ismi semiz qizlar:
- Ayrilib chopolmaymiz, o‘tirib “Tiqma” o‘ynaymiz, – deyapti.

Tovka qarasa, har qaysisi har xil o‘yinni o‘ynaymiz, deydi. Tovka aytdi:
– Har qaysing har erdan gapiravermanglar. Men o‘zim boshdan oyoq “Otma suyak” o‘yinini yaxshi ko‘raman. Endi har qaysing o‘z dugonang bilan xushlagan o‘yiningni ikki soat o‘ynanglar.

Qizlar har qaysisi o‘z o‘yinini tekislikda o‘ynashib qoldi. Tovka chaqqon qizdan o‘n qizni olib: – Endi, qizlar, biz “otma suyak” o‘ynaymiz, bir suyak topib kelgingizlar, – dedi. Qizlar tekislikka yoyilib, suyak qarab ketdi. Bir joydan katta norning jag‘ini topib keldi.

– Shu bo‘ladimi, opa? – dedi. Og‘irligidan Tovka salmoqlab ko‘rsa, olti cherak bor. Tovka aytdi:

– Qizlar, engil ekan-da, hech joyga ketmaydi-da. Uchiga ip bog‘lab, pilanglatsa, uzoqqa ketishi mumkin.

Bir-ikki quloch ipni bog‘lab, Tovka ham ko‘p haddili polvon qiz, palaxmonday to‘lg‘ab-to‘lg‘ab, havoga otib yubordi. Xuddi to‘pning o‘qiday “Vorillab”, ovoz berib, Alpomishning zindoni ustidan o‘tib ketdi.

– Ana endi, qizlar, suyakni topib kelinglar, – dedi. Abjir qizlar ketdi suyakning izidan chopishib, Tovka keyinda bir o‘zi asta-asta ketaverdi. Alpomishning zindonining ustidan o‘taverdi. Tovka Qalmoqning O‘rdasida bir-ikki kecha ust-ustiga tush ko‘rgan edi. Tushida Alpomish olishib, bilagini bo‘yniga tashlab, oshiq bo‘lgan edi. Lekin Tovka ham moyil bo‘lib, ko‘nglida: “Bir ko‘rsam ekan”, deb oshiq edi. Shuning uchun “Zindonning boshiga bir boraylik, bormikan-yo‘q, ochmikan-to‘q, o‘lganmikan-tiri[k] yetti yildan beri”, deb mash’al fonusni yo-qib yuborib zindonga qaradi. Zindon ichida polvon Alpomishni ko‘rdi. Ko‘rgandan Tovkaning: “Hay! Attang-ay, hayf otamning podsholiga, podsholik shunday bo‘ldimi, bir urug‘ xalqning polvoni bo‘lsa, bir kishining yolg‘iz o‘g‘loni bo‘lsa, Oybarchinday oyning suyukli yori bo‘lsa, yetti yildan buyon er ostida g‘arib musofir qilib, qavmi-qarindosh, el-xalqidan ayirib, hali Oybarchinday yoridan intizor qilib ayirib, mardni nomard qilib, g‘arib qilib, azob berishi butunlay noto‘g‘ri-da. Kel, imkon boricha shu polvon o‘g‘ilga bir yordam beray”, deb ko‘ngliga keldi. Sharhta bo‘ynidagi tilla to‘g‘onni olib, chohning boshiga tashladi. Ildam ketgan qizlar “Otma suyak”ni topib, qo‘sxonasiqa qarab, chopib ketishyapti. Tovka ham qizlarning ketidan jo‘nadi. Qo‘sxonan joyiga borsa, suyak topgan qiz:

- Qutulib keldim, – deyapti, ba’zilari:
- Ushlab oldim, – deb janjal qilyapti. Tovka aytdi:
- Ha, qizlar, nima gap? Suyak topgan qiz:
- Opa, ushlatmay qutulib keldim, – deydi. Ba’zilari aytyni:
- Ushlab oldik, bizni itarib, tashlab ketdi, – deyapti. Tovka:
- Qaysi yo‘l bilan qutulib kelsa, gap shuniki, – deyapti. Tovka aytdi:
- O‘tiringlar qani, bir gap bor. Hamma kanizlarni aytib keling.
- Qizlar butun kanizlarni aytib keldi. Kanizlar Tovkaning oldiga to‘p bo‘lib keldi. Tovka aytdi:
 - Qizlar, o‘yinga avval chiqishda zavqmand edik bizlar. Shu erga kelib “Otma suyak”ka yugurgandan beri bir balo tegdi menga. Qizlar:
 - Nima bo‘ldi, opa, bizni qilmang-da xafa, – deyapti.
 - Bilmadim, boshim aylhayapti, ko‘zim tinyapti. Birdan hamma joyim sirqirab sinyapti. Kasal tegdi. Darrov ketaylik, vaqtli O‘rdaga etaylik, yuringizlar, – dedi. Qizlar ergashib, darhol jo‘nashib ketdi. Bir kilometr yurgandan keyin kaniziga aytdi:
 - Oybarchin, hay, mening halqa tilla tug‘olimni taqib edinglar-a?
 - Ha, opa, avval men o‘zim taqib qo‘yib edim, – dedi.
 - Aytdim, bo‘yinim engillashib qoldi. Tushib qolibdi-da bo‘lmasa, – dedi. Qizlar aytdi:

-
- Biz topib kelsak-chi. Tovka aytdi:
 - Bo‘lmaydi, mening yurgan, chopgan joyimni qaerdan bilasizlar, sizlar boshqa erda o‘yinda edilaring. Endi o‘zim topib kelmasam, boshqa kishi topolmaydi, men o‘zi ikki yugurdim, “Otma suyak”ka borishda bir turdim, qaytishda bir turdim, yo borishda tushgan, yo qaytishda tushgan, sekin borib topib kelaman, sizlar shu erda o‘tiringlar, – deb kanizlarini shu erga tashlab, iziga qaytdi. Endi zindon boshiga borib, sunbul sochini tarqatib, gardanining ostidan yana fonus shamni yoqib yuborib, zindonning tagiga bo‘ynini cho‘zib, Alpomishga qichqirib turibdi:

Xilidan ayrılgan lochin,
Bu kelishim sening uchun,
Uzat qo‘ling, ushla sochim.
Makoning bo‘lib, qora zindon,
Yig‘lab, lablaring xandon,
Senga yordam bugun mendan,
Uzat qo‘lni, ushla sochdan.

190

3850

O‘z elingdan kelding bunda,
G‘arib bo‘lib qora zindonda,
O‘lmay chiq zindondan, zinda,
Uzat qo‘ling, ushla sochdan.

Qo‘ng‘irot elining o‘zing zo‘ri,
Yetti yillardan beri
Bo‘lding, Qalmoq giriftori,
Bu zindondan chiqqin tiri[k],
Uzat qo‘ling, ushla sochdan.

3860

O‘ylasam, yetti yil bo‘libdi,
Senday polvon sil bo‘libdi,
Barchinoy qolib, tul bo‘libdi,
Uzat qo‘ling, ushla sochdan.

Qalmoqlar senga zo‘r bo‘lib,
Bul ham taqdirda bor bo‘lib,
Zindonda yotma xor bo‘lib,
Uzat qo‘ling, ushla sochdan.

O‘zing Qo‘ng‘irot elning shohi,
Bunda kelgandi cho‘li boyi,
Qayda qolgan Barchinoyi,
Uzat qo‘lni, ushla sochdan.

3870 Borib qo‘shil sen ham xilga,
Davlatli Qo‘ng‘irot elga,
G‘arib bo‘lmay Chilbir cho‘lga,
Bir topilgan Barchingulga,
Uzat qo‘ling, ushla sochdan.

Sening uchun yig‘lagan, bag‘ri tilinib,
Yotma Qalmoq elda, g‘aribliging bilinib,
Qo‘ng‘irot eldan qolib ketding bo‘linib,
Makoning Chilbir cho‘l, sahro bo‘b,
Ota-enang qob ketgan yurak pora bo‘b,
Oybarchin ham qolgan, baxti qora bo‘b,
Ota-enang yig‘lab, bo‘lib qolgan bag‘ri kavob,
Zinda bo‘lsa borib qilgin bir tavob,
Xizmatiga qaytargin, borib javob.

191

Maston ayyor chiqib turib yo‘lingga,
G‘aflatda qib, axir tepdi belingga,
Sog‘-salomat ketgin Qo‘ng‘irot elingga,
Borib topish Oybarchinday gulingga,
Sunbul sochimni tarayin,
Qalmoqdagi ko‘rgan to‘srimni yo‘rayin,
Mard o‘g‘lonsan, ahvolingni so‘rayin,
3890 Polvon o‘g‘il, senga yordam berayin.

Alpomish labi qotib, o‘ylab tursa, bu gapirayotgan gaplari achitib, do‘stlikning yo‘lidan kelayotir. Otasi dushmanlik ziddidan zindonga solgan. Chunki Alpomish shunday aldanish bilan zindonga tushgan edi. “Ilondon qo‘rqan, ola ipdan ham qo‘rqadi”, degan gap bor, darrov Mastonning aldab zindonga tushirgani esiga tushdi. “Otasi dushman bo‘lsa, buning qizi menga do‘st bo‘larmikan”, deb Tovkaning gapiga javob qaytarayapti:

Hulkar borib, tog‘ boshiga toyoldi,
Xizmat qilgan xon oldidan joy oldi,

Bu gapingga men buzmayman xayoldi,
Qulq solsam, bu sening aytgan so‘zingga.
Ishonmayapman o‘zingga.

Rangi-ro‘yim so‘ldirasan,
Aldagan bu puch gap bilan qo‘ynimni to‘ldirasan,
Maston kampir gapiday qib,
Endi bildim, o‘ldirasan.

3900 Nasibamni haydab bunda,
Hali o‘lganim yo‘q, zinda,
Chiqmayman, yotaman zindonda,
Manzilimni maydon aro aylagan,
Ayriliq yuragim pora aylagan,
Xalqimdan ayirib, baxtim qora aylagan.

Men yotibman ado bo‘lib,
Shuncha xalqdan judo bo‘lib,
Ota-onam qolib ketgan,
Yig‘lab, farzand gado bo‘lib.

192

3910 Kelma zindonning boshiga,
Buytib yara solmagin, g‘arib yurakning go‘sh[t]iga,
Yetti yillardan bermag‘on ko‘ndim otangning ishiga,
Qo‘y, yuribdi o‘z hushiga,
Zindondan chiqar kun borma,
Eskirgan dardimni yorma,
Meni buncha tergab ko‘rma.

Tovka o‘ylab tursa, gapiga ishonmasdan qo‘ydi. Chunki avvaldan Maston uni aldagani edi. Shuning uchun hali Tovkaning gapiga ham ishonmadi. Tovka so‘radi:

– Polvon Alpomish, nima uchun mening aytgan gapimga ishonmaysan? Men otamning O‘rdasida tush ko‘rib, sen bilan birga olishib, tanimni senga bag‘ishlab, uyg‘ongan edim. Sening uchun bu qo‘nishni uch oyga so‘rab oldim-ku, hali otam O‘rdada xabarsiz qoldi. “Cho‘lni o‘tlab keladi”, deb sakson qora norini, sandiq to‘la zarini, ilinganning barini mollarga ortib, O‘rdani bo‘shatib chiqdim-ku. Qancha kaniz bilan, bir muncha soz bilan keldim-ku. Bu olib chiqilgan narsam Qalmo-

qning qal'asiga qaytib bormasa kerak. Alpomish aytdi:

- Shu gap to‘g‘rimi?
- Ha, to‘g‘ri, bo‘lmasa, men shunday kelarmenmi? – dedi.
- Bo‘lmasa, zindondan meni chiqarasanmi?
- Albatta, chiqaraman. Bu sochimning uzunligi ikki gaz keladi.
- Soch tashlab chiqarib ololmaysan. Zindonning tagi sakson gaz.
- Bo‘pti, sen chiqaman desang, havoda qush bo‘lib chiqaraman.
- Ha, mayli, ixtiyor qo‘lingda, xoh o‘ldir, xoh kuydir. Xoh qalmoq alplarini ustimga to‘plab bog‘la, xoh minoradan tashla, o‘zing bilasan.
- Bo‘pti, – deb iziga ketaverdi.

Shu kecha oy botishda tong otish edi. Endi oy bota yozibdi, tong ota yozibdi. Qizlarga borsa, hammasi uyquda yotibdi. O‘yinda chopib, charchashib qolgan edi, joy-joyida uxlab qolibdi. “Qizlarni uyg‘otsam, qizlar shunday hovliqma, “Opam yangi kelibdi, tong otguncha qaerda yurgan ekan, yo cho‘ponlar bilan aloqa qilganmikan”, deb aytadi. Shuning uchun bir tuhmatni ortib, hovliqtirib uyg‘otayin”, deb o‘yladi. Bu qizlarning ichida uyqusи qattig‘i Hepalang kaniz bor edi. Shuning sekin ishtonini pastga tushirib tashlab, chotiga besh-olti turtib, “Tur, mochag‘arlar!” – deb qichqiryapti:

193

3920 Ko‘rib qoldik buni bizlar,
Tur joyingdan, kanizlar,
Keb qoldik cho‘lu sahrolar,
Kelaversam bir cho‘pon mýralar,
Turinglar, baxti qoralar,
Bir cho‘pon turgan ekan poylab,
Qochib ketdi soyga taylab.

Yomon so‘z bilan gapladi,
Qarayotgan cho‘pon tulkiday,
Bo‘lib soyga tobladi,
Turinglar, baxti qoralar,
Qaysingni cho‘pon bopladi?

3930 Cho‘pon ekan o‘zi yakka,
Qochib qutuldi tikka,
Cho‘lda yurgan cho‘pon bilan,
Qaysing qilding, aloqa?

Cho‘pon ketdi qirdan oshib,
Qoldi, mening ko‘zim tushib,
Uxlab qobsan qobog‘ing shishib,
Qaysing qolding cho‘pon bilan
Darrovdan aloqa qo‘shib.

Qizlarga Tovkaning “turinglar!”, degan tovushi boradi, hammasi joy-joyidan irg‘ishib turadi. Hepalang kaniz irg‘ib tursa, ishtonni pastga tushib qoldi.

– Baxti qora, bu nima? – deb qizlar, top-topdan mushtlab qoldi. Hepalang o‘tirib, ishtonini ushlab qoldi. Tovka ham shu hiylani qizlarga ishlatib qoldi. Tovkaning bu ishi o‘zini malomat gapdan saqlash edi.

– Turinglar, ketamiz, – dedi. Hammasi joy-joyidan turib, O‘rdaga etib, joy-joyiga yotib qoldi. Tongning otganligini ham bilmay qoldi. Ikkinci kechasida Tovka otasining solib bergen O‘rdasining o‘rtasidan laqhimni, qaza boshladi. Kunduzi qizlar bilan ÿynab o‘tiradi, kechasi bir o‘zi O‘rdaning ichida lahm qazadi. Qirq kecha deganda, zindonga lahmni etkazdi. Bir kuni Alpomish qarasa, atrofidan qitirlab shovqin chiqadi. Alpomish qo‘rqib qoldi. “Zindonning tagidan birorta ajdaho qazib kelyaptimikan”, dedi. Ikkinci kechasi esa Alpomishning uyquisi kelmadи. Tovush yaqin kelyapti. Zindonning bu burchiga qochib turdi. Olmos yalt etib zindonni teshib o‘tdi. Alpomish qarab tursa, qo‘lidagi olmosining og‘irligi biron botmon chiqadi.

Yaxshi o‘yib, lahmdan kallasini ko‘rsatib: – Assalomu alaykum, qo‘ng‘irot elining polvonи, – deb to‘g‘ri keldi. Qarasa, hamma eri changga botgan, eschki kiyimni kiygan podshoning qizi Tovka. Tovka:

– Otamning O‘rdasida to‘srimda ko‘rganimmi endi hushimda ko‘rdim-da, – dedi. Alpomish:

– Endi, inonib ishondim, – dedi-da Tovka bilan ko‘rishdi. Tovka:

– Xo‘p mayli, – deb iziga qaytib ketdi va O‘rdaning ichiga borib yotdi. Lahmning og‘ziga taxta, ustidan libos tashlab, hech kimga bildirmay qo‘ydi. Kunduzi qizlar bilan uynab, kechasi Alpomishga ovqat olib ketadi. To sahargacha o‘yin-tomoshasini qilib, keyin qaytib kelaveradi. Shuning bilan kanizlar bilmay yuraveradi. Shu bilan podshoning qizlarining kelganiga uch oy bo‘libdi, cho‘ponning o‘ti quvrab, xas bo‘lib qolibdi. Qo‘ylarning yaylovga, tog‘larga o‘rlash vaqtি bo‘lib qolibdi. Qalmoq podshosi Maston momoni chaqirtirib:

– Endi, Maston momo, cho‘l quvrab qoldi, mollarning yaylovga ketish vaqtি bo‘ldi. Siz keting, Chilbir cho‘liga tezroq eting, mollarga yuklarni ortib, bosh bo‘lib, ko‘chni ko‘chirib keling, – dedi.

Mastonning bir eshagi bor. Shundan boshqa mol Mastonni ko‘tarolmaydi. Devxarning to‘qimini beliga tortib, irg‘ib mindi beliga, xona cho‘pini olib qo‘liga, chiqdi Chilbirning cho‘liga. Kampir Maston Chilbir cho‘liga qarab ketyapti. Soyu qirlardan o‘tyapti. Qarab, shoshib etyapti. Dev eshakning tuyog‘i erni qazib, changini havoga cho‘zib boraverdi. Tovka kanizlari qarayapti, Maston borayapti. Kanizlar chopishib Tovkaga aytdi:

– Maston enangiz kelyapti. Hammangiz oldiga chiqib, kutib olingizlar.

Qizlar izma-iz chopishib ketyapti. Tovka Alpomish uchun qazilgan lahmning og‘zini berkitib, ustidan sarpa tashlab, “bilmasin”, deb Maston oldiga chiqib turdi. Kanizlar Maston kampirning qo‘ltiqlaridan suyab, olib kela berdi. Mastonga qarab, Tovka bir so‘z deb turibdi:

Ko‘rmabmiz, uch oy bo‘libdi,
Maston enamiz kelibdi,
3940 Ko‘p qaradik, yo‘lingiz kutib,
Bahor ham ketdi-da o‘tib.
Bugun enamiz keb qobdi,
Bu manzil joyimga etib.

195

Kelolmadim senga o‘zim,
Ko‘rishishim bo‘ldi lozim,
Kel Tovkajon, qoshima,
Ko‘rishishim bo‘ldi lozim,
Sog‘inib qoldim, jon qizim.

3950 Mastonning etdi qoshiga,
Maston quchoqlab to‘shiga.
Keldim Qalmoqning elidan,
Adashdim bandargalar yo‘lidan.
Sog‘inib qobman, qizim, deb,
Quchoqlab oldi belidan.

Tovka: – Ena, ichkariga torting, – deb ko‘chki qo‘rg‘onchaning ichkarisiga kirgizdi. Kampir birdan lahmga to‘shalgan libosning ustidan borib o‘tirdi. Mastonga ziyofat tashlay boshladi.

Hurmatlab mehmonini,
Yozdi dastorxonini,

	Ena, eng deb tashlay berdi, Oq bug'doy amrkonini, Qaymoqqa iylagan nonini.
3960	Xizmatda bo'ldi ko'p kaniz, Ovqat qaynatdi izma-iz. Ena, eng, deb tuta berdi, Oftobi mayda mayiz.
	Tovoq qatnadi damba-dam, Podsholikka nima kam, Qizlar qo'lida tilla jom, Ena, eng, deb tashlay berdi, Chaqilgan pista-bodom.
3970	Maston kampir obod ko'rdi, Tovkaning qo'shini, Obod qilganga o'xshaydi, Chilbirning bo'ston dash[t]ini. Ena, eng, deb tashlab qo'ydi, Tandiri shirvozning go'sh[t]ini.
3980	Obod ko'rdi joyini, Tomoshaday o'yini, Ena, eng, deb olib kelib qo'ydi, Qo'y qatig'i – gilagayni, Qildi kampirni ziyofat Izi mehnatmi davlat.

Tovka kampirni ancha ziyofat qildi. Maston aytdi:

– Hoy qizim, bo'ldi, ovqatni nima qilasan, shuncha ovqat bo'ladi.

Maston kampir bilishdan, shum kampir emasmi, ko'zi ostidan Tovkaga xo'p sin solib qarasa, Qalmoqdan ko'chgangday emas, biroz oriqlab qolibdi. Yuzining qonlari ham biroz qochib qolibdi. Ko'ziga farosat qilib qarasa, boshqorong'iga o'xshaydi. Ko'rishganda farosat qilgan edi. Badan go'sh[t]i bo'shab qolgan ekan, kampir sezib, gumon qildi.

– Otangning cho'ldan senga solib bergan qo'rg'onchasi shumi? – dedi. Tovka aytdi:

– Mana shu, har yil uchun qo'nish joy bo'ladi-da.

– Bo‘lmasa, men kelganim yo‘q, qo‘rg‘oningni qutlug‘ bo‘lsin qila-yin, – deb bir-ikki og‘iz so‘z ayтиb turibdi:

3990

Cho‘lni joylabdi qo‘yingiz,
O‘rda o‘tovlar uyingiz,
Qutlug‘ bo‘lsin, Tovkaoy,
Yoz oyda qo‘nish, joyingiz.
Katta tutlar-ku payvan,
Qutlug‘ bo‘lsin, ko‘chki ayvon.
Gullar ochiladi g‘uncha,
Yo‘l yurdim cho‘lda kim qancha,
Qutlug‘ bo‘lsin, Tovkaoy,
Otangiz sob bergen qo‘rg‘oncha.

197

Obod ekan qo‘shingiz,
O‘ngarilganday ishingiz,
Tanangiz sog‘mi, jon qizim,
Bo‘shabdi badan go‘sh[t]ingiz.
Cho‘lga ko‘chib keb o‘zingiz,
Bir muncha bor kanizingiz.
Taningiz sog‘mi, jon qizim,
Nega so‘libdi yuzingiz?

4000

O‘t ekan Chilbir cho‘lingiz,
Qalmoq urug‘ elingiz,
Taningiz sog‘mi, jon qizim,
Yo‘g‘onlaganday belingiz?

Qalmoqdan ko‘chganiningizga,
Hisoblasak, uch oy bo‘libdi,
Cho‘ldan ko‘chirib ketgani,
Maston enangiz kelibdi,
Taning sog‘mi, Tovkajon,
Ranging ancha so‘libdi.

4010

Cho‘lda chopganday bo‘bdi,
Bir yor topganday bo‘bdi,
Yuzingizda qoningiz yo‘q,
Birov o‘pganday bo‘bdi,

Ham mening bilishimcha,
Qorningiz ko‘pganday bo‘bdi?

Tovka Maston kampirning gapiga javob qaytaryapti:

4020

Unday demang, enajon,
To‘rtta ko‘ylak kiyibman,
Qora tegpanda bo‘libdi,
Xom ham gilagayni ko‘p ichib,
Qornim ko‘pganday bo‘libdi,
O‘sma lolab yuvilib,
Shu sababdan, enajon,
Birov o‘pganday bo‘libdi.

Maston:

– Sen yolg‘on gapingni menga aytma, men darrov bilib qo‘ydim. Qalmoqdan ko‘chayotgandagi husnu jamoling qayoqqa ketdi? Qiz bola gul bo‘ladi. Gulni ham sal changallasa, so‘ladi. Ana, sen ham guldayin changallanibsan, senga gapning to‘g‘risini aytsam, o‘tirganining dashtu sahro bo‘libdi. Shoh otangga yuzing qora bo‘libdi. Toq boshing jo‘ra bo‘libdi. Agar Qalmoqqa borsang, otang biladi, ichingni tiladi, ombirlab go‘sh[t]ingni yuladi. Senday qiz endi o‘ladi. Qalmoq elga bir yomon gap bo‘ladi. Sarg‘aytiribsan otangning qizil yuzini, cho‘lga ko‘chirib yuborib senday qizini, yomon qildi-da gapning izini. Qo‘ng‘irotning xoni bilan, bildim, topishibsan, elimday bo‘b yopishibsan, safo qurib o‘pishibsan, – deb Tovkani Maston siqa berdi. Tovka:

– Ey! Maston momo, yirtilgan eringni yama, menga bunday dema, ko‘p safsatani qilib, po‘qingni ema. Ikkinci oldimga kelma, tur yo‘q bo‘l, yo‘lingdan qolma. Bor, Qalmoq podshosiga borib ayt, nima qilsa qilsin. Sakson norni, sandiq zarni, o‘rdadagi borini olib, cho‘lga chiqib-man. Ikkinci shu narsalar Qalmoqqa qaytib bormaydi, aniq gapim shul, chohdagi Qo‘ng‘irot xoni bilan topishibmanmi, yopishibmanmi-u mening ishim, – dedi. Maston kampir:

– Hali shundaymi, baxti qora. Qalmoqdan olib chiqib sakson tuyu, shuytib qildingmi mehnatimni zoya, he, o‘l, sen juvonmarg, baxti siyo. Men ketmasam, Qalmoqqa darrov etmasam, rangingni so‘ldirma-sam, Mastonligim bildirmasam, Alpomish bilan ikkovingni bu Chilbir cho‘lda o‘ldirmasam, – deb berdi. Tovka aytди:

– Bor, kampiri ayyor, nima qilsang, qil, dedim-ku.

Har kuni Tovka lahm ichi bilan Alpomishga ovqat olib borib, berib kelar edi. Bugun Maston kampirning kelishi munosabati bilan uning oldidan chiqolmadi, ovqat olib borib berolmadi. Alpomish ochqab, yuragi ozib, lahmning ichi bilan jo‘nagan edi. Ba’zi joylaridan emaklab o‘tib sekin-sekin o‘rdaning tagiga yaqinlashgan edi. Qulq solsa, Maston kampirning ovozi guppuplab chiqayapti. Tovkaning bo‘yniga “siringni oshkora qilib, o‘ldirdim, kuydirdim”, degan ovoza chiqadi. Tovka Mastondan qo‘rqlaydi, hech hazar qilmay:

– Borib, kampiri ayyor, qo‘lingdan kelsa, qilaver, – deb ovozi keladi. Alpomish: “Hay attang, meni zindonga solgan xundoriga kelgan ekan. Hay, attang, buning qanday ilojini qilar ekanman”, deb Mastonning tagidan kelib, shu liboslarning ostidan bilagini yalong‘ochlab qo‘lini qarmab kelaverdi. Maston kampir semiz kampir emasmi, quyrug‘ining cheti qo‘liga ilindi. Lekin kampirga shu bilindi. Kampir:

– Erning tagida bir balo bor ekan, – deb joyidan turayapti. Alpomish ushlagan joyidan qo‘ymay, pastga qarab tortyapti, “lahmga bir tushirib olayin”, deb. Maston zo‘r kampir emasmi, yuqoriga qarab tortyapti “qu-tulib qolayin”, deb. Maston kampir turib ketdi. Alpomish changal solgan joyidan qo‘lga yulinib qoldi. Kanizlar hovliqib, har tomonga qarab qochib qolishdi. Achchiq bilan Maston eshagini minib:

– Endi Qalmoqqa bormasam, baringni qirmasam, – deb yo‘lni changitib ketdi. Tovka ovqat olib, Alpomishning qoshiga borsa, Alpomish xafa bo‘lib, yig‘lab:

– Attang, Maston kampirni bir yoqli qilolmadim, lahmga tortib ololmadim, burdalab go‘sh[t]ini yulolmadim, endi ahvolim chatoqqa aylandi. Chapligida avval o‘lmasam ham, endi o‘ldim. Boychibor otim bo‘lganda, bu qalmoqlar bilan maydonda kalla yorishib, qonga qorishib, bular bilan bo‘lar edim-da, – dedi. Tovka aytdi:

– Ey polvon, xafa bo‘lma, o‘zim bor. Sening uchun hali ham xizmat etaman. Shu kecha Qalmoqqa etaman, otingning berkitilgan tablasini bilaman, borib otingni o‘zim bo‘shtaman. Alpomish aytidi:

– Qani, menga yordam qilsang, tablaning og‘zidan bir isiriq tutatib bersang, o‘zi keladi.

Alpomish eskirib qolgan choponining o‘ngiridan kesib, qo‘liga berdi.

– Shamol ustidan isiriqni tutatib, qaytaver, otim mening zinda bor ekanligimni bilib, hech kimga tuttirmasdan keladi, – dedi.

Endi, Mastondan gap eshitsangiz. Maston “ana-mana”, deguncha ketibdi. Qalmoqqa borib etibdi. Qalmoq podshosi polvonlari bilan: “Ko‘ch bugun kelar-da”, deb yo‘lni kutib turgan edi. Maston borayapti,

podsho qarayapti. Mastonning qobog‘i uyilgan, nasibasi qiyilgan, bordi. Podsho aytди:

— Ha, Maston momo, qachon keldingiz cho‘ldan, ko‘chlar kelyapti-mi? Maston podshoning tushidan, shunday nishidan borib, arz qilyapti.

Baland tog‘ning boshi buktar qor,
Chilbir cho‘lga borib, bo‘ldim abgor,
Qo‘lingdan ketganday bo‘ldi sakson nor,
Chilbir cho‘ldan men berayin, bir xabar.
Quloq solib, qabul qiling arzim bor.

Chilbir cho‘ling ekan, bir dashti sahro,
Qizing o‘lsin, avvali baxti qora,
4030 Quyruqni ko‘r, quyruqdan soldi-da yara.
Arzimni adl so‘ra,
Qizingga ko‘rmasang bo‘lmaydi chora.

Podshoyim, deb keldim, sening o‘zingni,
Bekor ko‘chirib yuborgan ekansan qizingni.
O‘z qizing yomon qildi o‘zingni,
Hazil demay, quloqqa tort so‘zimni.

Arz qilyapti kampir dod bilan,
Bu narsani qaytib aytay bet bilan,
Qizing qildi, bu ishlarni zid bilan.
4040 Suv keldi tog‘lardan do‘lob-do‘lob,
O‘ng betiga surtibdi o‘sma, lolab,
Chohda yotgan bandi Alpomishingga,
Zindonga tosh tashlab, qilibdi talab.

Zindonga mash’al yoqib,
Bandining xayolini buzib,
Har kuni qarabdi chohdan
Bo‘ynini cho‘zib,
Chohkasidan borganday
Lahm qazib.

4050 Qo‘ng‘irot xoniga topishibdi,
Mahkam bo‘lib yopishibdi.

-
- Hech qaramadi o‘zima,
Quloq solmadi so‘zima.
Kelmadi, Chilbir cho‘lidan,
Pok o‘la yozdim qo‘lidan.
- Qola yozdim-da tutilib,
Qochib, chiqdim qutilib.
Bundayligini bilib,
Qariyb, keta yozdim o‘lib,
4060 Ishonmasang, ko‘r, podshoyim,
Quyruqdan qoldi yulib.
- Qizing ko‘rsatdi kuminni,
Podsho aytayin chinimni,
Qariyb, olibdi jonimni,
Mana, ko‘r, oqqan qonimni.
Bekor ketgan ekan cho‘lga,
Qizing kelin Qo‘ng‘irot elga,
Norlar bo‘libdi shirolg‘a,
Qizing haddidan oshibdi,
4070 Daryoday bo‘b toshibdi,
Chohdag Alpomishga,
Aloqani mahkam qo‘shibdi.

201

Kampir podshoga bo‘lgan hodisani aytib, quyrug‘ining yarasini ko‘rsatdi. Podsho juda uyalib so‘rashdi:

– Ey, Mastonkampir, “Alpomishni sakson gaz chohning ichida o‘ldirib yubordim, suyagi qolmay ketdi”, degan eding-ku. Hali ham o‘lmanamni?

– O‘lmanam ekan-da. O‘lgani qizing ham yo‘l qo‘ymagan, shunga qizing shunday. “Sakson nor sandiq zar olib chiqdim, qaytib Qalmoqqa bormayman. Bor, qo‘lingdan kelganini qilaver”, dedi, – deb turibdi.

Endi, Tovka Alpomishga bergen va‘dasiga ega turib, sochini tepaga yig‘ib, erkakcha libos, kiyim kiyib, Mallacha degan surg‘un yo‘rg‘a oti bor edi. Uni hali cho‘lda o‘latishga olib chiqqan edi. Shu Mallachaga egarni qurib, cho‘lga surib, yarim kecha-yarim kecha Qalmoqqa kelgan edi. Sahar-sahar Boychibor yotgan tablaning og‘zidan kelib qaradi. Otboqar sayislarning hammasi uqlab qolganini ko‘radi. Alpomishning bergen janda lattasini tablaning og‘zidan tutatib, iziga qaytadi. Mal-

lacha otning beliga minib, surib qo‘ya berdi iziga qaytib. Boychibor to‘rt oyog‘ini uzatib, tong vaqtি yotgan edi. Isiriqning hidi lukkasiga Boychiborning burniga bordi. O‘qtanib, irg‘ib turib, har tomonga al-anglab, kallasini to‘lg‘adi. Alpomishning eski lattasining hidi burniga keldi. “Hali egam o‘lgan yo‘q, zindonda zinda ekan-da”, deb oyog‘ida bog‘langan no‘xta ham zanjirlarni uch marta cho‘rchishda tilka-tilka qilib, uzib yubordi. Tabladan chiqib, Qalmoq qal’asidan irg‘ib qo‘ya berdi. Otboqor sayislar podshoga xabar qildi:

– Qo‘ng‘irotning oti iplarni uzib, tabladan ochdi.

Otlarga g‘avg‘o tushdi. Alplar qayirishib, atrof-boshini chaqirishib, qalmoqlar chuvullashib, g‘uvullashib, Boychiborning izidan tushdi. Ana-mana deguncha qarasa, ko‘rinmay, cho‘lga qarab enib ketdi. Qalmoq alplari:

– Bu sabil etkizmaydi, hali tutqizmaydi. Endi izimizga qaytib tarad-dud bilan chiqmasak bo‘lmaydi, – deb iziga qaytishdi. Boychibor endi Alpomishni izlab cho‘lga qarab ketyapti:

202

Ketayotir Chibor xezlab,
Chilbir cho‘lga qarab ko‘zlab,
Har joyga borib kishnaydi.
Yo‘lbars egasini izlab.

4080

Kishnayotir guldurab,
Cho‘lda ketadi buldurab,
Ketib boradi Boychibor,
Mashinday bo‘b gildirab.

Chiqdi cho‘lga o‘zi yakka,
Etkazmaydi, otgan o‘qqa,
Turadi qazgan changi,
Cho‘zilib havo-falakka,
Yetti yillardan bermag‘on,
Topisholmay Hakimbekka.

4090

G‘uborsir Chilbirning dash[t]i,
Har balandga chiqqanda kishnar,
Ezilib, tulpor tovushi,
Har tomonga borar tiklab,
Cho‘lda ketyapti lo‘qlab,

Kishnab boradi jonivor,
Yo‘lbars egasini yo‘qlab.

Alpomish chohda: “Endi g‘arib o‘ldim-da”, – deb xafa bo‘lib, ota-nalariga, qavmi-qarindosh ellariga, Oybarchin suyukli yoriga, emik-dosh Qaldirg‘och singlisiga “rozi bo‘linglar”, – deb yig‘lab turibdi:

O‘z elimdan keldim men ham
G‘arib bo‘ldi, chohda tanam,
Oq sutingga rozi bo‘lgin,
Kuntug‘mishjon, jonim enam.

4100 Qayg‘udan ko‘p bo‘ldi o‘yim,
Sarg‘aydi-da rangi-ro‘yim,
Alpomishdan rozi bo‘lgin,
Otajonim, duogo‘yim.

Chohda qoldi aziz boshim,
Chapga aylanganday ishim,
Qaldirg‘ochjon, rozi bo‘lgin,
Sut emishgan emikdoshim.

203

4110 Ketganday ixtiyorim,
Bormadi-da xabarim,
Bu yo‘limga intizoram,
Alpomishdan rozi bo‘lgin,
Suyukli Barchin yorim.

Shunqor tepib, sindi belim,
Bunda qanday kechdi holim,
Alpomishdan rozi bo‘ling,
Qarindosh, qavmu elim.

Qolib ketgan xeli-xeshim,
Keladi, deb tengi-to‘sishim,
Alpomishdan rozi bo‘ling,
Qavmi-elat, qarindoshim.

Alpomish g‘amgin tortib turgan edi. To‘pning og‘ziga o‘xshab, bir narsaning cho‘ldan ovozi chiqdi. “Qalmoqlar to‘p otishib, kelib

goldimi”, deb joyidan turib, quloq soladi. Yaqindan tovushi keladi. Anglab qarasa, Boychibor tulporning tovushi. Alpomish endi Boychiborning kelishiga xursandchilik bilan qichqirib turibdi:

4120 Chayqalmasin davlatim,
 Ham qo‘lim ham qanotim,
 Ovozingdan, tulpor otim.

Etdi-da zindalik xabarim,
Ko‘ngilda qolmasin g‘uborim,
Ovozingdan Boychiborim.
Xo‘p edi ko‘ngilda o‘yim,
Tog‘u cho‘lda hamroyim,
Ovozingdan, tulpor toyim.

4130 Armon ketganding qo‘limdan,
 Endi qutqarding o‘limdan,
 Sening bilan safar qilib,
 Chiqqandim Qo‘ng‘irot elimdan.
 Bugun xabar olding,

Mening g‘arib bo‘lgan holimdan, – deb xursandchilik bilan zindonda Boychiborning kelishini kutub turdi. Boychiborning do-biri gumbirlab bordi. Chohni bir aylandi-da, ikki yarim quloch bo‘ynini cho‘zib, chohning tubiga qaradi. Alpomishni chohda zindonda ko‘radi. Boychibor chohning labiga oyog‘ini tiradi. Besh yarim gaz dumini pi-langlatib, tashlab yubordi. Alpomish xursandchilik bilan “Yo Ali!”, deb o‘zini cho‘rhib otdi. Otning dumiga qo‘li ilindi. Boychibor Alpomishni zindondan tashqariga chiqardi. Boychiborning bo‘ynidan quchoqlab, abrashin kokilidan silab, tavob qildi. Kayqubod, Elomon va Zamon poygachi cho‘ponlar Boychiborning cho‘lda kishnab ketayotganini ko‘rgan edi. Uchalasi ham chopib kelib qoldi. Alpomish bu uchta aka-uka cho‘ponlarni ko‘rib, xursand bo‘lib, ko‘rishib qoldi. Tovka qarasa, oti kelib chiqarib olibdi, cho‘ponlar bilan birga turibdi. Tovka kanizlari oldiga chaqirib oldi:

– Qizlar, oftob yuzlar, bu erga kelingizlar. Sizlarga chinimni aysam, shu erga ko‘chib kelgandan beri Qo‘ng‘irot xoni bilan andarmon edim. Bu cho‘lga olib chiqqan norlarni, sandiq-sandiq zarlarni Qalmoqqa bermaymiz, lekin o‘zimiz ham Qalmoqqa bormaymiz. Hali men Alav-kamni ham bosh egali qilib qo‘ydim. Alavkani Kayqubodga bag‘ish-

lab qo‘ydim. Gulbarchinni Elomonga, Oybarchinni Zamon poygachiga bag‘ishladim. Hammamiz, bilsalaring, Qo‘ng‘irot eliga kelin bo‘ldik, eshtidilaringmi? Alavka aytdi:

– Opa, hali siz shunday qilib qo‘ydingizmi?

– Ana shunday qilib qo‘ydim, – dedi. Lekin, qizlar Elomon, Kay-qubod, Zamon poygachilarining baquvvat, epchil, zo‘r, chaqqon yigitlar ekanini biladi. Kanizlar aytdi:

– Opa, bo‘lmasa, to‘y qiling-da. Tovka: – Qizlar, oftob yuzlar, tezroq boringizlar, Alpomish va cho‘ponlarni olib kelingizlar, to‘yimiz ham, ziyofatimiz ham shu-da, – dedi. Kanizlar:

– Alpomishxon, siz cho‘ponlar bilan boring ziyofatga, – dedi.

Alpomish cho‘ponlar bilan birgalikda keldi. Ziyofat qilib, kanizlar xizmatda turaverdi. Qorovulgazaning ustiga Tovka to‘rtta kanizni qorovul qilib qo‘ydi. Tovka aytdi:

– Sizlar Qalmoqdan biror qora-qura chiqsa, darrov xabar berasizlar.

To‘rtta kaniz tepaning ustiga chiqib boradi, atrof-boshga qaradi, Qalmoq xoni besh yuz aravani qurovlab, cho‘lga chiqargan edi. “Zil tog‘ining toshini misiranlab aravaga joylaysan, olib kelib, Qo‘ng‘irot xonining zindoniga tashlaysan. Zindonni tosh bilan to‘ldirasan, Qo‘ng‘irotning xonini shunday qilib o‘ldirasan”, degan edi.

Aravakashlar ashula aytib, cho‘lda ketayotgan edi. Qorovul qizlar aytdi: – Opa, ish chatoqqa aylandi, butun Chilbir cho‘li qora-quraga to‘lib, g‘urpullab chang havoga yoyilib kelyapti.

Tovka durbin olib qarasa, aravakash, ikkita otdan qo‘srgan, shaqir-latib cho‘lda kelyapti. Tovka sakkizta kanizni hamroh qilib oldi. Tovka ham gazaning yo‘lini to‘sib turdi. Aravakashlarning oldi etishdi, Tovka aravakashlarga qarab, boradigan erini so‘rab, bir-ikki og‘iz so‘z aftyapti:

Sizlarga bo‘ldi qanday ishlar,
Arava haydab, Chilbir dashtlar,
Yo‘l bo‘lsin, aravakashlar?

Otga qamchi urasiz,
Aravani surasiz,
Aitinglar qayga borasiz?

4140 Soyi qirdan o‘tyapsiz,
 Sizlar qayga ketyapsiz.

Arava haydab cho‘lga,
Boryapsiz qaysi elga?

Ot chopilgan omonga,
Ot chopishib har tomonga,
Qayga ketyapsizlar,
Qolmangiz qora tumanga.

Aravakashlar aytyapti: – Oldimizni o‘rayapti, bizlardan gap so‘ra-yapti, bu kim ekan? Ba’zilari:

– “Podshoning qizi cho‘lga ko‘chib chiqqan”, degan edi, balki, shul bo‘lmasa, – deyapti. Aravakashlar boradigan erini ayтиb turibdi:

4150 Biz aravani cho‘lda suramiz,
 Zil tog‘iga etib boramiz,
 Misiranlab tosh o‘yamiz,
 Biz Zil tog‘iga ketamiz,
 Vaqtliroq etamiz.

206

Zil tog‘ining toshini,
Maydalab, aravaga ortamiz.
Aravaga tosh joylaymiz,
Olib kelib, Alpomishning
Zindoniga tashlaymiz.

4160 Zo‘rligimiz bildiramiz,
 Alpomishning zindonini,
 Toshdan tashlab, to‘ldiramiz,
 Zindon ustidan tosh tashlab,
 Qo‘ng‘irot xonini o‘ldiramiz.

Tovka aytdi: – Shuni kim buyurdi? Aravakashlar: – Bizga podsho buyurdi, – dedi. Tovka aravakashlarga qarab qichqiryapti:

Qizil gulday sarg‘ayib, so‘lmanglar,
Podshoning gapiga ahmoq bo‘lmanglar,
Ahmoq bo‘lib, bu cho‘llarda o‘lmanglar.

4170

Uch kun bo‘ldi, Zil tog‘ini bosdi tuman,
Kim borsa, qaytib kelushi gumon,
Boshlaringga bo‘lmasin oxir zamon.

Bir ajdarho paydo bo‘ldi, tog‘ning belidan,
Hech kim o‘tolmaydi tog‘ning yo‘lidan,
Hech kim omon qolmas, ajdarhoning xilidan.

Kim ajdarhoning damidan omon ketadi,
Ikki tosh yo‘ldan damiga tortadi,
Ot bilan hammangni yutadi.
Zil tog‘ining darasini tuman choladi,
Zil tog‘iga borgan aniq o‘ladi,
Aravalar cho‘lda egasiz qoladi.

4180

Bekorga, bu cho‘lda ahmoq bo‘lmanglar,
Ajal haydab, bunday kelmanglar,
Ajdarhoning domida baring o‘lmangar.

Qaytib keting izingizga,
Qiyinchilik o‘zingizga,
Qaytib, omon boringizlar,
O‘g‘il hamda qizingizga.

207

Tovkaning bu so‘zini eshitib, aravakashlar iziga qaytdi. Qalmoq alplari butun askarlarini olib, Boychibor otning izini so‘rab, “endi haydang”, – deb kelyapti. Aravakashlar oldidan chiqib qoldi.

– Ha, aravakashlar, nima bo‘ldi? – dedi.

– Podshoning qizi bizlarni: “Zil tog‘iga bormanglar, Zil tog‘ida uch kun bo‘ldi bir ajdarho paydo bo‘ldi. Otlaring bilan yutadi”, – deb qaytardi. Alplar aytди:

– Ahmoq qilganiga qaytaverasanlarmi, ajdarho nima qilardi. Ehti-mol, Qo‘ng‘irot xoni oti borib, otlangan bo‘lsa, shuni sizlarga ajdarho degan, – deb aravakashlarni ham qaytarib, dasta-dasta bo‘lib boraverdi.

Alpomish durbin olib, qarab turgan edi. Alpomish: “Choh tubida o‘lib ketsam, armonda bo‘lib ketar edim-da. Endi zindondan otimga minib o‘lmay chiqqanimda Qalmoq bilan bir maydonda savashib o‘lsam, armon yo‘q”, deb dobil qoqib, maydonga chiqdi. Qalmoqlar ko‘rib:

– Qo‘ng‘irotning xoni maydonga otlanib chiqibdi-da. Ha, mayli, maydonda har tomonidan chotma tashlab, qo‘lga tushiramiz, – dedi.

Qalmoqlar keldi duna-duna,
Chiqli Algomish maydona,
Haydaydi alplar polvoni.

4190

Miltiq otib toqqa-toqqa,
Tashlaydi Algomishbekka,
Algomish misli o‘xshaydi
Chillada mast bo‘lgan lo‘kka.

Qarasangiz Hakimbekka,
Do‘lanaday yoqqan o‘qqa,
Qaytmay, ot qo‘ydi tikka,
Oralay berdi Qalmoqqa.

Nor kalla xumday shishib,
Qalmoq alpga aralashib,
Maydonda borar savashib,
O‘q otilsa, potir-putir,
Bugun bo‘lmas yuzi xotir.

4200

Borayotgan qalmoqlar,
O‘ldim, deb ag‘nab yotir.

Qaytib-qaytib tug‘ildi,
Qalmoqning necha alplari
Otdan ag‘nab, yiqlidi,
Qorag‘ay nayza suqildi.

4210

Tebargalar tirqillab,
Qorag‘ay nayza so‘lqillab,
Necha qalmoq yiqlayotir,
Otdan ag‘nab, shilqillab,
Bir xili yotar bulkillab.

Qochganin qo‘ymay ushladi,
Yag‘rinidan nayza nishladni,
Aravani cho‘lga tashlab,
Aravakashlar qochishni boshladni.

-
- G‘uborsib Chilbir dash[t]lar,
Aravakash qochishni boshlar,
To‘qay ketganday o‘t olib,
Havoning betini dud olib,
Qo‘shparrang miltiqlar yo‘talib,
4220 Otildi maydon ustidan,
Soya yozgan, to‘r so‘tildi maydon ustida.
Oq-qora bosh, obdal nayza,
Suqildi maydon ustida.
Necha alplar ot ustidan,
Yiqildi maydon ustida,
Shodiyona po‘lat dovul,
Qoqildi maydon ustida.
Shovdiragan bedov otlar,
Chopildi maydon ustida.
- 4230 Yarador erga hinqillab,
Yiqildi maydon ustida,
Qaytib-qaytib Alpomish
Tikildi Qalmoq ustida.
- 209
- Ot chopilib chaparasta,
Ketdi Qalmoq dasta-dasta,
Oldi qochib asta-asta,
Nechavi otdan quladi.
Yarador erga sula[y]di,
Bir maydon savash bo‘ladi.
- 4240 Ehtiyyot bo‘l, yaramas,
Qalmoq bir-birga qaramas,
Yiqilganni so‘ramas.
Alpomish maydonda turib,
Alplarni ag‘natib urib,
Qochganini etar surib.
- Qalmoq elga o‘tdi zo‘ri,
Nobud bo‘ldi alpning bari,
Qochdi Qalmoqning askari.

Chilbir cho‘lni bosdi tuman,
Qalmoq alplari ahvoli yomon,
Qochish boshlaydi har tomon.

Rustamning savashi mardning maydoni,
Alpomish ham qo‘ng‘irotning polvoni,
Alplar boridan ayrildi,
Qalmoq elining xoni.

Qalmoq holi bo‘ldi xarob,
Qochishdi har tomon qarab,
Haydayotir Alpomish
Qochganining oldini o‘rab.

Alpomish Qalmoq alplari bilan urushib ham surishib, kalla yorishib, qalmoqni qonga qorishib, nayza suqishib, qon to‘kishib, to Qalmoq shahriga kirgizib, keyin qaytdi. Alp polvonlar bari o‘lib, Chilbir cho‘lida shunday qolib, qochib, qutulib borganining borayotir rangi so‘lib, Qalmoq podshosi qaradi, rangi so‘lib, bari boradi.

210

– Nima bo‘ldi? – dedi.

– Nima bo‘lsin, ishimiz chapg‘a aylandi-da. Qo‘ng‘irot xoni otini minib, tayyorgarlik ko‘rib, oldimizga chiqib turgan ekan, qaytmay bizga tikka ot qo‘ydi. Alp polvonlar tamom sob bo‘ldi. O‘zi juda yomon gap bo‘ldi. Uning damiga odam to‘g‘ri kelolmaydi. Miltiqdan, yalov tig‘dan, o‘qdan qaytmaydi. Otining damidan ot qutulolmaydi. Harna qochganning izidan ko‘p quvlamadi-da, bo‘lmasa etib kelar edi. Aravakashlarning ham bari o‘lar edi.

Qalmoq podshosining dami ichiga tushib, polvonlaridan ayrilib, ham askar boshidan ayrilib, dami ichiga tushib, dustaman yiqilib qoldi.

Alpomish kechroq Tovkaning qo‘rg‘onchasiga etib borsa, hamma cho‘ponlar ham qo‘rqib o‘tirishibdi. “Qalmoqning qo‘lida nima bo‘ldi”, deb yo‘lini kutib o‘tirishgan edi. Alpomishni ko‘rib, xursandlik bilan oldiga chopishib chiqishdi:

– Ha, polvon, nima bo‘ldi? Alpomish aytdi:

– Ishing bo‘lmasin, bopladi. Alplarning barini safladim. Qochganni surib, shaharga olib borib, tiqib qaytdim. Esi bo‘lsa, endi chiqolmasday bo‘lib qolgan bo‘lsa kerak. Kayqubod, Elomon aytdi:

– Oxirida juda yaxshi obro‘ oldik. Endi qarindosh, qavmi elga bir qo‘silib qolsak-chi, – dedi.

Darrov tob-tobdan, dush-dushdan norlarni olib kelib, yukni ortaverdi, tayyorlanib, taxt bo‘ldi. Jo‘namoqqa choq bo‘ldi. Alpomish:

— Bo‘imasa, tez yo‘lga tushaylik. Qalmoq shohining ikki to‘p yilqi, sakson norini, qancha kanizini, sandiq zarini Qo‘ng‘irot eliga sovg‘a qildik. Shu ham yaxshi bo‘ldi, — deb Chilbir cho‘lga “allayor”, deya yo‘lga ravona bo‘lib jo‘nab ketdi:

4260 Yotib-yotib choh tubidan kuch olib,
 Qalmoqdan oxiri o‘ch olib,
 Besh yuz oltmish ko‘ch olib,
 Boybo‘ribiyga yetti yillik sovg‘a olib,
 Allayor, deb yo‘lga tushib ketdi.

Ko‘ch Qizilsoy bilan, “G‘oz” degan daha bilan, “Kampirak” degan tog‘ bilan, Kampirak tog‘iga borsa, qancha kishi Maston kampir bilan tog‘ning yo‘lini tosh bilan to‘sib yotibdi. Alpomish ko‘chdan ilgari daraga kirsa, tog‘ning bu tomonidan, u tomonidan miltiq taqa-taqa otilib, yo‘lni shu Maston kampir to‘sibdi. Alpomish aytdi: “Bu kampir qay vaqtidan yo‘lni to‘sib yotgan ekan”, deb bir-ikki og‘iz qichqirib ot qo‘ydi:

211

Tashlab chiqdim Chilbir cho‘ldi,
To‘sib chiqibsan yo‘ldi,
Biroz ko‘nglim chala edi,
Menga juda yaxshi bo‘ldi.

4270 Keyinimda kelar ko‘p sarbon,
 Shul edi ko‘nglimda armon,
 Endi juda yaxshi bo‘ldim,
 Topildi dardimga darmon.
 Yaxshi chiqding yo‘limdan,
 Ajaling to‘libdi qo‘limdan.

Qo‘ng‘irot xoni, o‘tolmaysan,
Ko‘chni olib ketolmaysan,
Darani yotibman boylab,
Ketasan ko‘chni taylab.

4280 Qarang, kampirning o‘zini,
 Qalmoq surar, sen Alpomish izini,

Senga berib yubormas erka qizini.
Qalmoqda maslahat shunday bo‘ladi,
Alplar keyiningdan quvib keladi,
Kampir shuytib shu yo‘lingni oladi,
Senga bermay, qizini olib qoladi.

Endi kampir alplarning Alpomish qo‘lida o‘lganidan xabarsiz edi. U oldin ketgan edi. “Sen yo‘lni to‘sib turasan, orqasidan alplarni yuboramani, shu erda qamab ko‘chni olib qolamiz. O‘zini ham o‘ldiramiz”, deb kampir besh yuz kishi bilan ketgan edi. Shuytib oldin toshdan qalab yotgan edi. Alpomish o‘ylasa, kampir alplarning o‘lganidan xabarsiz, yo‘l to‘sib turgan edi. Alpomish kampirga bir-ikki og‘iz qichqirib, sening xabaring yo‘q ekan, deyapti:

4290

212

Kampirga qichqirib, ot qo‘ydi,
Xabaring yo‘q ekan gapning izidan,
Umid uzib qoldi-ku ikki qizidan,
Endi kelolmaydi, Alpomish izidan.
Sen to‘sib turibsan bugun yo‘limdan,
Qalmoq alplar nobud bo‘ldi qo‘limdan.

Hammasini terib, otdan qulatdim,
O‘ligini Chilbir cho‘lda sulatdim,
Alplaringning bola-chaqasin yig‘latdim,
Podshong ayrildi ko‘p polvonlaridan.

4300

Kelolmaydi Alpomishning koridan,
Umid uzib qoldi sakson noridan,
Ko‘ngil uzib qoldi ikki zulfakdoridan.
Baland tog‘ning bastidan,
Yetti yil yotdim zindonda
Senday kampirning dastidan,
Boychiborga qamchi qo‘yib,
Tashladi kampirning ustidan.

Alpomishning lovullab yongan o‘tkir ko‘zidan kampirning ko‘zi qo‘rqdi. Kampirning olib kelgan besh yuz kishisi Alpomishdan qo‘rqib, yakka-yakka tog‘dan oshib, qochib ketdi. Kampirning orqasidan Boychibor lovullab etdi, shorillab etdi. Kampirning keyinidan, oltin sadoq

bilan sermab o‘tdi bo‘ynidan, Alpomishning oltin sadog‘i yashin ustidan emasmi, kampirning boshini xumday qilib, uzib tashladi. Kampirni qu-latdi, daraning ichida sulatdi. Elomon, Kayqubodlar kuch bilan kelib qoldi daraning ichiga, Alpomishning ikki ko‘zi qip-qizil tuzday bo‘libdi. Xuddi badanidagi tuki, usta sanchgan bigizday bo‘libdi. Kampirning to‘siga oyog‘ini tirab, bir qo‘lini yulib, daraning bu betiga, bir qo‘lini u betiga otyapti. Kayqubod bilan Elomon aytdi:

– Ha, Hakimbek aka, bu kampirni qassoblayapsizmi? Alpomish aytdi:

– Ha, yuragimdan mening armonim endi chiqdi-da. Meni armonda zindonga solib tashlagan Maston ayyor shu-da. Ko‘nglim chala edi. “Shu kampirni nobud qilolmadim-da”, deb kelayotgan edim. O‘zi oldimdan chiqib qoldi. Alplarning o‘lganidan xabarsiz, toshlar bilan yo‘limizni to‘sib yotgan ekan. Orqamizdan alplar kelmoqchi ekan. Shu erda bizni tutmoqchi ekan, – dedi.

– Qani, besh yuz kishini o‘ldirmadingizmi? – dedi. Alpomish:

– U besh yuz kishi bilan nima ishimiz bor. Podshosi buyruq qilgan, kela bergen-da, – dedi. Kýchni daradan cho‘lga chiqarib yubordi.

O‘sha daraning nomini hozir ham xalq “Kampirot dara”, deb aytishadi. Kampirning yo‘lni to‘sib, qalagan toshining namunasi hozir ham bor. Kampirning mozori hozir ham daraning ichida. Xalqlar qadamlab ko‘rsa, mozorning uzunligi qirq qadam chiqqan. Hozir ham o‘tgan xalqlar bittadan tosh urib o‘tadi.

213

Alpomishning ko‘chi kech vaqtida bir joyga kelib tushib qoldi. Erta bilan qarasa, suv yo‘q. Alpomish kanizlarni ergashtirib, soyning ichidan bir quduq qazdirdi. Uch quloch chamasi bor joydan shirin suv chiqdi. Norlarni sug‘orib, o‘zлari suv ichib, rohatlanib, dam olishib, jo‘nab ketdi. Qizlar qazib, suv chiqargani uchun xalq uni “Qizquduq” deb atagan. Hozir ham “Qizquduq”, deb nomlanadi. Ustida xalq joylab, boshqa bir quduq qazib, obod qilib yuborgan.

Alpomishning ko‘chi kecha-kunduz yo‘l tortib, Oqsuv, degan daryoning bo‘yiga etdi. Alpomish ko‘chidan ikki, uch tosh ilgari ketar edi. Shu Oqsuv daryoning bo‘yiga enib bordi. Qarasa, daryoning to‘lqini qirg‘oqdan oshib borayapti. Alpomish o‘ylab tursa, Oqdaryo ekan. Kat-ta daryo emas edi. Har vaqt oyoq ulov bilan o‘tar edi. Sel kelib, daryo toshgani uchun guzarlarni buzib yuborgan. Daryodan narigi yoqqa o‘tsa, o‘zining chegarasiga yaqin qoladi. Alpomish qarasa, ko‘chlari ham yaqin kelyapti, “Daryo qachon qaytarini kim biladi? Bir soat bo‘lsa ham ilgari borsam”, deb kelayotgan polvon yigitning sabri chidamayapti. Boshidan o‘tgan kunlarni aytib, daryodan guzar so‘rayapti:

- Oq daryo deydi nomingni,
 Qaytarib oqqin damingni,
 Sayoz qilgin dumingni,
 Tagingdan ko‘rsat qumingni.
 Yo‘l ber, Oqdaryo, o‘tayin,
 Boybo‘riboyga etayin.
- 4310 Past qib oqqin, oqishingni,
 Pastga oq, tashlat reshingni,
 Oshirma buytib, ishingni,
 Yo‘l ber, Oqdaryo o‘tayin,
 Kuntug‘mish enamga etayin.
- Tog‘larda qozamizor,
 Girdobingga o‘rdak suzar,
 O‘tkani bergen guzar,
 Yo‘l ber, Oqdaryo, o‘tayin,
 Qaldirg‘ochjonga etayin.
- 4320 Chohda suyagim sil bo‘lgan,
 Ustingdan Qalmoqqa o‘tganimga,
 Shu bu yil yetti yil bo‘lgan,
 Barchinoy qolib tul bo‘lgan,
 Yo‘l ber, Oqdaryo, o‘tayin,
 Oybarchinoyga etayin.
- Yotib-yotib, choh tubidan kuch oldim,
 Qalmoq eldan o‘ch oldim,
 Besh yuz oltmish ko‘ch oldim,
 Boybo‘riboyga enchi oldim,
 Yo‘l ber, Oqsuvning daryosi.
- 4330 Yotib-yotib, choh tubidan zo‘r oldim,
 Qalmoqlardan or oldim,
 Bo‘rboyi yo‘g‘on nor oldim,
 Sandiqlab ortib zar oldim.
 Tovkaoyday yor oldim,
 Yo‘l ber, Oqdaryo, o‘tayin.

4340

Choh tubida qayg‘u tushib boshima,
Xumor ko‘zim to‘lib oqqan yoshima,
O‘ldi, deb xabar etgan bo‘lsa kerak, Xeli xeshima,
Oybarchinday bibishima,
Qaldirg‘och emikdoshima,
Enam Kuntug‘mishima.
Yo‘l ber, Oqdaryo, o‘tayin.

Quloq sol, Oqsuv, zorima,
Yig‘sam Jonadil shahrima,
Boybo‘riday padarima,
Yo‘l bergen qora norima,
Yo‘l ber, Oqdaryo, o‘tayin.

4350

Nasibani tortib unda,
Yetti yil yotib, zindonda,
O‘tmaslik yomon kunda,
O‘lmay kebman, qaytib zinda,
Yo‘l ber, Oqdaryo, o‘tayin.

215

Alqissa, Alpomish ko‘zini ochib, atrof-boshga qarasa, daryoning to‘lqin seli o‘tib ketibdi. Endi daryo juda qaytibdi. Elomonlar ko‘ch bilan etibdi. Epchil sarbon bo‘lsa daryoning shoxab-shoxab, yoyilgan joyidan tuyani o‘tkazadigan bo‘lib qolibdi. Alpomish aytdi:

– Hoy, Elomon, bugun bu Oqsuvning bo‘yiga kelaman, buni Oqdaryo deydi, nomini bilaman. Lo‘kni etaklab, daryoning yaxshi joyidan o‘tkaz. Daryo berdimi ruxsat, bo‘lmasa karomat, ko‘chning keyiniga o‘zing bo‘lasan ehtiyot, o‘zingdan abjir yo‘q.

Kayqubod, sarbonlar shovqin berib, norlar bir-birini iyinlab surib, daryoning suvini yorib ketyapti. Sarbonlar shovqin beryapti. Norlar bir-birini suryapti. Alpomish bosh-adog‘iga qarayapti. Ko‘chning oldi daryodan o‘tib boryapti. Daryodan o‘tgandan keyin Alpomishning Dabriz cho‘liga ko‘zi tushdi. Dabriz cho‘lidan o‘tgandan keyin mamlakati ko‘rinishi kerak. Bir kechayu kunduzda Dabriz cho‘lidan ko‘ch bilan o‘tish mumkin. Alpomish:

– Kayqubod, Elomon, mamlakatimizga ham yaqin qolibdi-da. Endi xavotir yo‘q, haydanglar, – deb ko‘chning oldiga tushdi. Bular Qalmoq-dan chiqqandan beri kecha-kunduz yo‘l yurib, tolib, charchab qolgan. Kayqubod aytdi:

– Alpomishbek, sizning daryodan o‘tgandan keyin aqlingiz shosh-dimi, yo g‘ayratingiz toshdimi, yo kallangiz shishdimi, yo Barchin che-cham esingizga tushdimi? Siz o‘ylamaysizmi, bir kechayu kunduzlik yo‘lni, uzoq cho‘lni, na suv bor, na buloq bor, suvlatning bo‘yidan qa-yoqqa qarab cho‘llab ketamiz, shu erda bir-ikki kecha-kunduz dam olib, rohatlanib yotmaymizmi?

Alpomish o‘ylab ko‘rsa, Kayqubodning aytgan gapi to‘g‘ri.

– Tushaylik, – deb daryo bo‘yida chodir tikib, tamug‘ suqib, suv ichib, non eb, rohatlanib qolishdi. Kaniz qizlar ham daryoda yuvinishib, tomosha qilib qolishdi. Alpomishning bu ko‘ch bilan yurishga sabri chi-damayapti. Sarbonlarni, Elomon, Kayqubodlarni yoniga chaqirib oldi:

– Men oldimdan chiqqan kishidan gap so‘rab kelyapman. Ba’zilari:

– Orqa cho‘ldan, Qo‘ng‘irot eldan kelyapman, – deydi.

– Orqa cho‘lda, Qo‘ng‘irot elda nima gap bor? – deb so‘radim.

– Shu kechayu kunduzdagi gap: Ultontoz degan bek bo‘lgan, avvalgi Alpomish degan bek Qalmoq eliga ketib nomi yo‘q bo‘lgan, Alpomishning yorining jo‘raboshi toq bo‘lgan. Kiygan kiyimi motam ko‘k bo‘lgan, Alpomish degan bekning xotinini olish uchun Ultontoz degan bek toq bo‘lgan. Shu kecha-kunduzda Qo‘ng‘irotning elida shunday gap bo‘lgan. Shu Oybarchin o‘choq o‘yib, qo‘y so‘yib, qozon qo‘yib, to‘y qilib yotibdi”, deb aytди. Bu gapni eshitib, ukalar, aqlim shoshib, yur-agim toshdi, ruxsat qilsalaring, sizlardan oldin ketsam. Avvali oqshomga, bo‘lmasa, erta bilan etsam, cho‘pon bormi, cho‘liq bormi, yana kamini so‘rab ketsam, olisdan eshitgan gapning yolg‘oni ko‘p bo‘ladi. Ko‘z bilan ko‘rmasa, bu gapga ishonib ham bo‘lmaydi. Ultontozning bek bo‘lishiga qarshiligidim yo‘q. Lekin “Men – Alpomishning o‘gay akasi, Boybo‘rining o‘gay o‘g‘li, Alpomishning taxtini hech kimga ber-mayman”, deb turgan bo‘lsa, ota-onam, uka-singillarim, Barchinday yorimga qattiq bir zulm kun solib yotmagan bo‘lsa, Ultontozga rahmat aytishim kerak. Agar ota-onamni chetlatib, azoblab, xor qilib, eb-ichish-ga zor qilib, Oybarchinni olishga to‘y qilib, boshida ot aylantirib yotgan bo‘lsa, meni o‘ldiga chiqarib, zulm qilib yotgani chin bo‘lsa, o‘lgunim-cha Ultontoz bilan olishayin, – dedi. Elomon aytди:

– Bo‘lmasa, bu gapingizga qo‘schildik. Biz sekin ko‘chib boravera-miz. O‘zimiz ko‘rgan yo‘l, o‘zimiz ko‘rgan el.

Ko‘chni bularga tayinlab, bir mehtarga suv olib, egarning qoshiga qistirib, sarbonlar bilan xayrlashib, Dabriz cho‘liga otini burdi. Boy-chiborga ikki qamchi urdi, sarbonlar orqasidan to‘dalashib qarab turdi.

Alpomishni cho'lga qaratib Boychibor bir surdi, bir zumda ko'rinxmay ketdi. Boychiborga Alpomish qichqirib ketyapti:

Yol, quyrug'ing sarak-sarak,
Oyoqlaring xuddi terak,
Ko'zlarling bor – yulduz, chiroq,
Manzilga etkaz ertaroq.

4360 Ot chopganda arning betini qazgansan,
Barchin uchun Qalmoq poygadan o'zgansan,
Qalmoq tulporini cho'llarda cho'zgansan,
Qalmoq tablasida yotib ozgansan,
Qalmoq qal'asini oxir buzgansan,
Dushman bo'lsa, o'pka-bag'rin ezgansan,
Alqor elni olti marta kezgansan,
Alqor eldan oring olgan tulporsan.

Qalmoqning tablasini buzib kelgansan,
Chohda ahvolimdan xabar olgansan,
Abrashin dumingni chohga solgansan,
Qora zindondan meni sug‘urib olgansan,
Qalmoq boshiga qiyomat kun solgansan,
Qalmoq eldan sovg‘a olgan tulporsan.

217

Ikkimiz ham kelyapmiz Qalmoq elidan,
Birpasda o'tkazgin Dabriz cho'lidan,
Oshib ketaylik Dabriz tog'ning belidan,
Bir xabar olaylik Boybo'rining holidan.

Oqdaryoga tashlab qora norini,
Ko'zima bir ko'rsat Jonadilning shahrini,
O'lmay ko'rsam boy otam Boybo'rini,
Kuntug'mishday onamning dorini.

4380 Ketayotir keng Dabrizning cho‘liga,
Bir faslda chiqdi tog‘ning beliga,
Kun chalsa tog‘larning g‘o‘rim toshiga,
Oltin sadoq Alpomish yonboshiga,
Boychiborning abjush nahali tarqilab,

-
- Mehtarini qistirgan oltin egarning,
Chiqib bordi Alpomish Dabriz tog‘ining boshiga.
Tog‘larning boshi qovdan,
Botir yigit qaytmaydi yovdan,
Oshib ketdi Dabriz tog‘[i]dan.
- 4390 O‘tib ketdi yetti yillar,
O‘ldiga qo‘sghan ellar,
Bo‘ston bo‘lib yotar cho‘llar,
Ko‘ziga ko‘rindi Alpon ko‘llar.
- Bolalikda o‘sigan joylar,
Cho‘llar joylagan boylar,
Alpomishga ko‘rinadi
Cho‘lda o‘tblab yotgan qo‘ylar.
- 4400 Sahro, cho‘l bo‘lib biyobonlar,
Ko‘ngil yugurdi har yonlar,
Cho‘lda yotibdi cho‘ponlar.
Borayotir Qo‘ng‘irot elning mergani,
Yeti yildan beri yo‘q ko‘rgani,
Oybarchinoy bilan bir yil suhbat qurgani,
Alpomishga ko‘rinadi g‘uborsib,
O‘tapirning baland-pasti, qo‘rg‘oni.
- 4410 Ochilibdi turli gulning lolasi,
Oybarchinning davrida qolgan cholasi,
Etim qolgan Yodgorday bolasi,
Ko‘rinadi Alpomishga lovullab
O‘tapirda poytaxting qal’asi.
- Ot chopsy, gumburlar tog‘ning darasi,
Olis bo‘lgan Qalmoq yurtning orasi,
Borayotir Barchinoyning to‘rasi,
Qaldirg‘ochning emishgan shirxo‘rasi.
- O‘tib ketgan necha yoz, necha qish,
O‘ldi, deb ketibdi xili-xeshi,
Ko‘chini cholib qolgan Barchin bibishi,
Mingani arg‘umoq tulpor pirog‘i,

4420

Tosh bo‘lsa qirqquday yashin, yarog‘i.
Qalmoqdan kelmagan borliq daragi,
Boybo‘rining endi yonar chirog‘i.

Endi, Alpomish tug‘ilgan joylarining har tomonini ko‘rib, yuragi lorsillab urib, Boychibor otni surib, bir tepalikka chiqib qaradi. Katta bir suruv qo‘yni ko‘rdi. Boychiborni yo‘ldan burdi, sekin qo‘ylarga chiqib bordi. Xo‘p qo‘ylarni tomosha qilib qaradi, qo‘ylar olti yashar, yetti yashar, besh yashar, bir xillari to‘rt yashar bo‘lgan qo‘ylar edi.

“Bu qo‘y, Qo‘ng‘irotning qaysi boyining qo‘yi ekan, bir so‘rayin”, – deb cho‘ponni qaradi. Qo‘yning bu tomoniga o‘tdi, cho‘pon yo‘q, u tomoniga o‘tdi, cho‘pon yo‘q, shu tomoniga o‘tib qarasa, bir cho‘pon uxbab yotibdi. Soqoli to‘shiga tushgan, uxbab, qobog‘i shishgan, haddan juda oshgan bu cho‘ponning o‘zi zo‘r edi. Otini Toshpo‘lat cho‘pon der edilar, buning o‘zi ham, birovga aytgan so‘zi ham qo‘pol edi.

Alpomish otni do‘ndirib, ustidan bordi. Alpomishning shovuriga, tulporning dobiriga uyg‘onmadidi. Boychiborning bir dupurida etmish otning dupuri bor edi. Alpomishning oldidan kelayotgan yo‘lovchi-o‘tkinchilar Boychiborning dobirini eshitar edi, bu cho‘pon hech uyg‘onmadidi. Alpomish hayron bo‘ldi. Alpomish cho‘ponni uyg‘otishga majbur bo‘ldi.

– Cho‘pon, – deb qichqiraverdi, uyquda yotgan cho‘ponning yuragi g‘olt urdi, cho‘pon irg‘ib turdi, atrof-boshga qaradi. Hakimbekni ko‘rdi, sipohi otliqqa o‘xshaydi. Cho‘pon o‘yladi: “Bu cho‘lda sanoqchi, zakotchi yurar edi, shunday otliqmikan”, deb turdi. Alpomish cho‘ponga qarab, qo‘ylarni so‘rab turibdi:

Tog‘larning qori tarma,
Cho‘lda yurgan cho‘pon xorma,
Bir o‘zingmi shu qo‘yga,
Qo‘shqo‘ton chovkaring ham bormi?

4430

O‘n to‘rtda to‘lgan oylaring,
O‘t ekan yurgan joylarining,
Shu vaqt kelgandan xuylaring
To‘qson boshli bo‘lib ketganday,
Oq bo‘zarda uylaring,
O‘n to‘rt bovli chiylaring.
Shaharda chang chiqadi,

219

4440

Bormi ko‘pkari to‘ylaring?
 Xos ko‘pmi, sipo boylaring,
 Kimniki boqqan qo‘ylaring?

Bu yil o‘t ekan cho‘llaring,
 Mastmi Qo‘ng‘irot ellaring?
 Xotirjammi yillaring,
 Kimniki boqqan mollaring?

Chorvador xalqsiz barilaring,
 Bu yil o‘t ekan joylaring,
 Shu vaqt kim zo‘rlaring,
 O‘t ekan cho‘lu tog‘laring,
 Shu vaqt gullagan chog‘laring,
 Shu vaqt kim beklaring?

4450

Etaging belga cholasan,
 Tayog‘ing qo‘lga olasan,
 Kimning cho‘poni bo‘lsan,
 Oq ayilning to‘g‘asi,
 Sovut to‘nning tog‘asi,
 Kimdir qo‘ylarning egasi?

Cho‘pon Alpomishga qarab turdi, o‘yladi: “Bu zakotchi yo sanoq-chi”, joyidan turdi, sallasini bir qoqib o‘radi, tayog‘ini erdan olib, ko‘kragiga tiradi, oyog‘ini tayoqdan bir aylantirib o‘radi, Toshpo‘lat cho‘pon Alpomishga endi gap beradi:

Qo‘ylarga buncha qarading,
 Egasini mendan so‘rading,
 Shirqillab uchadi torchi,
 Qishloqlarda chopar, jarchi,
 Sen o‘zing kim bo‘lsan,
 Zakotchimisan, sanoqchi?

4460

Cho‘pon gapingga yurmaydi,
 Bu qo‘ylarning egasi
 Birovga zakot bermaydi,

Agar zakot ber, deb kelsa,
Qulog‘ining tubiga tayoq sermaydi.

4470

Bu qo‘ylardan zakot olish
Kelmaydi sening qo‘lingdan,
Qolmay haydayver yo‘lingdan.
Borday ko‘nglining egrisi,
Shumi yo‘lingning to‘g‘risi,
Bu cho‘llarda ko‘p yuradi
Senday sipohi o‘g‘risi.

Sitam qildi gapning kori,
Bu qo‘ylarni so‘rasang,
Qo‘ng‘irotday elning zo‘ri.
Boj, zakotni o‘zi olar,
Ikki yillardan beri.
Bu cho‘llarda ko‘p yuradi,
Senday sipohi poraxo‘ri.

Alpomishga cho‘ponning gapi juda botdi. Alpomish aytdi:

221

– Hoy, cho‘pon, nimaga gapni to‘g‘ri gapirmaysan, tog‘larning boshi qoyib, bu gaping juda ajoyib, cho‘pondan qo‘yni so‘rasa, dahmarda bo‘ladi-mi ayb, ketib qolma gapingdan toyib, bu qo‘ylarga aslida kim sohib?

Cho‘pon Alpomishga qarasa, ko‘zi lovullab yonyapti. Toshpo‘lat cho‘pon o‘yladi: “Bu zakotchi ham emas ekan, sanoqchi ham emas ekan, noib ham emas ekan, bu cho‘llarda savdogarlarning yo‘lini to‘sib yurgan olomonga o‘xshaydi. Bu qo‘pol gapni nima biladi. Men qo‘pol gapirib yubordim, bu ko‘zi lovullab turgan olomon-da, tag‘in biror nar-sa qilib qo‘ymasin, to‘g‘rimni ayta qolay, bo‘lmasa”. Bu qo‘ylar Boy-bo‘riboyning o‘g‘li Alpomishning qo‘yi edi. Ultontoz bek bo‘lib, Boy-bo‘rining qo‘lidan tortib olib, o‘zining nomiga o‘tkazgan, Toshpo‘latni cho‘pon qilgan edi. Endi Toshpo‘lat Alpomishga qarab:

– Qo‘yning daragini men aytayin, sen qulqoq sol, – deyapti:

4480

Uch kun bo‘ldi, boshlanib yotibdi to‘ylari,
Boj, zakotni beradi Qo‘ng‘irotning boylari,
Mol so‘rasang, Sultonbekning qo‘ylari.
Ota-boboning qoidasi,
Shudir gapning odasi,

To‘qqiz to‘qayga sig‘maydi
Sarman chol boqqan podasi.
Molni so‘rasang, Sultonbekniki.

4490

Bahorda ochilar gulning lolasi,
O‘tapirdir poytaxti, qal’asi,
Sakkiz yuz bor qirq sarbon boqqan galasi,
Bu tuyalarini so‘rasang, Sultonbekniki.

Adirni qidirib kezadi,
Yovvoyi jondorning tulkisi,
O‘tapirda bo‘lib yotar
To‘y-tomashta, o‘yin-kulgisi,
Alpon ko‘lga sig‘maydi
Qultoy chol boqqan otlar galasi,
Bu yilqini so‘rasang, Sultonbekniki.

Alpomish o‘ylanib, hayron qoldi. Alpomish aytdi:

- Hoy, cho‘pon, Sultonbek deganlaring kim? Cho‘pon aytdi:
– Nomini eshitganing yo‘qmi?

Qo‘ng‘irot xalqlarining xoni Jonadil O‘tapir poytaxtining egasi. Alpomishning yuragi birdan g‘alt urdi-da, “Yo‘lda eshitgan gaplarimning bari chinga o‘xshaydi”, dedi. Cho‘ponga:

- Uka, shu gaplarining rostmi-yolg‘onmi? – dedi. Cho‘pon aytdi:
- Ha, rost, ishonmasang, borib ko‘ra qol. Alpomish:
- Qatorda nor edi, o‘zi oshkor zo‘r edi, gurkiragan sher edi, og‘iz solgan ajdarho edi, biz ko‘rganda Qo‘ng‘irotning xonini Hakimbek der edi, qizil gullar oftob bo‘lmay so‘lganmi, shu gaplarining chinmi-yolg‘onmi, Alpomish beklaring shu vaqtarda o‘lganmi, Sultonbek degan beklaring yaqinda bek bo‘lganmi? – dedi. Toshpo‘lat cho‘pon Alpomishning gapi ga javob beryapti:

4500

Tog‘larning betini tuman chalganda,
Yo‘lovchi, senga aytmayman yolg‘ondan.
Sen so‘ragan Alpomish Qalmoqda o‘lgandi,
Zindonning tubida qolgandi.

U ham vaqtida bek edi,
Qo‘ng‘irotlarning eliga,

Beklikni ovlar edi,
Alponning katta ko‘liga.
O‘lib ketdi Alpomish,
Qalmoqlarning qo‘lida,
O‘lib ketdi zindonda,
Borib Chilbir cho‘liga.

- 4510 Nasibani haydab o‘nda,
Alpomish yo‘qdir zinda,
Yetti yildan bermagan,
O‘ldi Qalmoqda zindonda.

Eri gan tog‘ning qori,
Aniq bo‘ldi xabari,
Ikki yillardan beri,
Sultonbek elning zo‘ri.

- 4520 Elning bari og‘ziga qaradi,
Chorvador xalqlar boj-zakotin beradi,
O‘tapir qal’ani yakka so‘radi,
Alpomish o‘lib ketdi,
Borib Qalmoqqa
Uch kun bo‘ldi to‘y qildi,
Oybarchinni olmoqqa.

223

Har kuni so‘yadi semiz qo‘yini,
Butun chaqirgan chorvalarning boshini.
Uch kun bo‘ldi boshlab yubordi,
Oybarchinning to‘yini,
Tomosha bo‘lib yotar o‘yini.

Alpomish cho‘pondan bu gapni eshitgandan keyin yuragi shoshib, dardi dardga ulashib, g‘ayratib toshib, Boychiborga ikki qamchi urdi. “Sabil, shu Oybarchinning to‘yining ustiga tez etkaz, bir to‘yni ko‘rib qolayin, tezroq borib qolayin”, deb oq gaza chegarasiga ot ni burib yubordi. Qamchining zahri Chiborga o‘tdi, to‘liqsib cho‘lga kirdi, bir-pasda ko‘k gazaning ustiga etdi. Alpomish atrof boshga bir qaradi. Ko‘p tuyani ko‘rdi. Erdan ko‘karibdi turli giyohlar, cho‘lni bosib yotar bo‘ta, mevalar, baxmal chodir tikilgan, qirqtacha sarbon bola o‘ynab yotibdi,

“Qaramon tayoq”, “Telpak-kallapo’sh”, “Chilimkes” degan o‘yinlarni o‘ynab yotibdi. Tuyalar har tomonga tirqirab to‘zib ketgan.

Endi Boybo‘rining ahvoldidan xabardor qilamiz. Ultontoz Boybo‘rining qo‘lidagi mol-mulkni tortib olgan edi. Boybo‘ri chetlab qolgan edi. Gapga, gurungga qo‘shilmay yurgan edi. Hurmatlagan kishi borib ko‘rishar edi. Ko‘zidan nuri qochib qolgan, odam kim ekanligini tanimas edi. “Sen kimning o‘g‘li”, deb so‘rab tanir edi. U otasini, bobosini aytsa, yaxshi tanib, rahmat aytardi. Bir kuni birov kelib ko‘rishib:

– Boybo‘ri bobo, to‘yga bormay yuribsizmi? – dedi. Boybo‘ri aytdi:

– Qanday to‘y, kimning to‘yi? Boybo‘riga:

– Hali xabaringiz yo‘qmi? Sultonbek to‘y qilib yotibdi-ku hozir.

Ovul-ovullarga chaqiruvchi yubordi-ku. Chaqiruvchilar hamma xalqqa: “O‘tapirga Sultonbekning to‘yiga boraveringlar”, dedi. Uch kun bo‘ldi-ku. Sultonbekning ko‘nglida bir o‘yi bor, elga beradigan qirq kunlik to‘yi bor. Har kuni so‘yishga besh yuzdan qo‘yi bor. “Ikki vaqt oshingni, bir vaqt go‘shtingni eb, ko‘pkari, olish, tomoshangni ko‘raver”, deb qich-qirdi-ku. El to‘p-to‘p, kun ko‘p ketyapti-ku. Ba’zi xalqlar: “Alpomish o‘lib ketdi-da borib Qalmoqqa, Sultonbek to‘y qilibda Oybarchinni olmoqqa”, dedi. Keliningizni olish uchun to‘y kelayotgan emish, siz es-hitgan bo‘lmasangiz, – dedi.

Boybo‘rining og‘ziga gap kelmasa ham, qo‘lidan bir ish kelmasa ham, qulog‘i eshitib, qursog‘i qaynab ketdi. Dovdirab, joyidan turib jo‘nab qo‘ya berdi. O‘tapirga etib bordi. Butun xalqlar yig‘ilishib, qo‘ylar so‘yilib, qozon qo‘yilib, chodirlar tikilib, tamlik suqilib, qoziq qoqilib, otlar boqilib, har xil o‘yin, tomosha bo‘lib yotibdi. Boybo‘rining birdan rangi so‘lib, yuragi g‘amga to‘lib, O‘tapirning poytaxtiga chiqib bordi. Ultontoz to‘y bakovullari, o‘zining xizmatkor odamlari bilan chaq-chaq qilib, Alpomishning taxtida o‘tiribdi. Boybo‘ri Ulton-tozning ro‘parasidan borib qichqirib turibdi:

4530

Qatorimdan uzilib qolgan qora nor,
Qalmoq eldan bo‘lmadi biror xabar,
Qulq solsang bu so‘zima, arzim bor.
Bugun mening bu dardima darmon yo‘q,
Bu yurganim menga ozmi ochi-to‘q,
Qulq solgin arzim bordir, Sultonbek.

Endi o‘yilsin-da yakka ko‘zim,
Shuning uchun keldim-da senga o‘zim,

4540

Bu gapimga qulq solishing lozim.
Rang-ro'yimni sarg'aytirib so'ldirma,
Yuragimni qayg'u-g'amga to'ldirma,
Boybo'rini bugun buytib o'ldirma.

Qalmoq shunqor bo'lib tepdi belimdan,
Ayrilganim ozmi yo'lbars o'g'limdan,
Birov xabardor bo'ljadi bugun holimdan.
Boshimni qora tumanlar chalibdi,
Bu boshima qiyomat kun bo'libdi,
Nega to'yga, deb bunda hamma kelibdi,
Yo'lbarsimdan Oybarchinoy qolibdi.

4550

O'tkazdi-da butun yetti yilini,
Yetti yashar qildi sag'ir o'g'lini,
To'yga, deb yig'ibsan Qo'ng'irot elini,
Sindirmagin Boybo'rining belini.

Oybarchinoyni qo'ygin o'z hushiga,
Qorong'u, zulmat kun solma boshiga,
Yara solma so'ng yurakning go'shtiga,
Ko'nib o'tiribdi Qalmoq ishiga.
Lovdon ko'ylaklari motam ko'k bo'lib,
Yo'lbarsdan qolib jo'rabsoshi toq bo'lib,
Shunday ishni qilasanmi bek bo'lib?

225

Boybo'ri yurak-bag'rini ezib arz qildi. Asli arziga Ultontoz qulq solmadi, "nima deyapsan", ham demadi. Uchta xizmatkoriga aytidi:

– Shu uying kuygur Boybo'rini darvozadan chiqarib, ko'chaga hay-dab yubor.

Uchtasi joyidan turib, Boybo'rining yoqasidan tortib sudradi.

– He, uying kuygur, yuz gapni Ultontoz bir tiyinga olmaydi-ku, nima qilasan bu erda? Alpomishing Qalmoqqa ketgan bo'lsa, endi davring o'tgan bo'lsa, – deb yoqasidan sudrab chiqardi. Darvozabonga aytidi:

– Nima uchun Boybo'rini bekning oldiga qo'yib yubording? Boy-bo'rini darvozadan kirgizmay, haydab yuborasan.

Endi Boybo'ri qayoqqa yurarini bilmasdan. to'yxonaga oralay ber-di. To'yga kelgan Qo'ng'irot ellar Boybo'riga qaradi. Xalqqa; "Ahvolim qanday bo'ldi", deb yig'lab boradi. Har chodirning oldiga borib, Qo'ng'irot eliga arz qilib, yig'lab turibdi:

- 4560 Ahvolim ko‘r, qavmi elim,
 Boybo‘riga bo‘lsin o‘lim,
 Bu ahvolim hammaga ma’lum,
 Attang, Qalmoq eldan kelmadi
 Mulla Hakimday yo‘lbars o‘g‘lim,
 Bugun qoldi menga zulm,
 Tortib oldi moli-pulim,
 Bir hisobga o‘gay o‘g‘lim.
- 4570 Sadqa bo‘lay qavmi elim,
 Qanday bo‘ldi bugun holim,
 Gapima quloq solmadi,
 Qalmoqdan yo‘lbars kelmadi,
 Boybo‘ri nega o‘lmadi,
 Tinglamadi so‘zimni,
 Termultirdi ikki ko‘zimni,
 Urib-urib chiqarib yubordi
 Darvozadan o‘zimni.
- 4580 Endi ahvolim qalaydi[r],
 Manglayimdan kim silaydi,
 Izza o‘tibdi qosh-qovoqqa,
 O‘ziga o‘lim tilaydi,
 Xalqning ichini oralab,
 Qo‘ng‘irot eliga yig‘laydi.
- Boybo‘rining qilgan zori,
 Eshitdi elning bari,
 Yetti yillardan bermag‘on
 Kelmagan Hakimday zo‘ri,
 Yetim o‘g‘il, qolib ketgan Barchin yori.

Boybo‘ri xalqqa ahvolini aytib yig‘laganiga Qo‘ng‘irot eli toqat qilolmayapti. Beshtasi, o‘ntasi birikib, Ultontozga borib:

– Boybo‘rini bunday yig‘latib qo‘yma, qo‘y bu ishingni, – deyin desa, Ultontoz gapga quloq solmaydi. Hech qanday gapni olmaydi. Qayta bularni so‘kib, haydab yuboradi. Shuni xalq bilib, “Endi har kim o‘z-o‘zini ko‘rari qilamiz”, dedi. Hammasi o‘z-o‘zi otlanib, “bun-

day ham to'y bo'ladimi", deb ketyapti. Bu to'yning bakovuli bor edi. Jo'raboy der edi. Qancha to'yga ketadigan ozuqa shuning qo'lidan o'tar edi. Devonbegi Jo'raboy qarasa, el to'zib ketyapti. Jo'raboy otiga minib, haydab qo'l berdi. Ultontozning oldiga bordi:

- To'yimiz bo'lmasdi. Xalqlar tarqab ketibdi, – dedi. Ultontoz aydi:
– Nima uchun?

– Boybo'ri borib, xalqning ichiga oralab: "Ahmoq bo'lib nima uchun keldilaring. Men Ultontozning aytgan so'ziga yurmayman, Oybarchin kelinimni bermayman, uning so'ziga kirmayman ham, to'y qildirmayman", – deb to'yni tarqatib yubordi. "To'y bo'lmasa, nima qilamiz", deb ketib qoldi-ku.

Darg'azab bo'lib, Ultontoz joyidan turib, atrof-boshga qarab, uchta xizmatkorga aytdi:

– O'zi nima gap, tez-tez chop, uying kuygur Boybo'rini darrov top, tortib qo'lini bog'la, kallasiga qamchi tashla. Cho'lga qaratib hayda, elanganiga qo'yma sira hushiga, arqon botib ketsin bilagining go'shti-ga, haydab chiq Jonadilning dashtiga, olib borib topshir Ko'kgazadagi darg'a boshiga.

Sakkiz yuz tuyani qirqta sarbon boqar edi. Qirqta sarbonning ustidan rahbarlik qiladigan kishini darg'aboshi der edi. Xizmatkorlarga aytdi:

– Shu darg'aboshiga topshirib shunday deysan: Sultonbek sizga Boybo'ri cholni yubordi. Qirq kunga qator tuya boqtirar ekansiz.

Uchta xizmatkor Boybo'rini haydab, Ko'kgazadagi tuyalarga yaqinlashaverdi. Shu tuyaning ichida bitta tuya bor edi. Uning nomini Ko'kalcha, der edi. Ko'kalchaning enasini Oqayri der edi. Boybo'ri shu Oqayri tuyani qozoqlardan olgan edi. Alpomish shu yili onasining bo'yiga homila bo'lgan edi. Boybo'ri Oqayri tuyani vaqtida aziz tutib yurar edi. "Davlatboshi bo'lding menga", deb yaxshi ko'rар edi. Shu ayri tuya uch, to'rt bo'ta tuqqandan keyin, bir bo'tani tug'olmasdan o'lgan edi. Ichini yorib, bo'tasini olgan edi. Ko'rsa, bo'ta tirik ekan. Alpomish yosh bola edi. Alpomishni Boybo'ri chaqirib: "O'g'lim, jonus dilim, shu bo'tani senga atab berdim, sut berib, katta qilib olasan", degan edi. Alpomish bo'tani enasining oldiga ko'tarib borib:

– Ena, shu bo'tani otam o'zimga ataylab berdi. Enasi o'ldi, ichidan yorib oldi, enasining sutini emmay qoldi. Ber sutingni, sog'ib bo'tamning og'zidan quyaman, – deb erka o'g'il janjal qilgan edi. Enasi:

– Boshqa tuyalarni sog'ib, katta qilib beraman, – desa ham ko'nmasdan, bir kosa sutini sog'dirib olib, bo'tanining og'zidan quygan edi. Yetim bo'ta emasmi, Alpomishning orqasidan ergashib yurar edi. Shu Ko'gal-

cha gala tuyalarning ichida bor edi. Katta tuya bo‘lib ketgan edi. Shu xizmatkorlar Boybo‘rini haydab kelayotganini ko‘rib, bo‘zlab, oldiga chiqib bordi. Boybo‘ri:

– Ey jonivor, sen hali Ko‘galcha tuyamisan? Mulla Hakim yo‘lbar-simning qo‘lida katta bo‘lgan eding. Sen ham bolam, ham bo‘tam, – deb bo‘ynidan quchoqladi. O‘zbek qo‘ng‘iroq xalqi hozir ham yaxshi ko‘rgan kishisini “bo‘tam”, deb gapirodi. Xizmatkorlar qirq sarbonning boshlig‘i darg‘aboshiga qirq kun tuya boqtirasan, deb topshirib, qaytib ketdi. Ko‘galcha Boybo‘rining bu ahvolini ko‘rib, xafa bo‘lib, qizil gullar so‘igan ekan-da, Mulla Hakim yo‘lbars Qalmoqda o‘igan ekan-da, o‘lgani aniq bo‘igan ekan-da, deb yana galaga qo‘shilmasdan, Ko‘ktepaning ustiga chiqib, uch kundan beri suvsiz, och cho‘kib yotgan edi. Sarbonlar:

– Yaxshi bo‘ldi, o‘zimiz qirqta sarbon, Boybo‘riga tuya boqish qirq kun bo‘lsa, har qaysimizning navbatimizni bir-bir kun qaytarar ekan-da, qirqimizning navbatimizni qirq kun qaytarsin, – deb darg‘aboshiga aytgan edi. Darg‘aboshi “bo‘pti”, deb qirq sarbonni bo‘shatib, Boybo‘riga topshirgan edi. Oybarchin ustidagi zid bilan Boybo‘rini tuyaga qo‘ygan edi. Shuning uchun sarbonlar tuyaga bormay, o‘ynashib yotgan edi. Ana endi Alpomish sarbonlarni ko‘rib ham burilmadi, tezroq Oybarchinga etay, deb Ko‘kgazadan enib ketdi. Tulporning dobiri cho‘kib yotgan Ko‘galcha tuyaga etdi. Ko‘galcha irg‘ib turib qarasa, Alpomish Boychibor otga minib, karvon yo‘ldan o‘tayotganiga ko‘zi tushdi. Etim bo‘ta Alpomish qo‘lida katta bo‘lgan, birdan xayoli buzilib, yuragi ezilib, xumor ko‘zidan yoshi tizilib, bo‘yni cho‘zilib, bo‘zlab izidan ergashyapti:

4590

Havo falaklardan bulut enadi,
Xilidan ayrilgan g‘arib so‘nadi,
Etim bir iskasa, mehri qonadi,
Bo‘zlab ketidan Hakimbekning jo‘nadi.

Yo‘lbars egasini izlab,
Jo‘nadi izidan ko‘zlab,
Bo‘ynin cho‘zib, chopar xezlab,
Bo‘tasi o‘lganday bo‘zlab.

Turna izlab kelgan xilni,
O‘tkazibdi yetti yilni,
Alpomish ekanin bildi,

-
- 4600 Ko‘galchaning bo‘zlagan tovushi,
Bo‘ston qilib borar cho‘lni.
- Oq ayil, pushtan tug‘osi,
Sovut, qalqonning jig‘asi,
Bo‘z o‘rdaning bo‘sag‘asi,
Bo‘zlab jo‘naydi Ko‘galcha,
Bugun Qalmoqdan kelibdi,
Ham og‘asi, ham egasi.
- 4610 Olis bo‘lib Qalmoqning orasi,
Borday yurakning yarasi,
Ko‘rinib boryapti qorasi,
Ham egasi, shirxo‘rasi.
- Cho‘lni bo‘ston qilib tovushi,
Ezilib yurakning go‘shti
Bir hisobga Alpomish,
Ko‘galchaning emikdoshi.
- 4620 Bo‘zlaydi bag‘ri kavob,
Etsa, qilmoqchi javob,
Kuntug‘mishdan emgan sutga,
Qaytarmoqchi bo‘lib javob.
- Ko‘galchaning tovushi bo‘zlab etib boradi,
Atrof-boshga Alpomish bo‘ynini cho‘zib qaradi,
Bir tuyu oldini o‘radi,
Ko‘galchani ko‘radi.
- Alpomish hayron bo‘ldi. Bir tuyu yakka o‘zi cho‘lda bo‘zlab ketib boryapti. “Bu tuyaning bo‘tasi bir joyda adashib qolganmi, yo bo‘tasi o‘lganmi? Tuya mol bir erda bo‘tasi o‘lgan bo‘lsa, uch kungacha shu erga bo‘zlab boradi”, deb qo‘ydi. Tuya hech yoqqa ketmasdan yo‘l ustida to‘xtab turdi. Alpomish aytdi:
- Odamxo‘r lo‘k tuyalar bo‘lar edi. Yo‘lda o‘tkinchining oldini olar edi. Bu hayvon o‘zi urg‘ochi tuyu.
- Tuya Alpomishga bo‘ynini cho‘zib, ingillab keldi. Alpomish Boychiborning jilovini tortdi. Kelib, Alpomishning egnidan iskadi. Oldiga o‘tib, Boychiborning bo‘ynidan iskadi. Boychiborning oldiga loppa

cho‘kib yiqlidi. Ko‘zidan yoshi limmo-lim to‘kildi. Alpomishning silasi qotib, o‘ylab, Ko‘galcha bo‘ta esiga keldi. Alpomish: “Ko‘galcha degan etim bo‘tani enamning sutidan berib katta qilgan edim. Ehtimol, shu Ko‘galcha bo‘ta bo‘lsa kerak”, deb esiga tushdi, shuncha yo‘lda o‘tblab yotgan tuyu o‘tdan kallasini ko‘tarmadi. Bu jonivor yurak ezib, ketimdan etib, meni iskab, ham Boychibor tulporni iskab, oldiga yiqlidi. Alpomish o‘ylab turdi. Otdan o‘zini tashlab, Ko‘galchaning bo‘ynidan quchoqlab, bir so‘z deb turibdi:

Bo‘talikda kattarganding qo‘limdan,
Bugun oldim o‘rab chiqding yo‘limdan,
Agar Ko‘galcha bo‘lsang sen, jonivor,
Rozi bo‘ldim senday hayvon molimdan.

Cho‘llarda bo‘zlab bag‘ring kavob,
Boychibor bilan meni kelib qilding tavob,
Kuntug‘mishning sutiga qaytarding javob.

4630

230

Safar yurib kelarman kunduzu kecha,
Cho‘Ini bo‘ston qilding bo‘zlab muncha,
Xizmatimga rozi bo‘ldim, Ko‘galcha.

Alpomish qarab tursa, Ko‘galcha oldiga yiqlibdi, joni gardaniga g‘irqillab tiqilibdi. Alpomish qarasa, Ko‘galcha o‘ladiganga o‘xshaydi. Alpomish aytdi: – Jonivor, yetti yildan beri bugun meni ko‘rib, “egamning qo‘lida o‘lsam”, degan ekansan-da.

Yonidan oltin sadoqni olib, Ko‘galchaning boshini o‘z qo‘li bilan kesdi. Kallasini qo‘liga olib, xafa bo‘lib turdi. Alpomishning bu xafa bo‘lishi Ko‘galchaning o‘lgani uchun emas, tuyalardan bir o‘zi ayrilib, bo‘zlab kelgani uchun. Ko‘galchaning izidan kelayotgan sarbonning tovushi kelyapti. Bu sarbon Boybo‘ri edi. Ko‘galcha bo‘zlab ketgandan keyin sarbon bolalar Boybo‘rini urib: – Bor, Ko‘galchangni qaytarib kel. Bo‘zlab, o‘lgan Alpomishni izlab, Qalmoq eliga qarab boryapti, – degan edi. Boybo‘ri izza bo‘lib, Ko‘galchaga “hay-ha”, deb qichqirib kelyapti:

Davlatim boshimdan toshib,
Qayda borasan, besohib,
Chopyapti yurak kuyib.
O‘lgan egangni izlab,

Bo‘tang o‘lganday bo‘zlab,
Ketdingmi Qalmoqni ko‘zlab.

4640 Hay-ha, deb kelar Boybo‘ri,
 Yetti yillardan beri,
 Qalmoq yurtga borgan bilan,
 Yo‘lbars egang yo‘qdir tiri[k].

Nur qochgan ikki ko‘zidan,
Mador ketdi tuzidan,
Hay-ha! – deb Boybo‘ri,
Tushibdi Ko‘galning izidan.

4650 Qalmoq yurt, bilmam, qaydadi[r],
 Qalmoqda o‘lgan egangdan
 Endi nima foydadi[r]?
 Qaytgin orqangga, Ko‘galcha,
 Meni yig‘latma muncha-yu,

Qaytgil, Ko‘galcha, munda,
Meni qo‘yma bunday kunda.
Qalmoq yurtga borgan bilan.
Yo‘lbars egang yo‘qdir zinda.

231

4660 Boybo‘rining hali qolmaydi,
 Manglaydan kimlar silaydi,
 Izza egan sarbondan,
 O‘ziga o‘lim tilaydi.
 Ko‘galchaning ketidan
 Izg‘in tortib yig‘laydi.
 Ezilib yurakning go‘shti.
 Alpomishga eta berdi,
 Hay-ha! degan tovushi.

Ochilmay gulda lolam, deb,
Davrimda qoldi chalam, deb,
Yetti yillardan bermag‘on,
Ayirding, Olloh taolom, deb.
Besohib qolgan galam, deb,

- 4670 Izg‘in tortib yig‘laydi
Mulla Hakimbek bolam, deb.
Hay-ha! deb tovush beradi.
Ko‘galchani qaytar, deb.
- Sarbon bolalar urib,
Manglayini yoribdi,
Betini qonga qoribdi,
Otasining tovushi,
Hay-ha! – deb etib boribdi.
Toshlar bo‘lib qolgur Alpomishi,
Termulib qarab turibdi.
- 4680

Alqissa, Alpomish Boybo‘rini ko‘rsa, cho‘lda tuya boqib, sarbon bo‘lib yurgan ekan. Otasini bu holida ko‘rib, shunday tinkasi qurib, qanday iloj qilarini bilmadi. O‘zini tanitib, “Men Alpomish”, deb o‘zini ma’lum qilayin desa, ichiga bu gapni sig‘dirolmasdan carbonlarga borib:

– Sarbonlar, endi meni urolmaysan, tuyaga bor, deb surolmaysan, Chibor otini cho‘llarda elib, Alpomish bugun kelgandi, Ultontozing o‘lgandi, sizlarning boshlaringga bir qiyomat kun solgandi, – deb carbonlarga chopib borib aytadi.

– “O‘ttiz tishdan chiqqan so‘z o‘ttiz urug‘ga yoyilib ketadi”, degan gap bor. “Alpomish kelibdi”, degan gap yoyilib ketmasin, hamma hovliqib qolmasin, nima bo‘lsa ham, o‘zimni tanitmay ketayin, vaqtli Oybarchinning to‘yining ustiga etayin, otam ham uch kungacha yaxshi-yomon bir qiyinchilikni o‘tkazadi-da, bir ko‘rishib ketayin, yo‘lda yo‘lovchiday bo‘lib, – dedi. Boybo‘ri yaqinlashib qoldi. Ko‘zi nimkala bo‘lsa ham qora-qura ko‘rinadi. “Ko‘galcha mening tovushimni eshitib, o‘tlab to‘xtab turibdimikan”, deb keldi. Alpomish o‘zini chidamlikka oldi:

– Assalomu alaykum, boybobo, – deb salom berdi. “Bir ko‘rishayin”, deb Boybo‘riga qo‘lini uzatdi. Otasining qo‘lini betiga surtib ko‘rishdi. Boybo‘riga Alpomish bir-ikki og‘iz qichqirib turibdi:

Ul tabalardan bul taba,
Dardingizga kelsin davo,
Bu tuya siznikimi,
Tuyaboqar carbon bobo.

Men o'tkinchi edim shu yo'ldan,
Tuya bo'zlab keldi cho'ldan,
O'tolmay yiqildi shu yo'ldan,
Kasalmidi avvaldan.

4690

Qomati yoyday bukildi,
Torsillab erga yiqildi,
Joni gardaniga tiqildi,
Qaradim tuya o'lguday,
Bu cho'lda beega qolguday.

Ajali etsa o'lsin, deb,
Kimning moli bo'lsa, halol bo'lsin, deb,
Otdan o'zimni tashladim.
Har tomon gaplar o'yladim,
Kallasini olib tashladim.

4700

Xafa bo'lmaysizmi bizdan,
Tuyangizning kallasini
Beso'rov oldim sizdan,
Ko'karibdi turli giyoh,
Halol bo'ldi shu tuya,
Chunki chiqdi yo'limdan,
Kallasini oldim qo'limdan.

233

Boybo'ri o'ylab turdi: "O, o'tkinchi o'g'lim, joni-dilim, tog'ning boshi qor bo'lgan, bu savdolar taqdirimda bor bo'lgan, Ultontoz shu vaqtlar zo'r bo'lgan, ko'zim qurg'ur nimkala ko'r bo'lgan, qulqoq-ku avvaldan kar bo'lgan, bu o'tgan kun menga sir bo'lgan, adashdim yurgan yo'ldan, ixtiyorim ketgan qo'ldan, ayrıldim molu puldan, yetti yillardan beri Mulla Hakimday yo'lbars o'g'ildan, men seni tanimayapman, keliş asli qanday eldan? Agar otdan tushib, kallasini olmaganingda ahvolim chatoq bo'lar edi. Otdan tushib mehnat qilib, kallasini olib, halol qilibsan, kim bo'lsang, o'g'lim, men roziman", dedi.

Alpomish Boychiborning beliga minib:

- Biz ham uzoq yo'lga ketyapmiz, bir duo bering, – dedi. Boybo'ri:
- Ol, oldirma, to'l, to'kilma, safaring bexatar bo'lsin, qayda bo'lsang, omon bo'l, obro'li bo'l, – deb duo berdi.

– Boybobo, tuyangizning kallasi mana, – deb qo‘liga berdi. Boychiborga ikki qamchi urib, cho‘lga ravona bo‘ldi. Ko‘rinmay ketguncha orqasiga qaray-qaray ketdi. Alpomish baland tepaga chiqib, Boychibor ni qashintirdi. Boychibor har tomonga eligib qaradi. Alpon ko‘Ining ustidan boribdi. Boychibor shu ko‘lda onasidan tug‘ilgan edi.

Alpomishning yilqisi shu ko‘lda yotar edi. Qultoy bobo yilqini bo‘qib, shu Alpon ko‘lda yurar edi. Boychibor tug‘ilgan joyini ko‘rgandan keyin onasi esiga tushdi. Alpomish Qalmoqqa minib ketayotganda onasi yilqining ichidan chiqib, Boychiborning orqasidan ergashib, shu tepaning ustida kishnab, qarab qolgan edi. Boychibor: “Yetti yil Qalmoq tablasida yotib, Qalmoqdan o‘lmay bu tug‘ilgan joyimga keldimu, lekin hali onam bormi yoki o‘lib ketganmikan”, deb uch marotaba kishnadi, oyog‘ini erga tiradi. Alpomish Boychiborga qarasa, yuragi ezilib, holi ketib, xafa bo‘lib kishnayapti. To‘pning tovushiday Boychiborning tovushi gurkirab Alpon ko‘liga eta berdi. Qultoy bobo yilqini kunduzi cho‘lga haydab ketar edi. Kechasi ko‘lga olib kelib tashlar edi. Boychiborning onasi yilqining ichida hali ham bor edi. Lekin qarib qolgan edi. Ich-ichiga qopishib, yolları eshilib, aqli sochilib, poyları g‘urum bo‘lib qo‘shilib, iyiquqlari teshilib, qarib qolgan edi. Uch kun bo‘lgan edi yilqilarga ergasholmay, ko‘lda qolib ketganiga. Qultoy bobo bu yilqining ko‘lda uch kundan beri qolib ketganidan xavotirda edi. Bugun yilqini ko‘ldan chiqarib, cho‘lda haydayotganida yana qoldi. Qultoy boboning Jilovdor degan o‘g‘li bor edi. Qultoy boboning yonida yurar edi. Jilovdorni Qultoy bobo yoniga chaqirib oldi:

– O‘g‘lim, yilqini cho‘lda men o‘zim boqib kelaman, sen bugun shu yilqiga xabardor bo‘lib qol. Mabodo chuqur-puqurga yiqilib, bo‘yni ostiga qayrilib, xarom o‘lib qolmasin, yiqilsa, kallasini ol, – deb tayin qildi. Jilovdor aytdi:

– Harom o‘lsa, o‘lavversin-da, badanida bir tishlam go‘shti yo‘q. Qultoy bobo:

– Go‘shti bilan ishing bo‘lmasin, bu yilqining qadrini sen bilmaysan. Bu yilqining qadrini men bilaman, Boybo‘ri bobo biladi. Bu jonivor tulpor tuqqan. Buning tuqqan tulporini Alpomish Qalmoq eliga minib ketib, yetti yildan beri bor-yo‘qligi, och-to‘qligi, o‘lik-tirikligi ma’lum bo‘lmay ketdi. Agar shuning harom o‘lganini Boybo‘ri eshitsa, o‘g‘li ning Qalmoqdan kelmaganligi alamidan bu ziyodroq bo‘ladi, – deb tayog‘ini qo‘liga olib, yilqini cho‘lga haydab ketdi. Boychiborning onasi ko‘Ining chetiga chiqib:

— O‘layin, o‘lsam ham, yilqilarning izidan o‘layin, — deb jo‘nagan edi.
Bir arnadan irg‘ib o‘taman, deb bir oyog‘i zovurga tiqilib, ko‘ndalang
bo‘lib yiqilib, go‘yoki joni gardaniga tiqilib, zovur nurab, ahvoli xarob,
turolmay, tumshug‘ini erga tirab yotgan edi. Shu cho‘ldan ko‘lga Boy-
chiborning ovozi gurkirab kela berdi. Boychiborning onasi quloq solsa,
sutini emib kattargan tulporning ovozi. Endi tulporning ovozini eshitib
turish uchun talpinib harakat qilyapti.

Ovozi bo‘ston qilib cho‘lni,
Ovozi etib keldi,
Yotib turib enasi
Ovoziga quloq soldi,
Boychiborligini bildi.

4710

Talpindi yotgan joydan,
Oyog‘ini tortar loydan,
Yetti yillardan bermag‘on,
Ayrilgan tulpor toydan.

Ochilsin gulning lolasi,
Kelayotir Alpon ko‘lga,
Sut emgan tulpor bolasi,
Ezilib yurakning go‘shti,
Yaqinlayapti tovushi.

235

4720 Qora ko‘zdan qonli yosh
Qator-qator eshilib,
Qalmoq elga ketgandi,
Bag‘ridan chiqib sochilib.

Qalmoqqa ketgan tulpordan,
Ovozini eshitib birdan,
Talpindi yotgan erdan,
Oyog‘ini sug‘urib zovurdan.

4730 Irg‘ib joyidan turadi,
Har tomonga silkinib qaradi,
Hayvon ham bo‘lsa onadir,
Birdan Alpon ko‘lidan,
Chirillab, kishnab jo‘nadi.

-
- Tosh emranar dodiga,
Jo‘nadi tulpor otiga,
Boychibor uchun emchagi
Norday bo‘lib to‘ldi sutiga.
- Kishnayotir chirqirab,
Ikki emchakdan oqqan sut,
Ketayotir tirqirab,
Boychiborning ovozi,
Kelayotir gurkirab,
Irg‘iyotir enasi
Har zovurdan sakrab.
- Emchagi to‘lib sutiga,
Chiqdi Alpon ko‘lning chetiga,
Safar qilgan uzoq yo‘ldan,
Obro‘y olgan Qalmoq eldan,
Enasidan ayrilganiga,
Oshayozgan yetti yildan.
- Quloq salsa Boychibor,
Enasining tovushi,
Chinqirib chiqadi ko‘ldan,
Boychibor Qalmoqdan kelishi,
Ezilganday yurak go‘sh[tl]i,
Boychiborga boryapti,
Ko‘lda kishnagan tovushi.
- Boychiborning yuragi toshdi,
Ko‘ldan eshitib tovushni,
Alpomishni olib qochdi,
Baland tog‘ning bastidan,
Gap keladi payvastidan,
Enaverdi Boychibor
Alpon ko‘lning ustidan.
- Charx urib o‘z boshiga,
Yaltiratib chiqdi enasi,

4770

Alpon ko‘lning dashtiga,
Enasini ko‘rib Boychibor,
Bo‘ynini yerga tashlab
Erkalab o‘z boshiga,
Enasi yetdi qoshiga,
O‘qranib Chiborni
Torta berdi to‘shiga.

Baland tog‘ning bag‘riga,
Boychibor o‘z ovriga,
O‘qranib enasi
Torta berdi bag‘riga.

Alpomish Alpon ko‘lining ustiga kelib, Boychibor lo‘qsib jo‘naganda tushib qolgan edi. Alpon ko‘lining ustidan kelib qarasa, Boychibor enasini emyapti. Enasining emchagi Boychibor uchun moyday bo‘lib sutga to‘libdi. Toylikdan emgan suti esidan chiqmabdi. Enasining emchagini so‘ryapti. Alpomish Boychiborni ko‘ryapti. Boychiborga Alpomish bir-ikki og‘iz qichqiryapti:

237

4780

Oq darada qolib ketdi sakson nor,
Bilmam, ulardan bo‘lmadi xabar,
Enang esga tushib, kishnading xunu jigar,
Tort og‘zingni emchakdan, Boychibor.
Qalmoq eldan minib keldim senday otni,
Dunyoda yo‘q ekan menday mehri qattiq.
Sen enangdan kelib emding oq sutni,
Men ham edim Boybo‘rining farzandi,
Tort og‘zingni emchakdan, Boychibor.

4790

Mening uchun yig‘lab otam,
Cho‘llarda g‘arib kavob,
Otdan tashlab, Boybo‘rini qilmadim tavob,
Xizmatiga qaytarolmabman javob,
Tort emchakdan og‘zingni, Boychibor.

Otam sarbon bo‘lib, cho‘llarda boqib tuya,
Mening uchun yig‘lagan yuragi kuya-kuya.
Boybo‘rining mehnatini qildim zoya,

Boybo‘riga meni qilma yuzi siyo,
Tort og‘zingni emchakdan, Boychibor.

4800

Boybo‘riga sarg‘aytding-da yuzimni,
Tanitmadim Alpomish deb o‘zimni,
Alpon ko‘lda termultmagin ko‘zimni,
Alpomishga bugun o‘lim lozimdir,
Tort og‘zingni emchakdan, Boychibor.

Ko‘rmaganimga ketgan ekan yetti yil bo‘lib,
Tuya boqib yurgan ekan, makoni cho‘l bo‘lib,
Men otamga tanitmabman yolg‘iz o‘g‘il bo‘lib,
Tort og‘zingni emchakdan, Boychibor.

Qizil gulday g‘amda g‘oyib bo‘lmadim,
Men otamga sen hayvoncha bo‘lmadim,
Qalmoq zindonida nega o‘lmadim,
Tort emchakdan og‘zingni, Boychibor.

4810

Bugun fido qilma sabil jonimni,
Boybo‘riga aytmadim-da men chinimni,
Quchoqlab o‘pmadim otajonimni,
Tort og‘zingni emchakdan-ey, Boychibor.

Bul o‘rnimga Ultontoz bekikan,
Oybarchinning jo‘raboshi toqmikan,
Mening otam sening onangcha yo‘qmikan,
Tort og‘zingni emchakdan-ey, Boychibor.

4820

Qo‘ng‘irot elda shovqin-dovruq bo‘lmasin,
Ikkimizning Alpon ko‘lga
Kelganimizni hech kim bilmisin,
Tort og‘zingni emchakdan, Boychibor.

Alpomish Boychiborning enasini emayotganini ko‘rgandan so‘ng,
o‘zini otasiga tanitmay o‘tganiga xafa bo‘ldi. Qultoy bobo cho‘lda
yilqi boqib yurgan edi. Boychiborning enasi uchun guldirab kishnagani
cho‘ldagi Qultoy boboga borgan edi. Qultoy bobo Boychiborning Al-
pon ko‘lda kishnayotganini ovozidan tanib, yilqilarning sag‘risiga suruq

tashlab, yilqilarni to‘da qilib surib kelayotgan edi. Ustida Alpomish kel-gan-kelmagani ma’lum emas edi. Qultoy chol yaqinlashgan vaqt edi, Alpomishning Boychiborga qichqirgan tovushi sher bolaning tovushiday Qultoy boboga bordi. Alpomishning tovushini eshitib Qultoy bobo: “Ana, yo‘lbarsim Qalmoqdan kelib qolganga o‘xshaydi”, deb otdan ham o‘zini otib tashlab, mehtarni ham otib yuborib, “yo‘lbarsim”, deb chopib qo‘ya berdi. Alpomish qarasa, Alpon ko‘l yilqiga g‘irqillab to‘lib qoldi, Qultoy bobo Alpon ko‘l ustidan lapanglab yugurib kelayotibdi. Alpomish Qultoy boboni ko‘rib, irg‘ib joyidan turib: “Qadrdon bobom, hali ham yilqida bor ekan”, deb jo‘nay berdi. “Boybo‘ri otamga o‘zimni tanitganim yo‘q edim, Qultoy bobo ishonarli odamim”, deb bora berdi:

O‘l tabodan bul tabom, deb,
Siz dardima davom, deb,
O‘lmay zinda ko‘rdim-da,
Qadrdon Qultoy bobom, deb.

Oftob cholganday boshiga,
Yosh mo‘ysafid kishiga,
Yaqinlab bordi qoshiga,
Assalomu alaykum, bobo, deb,
Qo‘lini tutdi to‘shiga.

239

4830 Qultoy bobo chopibdi,
 Piyoda holida kuyib,
 Ot qo‘ygan qulog‘in yoyib,
 Kelib quchoqlar ot qo‘yib,
 Qultoy bobo kelib qoldi,
 Alpomishni quchoqlab,
 Bag‘riga tortib oldi.

Mingan oti Boychiborday pirog‘i,
Suyangan nov teragim,
Shu kunlarimga keragim,
4840 Yondi-da o‘chgan chirog‘im,
 O‘pka bilan yuragim,
 Boychibor tulporni cho‘llarda elganim,
 Qalmoq elidan sog‘-salomat kelganim,
 Qalmoqning boshiga kunni solganim,
 Bugun zinda ko‘rdim Alpomish polvonim.

- Yuragimda ko‘p edi qayg‘u-alam,
 Bugun ko‘rdim omon-eson, sog‘-salomat,
 Zinda ko‘rdim Mulla Hakim bolam,
 Erisin tog‘larning buktar qori,
 4850 O‘lgan, deb ketgandi xalqingning bari,
 Sensan Qo‘ng‘irot elimning zo‘ri,
 Hisoblamay yetti yillardan beri,
 Armonim yo‘q bugun ko‘rdim-da tiri[k].
- Tog‘larning qori tarmani,
 Ko‘p edi ko‘nglimning armoni,
 Alpon ko‘lda topildi bugun dardimning darmoni,
 Bobong tasadduq Hakimbek, Qultoyda endi armon yo‘q.
- Oq ayilimning to‘g‘asi,
 Bo‘z o‘rdamning bo‘sag‘asi,
 4860 Qultoy chol o‘lsa armon yo‘q,
 O‘ligimning egasi,
 Quchoqlab yig‘layotir
 Miroxur Qultoy bobosi.

Qultoy bobo Alpomishni quchoqlab, bir maydon yig‘ladi. Alpomish qarab tursa boboga, tomoqdan gap o‘tganday o‘kinib yig‘ladi. Alpomish boboga:

– Nega yig‘laysiz, xafa bo‘lmang, – deb so‘z aytib turibdi:

- Nasibani haydab unda,
 Yetti yil yotib zindonda,
 O‘tmaslik bir yomon kunda,
 Xafa bo‘lmang, Qultoy bobo,
 O‘lmay ko‘rdik-da zinda.
- Yetti yildan beri ketib Qalmoq eliga,
 4870 Yetti yil asirda yotdim Chilbir cho‘lida,
 Zindonda azob ko‘rib Qalmoq qo‘lida,
 Bugun sizni ko‘rdim Alpon ko‘lida.
- Qizil gullar oftob urmay so‘larmi,
 Qarigan bobom xafa bo‘lib yig‘larmi,

Qazo bo‘lmay Alpomishing o‘larmi,
O‘lgan odam yana qaytib kelarmi?

Zindonda yotdim yetti yil ochi-to‘q,
Xafa bo‘lmang, o‘lmay keldi Hakimbek.
Kecha-kunduz Qalmoqdan men yo‘l yurdim,
Bu orada necha tog‘u cho‘l yurdim,
Boychibor tulporga qistov qilib surdim,
Xafa bo‘lmang, o‘lmay diydoringiz ko‘rdim.

Alpomish Qultoy boboga nasihat berib: – Xafa bo‘lmang, – deb
hol-ahvol so‘rab turibdi:

O‘tib ketgan yetti yillar,
Bobo qanday bu vaqt hollar,
Omonmi Qo‘ng‘irot ellar?
Biz tug‘ilgan bu ellar,
Omonmi Chorvador xalqlar?

4890 Biz bilmay elning xabari,
Ham yetti yillardan beri,
Omonmi xalqlarning bari,
Qo‘ng‘irotning chorvalari?

241

Obodmi, bobo, cho‘llar,
Men ov qilgan Alpon ko‘llar,
Salomatmi Qo‘ng‘irot ellar?
Bobo, qanday bu vaqt ishlar,
Atrofdagi xili-xeshlar,
Qolib ketgan qarindoshlar?

4900 Etmadi Qalmoqning kuchi,
Balli so‘zlar boldan chuchuk,
Butun hamma katta-kichi[k],
Omonmi, bobo, omonmi?

Choh tagida g‘arib tanam,
O‘lmay kelibman men ham,
Qavmi-elat, ota-onam,
Omonmi, bobo, omonmi?

4910 Ketgan yo‘lima qaragan,
 Ko‘rgan tushin yaxshilikka o‘ragan,
 O‘tkinchilardan so‘ragan,
 Oybarchinoylar omonmi?

Tol beshigimga tayangan,
 Yolg‘iz o‘g‘ilga suyangan,
 Emchakni og‘zimga solib, saharda uyg‘ongan
 Kuntug‘mish onam omonmi?

Yangi to‘nimni silovchi,
 O‘ng yo‘limga tilovchi,
 Kelishima tilovchi,
 Qaldirg‘och singlim omonmi?

4920 Ikki ko‘zi yo‘lida,
 Kecha-kunduz dilimda,
 Qayg‘udan ko‘pdir o‘yim,
 Kecha-kunduz duogo‘yim,
 Boybo‘ribiy omonmi?

4930 Oshibdi yetti yildan,
 Xabarim yo‘q bu eldan,
 Sizni ko‘rdim Alpon ko‘lda,
 O‘rtaga qo‘ygan shirin jon,
 Biz bilan bo‘lgan bu tan,
 Do‘stim edi Qorajon,
 Qorajon polvonlar omonmi?

Alpomish xalqi, yurtining tinchligini, ota-onas, qarindoshlarini so‘radi. Qultoy bobo Alpomishga qarab dedi:

Chiqib ketding ovul, eldan,
 Oshib borar yetti yildan,
 Gap so‘rasang menday choldan,
 Salomatlik eshitsang eldan.

Salomatdir elning bari,
 Tilakchidir yoshu qari,

Ikki yillardan beri,
Ultontoz bo‘lib elning zo‘ri.

4940 Qultoyning gapi shu bo‘ldi,
Ultontozning bekligiga ikki yil bo‘ldi,
Ultontoz elga bek bo‘ldi,
Ba‘zi el ko‘chib, yo‘q bo‘ldi,
Oybarchin qizil ko‘ylagi shu vaqtarda ko‘k bo‘ldi,
Jo‘ra boshi toq bo‘ldi,
Ultontozning dimog‘i shu vaqt juda chog‘ bo‘ldi,
Nasiyasi naqd bo‘ldi.

Norozidir elning bari,
Ultontoz bo‘lib elning zo‘ri,
4950 Yig‘ladi xalqing, otang Boybo‘ri.
Shunqor tepdi Boybo‘rining beliga,
O‘ldi xabar keldi Qalmoq elidan,
Davlatning borin tortib oldi qo‘lidan,
Boybo‘ri ayrildi qo‘lidagi molidan,
Qatordan uzildi sendayin nori.

243

Otang hali zindondir, o‘lgan yo‘q Boybo‘ri,
Boybo‘rini bunday qilma, deb,
Dalolatchi bo‘ldi xalqning bari.
Olmadi xalqning aytgan so‘zini,
4960 Yomonga aylantirdi ishning izini,
Yo‘lingga termultdi otang ko‘zini,
Elingning gapiga qulq solmadi,
Xalqning nasihatini olmadi.

Bu gapdan Alpomish xafa bo‘lib, o‘ylanib qoldi. Ultontoz bunchalik ish qiladi, deb o‘ylamagan edi. Alpomish Qultoy boboga:

– Ha, o‘tgan ishlar o‘tibdi, shu uch-to‘rt kun ichida nima gaplar bo‘layotir, shulardan gapiring, – dedi. Qultoy bobo aytdi:

– O‘g‘lim, men yilqi boqib yurgan odamman, shaharga ko‘p bor-mayman, o‘tgan kun Ultontozning devonbegi Alpon ko‘lga chiqib keldi. Devonbegi menga qarab: “Qultoy bobo, sizga bir xizmat bor”, dedi. “Nima xizmat?” degan edim, shunday dedi: “Sultonboy qirq kunlik to‘yini boshladи. O‘tapir maydoniga chodir tikib tashladi. Xalq ko‘p ke-

lib qoldi. Aqlimiz shoshib qoldi. U erdan odamlarimiz xizmatdan chiqolmaydi. Siz ertaga cho‘ponlar oldidan besh yuzta chori, panji qo‘ylarni olib, haydab boring, ham bekning to‘yini “qutlug‘ bo‘lsin” qilib kelasiz”, dedi. Men aytdim: “Devonbegi, bu xizmat yosh yigitlarning xizmati ekan. Men qo‘ylarni suruvdan ajratib, haydab kelolmayman, qochganini qaytarolmayman, bu ishga yoshroq yigitlardan yuborsangiz, men borolmayman”. Shundan so‘ng u birdan qilib siyosatni, ustimga qamchilib do‘ndirdi-da otini, qo‘ymadi hushimga, to‘rt qamchi urdi boshimga, urgan qamchisining dog‘i o‘tib ketdi badan go‘shtimga. “Uyingni kuydiraman, rizqingni qiydiraman, jallod qo‘yib so‘ydiraman, zo‘rligimni bildiraman, go‘shtingni ombirlab yuldiraman, qamchiga badaningni tildiraman, ajaling to‘ldiraman, ertaga shu qo‘ylarni olib bormasang, seni aniq o‘ldiraman”, deb menga shu vazifani aytib ketdi”.

Bu gapni eshitib Alpomishning badani dirillab ketdi. Alpomish Qultoy boboden

– Devonbegi kim? – deb so‘radi. Qultoy bobo aytdi:

– O‘zini tanimaydigan haligi Jo‘raboy-da, Ultontozning amakisi”.

Alpomish so‘raydi: – Ultontozning to‘yi nima to‘y?

– Men ham ovullardan, mish-mishlardan “Alpomish Qalmoqda o‘lib ketdi, shuning uchun Sultonbek Oybarchinni olmoqqa to‘y qilayotir”, deb eshitdim. Alpomish joyidan turib:

– Nima bo‘ldi ekan Oybarchinga, meni ko‘nglidan chiqarib yuboribdi-da, Ultontozga rozi bo‘libdi-da, avval to‘yimni o‘tkaz, keyin men sen-ga tegaman debdi-da, – deb betoqat bo‘la berdi. Qultoy bobo Alpomishni yoniga o‘tirg‘izib, nasihat berdi: – Men o‘tgan kun Sarqul elbegining ovuliga borgan edim. Shu erda ham to‘yning gapi bo‘layotgan ekan. Ultontozning ikkita kayvoni kampiri Ultontoz uchun Oybarchingasovchi bo‘lgan ekan. Oybarchinsovchi kampirlarga: “Momo, kiyiming yirtig‘ini yama, sovchiman, deb ikkinchi Ultontozing uchun menga bir narsa dema, ko‘p noma’qullarni ema, tez ket, yo‘lingdan qolma, qarayman men Qalmoq ketgan arslonimning yo‘liga, ota-boboden qolgan bir gap bor: Safar-ga ketgan kishi chakmon kiyib ketsa, kelmaydi, kebanak kiyimda ketgan keladi. Mening yo‘lbarsim kebanak kiyib ketgan, umid qilib turibman”, deb sovchilarni qaytarib yuboribdi. Shuning uchun sen xafa bo‘lma, Ultontoz to‘y qilsa, qilaversin, Oybarchin sendan umidini uzgani yo‘q. Suyunchi ber, sen ketganingga yetti yil bo‘ldi, Oybarchinning bo‘yidagi yetti yashar o‘g‘il bo‘ldi. “Otasining o‘rniga o‘rin bo‘lsin”, deb otini Yodgor qo‘ydim. Mening ham Yodgor yoshli bir o‘g‘lim bor, shu o‘g‘limning otini niyat bilan “Hakimbek yo‘lbarsim Qalmoqdan eson-omon kelsa,

otining jilovini ushlasin, jilovdor bo‘lsin”, deb Jilovboy qo‘ygan edim. Niyatimga etdim, – deb Jilovdorni chaqirdi. Alpomish Jilovdorni ko‘rdi, xursand bo‘lib, Yodgorning suyunchisi uchun Qultoy boboga bir changal tilla berdi. Alpomish Qultoy boboga dedi:

– Men Qalmoqdan sovg‘a olib kelayotirman, sakson nor, ko‘targancha zar, podshoning qizi zulfakdor, qancha kanizlar ham bor, Elomon, Kayqubod, Zamon cho‘ponlar. Qultoy bobo:

– Ey o‘g‘lim, ular qaerda qoldi? – dedi. Alpomish aytdi:

– Ularni Oqdaryodan o‘tkazib qo‘yib, keldim. Qultoy bobo so‘radi:

– Nima uchun o‘zing bilan birga olib kelmading?

Alpomish aytdi:

– Yuragim etishmadi, yo‘lda ko‘p gaplar eshitgan edim. Bu gaplar chinmi-yolg‘onmi, o‘zim borib ko‘rayin, deb o‘zim oldin kelgan edim. Faqat sizga o‘zimni tanitdim. Boshqa hech kimga bildirganim yo‘q. Endi, bu yog‘iga ham o‘zim borsam, to‘yni o‘z ko‘zim bilan ko‘rsam, qanday borishimni menga aystsangiz, – dedi. Qultoy bobo dedi:

– O‘g‘lim, agar boradigan bo‘lsang, bu kiyiming bilan birdan borib qolma, xalq taniydi. Sen shunday bor: mening kiyimimni kiyib, men bo‘lib bor. Soqolimga o‘xhash soqol qilib beraman. Meni to‘y oqso-qollari qo‘y haydab keladi, deb kutib o‘tiribdi. Sen shu qo‘ylarni ham haydab borgin. Ular seni Qultoy bobo o‘ylab, tanimaydi. Keyin o‘zing bilasan, kim do‘s, kim dushman.

Alpomish Qultoy boboning kiyimlarini kiyib oldi. Qultoy bobo Alpomishga tayog‘ini berib, qo‘ylarni oldiga solib:

– Mana, bu o‘zingning moling, anavi Alpon ko‘ling, o‘zing ko‘rgan yo‘ling, – deb Alpomishni jo‘natib yubordi. Alpomish mol haydab ketyapti:

Qultoy chol bo‘lib tayoq olib qo‘liga,
O‘zi ko‘rgan tog‘ning yo‘liga,
Chiqayotir necha qirning beliga,
Cho‘pon bo‘lgan o‘zining qo‘yiga,
So‘yish haydab Oybarchinning to‘yiga,
Ko‘zi tushib borayotir Alpomish
Qo‘ng‘irot ellarning qator uyiga.

4970

O‘tib ketganday yetti yillar,
O‘lgan, deb ketganday Qo‘ng‘irot ellar,
Sag‘ir bo‘lib qolganday Yodgor o‘g‘illar.

Ko‘rinayotir Alpomishning ko‘ziga
Qator tikkan Qo‘ng‘irot ovullari.

4980

Soyu qirlardan o‘tyapti
Qultoy bobo bo‘lib Alpomish.
Qo‘ylarni haydab ketyapti,
Jonadilning yaqiniga,
Qariblashib etyapti.

Ko‘rmaganiga yetti yil bo‘lgan,
Alpomish Qultoy chol bo‘lgan,
Oybarchinning homilasi
Yetti yashar o‘g‘il bo‘lgan.

4990

Hut kirsa g‘uborsir tog‘ning darasi,
Uzoq bo‘lgan edi Qalmoq orasi,
Qultoy chol bo‘lib ketayotir
Qaldirg‘ochning shirxo‘rasi,
Yarqillab qoldi ko‘rinib
O‘tapirning minorasi.

5000

Qo‘yni haydayotir so‘kib,
Tezroq etsin, deb kirib,
O‘tapir qal’asini ko‘rib,
Ochilsin gulning lolasi,
Qolib ketmasin bu davrada chalasi,
Yig‘lab qolganga o‘xshaydi
Yodgor sag‘ir bolasi,
Ham Barchinning homilasi.
Yaqin qoldi Alpomishga
O‘tapirning qal’asi.

Qultoy chol bo‘lib changga botib,
Ketayotir labi qotib,
Kun peshindan borar o‘tib,
Ultontoz bakovullari,
Cho‘ldan qo‘y kelmadi, deb,
O‘tirgandi-da kutib,
Qultoy cholga ko‘zin tutib,

Qultoy bobo qo‘yni haydab,
Borib qoldi shunda etib.

Jo‘raboy devonbegi oshpaz bakovullarga aytgan edi:

– Ertaga Qultoy bobo besh yuzta semiz qo‘y olib keladi. Buyurib keldim. Uch kun bo‘lgan har tomonga xabar berganimga.

Ovul-ovuldan, otli, eshakli, piyoda kelib qolgan edi. Kun peshindan o‘ta bergandan keyin Qo‘ng‘irot xalqning gapga otari oshpaz bakovullarni yoniga chaqirib:

– Uch kundan beri ovul-ovulga, otning teri qurimay, chaqiruvching ovozi o‘chmay, el, katta-kichik demay, baring kel. Sultonbekning ko‘nglida o‘yi bor, qirq kungacha beradigan to‘yi bor. So‘yishga besh yuz chori qo‘yi bor, degan edi, xalq shu gap bilan to‘da-to‘da bo‘lib kelib qolibdi. Bu to‘yxonalaringga qo‘y tugul, uloq ko‘rinmaydi, – deyapti. Oshpaz, devonbegilar Jo‘raboy devonbegining oldiga boryapti. Ular devonbegiga qarab yangi gaplarni aytди.

– Sizlarga xalq shu gaplarni aysa, to‘y boshlanglar, desa, boshlab, mollarni so‘ya boshlanglar-da, – dedi devonbegi. Oshpaz bakovullar aytди:

– Qo‘y bo‘lmasa, nimani so‘yamiz? Devonbegi:

– Hali qo‘y yo‘qmi? – dedi. Bakovullar:

– Yo‘q, – dedi.

– Qultoy bobo so‘yishni haydab kelgani yo‘qmi?

– Yo‘q, Qultoy kelgani yo‘q hali. Jo‘raboy devonbegi otboqarga:

– Otni olib kel! – dedi. Jo‘raboy aytди:

– O‘tgan kun men cho‘lga, Alpon ko‘lga, Qultoy cholga borgan edim, so‘yishni haydab borasan, deb buyurib kelgan edim, haliyam kelmagan bo‘lsa, uning uyini kuydiraman, rizqisini qiydiraman, – deb otlanib jo‘nay berdi. Shu paytda cho‘lda qo‘ylarni surib, tayoqlab urib, bakovullar ko‘rib, borib qoldi “Qultoy bobo” qo‘ylarni surib. Bakovullar:

– Mana, Qultoy bobo kelib qoldi, – dedi. Devonbegi qarasa, changga botib, “Qultoy bobo” mollarni haydab kelib turibdi. Devonbegi aytди:

– O‘v, Qultoy bobo, uyingiz kuyib, nimaga kechga qoldingiz, qariyb o‘lgandingiz, hozir kelib qoldingiz. Alpomish aytди:

– Ey devonbegi, o‘zingiz bilasiz, cho‘lda, uzoq yo‘lda qiy nadin-giz-da menday qari cholni. Devonbegi:

– Haydang o‘rtaga qo‘ylarni, – dedi. “Qultoy chol” o‘rtaga haydab boryapti. Odamlar “Qultoy”ga qarayapti. Semiz qo‘ylarni ko‘ryapti. Alpomish bu hodisani ko‘rib, hech kimga qarayolmay, tayoqqa suyanib

goldi. Devonbegi qo‘ylarni qo‘shxonona-qo‘shxonaga bo‘lib yubordi. Ikki soat ichida qo‘y bo‘linib, tamom bo‘ldi. Alpomish odamlarning ichida tanishlarini ko‘ryapti. Odamlar:

– To‘y qutlug‘ bo‘lsin, – deb ketyapti, kelyapti. Devonbegi qarasa, “Qultoy bobo” hali ham tayoqqa suyanib turibdi. Devonbegi: – O‘v, Qultoy bobo, sizni kim aytadi “qari, mo‘ysafid kishi, to‘y-tomoshani ko‘rgan, to‘yning tartibini bilgan”, deb sizning bolaning odatiday odatingiz bor ekan, sizga bekning to‘yini aytib, “qutlug‘ bo‘lsin”, dedi ramizmi? O‘zingizdan bilib, bobolarning otasiga borib “qutlug‘ bo‘lsin” qiling, – dedi. Alpomish:

– Devonbegi, ko‘nglimda-ku bor, charchab damimni rostlayin, deb turibman, – dedi.

– Bo‘lmasa, qurga o‘tib, dam oling, – dedi devonbegi. Alpomish xafa bo‘lib, asta-sekin yura berdi. Xalq ko‘pchilik emasmi,

– “Qultoy bobo”, bu erdan keling, keling, – desa-da, qaramay, o‘tib keta berdi. Qurning chetidan borib o‘tirib:

– Qutlug‘ bo‘lsin to‘ylaringiz, – dedi. “Qultoy bobo”ning oldiga das-turxon, bir tovoq sho‘rva bilan go‘sht olib kelib qo‘ydi. Alpomish yo‘lda:

– Qultoy bobo, Yodgor qaerda turadi, men bir ko‘rsam, – degan edi. Qultoy bobo Alpomishga:

– O‘g‘lim, sag‘ir bolaning belgili turadigan joyi bo‘ladimi, to‘yxona-ga borsang, qozonning boshidami, bakovullarning qoshidami, ko‘rasan, o‘zing taniysan, – degan edi. Alpomish qurda o‘tirib, Yodgorni odamlar ichidan ko‘z osti bilan qaray boshladi. Osh osayotgan oshpazlarning atrofiga qaradi. Jo‘raboy devonbegi har oshpazga bittadan qozon tagiga o‘tin soladigan odam tayinlab bergen edi. Zoirqul degan oshpazga Yodgorni o‘tinchi qilib bergen. Qarasa, o‘sha Zoirqulning qozoni tagiga bir bola o‘tin solyapti. Alpomishning ko‘zi tushib, yuragi g‘alt ura berdi. Qarasa, bola boshqa bolalarga o‘xshamaydi. Ustdagi ko‘ylagining engi yo‘q. Ovqat tomog‘idan o‘tmadi, Alpomish o‘tirib-turyapti, atrof-boshga qarayapti. Odamlar har tomonda qurda o‘tiribdi. Alpomish oldidagi go‘shtidan olib, ilinib, Yodgorni chaqiryapti:

5010

Qatorimdan uzilganday qora nor,
Qaddi-bo‘yingni bir ko‘rishga intizor,
Qultoy cholga bir kelib bor, Yodgor!
Xumor ko‘zi to‘lib bunda yoshiga,
Qayg‘u tushdi Alpomishning boshiga,
Bir kelib bor, “Qultoy chol”ning qoshiga.

-
- Ezilib boradi yurakning go‘shti,
Yodgor, deb etadi tovushi,
“Yodgor”, degan ovozi boradi,
Sag‘ir bola atrof-boshga qaradi.
- 5020 Qurda chaqirayotir “Qultoy bobo”,
Bir ilik go‘shtni qo‘lida ko‘radi,
Havo palagidan alvon do‘nadi,
Xilidan ayrilgan g‘arib so‘nadi,
“Qultoy bobo”ni qurda ko‘rib,
Sag‘ir bola qozon boshdan jo‘nadi.
- Merganlar kiyikni poylar mo‘ralab,
Sag‘ir bola qurga jo‘nar oralab,
Alpomishning yuragini yaralab.
Ochilmadi bog‘larning qizil guli,
Yodgorga qarashar Qo‘ng‘irot eli,
“Qultoy chol”ga borayotir yaqinlab,
Hakimbekning keynidagi sag‘ir o‘g‘li.
- 5030 Kun chaladi toqqa toshidan,
“Qultoy chol”ning bora berdi duchidan,
Shunda yaqin borib qoldi nishidan,
Alpomish termulib sag‘ir yuziga,
Xumor yosh to‘kila berdi ko‘ziga,
Yetti yildan beri qolibdi izida.
- 5040 Vayron bo‘lib ketdi ko‘ngil qal’asi,
Oybarchinning davrida qolgan chalasi,
Oybarchinning qolib ketgan homilasi.
Eldan chiqib ketib yetti yil bo‘lgan,
Bugun keldi Alpomish Qultoy chol bo‘lgan,
Oybarchinning bo‘yidagi homilasi,
Bugun ko‘rsa, yetti yashar o‘g‘il bo‘lgan.
- Otang polvon edi o‘zin elida,
Seni ko‘rmay o‘ldi Qalmoq qo‘lida,
Kelolmadi senday sag‘ir o‘g‘liga,
Qultoy chol bo‘lib ilik berdi ko‘liga.

5050

Tulpor otin botir otang elmadi,
 Seni ko‘rib “Qultoy”da qaror qolmadi,
 Taqdiringga yo‘lbars otang kelmadi,
 Oybarchinday onang nega o‘lmadi,
 Yo‘lbars otang qora zindon bo‘lmadi.

Otang safar qilib Qalmoq eliga,
 Qo‘shin ovlab kelmadi Alpon ko‘liga,
 Turna edi qo‘shilmadi xiliga,
 Seni ko‘rmay o‘ldi Qalmoq qo‘lida.

5060

Boychibor tulporin cho‘lda surmadi,
 Yo‘lbars otang taqdiringga turmadi,
 Senday o‘g‘il soyasida yurmadi,
 Qalmoq elda o‘ldi, seni ko‘rmadi.

Ilikni qo‘liga olgandan keyin, Yodgorning ko‘ngli cho‘kdi. Ilikni tishlay-tishlay, orqasiga qaytdi. “Qultoy”ning so‘zini eshitib, qurda o‘tirgan odamlarning hammasi xafa bo‘lishib, erga qarab qoldi. Ko‘pchilik:

– Ey, kambag‘al Qultoy boboni ko‘ring, bugun cho‘ldan, charchab kelgan yo‘ldan, Hakimbek yodiga kelib, uning sag‘irini ko‘rib, dardi qo‘zg‘aldi, noroqdan berak, o‘pka yurak-da – eski qo‘tirning o‘rni, Mulla Hakim zindonda o‘lib ketsa ham, bugun o‘g‘lini chaqirib, eyayotgan go‘shtini berdi, – deyapti. Ba’zi kishilar:

– E, uyi kuysin bu cholning, bakovulning qo‘lida xizmat qilayotgan bolani chaqirib olib, qo‘lidagi go‘shtini berishi oshpazning nomini pasaytirdi. Oshpaz osh bermaydi, degani bo‘ldi-da, – deyapti. Buni Zoirkul oshpaz eshitib, qarasa, Yodgor odamlarni oralab, bir ilik go‘shtni tishlay-tishlay kelyapti. Oshpaz yolg‘on ko‘z bilan tiklab qarab turibdi. Yodgor oshpazning qoshiga bordi. Oshpaz Yodgorga:

– Qayoqqa ketgan eding? Hamma odamlarni oralab, “Qultoy bobo, menga go‘sht bermasang bo‘lmaydi, menga oshpaz osh bermaydi”, deb tilab oldingmi? – dedi. Yodgor aytdi:

– Yo‘q, bobo o‘zi chaqirdi, bordim, shu ilikni berdi, – dedi. Oshpaz Yodgorning qo‘lidagi ilikni tortib oldi, “O‘t, qozonga o‘tin sol”, – deb itarib yubordi. Qomati yoyday bukildi, Yodgor qozon ustiga borib yiqildi. Qozonning qirg‘og‘i manglayini kesib yuborib, manglayi yorildi, beti qonga qorildi. Yodgor joyidan turib, yig‘lab jo‘nay berdi:

-
- Bu sag‘irlik sitam qildi o‘ziga,
 Qator yosh to‘libdi xumor ko‘ziga,
 Yig‘lab qayta berdi sag‘ir iziga.
 Qozon qирg‘og‘i manglayini yaralab,
 Onajon, deb yig‘lab qurga oralab.
- Onajon, deb yig‘lab yo‘lbarsning o‘g‘li,
 Bugun ustun keldi oshpazning qo‘li,
 To‘yga kelmay ketsin Qo‘ng‘irotning eli.
 Bugun qozon boshida oshpaz uribdi,
 Qozonning qирg‘og‘i manglay yoribdi,
 Qultoy choldir Alpomish, unda qarab turibdi,
 O‘z ko‘zi bilan Yodgorni shu ahvolda ko‘ribdi,
 Siz qadrdon bobom, deb yig‘lab uyga boribdi.
- Kunduziga “Qultoy bobo” o‘ylamay kun botmaydi,
 Kun botgan so‘ng tong qursin, uzoq bo‘lgan otmaydi,
 Sen etim, deb bakovulning bugun urgan tayog‘i
 O‘lib ketsam, suyagimdan ketmaydi.
 Tirik yursam yolg‘onchi-da, bitmaydi,
 Menday sag‘ir nega o‘lib ketmaydi,
 Olishayin, desam, kuchim etmaydi,
 “Qultoy bobo”, ko‘rdingizmi holimni,
 Men sag‘irga xudo bersin o‘limni.
- Otajonim ot o‘ynatib kelmasa,
 Ayirgulik bir g‘amxo‘rim bo‘lmasa,
 Qiying bo‘ldi, menday sag‘ir o‘lmasa,
 O‘lish qiying ekan vaqt to‘lmasa,
 “Qultoy bobo”, ko‘rdingizmi holimni,
 Men sag‘irga Mavlo bersin o‘limni.
- Yig‘lab boqdim, “Qultoy bobo”, bo‘lmadi,
 Yo‘lbars otam Qalmoq eldan kelmadidi.
 Men sag‘iring nega, bobo, o‘lmadi?
 Shu kunima yo‘lbars otam bo‘lmadi,
 Taqdirima yo‘lbars otam turmadi,
 Shu holimni yo‘lbars otam ko‘rmadi,

251

5090

“Qultoy bobo”, ko‘rdingizmi holimni,
Men etimga Xudo bersin o‘limni.

Sag‘ir bo‘lib, kiyib qoldim-da janda,
Yo‘lbars otam o‘lib Qalmoq zindonda,
Menday sag‘ir yurmasin-da zinda,
Duo qiling, yurmayin-da bu kunda,
Qadrdom, ko‘rdingizmi holimni,
Otasizga xudo bersin o‘limni.
Yodgorman, bugun holim qalaydi[r],
Otasizning kim manglayin silaydi,
Izza ebdii, o‘ziga o‘lim tilaydi,
Oq o‘tovga termulib, onajon, deb yig‘laydi,
Suv bo‘lib ezilganday yurakning go‘shti,
O‘tovdagii Oybarchinga etibdi,
Onajon, degan Yodgorning bu tovushi.

Shunda Alpomishda sabr-toqat qolmadi. Qultoy boboning o‘g‘li Jilovdorga:

– Boychiborni izimdan minib bor, – degan edi. O‘tirish tugayotir, atrof-boshga qarayotir, Boychibor ko‘rinmaydi. Achchiq bilan aralashib ketay desa, xalq ichida bu erda bo‘lmaydi, indamay turishga Yodgorning gapi o‘tib, yurakni ezib ketdi. Alpomish aytdi:

– Kel, bu erda turmayin, Boychibor kelguncha panaroq joyga borib turayin.

Yodgorning “Enajon”, deb yig‘lagan ovozi Barchinning qulog‘iga eshitildi. Barchin irg‘ib, joyidan turibdi. O‘tovning japsarini yoribdi, Yodgor sag‘irini ko‘ribdi, bilmaydi, kim uribdi, betini qonga qoribdi. Bu ahvolda turibdi. Oybarchinda toqat qolmadi. O‘tovdan otilib chiqib, sumbul sochini to‘shiba yoyib, chapak urib, Yodgorga qarab jo‘nadi:

Qalam qoshlari qiyilib,
Mayin soch to‘shta yoyilib,
Tirnoqlab beti so‘yilib,
O‘tapir qolgan o‘yilib,
Jo‘nay berdi Oybarchin
Xumor ko‘zidan yosh quyulib.

Yodgorning tovushiga,
Chiqdi o‘tovning tashiga,

5120 O'n to'rt o'rim sumbul soch
 Tirqirab tushdi to'shiga,
 Qarsak-qarsak chapak urib,
 Jo'nayotir o'z boshiga.

Ochilmay gulday lolam, deb,
 O'yil O'tapir qal'am, deb,
 Yetti yildan bermag'on,
 Ayirding, Alloh taolom, deb,
 Onang o'lsin Barchinoy,
 O'layin, sag'ir bolam, deb.

5130 Sarg'aygan nurli yuzim, deb,
 O'yilsin ikki ko'zim, deb,
 Onaga o'lim lozim, deb,
 Chapak urib borayotir.
 O'layin, yetim qo'zim, deb.

Qatordan uzildi norim, deb,
 Qalmoq eldan kelmadi
 Yo'lbars, orbosarim, deb,
 O'yilsin taqdirlarim, deb,
 Yig'lab borayotir Oybarchin
 5140 O'layin, Yodgorim, deb.

Baland tog'ning boshi qor,
 Mehnatim bo'ldi-da, zoya.
 Saksonda bo'lgan Biybobom,
 Endi boqibdi-da, tuya.
 Onang o'lsin Oybarchin,
 Dunyoda baxti siyo,
 Yurakdan borar yaralab,
 Borayotir Oybarchin,
 Qurning ichini oralab.

5150 Yo'l tushgandir karvon borib,
 Tinka-darmon bordi qurib,
 Qo'ng'irot xalqlar Barchinni ko'rib,
 Toqat qilolmadi turib.

O'n to'rtda bo'lgan oylar,
O'yilsin bunday to'ylar,
To'yga kelganiga pushayman qilayotir,
To'yga kelgan chorvador boylar.

5160

Sochini yoyib to'shiga,
Qurni oralab keladi,
Yodgorning qoshiga,
Qo'liga olib etaklab,
Sag'irin bosib to'shiga,
Barchin sag'irni etaklab,
Kim urdi, deb so'radi.

Yodgor:

- Meni Zoyirqul oshpaz urdi, – dedi. Barchin:
- Nima uchun urdi? – dedi.
- Qultoy bobom bir ilik go'sht bergen edi, shuni tortib oldi-da, urdi,
- dedi. Yodgorni etaklab Barchin oshpazning yoniga kelib, bir so'z deyayotir:

254

O'tib ketibdi yetti yil,
Yo'lbarsdan qolibdi sag'ir o'g'il,
Nega sag'irimni urasan,
Navbating kelibdi, Zoyirqul.

5170

Otasining bor vaqtida,
Qo'ng'irot elning boshi edi,
Shuytib sag'irni urmasang,
Etimning vaqt xush edi.

Ilik esa sag'irim,
O'z qo'yining go'shti edi.
To'y, deb egan go'shtlaring,
Ultontozning oshidi[r].

5180

Ilik esa sag'irim,
Otadan qolgan molidi[r],
Urayotgan sag'iring
Mulla Hakimning o'g'lidi[r].

To'y, deb yegan go'shtlaring,
Ultontozingning yilidi[r].

Orada yurgan kayvonining
Yegani bu pora bo'lar,
O'lmay yursa sag'irim,
Yo'lbarsimdan sara bo'lar,
Navbating kelibdi uribsan,
Toq boshim jo'ra bo'lar.

5190 Begim o'lsa, bekcham bor,
 Yurtim egasiz bo'lmaydi,
 Norim o'lsa, norcham bor,
 Yukim erda qolmaydi.

Barchin Yodgorni etaklab, o'toviga qaytib ketdi. Oshpaz bir nima deya olmadi. Barchin ketgandan so'ng, oradan bir fasl o'tgandan so'ng, O'tapir o'r dasining oldida to'y uchun tikelgan baxmal o'tovlarda o'tirgan qorovul, amaldorlar o'rtasida shov-shuv gap bo'ldi. Shu o'tovlarning biridan bir kiyigan xotin oshpazga qarab jo'nay berdi. Zulfagini uzun taragan, oyna olib yuziga qaragan, har xil ro'mol o'ragan, betiga lolab surgan, qoshiga o'sma qo'ygan, yasangan xotin ketyapti, oshpazning yoniga etyapti. Oshpazga bir so'z aytyapti:

Ochilmadi bog'da gulim,
Xudo bersin senga o'lim,
Oybarchinga nima deding,
Oshpaz bo'lmay o'lgor cholim.

5200 Xafa qilib Qo'ng'irotning elini,
 Nega urding Barchinning sag'ir o'g'lini,
 Nima deding sag'irga,
 Oshpaz bo'lmay, kirgin go'rga,
 Vaqtli solayin erga.

Yig'latasan sag'ir o'g'ilni,
Oshpaz bo'lib qilgan ishing shuldi[r],
Etaklatib etim o'g'ilni,
Yig'latasan Barchin gulni.

Oybarchinga nima deyarini bilmay, dam bo‘lib qolgan oshpaz o‘z xotinidan ham shu gapni eshitgandan keyin kapkirni olib, xotiniga qarab yugurdi.

– Oybarchinning gapirgani ozmi, sening gaping ustiga bozmi, – deb xez qildi. Lekin odamlar oshpazning qo‘lidan ushlab, qaytardi. Oshpazning ayolini ham bilagidan ushlab, bo‘z bolalar:

– Checha, bora bering ishingizga, – deb qaytarib yubordi.

Alpomish shu ketishida chetga chiqib turgan edi. Shu vaqtida ko‘pkari chopilayotgan edi. Shuni tomosha qilib o‘tirgan edi. Ko‘pkarida to‘da durillab buziladi, bir bo‘z otning bo‘yi oldin chiqib cho‘ziladi. Ko‘pkari bakovulining:

– Bo‘ldi, to‘xtat, – deb ovozi chiqadi. Alpomish qarasa, bo‘z otning ustidagi Ultontozning ukasi Yalangto‘sh ekan. Ot uzib ayirmasa ham, bakovul xushomadgo‘ylik qilib:

– Bo‘ldi, – dedi. Alpomish ichida:

– Attang, shu vaqt Boychiborim bo‘lgan-da, Yalangto‘sh bilan bir tortishganimda, – deb yuragi qaynab turibdi. Oybarchinga sovchilikka kelgan kampirlar Ultontozga kelib aytgan edi:

– Oybarchinni ko‘ndirish mumkin, lekin uning qaynonasi Kuntug‘mish, qaynsinglisi Qaldirg‘och bor, shulardan o‘tib bir nima deya olmaydi, – degan edi. Shu kampirlarning gapi bilan Ultontoz Kuntug‘mish bilan Qaldirg‘ochni chaqirib olib:

– Kuntug‘mish momo, qizingiz bilan ikkovingiz shaharning ichki-tashqi poda eshagini qirq kun boqib berasiz, – deb majbur qilgan edi. Shaharning sigir, podasini yig‘ib, Kuntug‘mish bilan Qaldirg‘ochning oldiga solib berdi. Kuntug‘mish Qaldirg‘ochga:

– Hayda, bolam, taqdirda bori-da, – deb bir so‘z deyayotir:

Qizil gullar xazon kelmay so‘larmi,
Onang o‘lsin, Qaldirg‘ochjon, yig‘lama,
Yig‘laganing endi foyda qilarmi?

5210

Mamlakatga ega bo‘ldi Ultonbek,
Onang o‘lsin, yig‘lagandan foyda yo‘q,
Poda boqib yuramiz-da ochi-to‘q,
Taqdirda bo‘lmasa Qalmoqda
Qolib ketarmidi Hakimbek?

So‘larmidi oftob bo‘lmay qizil gul,
Ultontozning ishi bugun bizga shul,
O‘tib ketdi bu oradan yetti yil,
Poda boqish taqdiringda bo‘lmasa,
Qalmoq elda qolarmidi yo‘lbars ul.

5220 Ultontozga sarg‘aydi bugun rozim,
 Ko‘p yig‘lama, onang o‘lsin-da, qizim,
 O‘yildi-da, ikki ko‘zim,
 Poda boqish bu taqdirda bo‘lmasa,
 Qalmoq elda qolarmidi yolg‘izim?

Qizil gulim, bir sarg‘ayib, so‘lganim,
Bu kurnlardan yaxshi edi o‘lganim,
Poda boqish taqdirimda bo‘lmasa,
Qalmoq elda qolarmidi polvonim?

5230 Qizin olib Kuntug‘mish momo qoshiga,
 Endi ko‘ring Ultontozning ishiga,
 Uch kun bo‘lib chiqib ketgan Kuntug‘mish,
 Poda boqib bu shaharning dash[t]iga.

257

Kuntug‘mish podani sug‘orib, yotoq joyiga olib kelib, qizi Qaldirg‘ochni “Barchindan xabar olib kel, qani, bolam, nima ishlar bo‘layotgan ekan”, deb yuborgan edi. Qaldirg‘och ketayotgan edi, ko‘pkarining yonidan o‘tayotgan edi. Alpomish tepadan turib, Qaldirg‘ochni ko‘rdi. Alpomish ketib borayotganda Qaldirg‘och yosh qiz edi. Endi bo‘yi etib, ko‘zga ko‘rinibdi. Ust boshi bir ahvolda. Ust-boshidagi kiyim topmaganidan emas, balki Alpomishning o‘lgani haqidagi gapni eshitib, eski kiyib yurgan edi. Alpomish qarab, Qaldirg‘ochga o‘xshatdi. Shu vaqt ko‘pkari to‘da durillab buzildi, yana bo‘z otning bo‘yni oldin cho‘zildi, ikki qamchi tortganda yakkalab uzildi. Yalangto‘sh shunday qaradi, Qaldirg‘och ketib boradi, otiga qamchi uradi. Qaldirg‘ochga etib bora-di. Yalangto‘sh Qaldirg‘ochga xushtor edi: “Akam Oybarchinni oladi, Qaldirg‘och bizga qoladi”. Otini haydab, uloqni Qaldirg‘ochning oldiga tashlab, o‘tib ketdi. Otini qaytarmadi. Tushgan uloqqa otlilar to‘da bo‘lib borib qoldi. Qaldirg‘och qarasa, bu yoqdan ham, u yoqdan ham otlilar chopishib kelayotir. Otlilar bir-biriga yopishib, Qaldirg‘ochning aqli shoshib, qayoqqa qocharini bilmay qoldi. Bu yoqqa qochsa, bu ot,

u yoqqa qochsa u ot urib, oyoqlarini ot bosib, otlilar ustidan o‘tib ketdi.
Otlar o‘tib ketgandan so‘ng Qaldirg‘och o‘rnidan turib, Yalangto‘shni
qarg‘ab yig‘lashini Alpomish eshitdi. Betoqat bo‘lib:

– Juvonmarg Jilovdor, nima uchun otimni olib kelmadi tezroq, – deb
alanglayotgan edi. Jilovdor tomosha qilayin, deb ko‘pkarini oralab yur-
gan edi. Shu vaqt Alpomish ko‘rib qolib, Qultoy chol bo‘lib:

– Otni olib kel, Jilovdor, – deb chaqirayotir:

Osmonda bor yorug‘ oy,
Qaddi-bo‘yingdan aylanay,
Beri hayda, Jilovboy,
Kuchim kelarmi barobar.
Qolmadi sabru qaror,
Qaddi-bo‘yingdan aylanay,
Beri haydagin, Jilovdor,
Kerak bo‘lib qoldi Boychibor.

5240

Nasibani tortdi bunda,
Qanday yurayin shu kunda,
Hayda beri, Jilovboy,
Og‘asi kelgandi bunda.

258

Ot ostida qolib ketdi
Qaldirg‘ochday emikdoshim,
Bugun suv bo‘lib eriyotir,
Mulla Hakim yurak go‘shti,
Og‘am, deb qulqqa keldi,
Qaldirg‘ochning tovushi.

5250

Beri haydagin, Jilovboy,
Bir tanam polvon oshi.

Sira yurakdan chiqmaydi,
Yalangto‘sh solgan yarasi,
Bormi bu ishning orasi,
Otimni etkiz, Jilovboy,
Bunda kelibdi shirxo‘rasi.

Baland tog‘larning bastiga,
Minib o‘layin ustiga,

5260 Bir otlansam, armon yo‘q,
Yalangto‘sning ustiga.
Haydab yubordi Jilovdor,
Alanglab etdi Boychibor.

Suv oqadi do‘lab-do‘lab,
Po‘lat suvlug‘ini yalab,
Alanglab yetti Boychibor,
Alpomishga erkalab.

5270 Tush, deyayotir “Qultoy” o‘g‘liga,
Osildi abrashin otning yoliga,
Qaddini rostlab mindi,
Boychibor tulpor beliga,
Jilovin ushlab qo‘liga,
O‘tma, deb “Qultoy” o‘g‘liga,
Haydadi ko‘pkari yo‘liga.

Minibdi Boychiboriga,
Chipor kun keldi origa,
Bir qamchi chotdi otiga,
Hakkalab arning betiga,
Shu vaqt kim yondashadi,
Yo‘lbarsning ul yoniga,
5280 Jilov qoqib bordi shunda
Ko‘pkari to‘daning chetiga.

Haydar o‘dag‘a-o‘dag‘a,
Qushlar qo‘nadi xodaga,
Abrashin mayin yolingdan,
Yo‘lbars egang to‘daga,
Jilov qoqib borayotir,
Uyulib yotgan to‘daga.

5290 Ot maydonda ozildi,
Durillab to‘da buzildi.
Alpomish shunda qarasa,
Bo‘z otning bo‘yni cho‘zildi.

-
- Shayton tushmaydi bo‘ynidan,
Qimtib yubordi keynidan,
Yalangto‘shni ayirmadi ko‘zidan,
Etib oldi izidan.
- Malol ko‘nglin xushladi,
Qultoy chol bo‘lib uloqdan,
Cho‘zilib borib ushladi,
Sendan o‘tgan chavandoz yo‘q,
Bu yoqqa oshir, Yalangbek.
- Qultoy cholning qaramadi yuziga,
Quloq solmadi so‘ziga,
Bir xillar shovqin beryapti,
“Qultoyga qara, yaramas”.
- Qog‘ozday labin tishladi,
Yalangto‘shning bir qo‘lini,
Uloqqa qo‘shib ushladi,
Qo‘lin kishan qilib tashladi,
Ot yoniga yonboshladi.
- 5310 Ul tabami, bul taba,
Dardingga bormi davo?
Tortib olsang uloqni,
Qo‘lim qo‘ya ber, Qultoy bobo.
- Toza olding qo‘limni,
Tortar bo‘lsang uloqni,
Qo‘yavergin qo‘limni,
Gul ochiladi novdadan,
Jon chiqib borar gavdadani.
- 5320 Havor joyda ikki bedov,
Tarozi bo‘lib ketyapti.
Bo‘riday bo‘lib Alpomish
Silkib-silkib tortyapti.

Zo‘r-kamzo‘rlik bilindi,
Shartillab uloq yulindi.
Qomati yoyday bukildi,
Bo‘z otidan shilqillab,
Yalangto‘s erga yiqildi.

Yalangto‘s shning ahvoli xarob, qoldi otidan nurab, mingtacha ot ortdan izma-iz quvishib kelayotgan edi. Yalangto‘s shning yuzi-boshi yorilib qoldi. Tuproqqa qorishib, ko‘p otlar bosib o‘tib ketdi. Bo‘z ot egasiz, egarini bag‘riga olib, yakka maydonga chiqdi. Ko‘pkaridagi chavandozlar, otidan tushib, Yalangto‘s shni ko‘rsa shilqillab qolibdi, bir holda bo‘lib bulkillab qolibdi. Boychibor sitilib, yakka o‘zi qutulib chiqdi. Bakovul bobo:

– Bo‘ldi halol, chol odam bo‘lsa ham, ayirdi, – dedi. “Qultoy” bo‘lib, ko‘sam serkani ayirib, uzangiga mahkam bog‘lab, oldini qayirib, “Chol odam bir uloq ayirdi bo‘ldi”, deb Jilovdor bilan birga qayta berdi. Atrofdagi tomoshabinlar hayron bo‘ldi. Ular:

– Qultoy cholda shuncha kuch bormikan? Qirq chorak keladi ko‘sam, shuni bir qo‘llab ayirdi, – deyishyapti. Ba’zilari:

– Shu Qultoyga o‘xshamaydi-da otning ustida o‘tirishi, – deyishyapti. Alpomish ayirgan ulog‘ini Yodgorga berayin, keyin Oybarchinga bir ko‘rinish berayin, meni taniydimi, yo‘qmi, deb Oybarchinning o‘tovi oldiga borib, Yodgori chaqirib:

– Ma! Senga bir uloq ayirdim, – deb uloqni bir qo‘llab Yodgorning oldiga otib tashladi. Ko‘sam uch-to‘rt yumalab, Oybarchin o‘tovining bo‘sag‘asiga borib tushdi. Yodgor chopib chiqib, xursand bo‘lib, uloqni ichkariga kirgizib:

– Ena, bugun menga Qultoy bobom uloq ayirib berdi, – dedi. Oybarchin:

– Qultoy bobo hech uloqqa ham bormas edi, – deb Alpomishning orqasidan bir qaradi. Alpomish ancha ketib boradi. Oybarchin otning iziga qarasa, korson tovoqday erni o‘yib ketibdi. Oybarchinning yuragi urib, o‘zining Boychiborning tuyog‘i bilan barobar tilla jomini otning iziga o‘Ichadi. Jom otning iziga kichiklik qilib qoldi. Boychibor to‘rt-besh yoshli davrida uning izi shu tilla jom bilan barobar edi. Ot o‘n ikki yoshda bo‘lib, tuyog‘i kattarib ketgan, shuning uchun jomdan kattalik qildi. Oybarchin: “Otning tuyog‘i Boychibor tuyog‘iga kelishdi”, deb ko‘ngli har tomonga yo‘ya berdi. “Albatta, yo‘lbarsim Qalmoqdan kelsa, Oqdaryordan o‘tgandan so‘ng ot chopib, sevinchi xabar kelmasmidi, bir belgi bo‘lmasmidi, Boychiborning onasi har yil bir qulun tug‘adi,

zot bir-biriga o‘xshaydi-da”, deb qo‘ydi. Alpomish Jilovdorni chaqirdi, Boychiborni unga topshirdi. Aytdi:

– Kim so‘rasa, meni aytmagin. Jilovdor:

– Mendan shu otni ko‘p kishilar so‘radi. “Men bu otni yilqining ichidan otam yangi ushlab, yuvosh qilib oldi”, dedim, – dedi. Hamma odamlar bu otni Boychiborga kelishadi, deyishib qo‘ydi.

Alpomish O‘tapir poytاختida “Ultontozni bir ko‘rayin”, deb jo‘nadi. O‘tapirning ikkinchi darvozasiga bordi. Qorovullar qaradi, “Qultoy bobo” boradi. Qorovulning boshlig‘i:

– Ha! Qultoy bobo, sizga yo‘l bo‘lsin, – deb so‘radi, oldini o‘radi. “Qultoy bobo”:

– Bekning oldiga boraman, bir ishim bor, – dedi. Qorovul:

– Qultoy bobo, bu tomonga borolmaysiz, darvozadan kirolmaysiz.

Uch kun bo‘ldi, bek bizga:

– To‘y tarqaguncha bir kishi ham mening oldimga kelmasin, – deb tayin qilgan, – dedi. Alpomish:

– Meni bekning o‘zi chaqirgan, – deb o‘ta berdi. Qorovul boshlig‘i “Qultoychol”ning yoqasidan tutib, shu gaplarni aytyapti:

262

Shuncha gapim kor qilmadi o‘zingga,
Nima uchun qulqoq solmaysan so‘zimga?

5350 Bu odamlar ko‘rinmaydimi ko‘zingga,
Uying kuygur, darrov qaytgin izingga.

Boshqa kishilar ham qoladi yitib,
Alpomishning ul yoqasidan tutib,
Senga tushuntirdi-ku avvaldan aytib,
Nega ketmaysan izingga qaytib?
Ketganingni ko‘rayin darvozadan o‘tib,
“Izingga qayt”, deyayotir elkasiga turtib.

5360 Qulqoq solmay bularning gapiga,
Kuch bermayotir ko‘piga,
Hammasini sudrab ketib boryapti,
Ular har tomondan mushtlab uryapti,
“Qultoy bobo” darvoza og‘zidan qarayapti.

Hamma qorovulni itarib tashlab, darvoza oldiga kelib, Alpomish darvozani bir tepdi. Darvoza sharqillab ag‘anab tushdi. Ultontoz ol-

dida Sariqul elbegi degan kishi o‘tirgan edi. O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot urug‘idan bittasining boshlig‘i edi. Sariqul elbegi o‘z urug‘i bilan Ultontozga zakot bermay yurgandi. Ultontozning Oybarchinni olish uchun to‘y qilayotganini eshitib, Oybarchinni olganini ko‘raman, deb kelgan edi. Bu gapni Ultontoz eshitib, to‘ydan odam qo‘yib, Sariqul elbegini chaqirib keltirgan edi. Ultontoz:

– Elbegi bobo, biz shunday ish qilyapmiz, siz qanday qaraysiz? – de-ganida Sariqul elbegi:

– Ha, binoyi, – deb o‘tirib edi. Shu paytda ikkinchi darvoza shaqir-shuqur bo‘lib qoldi. Sariqul elbegi qarab, “Qultoy bobo”ning ko‘zidan Alpomish ekanini tanidi. Ichidan xursand bo‘lib qo‘ydi. Ultontozga:

– Taqsir, Qultoy bobo bir qari kishi-da, sizga bir ish bilan kelayotgan bo‘lsa kerak, qorovullaringiz urib, iziga qaytarmoqchi bo‘layotir, u qaytmayotir zo‘rligi tutib, qorovullaringizga aytинг, kirsa-kirsin, zarur ish bilan kelganga o‘xshayotir, – dedi. Darvoza qorovul boshlig‘ini Ultontoz chaqirib:

– Ichkari kirmoqchi bo‘layotgan kim? – deb so‘radi. Qorovul boshlig‘i aytdi:

– Haligi, uying kuygur Qultoy chol-da, kirma, deganga ko‘nmay, zo‘rlik qilib, darvozaning bittasini tepib sindirib tashladi. Ultontoz:

– Bo‘lmasa, uni qo‘yib yuboring, o‘zimiz chaqirgan edik, – dedi. Alpomish Ultontozga salom berib, kirib keldi. Alpomish Ultontoz, Sariqul bilan ko‘rishiб o‘tirdi. Alpomish Ultontozning bekligini “qutlug‘ bo‘lsin”, qilyapti:

263

Beklikda yotgan vaqtingiz,
Chopibdi, begin, baxtingiz,
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
O‘tapir poytaxtingiz.

5370 Davlatli ekan boshingiz,
Obod ekan qo‘shingiz,
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Chakkadagi davlat qushingiz.

Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
G‘azna bo‘lsa zaringiz.
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Jonadildan shahringiz.

-
- Qutlug‘ bo‘lsin Sultonbek,
O‘n olti urug‘ elingiz.
Qutlug‘ bo‘lsin Sultonbek,
Alponday katta ko‘lingiz.
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Chorva joylashgan cho‘lingiz,
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Qancha cho‘ldagi molingiz.
- Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Tobe qilib olgan joyingiz,
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Qirq kunlik katta to‘yingiz.
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Oybarchinday oyningiz.
- Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Qancha lalmikor eringiz.
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Oybarchin oyday yoringiz.
- Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Tobe qilib olgan elingiz.
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Oybarchin oyday gulingiz,
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Yodgorjonday o‘g‘lingiz.
- Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Alponda o‘rdak-g‘ozingiz,
Qutlug‘ bo‘lsin, Sultonbek,
Barchinoyday sarvinozingiz.

“Qultoy bobo” kamini qoldirmay “qutlug‘ bo‘lsin” qilyapti, Ulton-tozning dimog‘i chog‘ bo‘lib kulyapti, Sariqul elbegi “Qultoy bobo”-ning gapidan anglab bilyapti. Ultontoz aytdi:

– Qultoy bobo, Oybarchin yoringiz qutlug‘ bo‘lsin, deb ham yubor dingiz. Alpomish:

– Ha, – dedi. Ultontoz:

– Qultoy bobo, Oybarchin keliningiz hali bizga rozi bo‘lgani yo‘q, – dedi. Alpomish:

– Taqsir, siz mamlakat egasi bo‘lsangiz, to‘yini qilayotgan bo‘lsangiz, Oybarchin qayoqqa boradi, sizniki-da, sovchi qo‘ydingizmi? – deb so‘radi.

– Ikki kayvonimiz bor, ikkovi ham opa-uka, birini Angara, ikkinchisi Sevara kampir deydi, so‘zga shunday usta, uch kun bo‘ldi borganiga sovchilikka, bugun Oybarchin koyib-so‘kib qaytarib yuboribdi, – dedi. Alpomish Ultontozga:

– Taqsir, esir ayolning nozi ko‘p bo‘ladi, yuragi sizda bo‘lsa ham, borgan sovchilarga til uchidan “bo‘lmaydi”, deb turgan bo‘lsa kerak. Mening esir xotinlarga ko‘p sovchi bo‘lganim bor. Hammasini ko‘ndirganman, – dedi. Ultontoz:

– Qultoy bobo, sizdan Oybarchin gapini yashiradimi-yashirmaydimi? – dedi. Alpomish aytdi:

– Nima uchun Barchin mendan gapini yashiradi? Onasi mening oldimga chiqqan qizim edi. Shu tufayli Barchin mening nabiram, Alpomish tufaylidan mening kelinim-ku. Ultontoz aytdi:

– “Dard ketgisi kelsa, tabib o‘z oyog‘i bilan kelib qoladi”, degan gap bor. Shunga o‘xshab, siz o‘zingiz kelib qoldingiz. Endi biz uchun Barchin keliningizga sovchi bo‘lmaysizmi? – dedi. Alpomish aytdi:

– Boy amr qilsa, boybicha xamir qiladi, deganday siz meni sovchilikka eplasangiz, oyog‘imni qo‘yib, kallam bilan yuguraman. Sizga Qultoy boboligimni bildiraman, sho‘xlik gaplar bilan Oybarchinni kuldiraman, aniq sizga bo‘yin sundiraman. Ultontoz aytdi:

– Unday bo‘lsa, baraka toping, Oybarchinning qanday bo‘lmasin, ko‘nglini toping.

– Xo‘p, biz ketdik, – deb Alpomish iziga qaytdi. Alpomish ketganday keyin Ultontoz elbegiga:

– Elbegi, shu Qultoy bobo nima qilar ekan? – dedi. Elbegi aytdi:

– Qultoy bobo Oybarchinni ko‘ndiradi, Barchin uning gapidan chiqmaydi. Alpomish borayotir o‘z ko‘nglida sovchi bo‘lib:

– Barchinning ko‘ngli bormi, yo‘qmi, bilayin. Oybarchinning o‘toviga yaqin boryapti, yuragi uryapti, Yodgor eshikda yurib edi, chopib uyga kirib:

– Ena, Qultoy bobo kelyapti, – dedi. Oybarchin qarasa, Qultoy bobo kelyapti. Barchin xursand bo‘lib: “E, bechora qadrdon bobom, bir ah-vollashayin, deb kelibdi-da”, deb oldiga chiqib turdi, yozning kuni edi, uyning soyasiga to‘sanchi to‘sab, “Qultoy bobo”ni o‘tirg‘izdi. O‘zi

uyning ichkarisida turdi. Shunda Alpomish Oybarchinning tanimagani ni bilib, uyning yonidan turib, Barchindan hol-ahvol so‘rab turibdi:

Suylar oqar taram-taram,
Seni bir ko‘rib ketmasam,
Ko‘nglim bo‘lmadi orom.
Omonmisan, Barchinjon,
Esonmisan, nevaram?

5410

Yerdan ko‘karar turli don,
Fido bo‘lsin aziz jon,
Omonmisan, kelinjon,
Esonmisan, Oybarchin?

O‘tib borar oyu yil,
Omonmisan, Barchin gul,
Katta bo‘ldimi sag‘ir o‘g‘il?
Baland tog‘ning bag‘ri qor,
Kimxob ko‘ylak to‘zi bor.

266

5420

Esonmisan, Barchinjon,
Katta bo‘ldimi Yodgor.
Qizil gulsan so‘lganing,
Katta bo‘ldimi Yodgor,
Yo‘lbarsdan belgi qolganing.

Barchin javob beryapti:
U tabadan, bu tabasi,
Katta bo‘lsin-da, bobosi.
Yetti yillardan beri,
Kelmadi-da, asobasi.

5430

Xudo, deb boqdim, bo‘lmadi,
Yo‘lbars otasi kelmadi,
Oybarchin nega o‘lmadi?
Yo‘lbars otasi ketib,
Qalmoqlarning u eliga,
Qildimikan qayg‘a,
Chilbirlarning u cho‘liga,

Biror aylanib kelmadi,
Ketida sag‘ir o‘g‘liga.

5440

Qaynog‘a, ahvol shu bo‘lib,
Oybarchin o‘ldi sil bo‘lib.
Otasining ketganiga,
Shu yil yetti yil bo‘lib,
Suyanib, tayanganim qoldi,
Sag‘ir o‘g‘il bo‘lib.

Kelmay yo‘lbarsning xabari,
Tuya boqib ketdi bobom Boybo‘ri,
Barchin yurmasin tiri[k],
Bugun ahvolni ko‘rdingiz,
Shuytib qoldi Yodgori.

5450

Yurak go‘shtim bo‘ldi pora,
Zoyirqul oshpaz yuragimga soldi yara,
Buytib zinda yurmasin,
Oybarchin baxti qora.

267

O‘tkazdim yetti yilini,
Yig‘latib sag‘ir o‘g‘lini,
Bugun ko‘rdingiz, qaynog‘a,
Sag‘irimning ahvolini.

Yo‘lbarsim kelmay ketdi,
Bugun oshpaz sindirdi,
Qo‘ng‘irot xalqning belini,
Ko‘rdingiz, holim qalaydi[r].

5460

Qurni oralab sag‘irim,
Onajon, deb yig‘laydi.
“Qultoy chol”ga kamin aytib,
O‘ziga o‘lim tilaydi.

Alpomish Qultoy chol bo‘lib, Barchinga nasihat qilyapti:

- Barchinjon, o‘lim tilama,
 Kamingni aytib yig‘lama.
 Yig‘lagan foyda qilarmi,
 Yig‘lagan bilan, Barchinjon,
 Qalmoqdan yo‘lbars kelarmi?
- Kimxob ko‘ylaging bo‘libdi ko‘k,
 Yig‘lagandan foyda yo‘q,
 5470 Yig‘lagan bilan kelmaydi,
 Qalmoqda qolgan Hakimbek.
- Zo‘r edi o‘zining eliga,
 Ko‘p qarading yo‘liga,
 Sohib bo‘lib o‘tiribsan,
 Sag‘ir qolgan o‘g‘liga,
 Foyda qilmaydi, Barchinjon,
 O‘lgan Qalmoqning qo‘lida.
- Yurting egasiz bo‘lmaydi,
 Noring o‘Isa, norchang bor.
 Yuking erda qolmaydi.
 5480 Endi yig‘lama sil bo‘lib,
 Nasihatim shul bo‘lib,
 Bo‘yingdagi homilang,
 Yetti yashar o‘g‘il bo‘lib.
 Taqdiringga bor bo‘lib,
 Shuytib o‘tirma xor bo‘lib.
- Oy qiyalab botadi,
 Dunyo hammadan, Barchinjon,
 Shuytib-shuytib o‘tadi.
- Bu dunyo ko‘hna saroy,
 Kelganlar yana ketadi,
 Ko‘nglingga malol kelmasa,
 Qaynog‘ang bir gap aytadi.
 Qizil gullar ham so‘ladi.
 Oxiri odam o‘ladi,
 Ota-boboning qa’dasi,
 Barchinjon, shunday bo‘ladi.

Yoshlikda erdan qolsa,
Yana ham yangi uy qiladi,
Shuytib qaynog‘ang keladi.
5500

Tog‘ning boshi qoya bo‘lib,
Yetti yillardan beri,
Qolding baxti siyo[h] bo‘lib,
Endi o‘tmasin, kelinjon,
Shuytib umring zoya bo‘lib.

Yo‘lbarsdan bo‘lmadi darak,
Endi uy qilishing kerak,
Qizil gullar so‘lmasa,
Avval bosh qo‘shganmikan,
Qo‘sha qarisa, o‘lmasa.
5510
Bir gap aytaman, kelinjon,
Ko‘nglingga malol kelmasa.

Bu o‘tirishingdan foyda yo‘q,
Sultonbek ham yaxshi bek,
Shaftolining shoxini,
Yegin, deb keldim, Barchinjon.
Ko‘k ko‘ylakni qizil qilib,
Kiygin, deb keldim, kelinjon.

269

Oq gardanga qora zulfing,
Tuygin deb keldim, kelinjon.
Sultonbek ham yaxshi bek,
Tekkin, deb keldim, kelinjon.
5520

O‘ng tizzangga o‘g‘il olib,
Suygin, deb keldim, kelinjon,
Qari tutda arg‘imchoq,
Uchgin, deb keldim, kelinjon.

Ko‘ngildagi kiringdan,
Kechgin, deb keldim, kelinjon.
Ustingdagi motam ko‘ylakni,
Echgin, deb keldim, kelinjon.
5530

To‘qson bog‘li bo‘xchani,
Ochgin, deb keldim, kelinjon.
Kimxob-xitoylardan saylab,
Bichgin, deb keldim, kelinjon.
Sultonbekday bek bormi,
Quchgin, deb keldim, kelinjon.

Barchin o‘ylab tursa, Ultontoz uchun sovchi bo‘lib kelganga o‘xshay-di. Barchin: “Qadrdon bobom-da, biroz gaplashib yuragimning korini bir ochay”, degan edi. Qarasa, “Qultoy bobo”dan shu gaplarni eshitib, xafa bo‘lib, javob qaytaryapti:

5540 Qaynog‘a, qo‘ying xushima,
 Bunday kelmang-da, holima,

Ot aylantirmang boshima.

 Go‘ng qarg‘a kelib qo‘narmi
 Qarchig‘ay qo‘ngan to‘sshima.

270

Qarayman yo‘lbars yo‘liga,

Ega bo‘lib o‘tirayin

Yodgor sag‘ir uliga.

Kebanak kiyib yo‘lbarsim,

O‘tkazdim yetti yilini,

Sira norozi qilmayman,

Qo‘ng‘irot xalqning elini,

O‘lgunimcha boqaman,

Yodgor sag‘ir o‘g‘lini.

5550

Uy qilmaydi keliningiz,

Vaqt etib o‘lguncha.

Sag‘irini boqaman,

Bir kun vaqtim to‘lguncha.

Hech kimga xiyol bo‘lmayman,

Yo‘lbars – bosh egam kelguncha.

O‘tiraman uy qilmay,

Shu umrim o‘tguncha.

5560 Yo‘lbarsima qarayman,
Sanoqli kunim bitguncha.
Boybo‘riday bobomni,
Shuytib, yig‘latib ketguncha.

Ikki ko‘zim, bobo, yo‘lda,
Bobom tuya boqib cho‘lda,
Uy qilish yo‘qdir ko‘ngilda.
Sarg‘aytmayman bobomning yuzini,
Eshitib oling, Oybarchinning so‘zini,
Ko‘lda poda boqtirdi,
Biy bobomning qizini.

5560 Bobom, ezmang yuragimning go‘shtini,
Bilmaysizmi Ultontozning ishini.
Yig‘latib qo‘ydi onasi, Kuntug‘mishini,
Ham singlisi Qaldirg‘och, emikdoshini.

Qulog‘imga kirmas aytgan so‘zingiz,
Qaynog‘ajon, bekor kelibsiz o‘zingiz,
Qanday qilib keldi bunga yuzingiz?
Boshqa gapdan gurunglashing biz bilan,
Bildim, siz ham soz bo‘libsiz,
Ultontozday imonsiz bilan.
Oybarchingasovchi bo‘lib,
Qanday keldingiz yuz bilan?

271

Oybarchin yig‘lar dod bilan,
Qayg‘uli hasrat bilan,
Siz ham soz bo‘lib qolibsiz-da,
Ultontozday it bilan?

Qo‘ng‘irot xalqini Ultontoz,
Poymol qildi zid bilan.
Sovchi bo‘lib Barchinga,
Qanday keldingiz bet bilan?

5580 Sovchi bo‘lib shu oraga,
To‘lib qolibsiz-da poraga,

Sovchilikdan gapirmang,
O‘lgur baxti qoraga.
Bu Ultontozdan ham navbat o‘tadi,
Bu amallar, biling, qo‘ldan ketadi,
Qo‘ng‘irot xalqqa shuncha zulm o‘tkazgani ham etadi.

Alpomish bu gaplarni eshitgandan keyin sillasi qotib, yana gapirolmay qoldi. Barchinning yuragi mahkam ekanligiga, o‘zini yoddan chiqarmay kutib o‘tirganiga ishondi. Endi o‘zini tanitishga harakat qildi. “Men Al-pomishman”, deb birdan aytay desa, biroz noma’qulroqday, o‘lan tariqa-sida gap aytayin, qani, aqli bo‘lsa tushunar, deb bir so‘z aytib turibdi:

Biz ko‘rgan u qo‘zilar
Qo‘y bo‘libdi, yor-yor,
Sizday bo‘lgan Barchin gul
To‘y bo‘libdi, yor-yor.

5590

Biz ko‘rgan u daraxtlar
Shoda bo‘libdi, yor-yor,
Tana-to‘rpi yig‘ilib,
Poda bo‘libdi yor-yor.

272

Biz ko‘rgan kimxob ko‘ylak
Ado bo‘bdi, yor-yor.
Qaynog‘asi sovchi bo‘lib,
Qo‘da bo‘libdi, yor-yor.

5600

Biz ko‘rgan u bo‘tachalar
Lo‘k bo‘libdi, yor-yor,
Biz ko‘rganda jo‘raboshing
Toq bo‘libdi, yor-yor.

Biz ko‘rganda kimhob ko‘ylak
Ko‘k bo‘libdi, yor-yor,
Biz ko‘rganda ba’zi ellar
Yo‘q bo‘libdi, yor-yor.

Biz ko‘rgangda Ultontozlar
Bek bo‘libdi, yor-yor.

5610 Biz ko‘rganda qulunchalar
Ot bo‘libdi, yor-yor.

Ba’zi kishilar ko‘ngli
Shod bo‘libdi, yor-yor.
Sizday Barchin yor ko‘ngli
Xit bo‘libdi, yor-yor.

Biz ko‘rmagandan beri
Yil bo‘libdi, yor-yor.
Sizday bo‘lgan Barchin yor
Sil bo‘libdi, yor-yor.

5620 Bo‘yingizda homilangiz,
O‘g‘il bo‘libdi, yor-yor.
Biz ko‘rganda yo‘lbarsingiz,
Chol bo‘libdi, yor-yor.

Alpomishning tovushi Barchinga shunday deb boradi, Oybarchin-
ning yuragi uradi, irg‘ib, joyidan turadi. Endi payqab qaradi. Alpomish
Oqdaryordan o‘tganda Barchin bir tush ko‘rgan edi. Tushida tilla jig‘asi
bor bir olg‘ir qush ko‘rgan edi. Shu qush Oybarchin ustiga kelib, soya
solgan edi. Tushidan xursand edi. Endi Alpomishga qarab, Barchin bir
so‘z deb turibdi:

5630 Bo‘g‘inimni bo‘shatmang,
Suyagimni shovshatmang,
Barchinni buncha qaqqhatmang,
Eskirgan yarani yangilatib,
Gapingizni aylantirib,
Yo‘lbars beginma o‘xshatmang.
Sovchililingiz juda qiziq,
Oybarchinning ko‘ngli nozik,
Gapingizning izi buzuq.
Alpomish Barchinga otqi
Yonidan olib tilla uzuk.

Oybarchin uzukni oldi,
Ko‘ziga surkab, qo‘liga soldi.

Alpomish ekanin bildi,
Juda xursandchiligidan,
Ovozin baland qilib bir k尔ди.

Shu vaqt Ultontoz poytaxtdan qulq solib turgan edi. Barchinning kulgan tovushi Ultontozga borib etdi. Ultontoz xursand bo‘lib, Sariqul elbegiga qarab:

– Elbegi bobo, Qultoy bobo Oybarchinni kuldirdi, aytganini qildirdi, – dedi.

Alpomish bilan Oybarchin bir-biri bilan tanishdi. Alpomish Oybar-chindan:

– Sen mening sari yoyimni bilasanmi? – deb so‘radi. Barchin aytdi:

– Menda faqat shu sari yoydan boshqa narsa yo‘q. Ultontoz sari yoyni ko‘p qaradi, mendan ham so‘radi. “Bilmayman”, dedim, – dedi. Alpomish:

– Ol, bir ko‘rayin yoyimni, – dedi. Sandiqning ichidan olib, Alpomishga berdi. Alpomish ko‘rsa, yoyni zang bosib, chang bosib qolibdi. Alpomish:

– Men Ultontozning oldiga ketaman. Odam yubortiraman, sen yoyni shu odamdan yuborasan. Mening kelganimni Yodgorga aytmagin, – deb turib ketdi, Ultontozning oldiga etdi. Ultontoz dedi:

– Keling, Qultoy bobo. Bo‘ri bo‘ldingizmi, tulki? Alpomish:

– Bo‘ri, tulki, deb o‘tirmang, bugun juda xursandchilik, o‘yin-kulgi. Sizga moyil bo‘lib, rozi bo‘lgandan keyin Alpomishning yoyini chiqarib berdi. Bu yoy ham siz – Sultonbekdan, – dedi.

– E, rahmat bobo, biz shuni topolmay turgan edik, – dedi. Ultontoz uch kishini yoyni olib kelishga jo‘natib yubordi. Borgan kishilar:

– Sultonbekka yoyni bersin, – dedi. Oybarchin yoyni chiqarib berdi. Uch kishi yoyni ko‘tarib yura olmadidi. Yoyni ko‘tarib bora olmay, quruq borishdi. Ultontoz qarasa, quruq kelyapti. Ultontoz:

– Ha, qani sari yoy? – dedi.

– Yoyni biz ko‘tara olmadik, u bir kichikroq to‘p, og‘iri besh botmondan ko‘p. O‘zi shunday og‘ir, ko‘tarishga noqulay, qaerga teksa, o‘sha erni qiladi yag‘ir. Aravaga ortib, kelmasak, iloji yo‘q, – dedi. Alpomish aytdi:

– Men Alpon ko‘lda yilqi boqib yurganimda, Alpomish ovga borar edi. Qushga bir qo‘llab otar edi. “Tor ko‘chaga arava sig‘maydi, devorni o‘ygani egasi qo‘ymaydi”, tashvishning nima keragi bor? Alpomishning Yodgori bormi? – dedi.

-
- Ha, bor, – deyishdi.
– Ana shu Yodgor olib kelmasa, boshqa olib kelolmaydi. Uch kishi qaytib borib, Yodgorni chaqirdi. Yodgorga shu yoyni O‘tapirgacha olib borasan, deb majbur qilayotir:

5640 Qayishni soldi egniga,
Uchovi mas’ul keyniga,
Majbur qilib sag‘ir bachchaga,
Sudrab chiqqdi ko‘chaga.

Sag‘ir bola ketyapti,
Har ko‘chadan o‘tyapti,
Urinib-urinib tortyapti,
Sari yoning qayishi,
Uning egniga botyapti.
O‘tapirning darvozasiga,
Yoyni sudrab etyapti.

5650 Oldi zina, o‘r keldi,
Sag‘ir bolaga zo‘r keldi,
Egilib tortayotir,
Manglayidan ter keldi.

275

Mas’ullar qo‘ymay hushiga,
“Tort”, deb qamchi soldi boshiga,
Mas’ul haydabdi izidan,
Sitam o‘tkazdi o‘zidan,
Egilib tortadi Yodgor,
Yosh kelib xumor ko‘zidan.

5660 Qayg‘udan ko‘p bo‘lib o‘yi,
Nimadir sag‘irning gunohi,
Og‘iringni pastga tashlama,
Yo‘lbars otam gaybir joyi.

Yo‘lbars otam safar qildi,
Qalmoq yurtday olisga,
Qalmoqlarning qo‘lida,
Umri bo‘ldi-da qisqa.

Men egangning ortidan,
Belgi qolgan sag‘ir nusxa,
Polvon otam sari yoyi,
Og‘iring tashlama pastga.

O‘chgan bobomning chirog‘i,
Qalmoq ellardan kelmadi,
Egangning borlik daragi.
Og‘iring pastga tashlama,
Yo‘lbars otamning yarog‘i.

Yodgor yoyni bir ahvolda chiqarib oldi. Alpomish Yodgordan xur-sand bo‘ldi. “Hali yosh bola-da, aqli kirib, bilak kuchi to‘lsa, o‘n to‘rt-o‘n besh bo‘lsa, o‘zimdan haddili polvon bo‘lar ekan”, deb qo‘ydi. Yoyni tomosha qilishga Ultontozning atrofidagi qirqa xizmatkori keldi. Ultontoz:

– Qultoy bobo, bu qanday yaroq, qanday otiladi? – dedi. Alpomish aytdi:

– Bu erdan o‘q solinib, bu erdan otilsa kerak, men ham ko‘p bil-mayman. Lekin Alpomish Alpon ko‘lda otgan vaqtida mening bir-ikki tortganim bor. Ultontoz:

– Shunday bo‘lsa, bir otib ko‘rsating, biz ham o‘rganaylik, – deb yoyni Qultoyning qo‘liga berdi. Alpomish yoyning changini artib, toza-lab, tayyorlab qo‘ydi. Alpomishning xayoli buzila berdi. Buni Sariqul elbegi bilib turdi. Keyin Sariqul tashqariga chiqib ketdi. Alpomish yoyni olib, otishga quaylab, balandga ko‘tardi. Darvoza qorovullari:

– Qultoy bobo aytganicha bor ekan, uying kuygur zo‘r ekan, har qalay darvozani bir tepib o‘yib yuborgan edi, – deyishyapti. Alpomish Ultontozning yonidagi xizmatkorlarini va Ultontozning o‘zini qarg‘aga o‘xshatib:

– Qirq qarg‘a, qaysingni otayin, qirqingnimi, biringni, – deb bir so‘z aytib turibdi:

Bugun chiqdim O‘tapirga,
Duchor kelding “Qultoy”day zo‘rga.
Bo‘lib otayinmi, birga,
O‘tapirdagi qirq qarg‘a,
Qirqingni otaymi, biringni?

Qochar bo‘lsang, yo‘ling ochiq,
Bilmayman, ahvoling nechuk,
O‘tapirdagi qirq chumchuq,
Qirqingni otaymi, biringni?

Qishloqlarga ketsin jarchi,
Har tomonga xabarchi,
O‘tapirdagi qirq torichi,
Qirqingni otaymi, biringni?

5690 O‘tapirga chiqdik bizlar,
Qo‘limda bor gaybir sozlar,
Har kim dushmanin izlar,
O‘tapirdagi qirq g‘ozlar,
Qirqing otaymi, biringni?

Qo‘lima tushdi gaybir yoy,
Qarg‘alar, turma beparvo.
O‘tapirdagi qirq to‘rg‘ay,
Qirqingni otaymi, biringni?

277

5700 Men turibman seni poylab,
Yakka otaymi, saylab,
O‘tapirdagi qirq laylak,
Qirqingni otaymi, biringni?

Xabarsiz Qo‘ng‘irot eli,
Ustin kelsa yaxshi qo‘li,
O‘tapirdagi qirq boyo‘g‘li,
Qirqingni otaymi, biringni?

5710 “Qultoychol”man boqdim yilqi,
To‘y-tomosha, o‘yin-kulgi,
O‘tapirdagi qirq tulki,
Qirqingni otaymi, biringni?

Gap kirmaguday qulooqqa,
Bo‘lib otaymi, yakka?

O‘tapirdagi qirq olahakka,
Qirqingni otaymi, biringni?

Bo‘z bolalik bo‘lar barno,
Biz bek edik-da, burna,
O‘tapirdagi qirq turna,
Qirqingni otaymi, biringni?

5720 Porlab ketsa sari yoy,
Qushlar, turmanglar beparvo,
O‘tapirdagi qirq g‘azalay,
Qirqing otaymi, biringni?

Ultontoz o‘z kishilari bilan balandga qarasha berdi. Ultontoz aytdi:
– Qultoy bobo, bu qarg‘a, qushlaringiz qaerda? Hech joyda ko‘rin-
maydi-ku, qani birini otib tushiring-chi, ko‘rayin.
Alpomish Ultontozning manglayiga yoyni to‘g‘rilab:
– Mana, sen – biri, – deb yoyni tortib yubordi.
– Qirqing esa qolganlaring, – dedi. Qolgani ketolmay qutulib, bari
qoldi tutilib, usti-ustiga sari yoy tortila berdi otilib. Sariqul elbegi O‘ta-
pirdan chiqib ketib, to‘ydan o‘z odamlarini olib ketgan edi.

O‘tapirdan sari yoning ovozi portlab chiqqa bergandan keyin
Barchin: “Endi Ultontoz o‘lgandir-da, Qaldirg‘ochdan suyunchi ola-
yin”, deb jo‘nay berdi:

5730 Qatma-qat libos boshiga,
Marjon, sadabi to‘sriga,
Suyunchi, deb borayin,
Yo‘lbarsning emikdoshiga.
Qoshi-ko‘zi biyonodi,
Xollari dona-donadi[r],
Suyunchi, deb Oybarchin
Qaldirg‘ochga jo‘nadi.

Pardoz bergen o‘ziga,
Ishonsa yaxshi so‘ziga,
Suyunchi, deb jo‘nadi,
Boybo‘riboyning qiziga.

Shunday boradi Oybarchin
Qora uyning og‘ziga,
Labi holsirab qotibdi,
Qora uyning ichida.

5740 Fason bo‘lib Oybarchin,
Qaldirg‘ochga yetibdi.
O‘ynoqilar tagida,
Mingan otlari o‘yinch.
Bosh ko‘targan erka qiz,
Chechangga bergin suyunchi.

Bordi biyning qiziga,
Suyunchi, deydi o‘ziga,
Qulq solgin, erkajon,
Chechangning aytgan so‘ziga.

5750 Tog‘larning boshi tormadi,
Qolmadi ko‘ngil armoni.
Suyunchi bergin, erkajon,
Topildi dardning darmoni.

279

5760 Oq ayilingning to‘g‘asi,
Marvad to‘nning yoqasi,
Suyunchi bergin, erkajon,
Sizday qizning og‘asi,
Qalmoq eldan kelib qoldi.
Chechangning bosh egasi.
Mingani Chibor pirog‘i,
Yondi otangning chirog‘i,
Kuntug‘mishday onangning,
Orqa bo‘ksa, ko‘kragi,
Suyunchi bergin, erkajon,
Kelib qoldi sohib daragi.

Olis Qalmoqning orasi,
Bitdi yurakning yarasi,
Suyunchi ber, erka qiz.
Yo‘lbarsning shirxo‘rasi,

5770 Keldi Qalmoqdan shu bugun
Chechangning yo‘lbars to‘rasi.

Shu bo‘ldi gapning qisqasi,
Yo‘qdir shu gapning xatosi,
Suyunchi bergen, erkajon.
Bugun kelib qoldi Qalmoqdan
Yodgorimning otasi.

Qaldirg‘och kallasini ko‘tarib qarasa, Barchin kimhob-xitoy kiyib,
fason bo‘lib, suyunchi bergen, deb turibdi. Qaldirg‘och Barchinga qarab
bir so‘z deyapti:

Kimhob-xitoydan kiyibsan,
Zulfakni uzun qo‘yibsan,
Endi bildim, chechajon,
Ultontozni suyibsan.

5780 Oxir Ultonga tegibsan,
Ximo ro‘mollar chalibsan,
O‘ldirmoqqa kelibsan.
Ko‘p kuydirma meni buncha,
Senga kunduz bo‘ldi kecha,
Kuydirma buncha, checha.

Otam cho‘llarda boqib tuyani,
Kuydirib ketmagin baxti siyoni,
Sovchi bo‘lganlar eganday parang,
Kuydirmoqqa kelma baxti qorani.

5790 Safsata gap aytib kelma o‘zima,
Ketar bo‘lsang, ko‘rinmay ket ko‘zima,
Qizil gulni oftob bo‘lmay so‘ldirma,
Yuragimni qayg‘u-g‘amga to‘ldirma,
Ketar bo‘lsang, sidirg‘i ket, chechajon.
Qaldirg‘ochni ketishingda o‘ldirma.

So‘ldirib ketmagin bog‘ning gulini,
Yerga qaratibsan og‘amning,

Bu Qo‘ng‘irot elning yuzini,
Ultontozga tekkan bo‘lsang, chechajon,
Tashlab ketgin og‘am sag‘ir o‘g‘lini.
5800

Qabul qilmagan bo‘lsang onam zorini,
Yerga qaratib ketding-da elning barini,
Tekkan bo‘lsang Ultontozga, chechajon,
Tashlab ket og‘amning Yodgorini.

Yo‘lbarsimni chiqaribsan ko‘nglingdan,
Norozi bo‘lib ketyapsan shu eldan.
Ulton uchun kechibsan-da, etim o‘g‘lidan,
Shunqor bo‘lib tepib ketma belidan.

Oybarchin: “Bu mening so‘zimga ishonmadi-da, belgisini ko‘rsatayin”, deb Alpomishning tilla uzugini Qaldirg‘ochning oldiga tashladi. Shunda qarasa, tilla uzuk tiringlab tushdi Qaldirg‘ochning oldiga. Qaldirg‘och ham tilla uzukning Alpomishda ketganini bilar edi. Qaldirg‘och o‘rnidan turib, bir so‘z deb turibdi:

Og‘zimdan chiqqan so‘zimdan,
5810 Xafa bo‘lmang-da, o‘zimdan.
O‘tirgandim-da, beg‘am,
Hozir qayda yo‘lbars og‘am?

281

Suyangan nov teragim,
Shu kunga bo‘lgan keragim.
Xafa bo‘lmang-da, jon checha,
Qaydadir o‘pka-yuragim.

Kuyganimdan qilgan dodim,
Davlatli ekan elatim,
Xafa bo‘lmang-da, chechajon,
5820 Qaerda ketgan polvonim?

Javhar sadoqli po‘latim,
Xafa bo‘lmang, checha, bizdan.
So‘rayin og‘amni sizdan,
Ayting, chechajon, tezdan.

Eshitdimi elning bari,
Qaydadir otam Boybo‘ri?
Otasining kelganini,
Eshitdimi Yodgori?

5830

O‘lsin bunday emikdoshi,
Eshitdimi xili-xeshi,
Suyunchi so‘rab keldi,
Og‘amning sizday bibishi.

Oybarchin:

– Erka qiz, endi shuni sizga aytdik biz, hech kim bilgani yo‘q, eshitgani yo‘q. Akangiz O‘tapirda edi, sari yoy porlayotir gumbirlab, Ullontoz o‘lgan bo‘lsa kerak, – dedi. Qaldirg‘och ham ustidagi liboslarini echib, Oybarchin qo‘lidagi tugunchakni ochib, har xil kiyimlardan kiyib, yasanib oldi. Alpomishning tilla uzugini olib, qo‘liga solib, onasiga suyunchiga chopib ketdi. Kuntug‘mish Qaldirg‘ochning kelishini kutib o‘tirgan edi. Qaldirg‘och chopib, “ena”, deb xursand bo‘lib bordi. Qaldirg‘och onasiga xursandchilagini bildirib, bir so‘z deyayotir:

Havoda yarqirab yulduzim,
Tilakli edim-da, o‘zim,
Suyunchi, deb keldi qizing,
Yarqirab yondi chirog‘ing,
Gulladi hosilli daraxting,
Suyunchi deyman, onajon,
Kelib qoldi yo‘lbars daragi.

5840

Xursandchilikda kelishim,
O‘ngga boqdi, ona, ishim,
Oltin jig‘ali olg‘ir qushim,
Suyunchi, deb keldim, ona,
Keldi yo‘lbars Alpomishim,
Qoplon yurak emikdoshim.

Samar qildi so‘lgan guling,
Xursand bo‘lib qoldi eling,
Suyunchi, deyman senga, ona,

5850 Kelib qoldi yo‘lbars o‘g‘ling,
Ravshan bo‘ldi xira ko‘zing.
Suyunchi, deb keldi qizing,
Suyunchi bergin, ona,
Kelib qoldi yo‘lbars o‘g‘ling.

Otib tog‘larning belidan,
Obro‘ olib Qalmoq elidan,
Sevinchi bersin, jon ona,
O‘tapir poytaxtni oldi
Ultontozning qo‘lidan.

Shunda Kuntug‘mish qizining bunday kelishiga hayron bo‘ldi. Goh ishonib, goh ishonmay turdi.

– Mabodo, Oybarchinga sovchi qo‘yib yotgan Ultontoz buning boshi-ni aylantirib, Qaldirg‘ochning ko‘nglini xursand qilib, enangning ham ko‘nglini ovla, deb aldab yubordimikan, – deya o‘yladi. Kuntug‘mish:

5860 Yuragimga qilma alam,
Kelgan bo‘lsa yolg‘iz bolam,
Yetkizsa Alloh taolom,
O‘zi istab kelib bunda,
Bermasmidi menga salom?!

283

Qayg‘u-g‘amga qo‘yma o‘zim,
Bu gaping yolg‘ondir, qizim,
Kelgan bo‘lsa bu yolg‘izim,
Yolg‘on aytgandaysan-da, qizim.

5870 Alpomishbek kelgan bo‘lsa,
Avval belgi bo‘lar edi,
Onam, deb izlab izimdan,
Bunda axtarib kelar edi,
Chopag‘onchi, xabarchisi mendan
Suyunchini olar edi.

Bo‘lar edi uch-to‘rt kun avval xabari,
Kelmasmidi chopag‘onchi ilgari,
Chopilmasmidi otlar chaparasta,

Qo‘ng‘irot xalqi kelmasmidi
Har tomondan dasta-dasta.

Qaldirg‘och onasining ishonmaganini bildi. Agar Alpomish kelganda ham, hech kimga bildirmay kelgan bo‘lardi. Qaldirg‘och Alpomishning uzugini onasining yuziga olib surtdi. Ko‘zi xira bo‘lgan edi. Xayolida ko‘zi ravshan bo‘lganday bo‘lib ketdi. Onasini etaklab, Qaldirg‘och iziga qaytdi, Oybarchinning qoshiga etdi. Qarasa, ko‘chalarda ot chopilgan, jarchi qichqirgan:

– Ultontozning to‘yi xudoyiga aylandi, qaytadan to‘y bo‘ladi. Dasta-dasta, chaparasta Qo‘ng‘irot eli har tomonga ot qo‘ygan:

5880 Ot chopilar yo‘llarga,
 Xabar Qo‘ng‘irot ellarga,
 Borayotir xabarchi,
 Necha dasta ovullarga.

Chopag‘onchi ketyapti,
Har ovulga etyapti,
Chopayotir yakka-yakka,
To‘da-to‘da otliqlar.
Kelayotir lukka-lukka.

5890 Ko‘chalardagi jarchi,
 Har tomonga xabarchi,
 Endi katta bo‘lar to‘ylar,
 So‘yish deb haydalgan qo‘ylar,
 To‘da-to‘da kela berdi
 Cho‘lni yoylagan boylar.

O‘yin-kulgi, xursand g‘avg‘o.
Ba‘zilari ketgan toqqa,
Xabar pasti yaylovga.
Gul ochilar g‘uncha-g‘uncha,
To‘layotir ko‘cha-ko‘cha,
Chopqillaydi bola-bachcha.

5900 Hamma joyga ketdi xabar,
 Kelyapti-da sakson nor,

Karnay-surnayni chalgan,
O‘yin-kulgi qiziq bo‘lgan,
Oqdaryoda qolgan nori,
Lo‘klarga ortilgan zari,
Chopishgan ko‘pdir ilgari,
Ko‘ch qoshida kelayotir,
Qultoy bilan Boybo‘ri.

5910 Qochgan o‘rdak, Quvgan lochin.
 Oqdaryoda qolgan ko‘chin,
 Ko‘chirguncha Alpomishbek,
 Ultontozdan olgan o‘chin.

Och chopilibdi to‘sheets-to‘shga,
Qarang qavmi-qarindoshga,
To‘da-to‘da kelib ko‘rishib,
Yo‘lbarsim, deb Alpomishga.

5920 Tulpor otin elganim, deb,
 Qalmoqdan o‘ch olganim, deb,
 Quchoqlashgan ko‘p bo‘ldi,
 Ham yo‘lbars polvonim, deb.

285

Tog‘u cho‘lda surganim, deb,
Kecha-kunduz yurganim, deb,
Qalmoqning polvonlarin,
Yakka-yakka bergenim, deb,
Ko‘rishayotir Qo‘ng‘irot ellar,
Rustamday bo‘lgan polvonim, deb.

5930 Ot chopilib qula tuzdan,
 Kelayotir iz-izidan,
 Rozimiz polvonim sizdan,
 Ayirdingiz Ultontozdan.
 Siznikidir o‘rda, qo‘rg‘on,
 Birga uchdan zakot bergen,
 Qo‘ng‘irot elning ko‘pchiligi
 Ultontozdan sitam ko‘rgan.

-
- Bu joydan Alpomish ketgan,
Oradan yetti yil o‘tgan,
Bir vaqt alpon Qorajon,
Ultontozdan sitam ko‘rib ketgan.
- Ko‘zi to‘lib yoshiga,
Chiday olmay Ultontoz ishiga,
Chiqib ketgan edi Alqorning boshiga.
Alqor toqqa chiqib ketgan ekan,
Oradan olti oy o‘tgan ekan,
Alqor tog‘da kunin ko‘rib,
Qorajon ham yotgan ekan,
Alpomish keldi xabari,
Qorajonga etgan ekan,
Alqor tog‘dan Qorajon
Bir kecha-kunduz yo‘l tortgan ekan.
- 5940
- 5950
- Alpomishning kelganini,
Qo‘ng‘irot xalqlar bilib qoldi.
Bir tomondan Qorajon ham,
Alqor tog‘dan kelib qoldi.
- Qorajon keldi ot surib,
Jonadilga bordi kirib,
Alpomishday aljni ko‘rib,
Otdan tashladi tinka qurib.
Alpomishxon joydan turib,
Qorajonga shunday borib,
Qorajon g‘oraga qulab,
Birdan jo‘nadi ot qo‘yib.
- 5960
- Oq devorga qo‘ysam narvon,
Qorajonday shunday polvon,
O‘lmay ko‘rdim oxir seni,
Bu dardimga topdim darmon,
Endi yo‘qdir o‘lsam armon,
Izza ko‘rganday Qorajon.

5970 Suv kelar balanddan do‘lab,
Alpomish quchoqlab yig‘lab,
Mard o‘g‘il senday bo‘larmi,
Do‘stim Qorajon, yig‘lama.
Bir-birimizga ko‘ngil to‘q.
O‘lmay keldi-ku Hakimbek,
O‘tgan gap o‘ta bersin,
Bugunga undan foyda yo‘q.

Ko‘nglingdan chiqar o‘yni,
Cho‘ldan haydab semiz qo‘yni,
Qavmu el-qarindoshlarga
Qirq kun beraylik to‘yni.

5980 Qulq sol Alpomish so‘ziga,
Har kim qilsa o‘ziga.
Bulbul istab uchar gulni,
Hammadan g‘animat shuldi[r].
Qora zindonda o‘tkazdim,
Qalmoqda yetti yilni.
Xafa bo‘lma, Qorajon,
Nima bo‘lsa, bo‘lgani bo‘lar,
Alpomishing o‘lmay kelar,
Xursand qilaylik elni.

287

Qorajon Alpomishning gapidan xursand bo‘lib, to‘yni boshlaylik, deb elga qaytadan chaqiruvchi yubora berdi.

Endi yaxshi-yomon, yugurik-chopson, katta-kichik, och-to‘q, yetim-yesir, sag‘ir-kabir, shol-chol – hamma to‘yga, deb kelib qoldi.

Boybo‘ri, Kuntug‘mish, Qaldirg‘och Alpomish bilan ko‘rishgani kelyapti. Shunda Alpomish ota-onasiga qarab jo‘nay berdi:

5990 Yetti yil Qalmoqda g‘arib bo‘lib tanam,
Diydor ko‘rishga zor edim men ham.
Bir ziyyarat qilayin ota-onam,
Mening uchun bo‘ldi bag‘ring kavob,
Xizmatlaringga qaytarib javob,
Aziz mehribonlarim qilayin tavob.

Yo‘lda ko‘rib bo‘lgandim mehri qattiq,
To‘xtatmay Boychibor otni,
Boychibor ot Alpon ko‘ldan,
Onasidan kelib emdi oq sutni.


- 6000 Shu bo‘ldi-da, yo‘ldagi mening xatom,
 Bugun shuni o‘tasiz, g‘amxo‘r otam.
 Cholu kampir kelayotir ot qo‘yib,
 Oldin-keyin keldi,
 O‘pkasi kuyib,
 Armon yo‘q deyayotir,
 Qulochin yoyib.
- 6010 Alpomish bordi-da yo‘lbarsday etib,
 Kuntug‘mish oldida bo‘ynidan tutib.
 Erisin tog‘larning qori,
 Quchoqlab oldi Boybo‘ri.
6012 Yetti yildan beri,
 Armon yo‘q, ko‘rdim tiri[k].

288

Shunda Oybarchin bilan Qaldirg‘och bir sandiq tilla tangani sochdi.
Yetim-yesir, och-yolang‘och kambag‘allar xursand bo‘lib, terishib qoldi.

Alpomish Qo‘ng‘irot ellarga, hamma yerlarga xabar berib, o‘choq o‘yib, semiz qo‘ylardan so‘yib, butun katta-kichigini yig‘ib, chodir tikib, tambik suqib, kurash, poyga qilib, qirq kun xalqini xursand qilib to‘y berdi. Xalqlar, ketgan davlatlar keldi, juda yaxshi bo‘ldi, olis-yaqingga ko‘chib ketganlar hammasi ko‘chib kelib qoldi. Qalmoqda Elomon, Kayqubod, Zamon poygachilarning to‘yini qilgani yo‘q edi. O‘z xalqi ichiga kelib bularga ham to‘y qilib, Alpomish Oybarchin bilan qaytadan suhbat qurib yashayverdi.

Tamom



289

Aytuvchi: Mardonaqul Aviliyoqul o‘g‘li

Yozib oluvchi: Qosimxon Muhammedov

Nashrga tayyorlovchilar: To‘ra Mirzaev, Jabbor Eshonqul

Barchinoyni Alpomishbek Qalmoq elidan ota yurtga olib kelganiga bir yil bo‘lgan edi. Qaynotasi Boysari besh yuz el bilan Qalmoq elida qolganiga ham bir yil bo‘lgan edi. Barchin o‘rdada yotib, bir kecha tush ko‘rdi. Tushida qibladan dovul turib, Boysari otasining besh yuz uyi-ni yiqitib ketdi. Erta bilan Barchin turib qarasa, o‘rdada yotibdi, tushi ekan. Barchin ko‘p xafa bo‘ldi, ko‘ngli naza bo‘ldi. Alpomishbek aytdi: – O‘, yorim, nimaga sen mo‘ng‘ayding? Ko‘nglingdan nima gap kech-di? Menga ayt!

Barchinoy ko‘rgan tushini Alpomishga bayon qilayotir:

Aql bilan hushima,
Boysari ota bahodir
Kelmadi mening qoshima.
Men o‘layin, otajonim
Kecha kirdi tushima.

Qibladan dovul turganday,
Kun qiyomat bo‘lganday,
Qalmoq elning qo‘lida
Otam-enam qolganday.

290

10 To‘ram dedim, Hakimbek,
Moli, puli otamning
Qalmoqqa bandi bo‘lganday.
Baland-pastli soyini,
Qalmoq qildi joyini,
Qibladan dovul turib,
Yiqdi otam uyini.

Xat olmadim otamdan,
Bir yil bo‘ldi qolgani,
O‘lja qilib Qalmoq el
Olgan o‘xshar qo‘yini.

Orqadan turgan dovul,
Mard yigitga jig‘ovul,
Qo‘ng‘irotning polvoni,
Qalmoq elning qo‘lida
Qolganday besh yuz ovul.

30

Paymona bilan to‘layin,
Dardingni sotib olayin,
Qarorim yo‘q bu joyda,
Xabar olgin, bek to‘ram,
Otamni ko‘rib o‘layin.

40

Kechagi ko‘rgan tushim
Oldi aql-hushimni,
Yoshligimda, bek to‘ram,
Senga qo‘shdim boshimni.
Xabar olmasang borib,
To‘ram, qirqqin boshimni.

Fido qildim jonioimni,
To‘kkin mening qonioimni,
Yoshligida, bek to‘ram,
Senga qo‘shdim tanimni.

50

Qalmoq eldan xabar ol,
Tirik bo‘lsa otamni,
Men roziman, to‘ramjon,
Ota-enamni olib kel!

291

Bino bo‘lmay ketay boshdan,
Voyaga yetgandan yoshdan,
Bachchalikda, bek to‘ram,
Tanani qo‘sghanman boshdan,
Toza qo‘rqib boraman,
Kechagi ko‘rgan tushdan.

Mulla Hakimbek: – Xafa bo‘lma. Bu tushga yaxshi ham kiradi, yomon ham kiradi. Ayolligingga borma. O‘qimay chiqdi xatim, mulla Hakim deydi otim, Qalmoq eliga o‘tdi Alpomish der ta’rifotim, – deb Barchinoya qarab, bir-ikki og‘iz so‘z aytayotir:

Orqa yurtdir kirdikorim,
Boychibor deydi tulporim,
Uning uchun qon yig‘lama.
Xudo qushgan, dildor yorim.

Qalmoq eldan xabar olay,
Ko‘rgan tushing anglab kelay,
Bandi bo‘lgan bo‘lsa otang,
Dushmanlarga g‘avg‘o solay.

60 Ot yolini o‘rarman,
 Ko‘p g‘avg‘o solib borarman,
 O‘lgan bo‘lsa Boysari,
 Birga etmish qib olarman.
 Uning uchun qon yig‘lama,
 Xudo qo‘shgan, dildor yorim.

Yig‘latma qaro ko‘zingni,
Sarg‘aytma oyday yuzingni,
Qalmoq elga zarbam tegar,
Mulla Hakim deydi o‘zimni.

Alqissa, andan so‘ng Alpomishbek yorining xafa bo‘lganini bilib, otning quyrug‘ini tuyib, bilakka kuchini jiyib, Boychiborning beliga minib, orqa yurtdan Sherobodga – Qalmoqlarning yurtiga xabar olmo-qqa borayotir:

70 Adir yerlar jaladi[r],
 Yaratgan boshga panodi[r],
 Bandani Xudoy yaratdi,
 Bachchanı o‘stirgandi[r]
 Avval ota-enadi[r].
 Holini bilgan donodi[r],
 Ot o‘ynatib Alpomish,
 Qalmoq elga jo‘nadi.

80 Ayrilib qarindoshdan,
 Quzg‘un ayrilmaydi loshdan.
 Alpomishga dushman bo‘lgan
 Qalmoq el avval boshdan.
 To‘xtatmay otin haydaydi,
 O‘tadi tog‘u toshdan.

Sanoqni oldi oydan,
Aqli ketgan odamday
Ozadi fe’li-xo‘ydan.
Ot o‘ynatib Alpomish
O‘tadi necha soydan.

90

Tuyoq teksa o‘t chiqar
Sangloq qora toshdan.
Omonat qaytib kelsa
Orqa yurtday Qarshiga.
Ot o‘ynatib Alpomish
Chiqdi Sherobod dashiga.

Qalmoq elga g‘avg‘o solsa,
Jabr qildi bedovga.
Boysari shu qolgandi
Qamalib qatti yovga.
Besh kecha kunduz yo‘l tortib
Chiqdi Ko‘yikon toviga.

293

Alqissa, andan so‘ng Alpomish Ko‘yikon tog‘ida turaversin, gapni Qalmoq elidan eshitaylik.

Qalmoq elining podshosining uchta oti bor edi. Kattakonini Ko‘kdo‘nan der edi. O‘rtanchasini Oqdo‘non der edi. Kichkinasini Ko‘kchinoq der edi. Shu Ko‘kdo‘non yaxshi ish bo‘lsa ham, yomon ish bo‘lsa ham bilar edi. Bir talo-to‘p bo‘lar vaqtida emini uch kun emay qolar edi. Alpomishning safar qilib chiqqanini sezib, xafa bo‘lib qoldi. – Ne sababdan bul bunday bo‘ldi, – deb qalmoq podshosi xalqdan so‘radi. Shunda bir Maston kampir degan kampir bor edi. Shu dunyonig isimgarligini qilar edi. Shunda Maston turib aytdi: – Men qura tashlayman, shundan nima chiqsa, senga aytaman. Qura tashladi. Qurasi-da Alpomishbek ko‘rindi. Maston kampir oyog‘ini yerga tirab, qalmoq podshosiga qarab, Alpomishning g‘ayrat qilib kelayotganini bilib, bayon qilayotgan chog‘i edi:

100

Mard yigitning sira bo‘lmas ayibi,
Ot chopganda yaramas otning mayibi,
Orqa yurtdan kelayotganday,
Besh yuz uyning soyibi.

Oltin bo‘lar oq sovutning yoqasi,
 Mard yigitning bo‘lsa asli og‘asi,
 Po‘lat bo‘lar lochin qushning chagasi,
 Orqa yurtdan kelayotganday
 Besh yuz uyning egasi.

110 Polvon kelar Orqa yurtning elidan,
 Dushman olib Alpomishning yo‘lidan,
 Qalmoq eling qolmaydi
 Alpomishning qo‘lidan.
 Umid qilma, sen podsho,
 Qalmog‘ingning elidan.

120 Daryo qurib tosh qolar,
 O‘sma ketib qosh qolar.
 Hakimbek kelayotibdi,
 Qalmoq yurting bo‘sh qolar.
 Qizil gulingni so‘ldirar,
 Paymonangni to‘ldirar.
 Hakimbek shunday zo‘rdir,
 Boringni qo‘ymay o‘ldirar.

Suv bo‘lib o‘pka-yuragi,
 Yondi Alpomish chirog‘i,
 Sira qo‘rqmaydi Hakimbek,
 O‘zi polvonning ziyragi.

130 Ko‘kdo‘nandan bilindi
 Alpomishning zo‘rligi.
 Qo‘ng‘irolik besh yuz elning
 Keldi sohibdaragi.

Shovshaydi menim suyagim,
 Yurolmay og‘ir oyog‘im.

Ot yolini o‘rganday,
 Ko‘ykam degan tog‘ida
 Kelib Hakim turganday.

Qalmoq elning barini
Xudo toza urganday.

Qalmoq podshohi qo‘rqib, Maston kampirdan so‘radi: – Endi nima qilamiz? Maston kampir: – O‘zing bilasan, – dedi. Podsho aytди: – O‘zim bilsam, darvozani berkitaman, har daraga ming polvondan qo‘yaman. Shul Alpomishini siyosat bilan qo‘rqiroman. Maston kampir: – Avvalo, ming qo‘shining bilan qoshiga bora olmaysan, uning damiga turolmaysan. To‘qson ikki chatog‘im bor. Ikkovi bilan men shuni olaman, – dedi. Podsho aytди: – Qanday qilib olasan? – Qirqta o‘tov ber. Qirqining ham ustiga ko‘k banotdan yopinchiq qilaman. Qirqta qiz ber, qirqini ham ko‘kdan kiyintiraman. Alpomish namozigarda keladi. Yo‘lida shu o‘tovni tikaman. Alpomishning oldiga chiqaman. Biz ham Boysarining eli edik, boyimizni o‘ldirib, bolamizni o‘ldirib, xotinlarimiz shunday ko‘k kiyib, qalmoqning qo‘lida shunday azobni ko‘rdik, deyman. Shu aytgan davlatiningni bersang, uyga tushirib, mehmon qlib, Alpomishni men bandi qilib beraman, – dedi. Podsho: – Xo‘p, – deb so‘zini ma’qul qildi.

Maston kampir qirq o‘tovni g‘orning og‘ziga tikdi. Qirqi ham ko‘kmak. Qirqin qizlarni ko‘kman kiygizib tayyorlab qo‘ydi. Alpomishga sakson gaz zindon qilib, chohni qazitib, to‘qson boshli o‘tovni ustidan tikdi. Chohning og‘ziga xasdan ko‘prini qildi, ustidan ko‘rpachalar ni to‘sab, bildirmay, tayyor qilib qo‘ydi. Qirqin qizga qarab, Maston kampir: – Men Alpomishni olib qaytaman. Sizlar ko‘kmak bo‘lib oldiga chiqasizlar. “Biz ham Boysarining eli edik. Molimizni oldi, erimizni o‘ldirdi, qalmoqning erida shuytib qoldik”, deb Alpomishni aylanib yig‘langlar, – deb o‘zi ko‘kmak bo‘lib, Alpomishning yo‘liga chiqib boyayotgan chog‘i:

295

Olis bo‘p qoldi orasi,
Sen Xo‘jadning to‘rasi,
Ko‘zini ochib qaradi,
Alpomishbekning qorasi.

140

Oylar qiblagaga toydi,
Uyqu qaboqqa qotdi.
Bu dunyosi qurisin,
Jasaddan jonne sotdi.

- Alpomishbek mast bo‘lib
Tog‘da soyada yotdi.
- Sarg‘aymasin oyday yuzi,
Alpomishga tushdi ko‘zi.
150 Qalmoq elda shul maston
Jodugardir, ayyor o‘zi.
- Ochilib bog‘ning guliga,
Tanglayida shirin tiliga.
Ko‘p qiyomat bo‘libdi,
Boysarining besh yuz eliga.
Quloch yoyib shul maston
Yig‘lab bordi Alpomishning oldiga.
- Ma’lul ko‘nglini xushladi,
Qora ko‘zini yoshladi.
- 160 Momong bo‘lsam men o‘layin, Mulla Hakim,
Alpomishni yig‘lab maston uladi.
- Gul ochildi, gul ochildi yagona,
Qalmoq elda bizlar bo‘ldik devona.
Besh yuz uydan ayrilib,
Boysaridan bizlar bo‘ldik begona.
Armonim yo‘q, Hakimjon,
Bolamjon, ko‘rdim yana.
- 170 Bo‘yinidan moyrilib,
Taqdiri toshdan qattiq ekan,
Izlab kelmadi Alpomish,
Qoldim boylardan ayrilib.
- Bog‘da so‘lib gullarini,
Boylab oldi qo‘llarini,
O‘ldirdi ularini,
Sen kelmading, Hakimjon.
Talab oldi mollarini,
Qalmoq deydi joylarini.

180

Shul qalmoqlar o‘ldirgandir
Besh yuz uyning boylarini.
O‘lja qilib ham oldi
Moli, puli qo‘ylarini.

Otning quyrug‘i tuyulib,
Iloji etmas jiyilib.
Sen kelmading, Hakimjon,
Uylari qoldi o‘yilib.

Rangi-ro‘ylari buzilib,
Yurak-go‘shti ezilib,
Ko‘zdan yoshi tizilib,
Onalar qoldi buzilib.

190

Uyning beldovin echib,
Keb edik sizlardan kechib,
Shul qalmoqdan qutilib,
Shu erga keldik ko‘chib, –

297

deb aytgan so‘ng Algomishning manglayi tozarib, ko‘zi qizarib, mast tuyaday bo‘lib, g‘ayrati juda oshdi. Momoga qarab:

200

Olgan bo‘lsa Boysarining elini,
Men bog‘larman bu dushmanning qo‘lini,
Sug‘irarman qalmoq podsho tilini,
Quritarman bu qalmoqning ko‘lini,
Endi ko‘ring, bu qalmoqning holini.
Bitta odamni qirq qilib,
O‘ldirarman qizi-ulini.

Mulla Hakim deydi otimni,
Hech kim bilmas qanoatimni,
Ko‘rganda dushman qanotimni,
Ko‘rganda dushman yig‘lashar,
Ko‘rib qolsa jasadimni.

Qizil gulday so‘lmadim,
O‘ldirganini, momojon,

-
- 210 Qani o‘zim bilmadim,
 Kayfim o‘zimga keldi,
 Ilgariroqdan kelmadim.
- So‘ng yuragi idirab,
 Bosh aylanib guldirab,
 Yuragi toshdi mullaning
 Mast tuyaday guldirab.
- Qish bilan yoz dardi,
 Ovora qildi bizlardi.
 Borib ko‘rgin, Hakimjon,
 Ko‘k kiygan bo‘ydoq qizlardi.
- 220 Suv boshi do‘lob-do‘lob,
 Yig‘layotir shu maston,
 Mulla Hakimni olib ketdi etalab.
- Qutilmadi bu qalmoqning qastidan,
 Mulla Hakimni olib ketdi,
 Ayni choshgoh choy vaqtি,
 Olib bordi qirq o‘tovning ustidan.
- Otning yolini mulla Hakim taradi,
 Bu nima, deb momosidan so‘radi.
 Qirq kelinchak ko‘k kiyib,
 Voy og‘am, deb qaradi.
- 230 Ma’lul ko‘nglin xushladi,
 Qog‘ozday labin tishladi.
 Voy og‘am, deb kelinchak,
 Mulla Hakimbekni ushladi.
- Bechiroqning bag‘ri kabob,
 Hol so‘ramoq asil savob,
 Bu qalmoqning dastidan,
 Kelinchakman, bag‘rim kabob.
- Mulla Hakimjon, borisan,
 Uzangidan qildi tavof.

240 Osiy qulman qildim dod,
O‘zimiz edik parizod,
To‘ramizdan ayrilib,
Tuproqdan qildik ovqat,
Shu bo‘ldi oxir-oqibat.
Mulla Hakimjon, bormisan,
Otini qildi ziyorat.

Bulut bo‘lmay havo yog‘ib,
Bizlarga qoldi kun tug‘ib,
Bu qalmoqning jabridan,
Qirqimiz qoldik ko‘k kiyib.
Angladingmi, Mulla Hakim,
Kelmading bizlarni quvib.

Qibladan tuqqandi oyimiz,
Shu qalmoqning qo‘lida
O‘ldi besh yuz boyimiz,
Qochib qoldik qo‘lidan,
Dalada qoldi joyimiz.
Ko‘k yoyilib qolgandi,
O‘rdaxona, uyimiz.
260 Bu qalmoqning qo‘lida
Ko‘plar qoldi qo‘yimiz.

Bu dunyo bo‘ldi foniylar,
Esiz boylarning joni.
Besh yuz uy bo‘b keb edik,
Ne sababdan kelmading,
Qo‘ng‘irotning xoni-boyi?

Ochiladi bog‘ning gulni,
Xazon bo‘ldi sog‘u so‘li,
Bu qalmoqning jabridan,
O‘lib ketdi qizu uli.
270

Umrim o‘tmadi shod bilan,
Biz hamsoya bo‘libmiz
Qalmoq gala it bilan.

-
- Boylarimizni o‘ldirdi,
Imomnsiz qalmoq zo‘r bilan.
Orqa yurtga borarmiz,
Endi qanday bet bilan.
Qabul qilib so‘z bilan,
Boyimizni o‘ldirdi,
Ko‘rib qoldik ko‘z bilan.
Endi sen ham, Hakimjon,
Suhbat qilgil biz bilan,
Boylarimizdan ayrilib
Orqa yurti Xo‘jandga
Qaytib borarmiz yuz bilan.
- Lochin qushday chagamiz,
Ishonganim og‘amiz,
Suyangan, tayanganimiz,
Bu qalmoqning jabridan
O‘lganday bosh egamiz.
- Gul ochilib yagona,
Ko‘kmak bo‘lib qolmoqda,
G‘arib bo‘ldik devona.
- Armonim yo‘q, og‘ajon,
Orqa yurtni ko‘rsam man.
Bizni endi olib ket
Orqa yurday elingga.
Sarson bo‘lib qolmayik
Bu qalmoqning elida.
- Hakimjonim kelar deb,
Men qaradim yo‘lingga.
Opang bo‘lsam, o‘layin,
Meni olgin qo‘lingga.

Alqissa andan so‘ng bu so‘zlarni eshitib: – “Ot aylanib qozig‘ini topar” degan ekan. Men Barchinni olib ketgan vaqtimda yur, dedim, bormadinglar. “Biz urishib orqa yurtdan chiqqan edik, qay bet bilan qaytib boramiz”, – deb Boysari aytgan edi. Bir yildan beri men sizlardan xat olmadim. Ahvollaring nechuk o‘tganini bilmadim. Kecha kunduz

ovlab yurib, men ham yo'qlab kelmadim. Singlim, besh yuz kishi o'lgan bo'lsa, qalmoqdan o'n ming kishini o'ldirmasam, mening otim Mulla Hakim bo'lmasin, – deb Alpomish qirqin qizlarga tasallo aytib, ularning ko'nglini olib yotibdi:

310

Men enadan bo'lganim,
Og'ir zalgordi solganim,
Bugun o'n kun bo'lgandi
Qalmoq elga kelganim.
Qon yig'lama, egachim,
Izingdan keldi orqadan
Hakimbekday polvoning.

Cho'llarda uchgandi lochin,
Bilakka to'karman kuchim,
Qalmoqqa zo'rlik qilarman,
Olarman boylarning o'chin.
Attang, boshdan toyladim
Boysari akamning ko'chin.
Qalmoq elni qo'ymasman,
Hakimbek keldi, egachim.

301

320

Nechovini sop etarman,
Yer yuzini qon etarman,
Qalmoq elning podshosin
Terakday qip ag'natarman.
Hakimbek deydi meni,
Zo'rligimni ko'rsatarmen.
Qalmoq elning o'g'lini
Zorillatib haydatarman.
Shahridan oqqan suvini
G'azab qilib quritarman,
Qalmoq elning podshosin
Er betida chiritarman.

330

Alpomish deydi otimni,
O'qimay chiqardim xatimni,
Qalmoq elda o'ldi deb
Menga aytding dotingni,

Parvo qilma, egachim,
Bosib keldim ortingni.

Bilakka to‘kib kuchimni,
Nasib bo‘lsa men keldim,
Qalmoqdan olay o‘chimni.

Alpomishbek bularni ovuntirib, o‘zini otdan tayladi. Maston kampir Mulla Hakimning otini o‘xshatib boyladı. – Mana, marhamat qiling, Mulla Hakimjon, o‘tovga kiring. Kunning kuni ko‘p, besh-olti kun damin-gizni oling, – deb Alpomishbekni o‘tovga soldi. Shunday o‘tiraman degan vaqtida, chohning og‘ziga xas to‘sagan ekan, ustidan ko‘rpacha tashlag-an ekan, Alpomish birdaniga sakson gaz chohga tushib ketdi.

– Qirqin qizlar, uyni buzinglar, ismgarlik bilan Alpomishni bandi qildik, endi qalmoqning podshosidan suyunchi olayik. Qo‘ng‘irotning pol-voni endi chohning ichida o‘lib ketadi. Orqa yurtdan kelib bandi bo‘ldi, holini ko‘rdik, – deb maston kampir qizlari bilan ko‘chib, Alpomishning otini olib, yov-yarog‘ni otning ustiga solib, qalmoq podshosining oldiga bordi. Alqissa, andan so‘ng qalmoq podshoga maston kampir: – mana, oti, mana to‘ni, Alpomishni bandi qildim, – deb aytib turgan chog‘i:

340

Qasd urganman orqa yurtning sho‘rini,
Endi oldim ostidagi tulporini,
Suyunchi ber qalmoq elning podshosi,
Chohga soldim qo‘ng‘irotning zo‘rini.

Endi qolmadi o‘ching,
Qanday ekan mening kuchim,
Qo‘llarda uchadi lochin,
Endi ko‘rsat in’omingni,
Podshojon, bergen suyunchi.

350

Yerga to‘kdym qonini,
Shu zindonda chiritay
Hakimbek suyagini.
Suyunchi ber, podshohim,
Olib keldim oti, to‘nini,
Bu zindonga berkiddim
Orqa yurtning xonini.

Parvo qilma, podshojon,
Oldim Hakimning jonini.

360

Endi to‘yni qila ber,
Parvo qilmay, podshojon,
O‘lmay davron sura ber,
Mulla Hakimni yo‘qotdim,
Aytgan va’dangni bera ber.

Kundan olam ziyoda,
Lochin qushlar uyada,
Otini o‘lja qib oldim,
Chohda qoldi piyoda.

370

Og‘ir davlatni tebratib,
Orqa yurtning zo‘rini
Chohlarga soldim ovnatib,
Men ham davron surayin,
Ham elingda men yotib.

303

Bu so‘zni qalmoq podshosiga aytdi. Shundan qalmoqning barchasi-ga: “Orqa yurtning begini maston kampir bandi qildi, chohga solidibi. “Otini, to‘nini o‘lja olibdi. Barchinning qasdidan shunday ishlar bo‘lib-di”, – degan gap yoyildi. Qalmoq podshosi elini yig‘ib, qo‘yini so‘yib, bandi qilganining xushvaqtchiligiga qirq kecha kunduz to‘y berdi. Al-pomishning Boychibor otining qulog‘iga qo‘rg‘oshin quyib, oyog‘iga g‘ul to‘kib, bo‘yniga yetti boylam zavgi solib, ko‘zini bog‘lab, yetti qa-vat tomming ostiga bandi qilib tashladi.

Boysari orqa yurtdan qalmoqqa ko‘chib kelgan vaqtida Mulla Hakimbekning do‘ssti Elomon Boysari qaynotasining qo‘yini boqib, cho‘pon bo‘lib kelgan edi. Kayqubod kal Boysarining tuyasini boqib yurar edi. Boysarini o‘ldirib, moli-dunyosini qalmoq podshosi olgan edi. Qalmoq podshosining ikkita qizi bor edi. Kattakonini Tovka deyar edi. Kichkinasini Olovka deyar edi. Elomonni o‘ldirmay, Boysarining qo‘yini boqtirib qo‘ygan edi. Endi gapni Elomondan eshititing.

Bugun uch kun bo‘ldi, Elomon Alpomishning bandi bo‘lganini es-hittdi. Qo‘yni Kayqubodga tashlab, yarim kecha Alpomishning chohiga keldi. Choh boshida turib, ko‘ngli buzilib, yurak go‘shti ezilib: Alpo-mishjon, bormisan, – deb Alpomishga so‘z aytayotgan chog‘i shekilli:

380

Xazon bo‘lib qizil gulday so‘ldingmi,
 Poymonangdan sen, hakimbek, to‘ldingmi,
 Sabab bilan o‘zing shunda keldingmi,
 O‘likmisan, tirikmisan, Alpomish,
 Shu qalmoqqa kelib bandi bo‘ldingmi?!

Bo‘lmasinda baland-pasing,
 Endi ketdi mening tusim,
 Shul zindonning ichida,
 Hakimjon bormisan sasing,
 Dov-dovshingni chiqargin,
 Jonimdan ortiq do‘stim.

Qora ko‘zda qonli yoshim eshilib,
 Men eshitib, o‘pkam qoldi teshilib,
 Qalmoq elga bandi bo‘lgan Alpomish,
 Tovush bergil, men ham o‘lay qo‘shilib.

390

Ko‘p bo‘ladi mard yigitning gumoni,
 Tiriklikda ko‘rmadim, do‘stim, seni,
 Tirik bo‘lsang, tovushiningni chiqargin,
 Elomon deydi-da, meni.

Men aylanay ikki qora ko‘zingdan,
 Qaddi bo‘ying, qomatingdan, o‘zingdan,
 Bandililing eshitganman, Alpomish,
 Xabar topib izlab keldim izingdan.

400

Safar qilib chiqib eding elingdan,
 Bandililing eshitganman, Alpomish,
 Men kelibman shuytib yig‘lab yo‘lingdan,
 Endi mendan rozi bo‘lgan, Mulla Hakim,
 Hech bir iloj kelmay qoldi qo‘limdan.

Orqa yurtda olmamisan, normisan,
 Tirikmisan, yolg‘onchida bormisan,
 Quriqmisan, bu zindonda ho‘lmisan?!

Ot chopgansan orqa yurtning dashiga,

Parvo qilmay yotabergin, Alpomish,
Bunday kunlar tug‘adi mard boshiga.

Alpomish bu so‘zlarni eshitdi: – Elomon bo‘lsang, mendan buytib xabar olmagin, qalmoqning qo‘liga sen ham shunday tushib qolmagin, birov-birov ko‘rib, eshitib qolmasin. Uch kunda, to‘rt kunda xalqni uxlatalib, bildirmay, do‘sit bo‘lsang, menga yordamingni qilib tur. Qizil gul so‘lmaydi, mard yigit enadan bo‘lmaydi, – dedi. Elomon Alpomishning eson-omonligini bilib, xursand bo‘lib, uch-to‘rt kunda kechalab qo‘yni tiriklay tashlab keta berdi. Alpomish Elomon olib kelgan qo‘ylar ni tiriklay eb yotaberdi. Shunday qilib jiyanini boqib turdi. O‘n to‘rt yosharinda chohga tushgan edi, yetti yil chohda yotib, tuproqdan ovqat qilib, omon-eson yota berdi.

Bir kuni Alpomish chohining boshiga bir qora qarg‘a kelib qo‘nib turar edi. “Alpomish o‘lgan bo‘lsa, go‘shtidan esam”, deb umid qilar edi. Alpomishbek buni ko‘rib: “Ey, Xudoyo-xudovando, mening g‘aribligimni, yolg‘izligimni, bandiligidimni ham musofirligimni shu qarg‘a ham bilibdi. Xudodan amr bo‘lsa, bir bo‘lak shamol kelsa, qarg‘aning tubidan itarsa, kelib chohga tushsa, ushlab olib, pati bilan og‘zimga solsam, go‘shtini burda-burda qilib esam, suyagini chaynab osmonga purksam, murodimga etar edim”. Shunday deb gapirgan vaqtida bir bo‘lak dovul keldi. Qarg‘ani birdan chohga tiqdi. Alpomish shu paytda lo‘nda qilib, qarg‘ani pat-mati bilan birdan og‘ziga soldi. Go‘shtini burda-burda qilib eb, suyagini mayda-mayda chaynab, osmonga purkdi. “Yangi murodima etdim”, – dedi. Alpomish shunday qilib turgan vaqtida chohning ustidan bir bo‘lak g‘oz uchib o‘tdi. Bir lochin g‘ozning biroviga tekkan ekan, shu g‘ozning oyog‘i sinib ketgan ekan. Boyagi oqsoq g‘oz bo‘lak g‘ozlardan ayrilib kelib, chohning boshiga qo‘ndi. Alpomish buni ko‘rib: “E, jonivor, qush ichida sen g‘arib, odamzoddan men g‘arib. Agar kelsang qoshima, seni boqayin dam berib, shu zindonning ichida ikkimiz bo‘layik qarib”, – dedi.

305

Alqissa, andan so‘ng Alpomishbekning ko‘zidan yosh tizilib, ko‘ngli qoldi buzilib, yetti yil zindonda yotib yurolmadi yozilib. Ana oqsoq g‘ozga qarab, so‘z aytayotir:

Jonivorgina, oqsoq g‘oz,
Tovushginang buncha soz,
Tayla chohning tubiga,
Suhbatlashayik ikkimiz.

- 410 Yetti yil zindonda yotdi,
 Alpomish yolg‘iz boshi,
 Orqasidan kelmadi
 Birorta qarindoshi.
 Qaldirg‘och emchakdoshi,
 Qoldi elda qardoshi,
 Tayla chohning tubiga,
 Sen ham Xudoning qushi.
- 420 Bormi ko‘ngling oqligi,
 Qurib ketsin murodimning yo‘qligi.
 Tayla chohning tubiga,
 Sen ham Tangrining maxluqi.
- Dovul, qorli, yo‘l tuman,
 Chiqardan chiqmasim gumon,
 O‘z elimga borsam omon,
 Yolg‘iz boshga oxir zamon.
- Yolg‘iz qoldim dunyoda,
 O‘lib ketsam qaytaman.
 Tayla chohning tubiga,
 Bir changal par parranda.
- 430 Qo‘y keladi vaqtin bilib qo‘ziga,
 Quloq soldi Alpomishning so‘ziga,
 O‘ng‘arilib yanga keldi o‘ziga,
 Alpomishning tovushini eshitib,
 Chohga taylab, qo‘ndi bekning tiziga.
- Singan oyog‘ini tang‘idi,
 Tirgagini mahkam qib,
 Shu yaraga yoqadi.
 Kecha kunduz Mulla Hakim
 Qo‘ldan don berib boqadi.
- 440 Bu yotgani alam qib,
 Kunda mullaga salom qib,

Xat bitmakchi Alpomish,
Kiprigidan qalam qib.

Osmonda yorqin oyi,
Bir bolam deb ko‘r bo‘ldi,
Boybo‘ri qiblagoyi,
Kiprigidan qalam qib,
Ko‘zyoshidan siyohi.

450 Suyrisiga sut bitdi,
 Eyrisiga et bitdi,
 Qirq kecha kunduz boqdi,
 Yarasiga o‘ng etdi.
 Kiprigidan qalam qib,
 Shopariga xat bitdi.

– Ey, jonivor oqsoq g‘oz, seni boqdim. Sendan boshqa mehribonim yo‘q. Ota-enamni xat qilib, shoparingga bitsam, shu xatni Xo‘jand mammalatiga olib borib bersang. Shu xatni ko‘rib bir mehribonim, yorim kelsa, – deb oqsoq g‘ozning shopariga ota-enasini solib, xat qilib, ota-onayurtiga xatni jo‘natayotgan chog‘i:

307

Dardu alamdir shu tilla,
Badandadir yolg‘iz kalla,
Avval shoparga xat bitdi,
Boshiga soldi bismilla.

460 Erday arning, sherning sheri,
 Chirkin dunyo qo‘lning kiri,
 Polvon Ahmad miltiq jiri.
 Shopariga xat bitdi:
 Qiblagoh otam Boybo‘ri.

Besh kun davr, besh kun xush,
Hech erga etmadi nolish,
Asli vaqt(soati etmasa,
Zindondan chiqmoq qiyindir.
Shopariga xat bitdi:
Sut bergen enam Kuntug‘mish.

- 470 Bilakka tugib ko‘p kuchin,
 Yig‘lab yotgan Alpomish
 Dushmandan olsa o‘chin.
 Vo to‘ram, deb yig‘lagin,
 Joy qoldi sumbul sochim.
 Shopariga xat bitdim:
 Qolgan yorim Oybarchin.
- 480 Chagalgandi ustixon,
 Endi jonim bo‘lgan mehmon,
 Fido bo‘ldi aziz jon.
 Shopariga xat bitdim:
 Sag‘ir bolam Yodigor.
- Yig‘lagan o‘z oldiga,
 Borsam singlimning oldiga,
 Shopariga xat bitdim:
 Emchakdosh singlim qoldi.
- 490 Osmonga uchgan o‘rdak, g‘oz,
 Xudoning nuri sizu biz,
 Bu zindonda bormisan,
 Og‘zingdan chiqqan qanday so‘z,
 Shopariga xat bitdi:
 Qulim deydi Ultontoz.
- Bo‘lmasin baland-pastim,
 So‘zni aytib ketdi esim,
 Ko‘p edi oru nomusim.
 Shopariga xat bitdi:
 Qorolchin deydi do‘sims.

Alqissa andan so‘ng, qanotiga kuchin to‘kib, cho‘llarda lochin ko‘rmasin, deb oqsoq g‘oz parvoz qilib uchdi. Uch shabron yo‘l tortib, Xo‘jand mamlakatning qorasini ko‘rdi. Hovdak degan ko‘lga borib qo‘ndi. Bul endi bu erda turabersin.

Alpomishbekning Ultontoz degan odami bor edi. Yetti yil bo‘ldi mul-la Hakimming ketganiga. “Albatta o‘lgan, o‘lmasa, kelar edi”. Ultontoz

Alpomishning amaldor, jig‘ador, nomdor xalqini chiqarib, buyrapo‘sh qilib, xalqqa gapi o‘tmay, bular shuytib qolgan edi. Ultontoz ismini Sul-ton qo‘yib, o‘g‘ri, o‘tirikchidan yig‘ib, besh yuz kishini to‘qsabo qil-gan edi. Mulla Hakimning pulining, molining, zarining, har na borining hisobini olib, Sultonbek Alpomishning taxtiga minib, podsho bo‘lgan edi. Xalqqa jarchi qichqirgan: “Kim mening otimni Ulton desa, moli – talonda, boshi – o‘limda”, – deb Sulton degan ism qo‘yan edi. Sulton besh yuz kishiga maslahat qildi: “Xabron toqqa borayik. Hovdak ko‘liga dobil tuzayik, qush qo‘yayik, xannon qaratib, tozi yogurtib, qashqaldoq, so‘na, tuvaloq, ilingen narsani otayik. Otlarga ortib qaytayik. Otlar ko‘tara olmasa, tuyani ham kira qilib yurtayik”, – deb besh yuz kishi bilan Sulton ovga chiqqa berdi. Alpomishning o‘g‘li Yodgor, oldini tortsa, keyini ochilib, keyinini tortsa, oldi ochilib, ko‘chalarda yig‘lib yurgan edi. U Sultonning ovga ketganini ko‘rib, bachchaning ko‘ngli buzilib, ko‘zidan yoshi tizilib: “Otam oldinda turib, qanotim yurmadi yozilib, otajonim bo‘lganda, beklik davrinda turganda, nimani minsam, minar edim. Nimani kiysam, kiyar edim, nimani esam, eyar edim. Sultonning ovga ketishi u yog‘im, bu yog‘imdan o‘tdi. Suyagimning ham zili etdi. Taka-ko‘chqor boqib yuruvga qoldik. Otamning oldiga borayin”, – deb ammasining oldiga borib, oyog‘ini erga tirab, ammasiga qarab: – Ot bilan qush topib ber. Sulton toqqa ketdi. Men ham borayin, – deb alg‘aroz andan so‘ng so‘z aytayotgan chog‘i shekilli:

309

Sag‘ir qulman, kecha-kunduz yig‘layman,
Tilim shoир, gapni gapga ulayman,
Shirin tilli, lafzi bordir, ammajon,
Ot bilan qush, deb senga kelib yig‘layman.

500

Qoni qochdi Yodigorning yuzidan,
Men qo‘rqaman Sultonbekning o‘zidan,
Men sadag‘a bo‘lay, g‘arib ammajon,
Ot topib ber, ketay sulton izidan.

Gap keladi Yodgorning tilidan,
G‘arib otam ketibdi Xo‘jand elidan,
Hech ish kelmay Yodgorning qo‘lidan,
Ot minay, qush topib bergen ammajon,
Menham ketay Sultonbekning izidan.

510

Uchgan vaqtida tayrildi qanotidan,
 Kun ko‘rvu qanday bo‘ldi Xo‘jand yurtidan,
 Otam o‘lgan kishidir, xabar bo‘lmadi ketidan,
 Ot bilan qush topib bergin, ammajon,
 Men ham ketay Sultonbekning ortidan.

Ayrilib biz molu dunyo, zaridan,
 Ham ayrildik otam kirdikoridan,
 Ot bilan qush topib bergin, ammajon,
 Men ham ketay Sultonbekning chordinan.

520

Qayg‘urganning suyaklari sil bo‘lar,
 Yil degani uch yuz oltmis kun bo‘lar,
 So‘naning mazgili Oynako‘l bo‘lar,
 Turnalar qo‘silsa, bari xil bo‘lar,
 Yigit o‘lsa, obod uylar cho‘l bo‘lar,
 Qayg‘u bilan kuyib yurgan, jon amma,
 Yodgorman, aytgan so‘zim shul bo‘lar.

Ammasi Yodgordan bu so‘zlarni eshitib, suyaklari shovshab ketdi.
 Ammasi bilagini Yodgorning bo‘yniga solib: – Og‘ajonim, menda ot
 bilan qush bo‘lmasa, qanday qilaman, – deb Yodgorga nasihat berayotir
 ammasi shu vaqt:

Qoldik omon, endi holim qalaydi[r],
 Manglayimni og‘am bo‘lsa silaydi[r],
 Yaratgandan o‘lim ber deb tilaydi[r],
 Beray desa oti yo‘q, Yodgorni quchoqlab yig‘laydi[r].

530

G‘unchasidan toza gullar so‘lmasa,
 Menday ammang vaqtি etib o‘lmasa,
 Tirik bo‘lsam, men o‘layin, Yodigor,
 Men g‘aribda ot bilan qush bo‘lmasa.

Endi qarg‘alar to‘ysin bu ammangning loshiga,
 Ot deb yig‘lab kelasan ammajoning qoshiga,
 Qoyil bo‘lmoq kerak yaratgan Xudo ishiga,
 Yig‘lama, deb ammasi yig‘lar, bosib to‘shiga.

-
- Biror mehribonim yo‘q ekan,
Axtarsa og‘am keynidan.
- 540 Yodigorni yig‘latib,
Ko‘tarib bosdi qo‘yniga.
Minmading ot sag‘riga,
Kuching etmadi, jon og‘am,
Otangdan qolgan hovliga.
Qon yig‘lama, jon og‘am,
Ammasi bosdi bag‘riga.
- Gul ochildi yagona,
Armonli bo‘ldim devona,
Armonim yo‘q Yodigor,
550 Otangni ko‘rsam yana.
- Qoldim elimda yolg‘iz,
Qon yig‘lama, Yodigor,
Sen otangdan begona,
Men og‘amdan begona.
Tegara dashtda dushlar-a,
G‘ovg‘aga qoldi boshlar-a.
Men og‘amdan ayrildim.
Og‘amni ko‘rsatar Xudo.
- Topsam, tavof qilayin,
560 G‘arib og‘amning izini,
Qay erlarda tirjiratdi,
Tuyg‘un og‘amning ko‘zini.
Armonim yo‘q dunyoda,
Birgina ko‘rsam yuzini.
- Oy nechaga-nechaga,
Tog‘ning usti archaga.
Bulbullar qo‘nar shoxchaga,
Shuncha zulmlar o‘tdi,
570 Yodgor sag‘ir bachchaga.
Yodigorni ko‘tarib,
Ammasi kirdi ko‘chaga.

Yodgorni yupatib, ovuntirdi. Yodgor ko‘nmay injiqlik qilib yig‘ladi.
– Otadan qolmay ket, enadan qolmay ket. O‘ttiz olti tegirmon, o‘ttiz sakkiz objuvoz olgan otangning Qorolchin degan do‘sti bor. Shuniki-
ga borsak, otangning tuzini hurmat qilib, bir palangi yobi bilan qush
senga berarmikan, – deb ammasi Yodgorni ko‘tarib Qorolchinning dar-
vozasiga borib: – Uydamisan, Olchin aka. Ot bilan qush deb yig‘laydi
do‘stingning o‘g‘li Yodgor, – deb Qorolchinga bir so‘z aytadi:

Bu yig‘lasa, men ham yig‘layman,
Manglayini yig‘lama, deb silayman,
Uydamisan, Olchin aka, quloq sol,
Sag‘ir uchun ot bilan qush tilayman.

580

G‘unchalikdan sen uzgansan gulini,
Kim so‘raydi Yodigorning holini,
Shunga bersang otasining molini,
Uydamisan, Olchin aka, quloq sol,
Yupatib ol do‘sting sag‘ir ulini.

312

Quchgan edi parizodini,
Oyday qib yor jasadini,
Yetti yil ketdi Alpomish,
Ko‘z yosh qilib ovqatini,
Uydamisan, Olchin aka, quloq sol,
Yig‘latma do‘sting farzandini.

590

Ko‘p egansan shul akamning tuzini,
Ko‘rmay o‘ldim shu og‘amning yuzini,
Elantirma Boybo‘rining qizini.

Uydamisan, quloq tutgin, Olchinbek,
Yupatib ol do‘stingning yolg‘izini.

G‘unchasidan bog‘da gullar so‘lmasin,
Alpomish minarmikan Boychibor olasin,
Yana qaytib obod qilarmikan qalasin,
Uydamisan, Olchin aka, quloq sol,
Yupatib ol jon do‘stingning bolasin.

Ko‘tarilmas muna tog‘ning tumani,
So‘rasang, Qaldirg‘och deydilar meni,

Umid tortib keldim men oldingga,
Alpomishning do'sti deb aytadi seni.
Elanib-elanib yig'laydi ammasi,
Qabatida turibdi sag'ir bolasi.

Qonday bo'p uyda yotir,
Qulqo soldi Qorolchin,
Qaldirk'ochning yetti sasi,
Tovushini eshitib,
Joyidan turdi bekning do'sti.

Alqissa andan so'ng bu so'zlarni Qaldirk'ochdan eshitib: – Oyim, nimaga yig'laysiz shuncha, akangizni pesha qilib gapirmang munkha, – dedi. Qaldirk'och: – Qorolchin aka, mening sizga arzim shu. Sizning do'stingiz Alpomishbek yetti yil bo'lidi ketganiga. Mana, sag'irning ahvoli shul. Alpomishning tuzini haqlab besh-olti vaqt o'g'lini saqlab yursang. Bir palanggi yobi, bir yaraydigan qush bersang, shu Yodgorni ovlatib kelsang, – dedi. Qorolchin: – Ey, oyim, yurgan yurishingiz qoyim, ke-la-keta yursangiz doyim. Do'stimming o'lgani emas, bachchaning shuytib chuvillab qolgani emas, bir ot bilan bir qushni gardkam bersam, sizning uchun beraman, – deb bir ot bilan bir qushni chiqarib berdi.

Yodgor oldin, ammasi keyin, qushni Yodgorning qo'liga berib, bular ham Hovdak ko'liga ovga chiqib ketdi. Boyagi oqsoq g'ozga Yodgorning ko'zi tushdi. Yodgor qushni chuydi. Oqsoq g'oz uchib ketdi. Boyagi qush surib ketdi. G'oz bo'lsa etkazmay bu yoqqa burib ketdi. Tumshug'i bilan g'oz Alpomishning yuborgan xatini shoparidan yulib olib erga tashlab ketdi. Uni Yodgorning quishi bosdi. "Oldi", – deyishib yugurib borib, oyog'idan ayirib oldi. Qaldirk'och savodi chiqqan mulla edi. Xatga ko'zi tushdi, ichida Alpomish bor ekan: "Men tirkman, otam Boybo'ri, enam Kuntug'mish, yorim Oybarchin, o'g'lim Yodgor, singlim Qaldirk'och, qulim Ultontoz va do'stim Qorolchin. Do'stim bor, bo'yinsam bor, yaxshim bor, yomonim bor, do'st-dushmanim bor, bioriasi kelib meni chohdan chiqarib olsin. Tog'ning darasida, Sherobodning ustida yetti yil chohda yotganman. Men tirkman", – deb yozgan xati shul ekan. Qaldirk'och buni ko'rib chuno vaqtি xush bo'lidi. Og'asining zindonligini bildi. Qaldirk'och aytidi: – Yodogr, endi ketamiz. Yetti yillik ovni bir kunda oldik. Mingashib ikkovi birga Qorolchinning hovlisiga qaytdi. Ot bilan qushni Qorolchinga topshirdi. Qaldirk'och aytidi: – Ey, Qorolchin aka, sizga mening arzim bor. Qorolchin aytidi: – Ha,

oyim, gapiring! Qaldirg‘och: – Gapisam, ot topsa, minishgan, to‘n topsa, kiyishgan, bir mayiz topsa, bo‘lib eyishgan, qiyomat kun deyishgan sening do‘sting, mening og‘am Sheroboda G‘oz deganning og‘zida chohda qolganiga yetti yil bo‘lgan ekan. Og‘am tirik ekan. Shul og‘amning tuzini hurmat qilib, Algomishni chiqarib olib kelib bersang, – degan edim. Qorolchin aytdi: – Oyim, bu gaping durust, xizmatingni qilaman. Ko‘nglimda bir gapim bor, men ham senga aytaman. Qaldirg‘och aytdi: – Muddaongni sen ham ayt. Qorolchin aytdi: – Suzim shul, akang zindonda bo‘lsa, o‘zini olib kelarman, o‘lgan bo‘lsa ham suyagini xurjunga solib kelaman. Ko‘zingga ko‘rsatman, taningni tanimga bir qoshiq suv bilan bag‘ishlasang, boraman. Shu ishni qilmasang, bormayman. Mening muddaom shul. Qaldirg‘och: – Nima gap bilan bo‘lsa ham, og‘amning o‘lik-tirikligini ma’lum qilib bersang, gapning qisqasi, o‘zim tegsam ham, tegmasam ham tegaman, – dedi.

Qorolchin bu so‘zlarni eshitib, ot ni sozlab, ming quloch ipak arg‘amchini xurjunga solib, Algomishning chohini so‘rab, Xo‘jand elidan Sherobodga ketayotgan joyi:

314

610

Barchani parvarish qilgan
Avval ota-enadi[r],
Holini bilgan donadi[r],
Ot o‘ynatib Qorolchin,
Ko‘hikon toqqa jo‘nadi.

Sanoqni oldi oydan,
Chopayotir maydon-maydon,
Algomishni topib olsam,
Borib etgan ham joydan,
Ot o‘ynatib Qorolchin
O‘tadi necha soyidan.

620

Yaxshiligiga jilayin,
Kecha-kunduz yugurib,
Mullani eldan so‘rayin,
Ham axtarib ko‘rayin,
Intizor bo‘p yotgan bo‘lsa,
Men ham qoshiga borayin.

Ot cholgandir tog‘u toshga,
Tuyoq tegdi bovur-boshga,

Ot o‘ynatib Qorolchin
Ovora bo‘ldi necha dashtda.

630 Olis bo‘ldi orasi,
 Yetti yil bo‘ldi yotgani
 Boybo‘rining bolasi.
 Ko‘zin ochib qaradi,
 Ko‘rindi Ko‘ykon qorasni.

Haqqa yetib dodiga
Qarang Alpomish karomatiga,
Yetti yildan beriman,
Yotar arning tubiga.
Ot o‘ynatib namozshom,
Yonashdi tog‘ning betiga.

640 Barakalla bastiga,
 Qilich olgan dastiga,
 Yetti yil bo‘ldi Alpomish,
 Yotar arning ostida.
 Ayni xufton Qorolchin
 Chiqdi tog‘ning ustiga.

315

Ko‘zi to‘ldi yoshiga,
Jabr qildi yo‘ldoshiga,
Yetti yildan beriman
Kuni tuvib yotibdi
650 Alpomishning boshiga.
Yarim kecha Qorolchin
Keldi chohning qoshiga.

Alqissa andan so‘ng, oy bo‘lsa sutday, o‘n to‘rt kunlik yorug‘. Chohni ko‘rib: “Albatta Alpomishning chohi, bormikan, yo‘qmikan?” – deb chohga qarab turib edi. Alpomishbek oqsoq g‘ozni jo‘natgandan beriman “Elimdan bir xabar bo‘larmi?” – deb uyg‘oq yotgan edi. Bir nimaning soyasi chohga tushganday bo‘ldi. Alpomish aytди: “Ey, Xudo, shul oqsoq g‘oz Hovdakning qo‘liga ko‘ndimikan. Bir mehribonim shu sababdan keldimikan?” Chohning boshidan: – Mehribonim, kimsan? – deb so‘rab turgan chog‘i ekan:

Yangidan ko'r bo'lgan,
 Bosgan iziga zor bo'lgan,
 G'aribning holi tor bo'lgan,
 Chohning boshidan qaragan,
 Boybo'ri otammisan?

660 Sovuq beshik tayangan,
 Bir bolam deb suyangan,
 Chuchchi uyquda yotganda,
 Emchak solib uyangan,
 Tangrim yo'liga atagan.
 Xudoy yo'liga qo'y aytgan,
 Qattiq uyquda yotgan,
 Nim bo'ldi deb uyangan,
 G'aribning holin so'ragan,
 Kuntug'mush enammisani?!

316 Kirgan uyi chok bo'lingan,
 Yopingani ko'k bo'lgan,
 Jo'rabsoshi toq bo'lgan,
 Yetti yildan beriman,
 Alpomishi yo'q bo'lgan,
 Choh boshidan qaragan,
 Barchin yorimmisan?!

670 Otning yolin o'rmagan,
 Beklik davrin surmagan.
 Enada qo'rsoqda qolgan,
 Otaning yuzin ko'rmagan,
 Chohning boshidan qaragan,
 Yodgorjon ulimmisan?!

680 Boshiga aza o'ragan,
 G'arib og'am kelar, deb
 Kunda yo'lga qaragan,
 Shunday kunda yaragan,
 G'aribning holin so'ragan,
 Qaldirg'och singlimmisan?!

Oyog‘i erga sig‘magan,
 Ozod xati tegmagan,
 Bek o‘rniga bek bo‘lgan,
 Sarkardasi ko‘p bo‘lgan,
 Chohning boshidan qaragan,
 Ultontoz qulimmisan?!

Hovar bo‘lsin baland-pasim,
 Ellarga borsin sasim,
 Bo‘lsin oru nomusim,
 Choh boshidan qaragan,
 Qorolchinnisan, do‘stim?!

Bu so‘zlar Qorolchinga malol keldi. Qorolchin aytdi: – Ey, Alpomish, sening do‘stliging bekor. Otangni aytding, xo‘p aytding. Enangni aytding juft aytding. Hoy-ey, do‘stligingga. Ultontozdan ham meni so‘ng aytding. Men Qorolchin do‘stingman, – deb ming quloch ipak arg‘amchini chohga tashlab yubordi. Alpomishbek ipak arg‘amchining uchini beliga boylab, bilagiga o‘rab, oyog‘ini chohga tirab, Qorolchinga qarab: – Kelgan bo‘lsang tort! – dedi. Qorolchin oyog‘ini mahkam yerga qo‘yib, bor kuchini ikki bilagiga yig‘ib, ikki qo‘llab bir tortdi. Alpomishbek chohning teng yarmiga keldi.

317

Alpomishning ko‘ngliga gap kechdi. Gap kechgani shu bo‘ldi: “Oqsoq g‘oz chohga keldi. Qirq kecha-kunduz chohda oqsoq g‘ozni boqib, qirq kunda oyog‘i bitgan edi. Kiprigimdan qalam qilib, ko‘z yoshdan siyoh qilib, oqsoq g‘ozning shopariga ota-enamni bitgan edim. Oqsoq g‘oz Hovdakning ko‘liga borib qo‘ngan edi. Mamlakatimda Ultontoz mening amaldor, jig‘ador, nomdor, to‘qsabo qilgandi. Ayg‘ir tozi, Qarchig‘ay qushni olib besh yuz kishi bilan toqqqa chiqqandi. Yodgor etim o‘g‘lim ko‘chada bu savdolarni ko‘rgand. “Otajonim bo‘lganda, beklik davrida turganda, men ham ot minib, to‘n kiyib, men ham ovga borar edim, taka-qo‘chqor boqib yurgan ammamga borayin”, – deb Yodgor ammasiga borgandir. “Ot bilan qush topib ber, men ham ovlab kelaman”, – deb ammasiga Yodgor yig‘lagandi. Ammasi: “Ot bilan qush bo‘lmasa, qaerdan topib berayin”, – degandi. Yodgor qayta battar qayg‘u qilib yig‘lagandi. “Yur esa, otangning o‘ttiz olti tegirmon, o‘n sakkiz objuvozini egan Qorolchin degan do‘sti bor. Otangning tuzini hurmat qilib ot bilan qushni shu berar”, – deb ammasi Yodgorni ko‘tarib Qorolchin

darvozasidan borgandi. “Do’sting tuzini hurmat qilib, bir ot bilan qush Yodgorga bersang bo‘lmaydimi”, – degandi. Unda Qorolchin: “Qayg‘um do’stimming o‘lgani emas, sag‘irning shuytib qolgani emas. Ot bilan qushni bersam, sizning uchun beraman”, – degandi. Singlim ham nima desa, degandi. Shu gaplarni gapirib bir qush bilan otni bergandi. Ammasi keyin, Yodgor oldin Hovdakning ko‘liga kelgandi. Oqsoq g‘ozga Yodgorning ko‘zi tushib qushini chuygandi. Shopari tili bilan uzib tashlab ketgandi. U shoparni Yodgorning qushi bosgandi. Ammasi bilan Yodgor borib qushning oyog‘idan olgandi. Qaldirg‘och singlim savodi chiqqan mulla edi. Mening tirikligimni o‘qib bilgandi. Juda ham vaqt xo‘sh bo‘lgandi. “Yetti yillik ovni bir kunda oldik”, degandi. Xatni olib ikkovi mingashib, Qorolchinning uyiga borgandi. Ot bilan qushni Qorolchinga berib: “Qorolchin aka senga yaxshi so‘zim bor. Ot topsa ayamay minishgan, to‘n topsa ayamay kiyishgan, qiyomat kumi deyishgan sening do‘sting Alpomishbek zindonda qolgan ekan. O‘lgan yo‘q ekan. Shu og‘amning tuzini hurmat qilib, shu og‘amni chiqarib ber”, – deb Qorolchinga aytgandi. Qorolchin: “Akang zindonda bo‘lsa, o‘zini olib kelarman. O‘lik bo‘lsa, suyagini xurjunga solib kelarman. Ko‘zinga ko‘rsatsam, tanangni tanamga bag‘ishlasang, menga tegsang”, – degandi. “Agar og‘amning o‘lik-tirigining xabarini aytсанg, sening taningga tanimni bag‘ishlayman”, – degandi. Buni eshitib, Qorolchin kelgandi. Yetti yildan beri menga kelsa, qayqoda edi. Meni chiqarib olsa, doyimgiday taxtimda bek bo‘lib tursam, bir to‘ydami, yo‘ldami, yo cho‘ldami, bir og‘ziga kuchi etmagan birovdan ularga qattiq so‘z aytam, ul: “O‘ligingni chohdan Qorolchin chiqarib kelib edi, shunday qilib singlingni olib edi”, – desa, bu so‘zlar tirik bo‘lsam, ko‘kayimdan ketmaydi. O‘lsam, suyagimdan ham ketmaydi. Yetti yil zindonda yotib, Qorolchinga o‘zimni chiqartib, singlimni Qorolchinga berib qo‘yib, davr surgancha, mening o‘lganim yaxshi”, – deb ipak arg‘amchini tishi bilan qirqib, chohga tushib ketdi. Alpomish aytidi: – Oshnam, ipak iping chirik ekan. Qorolchin: – iping chirik degancha, ko‘nglim erik desang, bo‘lmaydimi?! Alpomish, chiqsang ham olaman singlingni, chiqmasang ham olaman singlingni, –deb qichqirib, iziga qaytdi.

Endi shohanshoh podshoning qizi Tovka oyimdan eshititing so‘zni. Tovka otasining oldiga borib: – Otajon, o‘g‘li borning o‘rni bor, qizi borning qadri bor, degan so‘zlar bor. Sizning davlatingizda dashtga chiqib o‘ynab kelayik, – degandan so‘ng otasi: – Bor o‘yna, – debdi. Bular xol ustiga xol qo‘yib, qo‘liga xina qo‘yib, o‘ziga bino qo‘yib, Alpomishning ishqida yurgan edi. O‘zini saralab, qirq sakkiz kanizi bi-

lan, labda chanqovuzi bilan, tovka singlisini olib, singlisining ham qirq sakkiz kanizi bor, Alpomishni ko‘rmakka o‘yinga chiqqan edi. Ikkovi ham o‘zini kanizlariga sozlashayotir:

- Meni sozlab turinglar,
Ko‘rgan ayb etmasin.
700 Oq yuzga qo‘ying lalab,
Ko‘p yoyilib ketmasin.
Tishimga qo‘y tishqoli,
To o‘lguncha ketmasin.
Qoshima qo‘y o‘smani,
Bir-biridan o‘tmasin.
Ko‘zima tort surmani,
Ko‘p jiyaklab ketmasin.
Beliordan suyab yuringlar,
Belima zil etmasin.
- Ko‘ylakni ko‘tar, kanizlar,
Ko‘ylak terga botmasin.
Chopishmay yuring, kanizlar,
Oyog‘im toyib ketmasin.
Patagimni qalin qo‘y,
Oyoqni qabartirmasin.
Sochbog‘ni ko‘tar, kanizlar,
Xom quyrug‘imga botmasin.
- Oyim jo‘nadi oyday bo‘b,
Qoshi-ko‘zi yoyday bo‘b,
720 Gardanida zulfagi
Cho‘pon tortgan nayday bo‘b.
O‘ynayotir qaddiga
Tumor taqqan toyday bo‘b.
- Ham himillab-himillab,
Gavdasi bilan o‘ynatdi
Latibasi qimillab.
- Oyim jo‘nar kashday bo‘b,
Chakadagi qushday bo‘b,
Ko‘krakdigi jujisi

- 730 Changal to‘lgan mushtday bo‘b.
 Ko‘ylagin turtib boradi,
 Go‘yoki urchiq boshday bo‘b.
- Qaddi bo‘yi novterak,
 Yaxshi bachchaga kerak,
 Oyday yuzi yaltiroq.
 Gardanida so‘lqillar
 Zargar suvlagan zarvarak.
 Ko‘krakda jujis
 Naqsh olmadan kattaroq.
 740 O‘yin solib Tovka
 Jo‘nar qizdan ilgarrak.
- Kovushining poshnasin
 So‘qtirgan so‘m tilladan.
 Chakkasida chosh tepak,
 Bari ipak-pilladan.
- Sochi taralib-taralib,
 Yurgandi beli toyib,
 Sal gapni ham kir olib,
 Kimxob, xitoyga o‘ralib.
 750 Hayla yurar Tovkaoy
 Novda terakday tebranib.
- Oyim jo‘nar, oy dinor,
 Ro‘moli bargi chinor,
 Uni ko‘rgan yigitlar
 Uch kungacha bo‘lar bemor.
 Xol ustiga xol qo‘yib,
 Sochbog‘ining sanog‘i
 Ketar tobonga teyib.
 Uni ko‘rgan yigitlar
 760 Ololmay qoldi deb mung‘ayib.
- Boz-bozgina, bozgina,
 Chaladi chanqovuzgina.
 Qo‘lidagi qo‘bizgina

Opa, degan tovushi
Sibizg‘adan sozgina.
Taqqa turar sasiga
Osmondagi g‘ozgina.

770

Biqir, biqir, biqirlab,
Baqolag‘i shiqirlab.
Orqasida qirq qizi
Opa, deydi qiqirlab.
Ko‘k kovushning poshnasi
G‘ishtga tegar tiqirlab.

Ko‘zi to‘ldi yoshiga,
Qirqin qiz yonboshida,
Ayni xufton paytida
Chiqdi o‘yin dashiga.

780

Bir bo‘lak qiz ayrilib,
“To‘yga-to‘yga” o‘ynadi.
Bir bo‘lak qiz ayrilib,
“Kapa kuydi” o‘ynadi.
Bir bo‘lak qiz ayrilib,
“Yashimmog‘ich” o‘ynadi.
Bir bo‘lak qiz ayrilib,
“Durram kuydi” o‘ynadi.
Bir bo‘lak qiz ayrilib,
“Kavush qoqmoq” o‘ynadi.
Bir bo‘lak qiz ayrilib,
“Manglayga chertma” o‘ynadi.

321

Tovka oyim aytди: – Olovka singlim, sening kanizlaring juda bemaza ekan. Ikkovimiz bo‘lib olayik. Kanizlarni bo‘lib oldi. Tovka bir tuyaning jag‘ini qo‘liga olib: – Oqsuyak o‘ynaymiz. Men otaman, sizlar topib kelinglar, – deb aylantirib turib otdi. Olti qirdan narimon o‘tib ketdi. Kanizlar borib Tovkaning qo‘liga berdi. Yana otdi. Yarim kecha, yarim kecha suyak Alpomishning chohining boshiga borib tushdi. Qirqin qizi bilan Tovka ham keyinidan bordi. Suyakni ko‘rdi. Tovkaning bo‘ynida tilla haykali bor edi. O‘zi ham juda qimma baho edi. Haykalni bildirmay, bo‘yndan echib olib, chohning boshida bir tuproqqa ko‘mib, iziga qayt-

di. Tovka aytdi: – Ey, qirqin qizlar, beaftob yuzlar, endi o‘layik bizlar. Kanizlar aytdi: – Opa, nimaga bunday deysiz? Tovka: – Bunday deganim ma’nisi bo‘ynimdagи haykal, qimmat baho, tushib qolibdi. Ertan otam eshitsa ko‘p azob beradi, – dedi. Kanizlar aytdi: – Opajon, shu erda turing, yugurishib borayik, yurgan erlaringizni qidirishib ko‘rayik, topib kelayik, davomgiday qilib bo‘yningizga taqib qo‘yayik. Tovka aytdi: – Sizlar shu erda turinglar. Yurgan-yurgan erimni, turgan-turgan erimni borlab ko‘rayin, topib olayin, bo‘ynima solayin, avvaylab qaytib kelayin. Kanizlar: – Boring, – deb javob berdi. Tovka sahar vaqtida chohga etdi. O‘zi haykalni topib olib, to‘tiday so‘ylab, turnaday bo‘ylab, yaxshi so‘zlarni ko‘ngliga joylab, alqissa andan so‘ng, Alpomishbekka qarab, etmish quloch sochini chohga tashlab, bir so‘z aytayotgan chog‘i:

790

Qora zulfim o‘ram-o‘ram,
Men oldingda o‘chsin qoram,
Yetti yil chohda yotib,
Ko‘ngling qanday bo‘ldi orom?
Oshig‘ing yig‘lab kelibdi,
Tirikmisan, bek to‘ram?

322

Gunoh yuklanib bo‘yningdan,
Sargardon bo‘ldim keyningdan,
Tirik bo‘lsang, sochdan ushla,
Joy beray nozik qo‘nimdan.

800

Bilasan, mening ishimni,
Qaddi-bo‘yingni ko‘rmay,
Olding aql-hushimni.
Qanday qarg‘a edi ekan
Cho‘llarda sening go‘shingni.
Vaqting etib, kuning to‘ldi, bek to‘ram,
Otam kesmak bo‘ldi aziz boshingni.

810

Alpomishsan, Haqqa aytgin zoringni,
Bandi bo‘lib, taylab kelding zaringni,
Halak qilding menday xushtoringni,
Vaqting etib, kuning to‘ldi, bek to‘ram,
Otam kesar bo‘ldi sening saringni.

820

Sotib dardingni olayin,
Oydayin ado bo‘layin,
Tasaddig‘ing bo‘layin,
Sochimdan ushlagin, to‘ram,
Seni chiqarib olayin.
Bir yostiqqa bosh qo‘yib,
O‘ynab, o‘sib qolayin.
Siynamdan quchib o‘psang,
Mardligingni bilayin.
Yuragimdan chiqqan gapim,
O‘lgancha davr surayin.

Yigirma birda bekning yoshi,
Qani, ketmas aql-hush,
Quloq soldi Alpomish,
Tovkaning bordi tovushi.

Alqissa andan so‘ng, qizning tovushini eshitib, fikr qilib, Alpomish
Tovkaga bir so‘z aytayapti:

323

830

Suvning boshi do‘lob-do‘lob,
Mardning ko‘ngli istar talab,
Oldimga keldingmi erkalab,
Sening uchun bu zindondan chiqmasman.

Otni maydon jazra cho‘lda jelmaydi,
Jondan qo‘rqusan yigit bandasini suymaydi,
Bor ishingga, keta bergin ishingga,
Ajal etmay qashqa chivin o‘lmaydi.

Olloning to‘pidir bandaning boshi,
Sening uchun chiqmas menday mard kishi,
Bor ishingga, keta bergin, qizgina,
Jondan qo‘rqib chiqqan ayolning ishi.

840

Hulkar borib taroziga tayandi,
Dangasalar har majlisda uyaldi.
Bor ishingga, keta bergin ishingga,
Jondan qo‘rqib chiqqib ketgan ayoldi.

Shul oradan bir bo'lak bo'p chang chiqar,
Bunday kunda mard yigitdan qon chiqar,
Ikki botir bahs qilsa teng chiqar,
Bor ishingga, keta bergen qizgina,
Kimning kuni bitsa, shundan jon chiqar.

Shu so'zni qizgina eshitib, zulfi taralib, beli qilday buralib, shugina gapni kira olib, keyiniga qaytdi taralib, to'qqiz marta yiqildi chochbog 'iga o'ralib. Tong vaqtı qırqın qızning qoshığa keldi. Qırqın qızı uxlab yotgan ekan, hammasini uyg'otib, ergashtirib, namoz vaqtı otasining joyiga bor-di. Otasiga Tovka aytди: – Ey ota, o'g'li yo'qning o'rni yo'q, qizi yo'qning qadri yo'q. Qizingiz bor, qadrıngiz bor. Shu bu yil menga ijozat bersangiz, qız bo'lsam ham, ul bo'layin. Nomard bo'lsam ham, mard bo'layin, ayol bo'lsam ham, erkak bo'layin, belimni ikki eridan buvayin, shu bu yil cho'pon-cho'liqqa bosh bo'lib, molning to'lini o'zim olayin. Otasi: – Bor esa, bolam, g'ayrat qil! – dedi. Tovka aytди: – Ota, qirq mardikor ber, qirq kun muhlat ber. O'zim yotguday bir ko'shk solayin.

Qirq mardikorni olib, qirq kun muhlat olib, ko'shk solaman, deb qizgina chiqib ketdi. Tushda-tushda Alpmishning chohiga etdi. Qizgina chohning boshidan ko'shkni sola berdi. Kecha-kunduz ishlab ko'shk bitdi. "Otamga aytadi", – deb qirq mardikorning qirqini ham o'ldirib yubordi. Qizgia shunday joy qilgan edi. Shu ko'shknинг o'rtasidan lahm qazib chohga tushirgan edi, o'zidan boshqa hech kim bilmas edi. Al-pomish bilan ikkovi chohga shu lahmdan kirib, o'ynab-kulishib, olishib, topishib yurar edi. Otasi "molning to'lini oladi", – deb molning boshi-da Tovkani qo'ygan edi. Bu qizgina shunday hushyor qiz edi. Molga qo'shib Alpomishdan ham to'l olmoqchi edi.

Maston kampir degan bir kampir bor edi. Makr-hiyla bilan Alpo-mishni bandi qilgan shu edi. Maston kampir tog'larda, toshlarda yurib, Alpomish bilan Tovkaning kulishib, o'ynab yurganini bilgan edi. "Men bozordan xina, tishqoli, o'rik yong'oq, topgan narsamni xurjunga sola-yin, jonsizlik qilib, qo'rg'oniga borayin, Alpomish bilan Tovka qanday qilib yurganligini bilayin", – deb dov eshaginiq beliga minib, bir xur-jun mevani ortib kela berdi Tovkaning qo'rg'oniga qarab. Tovka maston kampirni ko'rib: – Momo jonginam kelayotir, qadrdonginam kelayotir, – dedi. Maston aytди: – E, Tovka, seni ko'rgani kelayapman. Xina, tish-qoli bergani kelayapman. Tovka: – Ajab qilasiz, momo, – deb momoni suyab tushirdi. – Momo, uyim notoza edi. supurib chiqayin, – deb qizgi-

na borib, lahmning og‘ziga pashmakni qo‘ydi. Ustiga bildirmay ko‘rpacha to‘shadi.

– Momojon, to‘rga o‘ting, – degan so‘ng maston kampir ko‘rpacha ning ustiga o‘tdi. Ko‘rpacha bilan, pashmak bilan, xurjunu to‘rvasi bilan guldirab chohga tushib etdi. Alpomishning oldiga tushdi. Alpomish: – Imonsiz, meni bandi qilgan dushmanim sen. Axir qo‘limga kelding, – degan so‘ng maston Alpomishdan qo‘rqib, emgaklab qocha berdi, Alpomish sura berdi. Maston bura berdi, Alpomish qo‘sh mushtlab ura berdi. Alpomish shunday chang soldi, mastonning quyrug‘i qo‘liga kelди. O‘xshatib turib tortdi, quyrug‘idan chorakchasini yilib olgan ekan. Maston chiqib ketdi. Alpomish sig‘may qoldi. Maston: – Sen, qizgina, shuning bilan o‘ynabsan, otangga aytaman, – deb shahanshoh podshoga xabarga ketdi.

Alpomish aytdi: – Tovka oyim, Maston qayga ketdi? Tovka aytdi: – Otamga xabarga ketdi. Alpomish aytdi: – Ketgan bo‘lsa, yetti yildan beriman Boychibor otimdan xabaring bormi? Tovka aytdi: – Xabarim bor. Boychibor oting, yov-yarog‘ing, miltiq-sozing egarning boshiga iluvli. Yetti qavat tomning ostida oting bandi bo‘lib yotir. Alpomish aytdi: – Ey Tovka, mening jandamdan picha ol, otning beliga min. Mastondan ikki soat ilgari bor. Shu Boychibor ot yotgan tomni o‘yib, gugurtni urib, jandamni tutay. Borib burniga tegsa, tirik bo‘lsa, chiqib kelar. Ot bo‘lmasa holim tang bo‘ladi. Tovka Alpomishning jandisidan olib, otning beliga minib, qistab haydab ketdi. Mastondan ikki soat ilgari etdi. Tovkaoyim Boychibor ot yotgan tomni o‘ydi. Gugurtni urib, Alpomishning jandasini tutatdi. Boychibor otning burniga etdi. Boychibor ot “Alpomish tirik ekan”, – deb guldirab kishnab yubordi. Bo‘ynidagi zuli tilka-tilka bo‘lib ketdi. Quloqdan qo‘rg‘oshin otildi. Otning ko‘zi ochildi. Oyoqdan g‘ula otildi. Yetti qabat tomni chappa qilib qaytarib erga urdi. Chohga qarab, Boychibor kishnab yugurdi. Boychibor kishnab chohning boshiga bordi. Telmurib chohga qaradi. Egasining tirik ekanini ko‘rdi. Alpomishbek otni ko‘rib, otiga qarab, olti og‘iz so‘z aytayapti:

325

Bog‘da so‘lgan mening toza gulim-a,
Kecha-kunduz qarab yotdim yo‘linga.

850 Tirik bo‘lib elmay qobsan oldima,
 Omon-eson etkaz Xo‘jand elimga,
 Duming tashlab chiqqarib ol, hayvonim,
 Menday egangni mindirib ket belinga.

Sarg‘aygandir oyday bo‘lgan yuzim-a,
Omon-eson olib bor Xo‘jand do‘zima,
Shu zindondan chiqarib ol, jonivor,
Topishayin Yodgorjon qo‘zimman.

860

Ko‘p gaplarni men ayladim sirtima,
Ko‘rsatgin qolgan farzandima,
Tosh eriydi haqqa aytgan dodima,
Quyruq tashlab, tortib olgin, Boychibor,
Etkazgin meni Xo‘jand yurtima.

Ko‘zlarim to‘ldi yoshima,
Shamollab o‘sam armon yo‘q,
Otimni chopganda dashima.
Hisobsiz savdolar tushdi,
Alpomishning yolg‘iz boshiga,
Quyruq tashlab, chiqarib ol, Boychibor,
Omon-eson etkaz Xo‘jand qo‘shima.

870

Ko‘zdan oqqan jolami,
Ishqi bilan billami,
Olib borgin, jonivor,
Mening Xo‘jand qalama.
Quyruq tashlab, chiqarib ol, Boychibor,
Men borayin ham adashgan bolama.

Chupshiyib kelib jonivor,
Dumini chohga tashladi.
Qutilmadi bunday elning dastidan,
Dumi bordi Alpomishning ustidan.

880

Ma’lul ko‘nglin xushladi,
Qog‘ozday labin tishladi,
Tavof qilib Alpomish,
Tort, deb dumdan ushladi.

Oylar qibлага botdi,
Befarzandik qurisin,
Taqdiring toshdan qatti,

890

Oyoq tirab, Boychibor
Alpomishni bir tortdi.
Og‘ir ekan Alpomish,
Boychiborning oyog‘i
To‘rt enli erga botdi.
Yana kuch berib bir tortdi,
Alpomitsh chiqib ketdi.

Suvning boshi do‘lob-do‘lob,
Boshima kelding yarqirab,
Egang tirik vaqtida
O‘ynar eding birgalab.
Eskab-eskab Alpomish,
Ot bo‘ynidan quchoqlab:

900

“Qanday bo‘p qoldi mamlakat,
Yetti yildan beriman.
Ko‘z yoshim bo‘ldi ovqat”.
Kokilidan tavof qilib,
Otini qildi ziyyarat.

327

Bandi bo‘lib bag‘rim kabob,
Zindondan chiqmoqlik savob.
Chibor otim kel, deydi,
Kokilidan qildi tavof.

Alqissa ondan so‘ng, Alpomish otning beliga minib, badani g‘ayratga to‘lib, yo‘lbarsday bo‘lib aqirib, shohanshohga bordi. – Sen meni yetti yildan berman zindonga solding. Endi o‘lding, – dedi. Shohanshoh qo‘rqiб, maston kampirning boshini kesdi. Tovka qizini Alpomishning nikohiga solib, Tovkaning singlisini Elomon do‘stiga berdi. So‘ng Alpomishning ko‘nglida gap kechdi: “Elimdan kelganimga yetti yil bo‘lgan edi. Do‘stim, bo‘yinsam, oshnalarim Alpomish kelayotir, deb oldimga chiqsa. Nima sovg‘a-salom olib beraman”, – deb uch yuz oltmish qizni sovg‘a-salom uchun oldi. Uch yuz oltmish qiz bilan, uch yuz oltmish ko‘ch bilan, Tovka yori bilan, Elomon bojasи bilan, Kayqubod kal tuyachisi birga bo‘lib, dushmanlarning qo‘lidan chiqib, Xo‘jand mamlakatiga yo‘l tortdi. Yetti kecha-kunduz yo‘l tortib, guzar-guzardan oshib, Oqsuvga etdi. Alpomish: – Yetti yil zindonda yotib, dushmanlar-

ning boshini kesib, zindondan chiqib, mol-dunyosini o‘lja qilib olib,
sening suvingni chappa qilib qaytarmasam, oq balig‘ing chiritmasam,
– deb daryoga qarab, Alpomishbek g‘azab bilan yo‘l ber, deb turgan
chog‘i:

910 Yo‘l bergin, Oqsuv, o‘tayin,
 Qo‘ng‘irot eliga etayin,
 Ko‘ngli qolgan Barchinning
 Jijisin tebratayin.

Yotib-yotib kuch oldim,
Dushmanlardan o‘ch oldim,
Uch yuz oltmisht ko‘ch oldim,
Uch yuz oltmisht bo‘y qizni
Yodgorga enchi oldim.
Shuytib keldim ustingdan,
Qumingni ko‘rsat ostingdan.

920 Yotib-yotib zo‘r oldim,
 Dushmanlardan or oldim,
 Qator-qator nor oldim,
 Nor ustiga zar oldim,
 Tovka otli yor oldim,
 Shuytib keldim ustingdan,
 Ko‘rsat qumingni ostingdan.

930 Choh tubinda yotganda,
 Qumdan ovqat etganda,
 Suv deb ko‘zamni sotganda,
 Bir qoshiq ham yo‘qdi suving,
 Yo‘l ber, Oqdaryo, o‘tayin.

Bir maydon qaytar damingni,
Tubingdan ko‘rsat qumingni.
Qaytargin oqishingni,
Yo‘l ber, Oqsuv o‘tayin.
Bosh-boshingni boylatarman,
Odog‘ingni loylatarman.
Qayrang-qayrang yering kelsa,

940

Qo‘sh ho‘kiz sob haydatarman,
Yo‘l ber, Oqsuv, o‘tayin.

Ustingdan ot irg‘itarman,
Oqsuvingni quritarman,
To‘sh-to‘shingdan berkitarman,
Oq balig‘ing chiritarman,
Yo‘l ber, Oqsuv, o‘tayin.

Besh kun davr, besh kun xushdi,
Mardning tanasi objo‘shdi,
Daryo eshitdi tovushin,
Qirq gaz balandga toshdi.

Alpomish Oqsuvning toshganini ko‘rib otdan tushib, toza tahorat qilib, ikki rakan namozini o‘qib, avval xudo, duyum pirlarini yod qilib, azizlardan guzar tilab, yig‘lab turgan chog‘i:

950

Osmonda bor yorqin oy,
Bir bolam, deb ko‘r bo‘lgan,
Boybo‘ri farzand gadoy,
Tingdan aylanay, karamli xudoy,
Rahm ayla, sendan guzar tilayman.

329

Barchani xol qilgan qodir ollosan,
Kim yaxshi, kim yomon o‘zing bilasan,
Intizor bo‘lib keldim, guzar berasan,
Rahm ayla, sendan guzar tilayman.

960

Keng daryoga soldim qayiq,
Kiyan to‘nim bo‘ldi loyiq,
To‘rt choryorim, mashoyix,
Sizdan guzar tilayman.

Oyimlar bog‘ning guli,
Yigitning piri er Vali,
Mard maydoni, yo, Ali,
Sizdan guzar tilayman.

Otni maydon jelaman,
Men ham banda, o'lanan,
Daryo to'xtadi shu zamon,
Tuyani tortgin, Elomon.

Suvning boshi bo'ldi do'lob,
Oldi-ortini yig'ib yuri
Kayqubod kal haybari.
Tuyaning boshiga etib,
Elomon soldi etalab.
Omon-eson o'tdi daryodan,
Qo'ndi to'qayni yoqalab.

Alqissa andan so'ng, shu kecha yotdi, kun sahar vaqtiga etdi. Alpomishning xotini Tovkaning bo'yida bo'lgan ekan. To'qqiz oy, to'qqiz soati etib, tong vaqtin tug'moqchi bo'ldi. Tovka aytdi: – Ey, to'ram, kecha-kunduz yurib, ichim, u yog'im, bu yog'im og'riyotir. Tishimni tishimga qo'yib, qora momoga qora tovuq, sariq momoga sariq tovuq, Sulaymon otaga jilpildoq. Him-him, ichimdagi kim-kim, – deb kelayotirman. Birgina o'g'il topdi. Alpomishbek: – O'zi ulgina, puti, qo'li rosa mo'lgina, – deb kindigini kesib, ko'hna ishtoniga yo'rgaklab oldi. Alpomishdek aytdi: – Ey, Elomon, intizor bo'lib qaerlardan kelaman, qanday gap bo'ldi. Endi buning otini qo'y! Elomon aytdi: – O'z oti o'zi bilan. Oti Yo'lchiboy. Alpomish aytdi: – Yo'lchiboy deganning nima ma'nisi bor? Elomon aytdi: – Ma'nisi shul: ko'chib kelayotganda ko'ch ustida tug'ilgan farzandni yo'lga mengzab Yo'lchiboy qo'yar ekan. Alpomish aytdi: – Bu oting menga to'g'ri kelmadi. Elomon aytdi: – Esa, buning oti Jovliboy. Alpomish aytdi: – Bu ham bo'lmaydi. Elomon aytdi: – Esa, "Qo'yliboy", – qo'ying dedi. Alpomish: – Buning ham bo'lmaydi, – dedi. Elomon: – Ay, bor, o'zing qo'yaber esa, – dedi. Shunda Alpomishbek otini Qallochbek qo'ydi. Alpomish aytdi: – Ey, Elomon bojam, ko'chni senga topshirdim, seni xudoga topshirdim. Sendan ilgariroq men elimga bora-yin. Kim yo'q, kim bor, kim bek, kim to'q, oralab ko'rayin.

Alpomish otning beliga minib, keng to'qaydan chiqib, ovlagan ovlari, otini chopgan dashtlari, qushini chuygan ko'llari ko'ziga ko'rinish, jigari ezilib, ko'ngli buzilib, biz ham keldik, deb hafsana aytib borayotir:

Mingari arg'imoq to'bichoqlarim,
Qafasimda sayrab tuti-zog'larim,

980

Chap belimda nuqrodan sochoqlarim,
O‘ng yog‘imda tilladan pichoqlarim,
Yetti yil bo‘lgandi mening ketganim.

Ko‘rdinglarmi kelganimni tog‘larim,
O‘n to‘rt yoshda boylagandi qo‘llarim,
Kimga qoldi yiqqan molu pullarim,
Yangidan ochildi mening yo‘llarim,
Yetti yil bo‘lgandi mening ketganim.

990

Kelganimni ko‘rdinglarmi cho‘llarim,
O‘n to‘rt yoshda bandi bo‘ldi boshlarim,
Yoshligimdan ketdi aql-hushlarim,
Qafasimda sayrab qolgan qushlarim,
Yetti yil bo‘lgandi mening ketganim,
Kelganimni ko‘rdinglarmi dashtlarim.

Olmos olib dastimdan,
Qutildim dushman qastidan,
Ayni peshin Alpomish
Bordi ko‘p qo‘yning ustidan.

331

1000

Bo‘sadi to‘qson saroyi,
Xizir ko‘rgan bandi bori,
Egasi bo‘lib yotibdi
Bari qo‘yni ko‘p sipoyi.

Kechada shirin jonidan,
Sira qaytmaydi dinidan,
Hazari yo‘q Alpomish
Dushmanlarning xunidan.

Mol tpmoqlik bilakdan,
Bir taqdiri yurakdan
Tanib oldi Alpomish
O‘z qo‘yni enidan.

Alqissa andan so‘ng, ketib borayotganda, qo‘zilarga en solgan ekan.
Qo‘yni enidan oldi, yetti yashar sovliq bo‘lgan ekan. Yig‘lab, qo‘yni ta-

vof qilib yurib edi. Bir galaning ustida bir dahmarda cho'pon yotibdi. Us-tida piyozi chakmon, boshida kajli lo'ngi, po'ta bilan belini ko'krakdan buvib uchaga davr obkelgan. Ikki quloch tayog'i qoshida. Chalqaramon yotibdi. Ko'kragiga do'mbirani qo'ygan. Har na'maga solib chalayotir. Buni ko'rib Alpomish: – Assalomu alaykum, dahmarda, – dedi. Dahmarda: – Gap qo'shmay, keta ber. Chalayotgan na'mamni buzasan, – dedi. Cho'ponning bu so'zini eshitib Alpomishdek uzangiga oyoq tirab, dahmardaga qarab: – Qo'yingning egasi kim? – deb aytayotgan chog'i:

1010 O'tli bo'libdi joylaringiz,
 Yanga kelibdi go'ylaringiz,
 To'qson boshli uylaringiz,
 O'ttiz bog'li chiylaringiz,
 So'ramoqning yo'qdir aybi,
 Kimnikida qo'ylaringiz?

332

1020 Men osmonda ko'rdim oydi,
 Kim deydi, cho'pon, boyingdi?
 Tayog'ingni erga qoqqan,
 Xizmating boyga yoqqan,
 Qo'y kimniki daxmarda?

Qarchig'ayning chagasi,
Oqsovutning yoqasi.
Ota o'lmaklik merosi,
Joydan turgin, dahmarda,
Kim ekan qo'yning egasi?

1030 Olis bo'lib qolgan ora,
 So'm yurakka tekkan yara,
 Bizni ko'rgan bechora,
 Joydan turib gap bergen,
 Ko'zingni ochgin, dahmarda.

Alqissa andan so'ng, dahmarda joyidan turib, tayog'ini erga tirab, tayog'ining o'rtasidan oyog'ini aylantirib o'rab, Alpomishbekka qarab, qo'yning egasini biram-biram bayon berayotir:

Yangilikda ko'r bo'lgan,
Ikki dunyosi tor bo'lgan,

-
- Yolg‘iz o‘g‘lidan ayrilgan,
Bosgan iziga zor bo‘lgan,
Avvalgisin so‘rasang,
Boybo‘riday ko‘rniki.
- 1040 Sovuq boshin tayangan,
Bir bolam deb suyangan,
Tangrim yo‘liga toy aytgan,
Xudo yo‘liga qo‘y aytgan,
Chuchchi uyquda yotganda,
Emchak berib uyg‘otgan,
So‘ngrasini so‘rasang,
Kuntug‘mishday sho‘rniki.
- 1050 Boybo‘ri biydan to‘lagan,
Etmaganni ulagan,
Sag‘ir, beva, bechoraning
Manglayidan silagan.
Qo‘yikon tog‘idek o‘lgan,
Undan so‘nggisin so‘rasang,
Alpomishday bekniki.
- Ko‘rgan kuni chang bo‘lgan,
Yopingani ko‘k bo‘lgan,
Jo‘raboshi toq bo‘lgan,
Yetti yildan beriman,
Bosh egasi yo‘q bo‘lgan,
Undan so‘nggisin so‘rasang,
Oybarchinday tuyaniki.
- 1060 Otining yolini o‘ragan,
Ota davrin surmagan,
Enada qo‘rsqoda qolib,
Otaning yuzin ko‘rmagan,
Undan so‘nggisin so‘rasang,
Yodgor etim ulniki.
- Kunda yo‘lga qaragan,
Yo‘l o‘tguvchidan so‘ragan,

Yaxshilik kunga yaragan,
Undan so‘nggisin so‘rasang,
Qaldirg‘ochday gulniki.

- 1070 Oyog‘i yo‘lga siymagan,
Ozod xati tiymagan,
Bek o‘rniga bek bo‘lgan,
Undan so‘nggisin so‘rasang,
Ultontozday qulniki.

Orqa yurtda eli bor,
Engsasi uzun beli bor,
Olti yuz ellik chiqadi,
Zog‘cha tuyoqli quli bor,
Shu mollarning ichida
1080 Oqsoqol, arbob moli bor.
Egasiz bo‘b qolgan moli,
Shu vaqt sen so‘rasang,
Oqsoqol, arbob, elniki.

Endi Alpomishbek dahmardaga qarab, ketgan Alpomish yaxshimi,
yangi bo‘lgan Sultonbeging yaxshimi, deb so‘rab turgan chog‘i:

Qizil oshig‘ing yaxshimi,
Aytayotganing yaxshimi,
Sendan so‘rayman, dahmarda,
Ketgan Alpomish yaxshimi,
Yangitdan bek bo‘lgan
Sultonbeging yaxshimi?!

- 1090 – Mingan otim temir ko‘k,
G‘ayratimdan ko‘nglim to‘q,
O‘lik arslondan, akajon,
Tirik sichqon behadroq.
Alpomishdan foyda yo‘q,
Eson bo‘lsin Sultonbek.

Besh kun davr, besh kun xush,
Mardning tanasi abjo‘sh,

Ketgandan qaytib kelmasin,
Kuyuklab o'lsin Alpomish.

1100 Alpomishning borida
Go'sht ko'rgan yo'q bizing tish,
Birovning ulog'in esam,
Urguvchida etmish besh,
Olguvchida birga besh.
U ketgandan beriman
Kunda eyman tandir go'sh[t].

1110 Kechadi shirin jonidan,
O'lsa qaytmaydi dinidan,
Hazar qilmaydi Alpomish,
Necha dushmanning xunidan.

Tortib oldi Alpomish
Qilichni yondan, qinidan.
O'qisa qoyil zehniga,
Qashqa parang egnida.
Ot qamchilab Alpomish,
O'tdi dahmarda keyinga.
Topgan gaping shumi, deb,
Sermab ketdi bo'yniga.

1120 Kalla ketdi dingirdob,
Tanasi qoldi tipirdab,
Kallada tili boradi,
Tanimabman, deb shibirdab.

335

Alqissa andin so'ng, Alpomishbek o'ta berdi. Alpomishning Ko'gal degan tuyasi bor edi. Shu Ko'gal tuya enadan sag'ir qolganda, Alpomishbek ko'tarib, Boychiborning egasi katta bir baytalni emizdirgan edi. Ko'gal tuya shu baytaldan emib katta bo'lgan edi. Alpomishbek, Boychibor ot, Ko'gal tuya – uchovi bir baytaldan emgan shiraxo'ra edi. Shul Alpomishning emchakdoshi edi. Shu Ko'gal tuya Alpomishni sog'inib, mehriga kuyib yetti yildan berman chonlab, oriq bo'lib yotib qolgan edi. Alpomishning isini shamol uchirib shu Ko'galning burniga urdi. Egasining kelganini bilib ko'zidan qator-qator yosh tizilib, ko'ng-

li buzilib, Alpomishga qarab jo‘nayberdi. Sarbonlar: – Egang o‘lgur, Ko‘gal ketdi, navbat kimda? – deyishib qoldi.

– Men qaytarib edim, men qaytarib edim, – deyishdi. Boybo‘rining bir Kenjaboy degan odami bor edi: – Soqoli ko‘ksiga tushgur Boybo‘ri ko‘r Alpomishning borida zo‘r odam edi, o‘g‘li bo‘lsa, yo‘q bo‘lib ketgan. Boshiga tayoq qo‘y, Boybo‘ri ko‘rning navbatini, – dedi. Kenja borib, Boybo‘rining boshiga bir-ikki tayoq soldi. Boybo‘ri ko‘r yig‘lab, Alpomishni yo‘qlab, tuyaning izidan bo‘zlab borayotgan chog‘i:

Kuyukliman, ko‘zim to‘ldi yoshima,
Ham ellarim to‘ydi oshima,
Yo‘q bo‘b ketgan Alpomish,
Attang kelmadi qoshima.
Chor misqolning o‘qi tegdi to‘sshima,
Ne sababdan qon yig‘laysan, jonivor,
Oxir chog‘i tayoq tegdi boshima.

1130 Qizil gullar g‘unchasidan so‘lmasa,
Menday ota vaqt etib o‘lmasa,
Urma, degan bir ini-og‘ang bo‘lmasa,
Ne sababdan qon yig‘laysan, jonivor,
Sening egang, mening bolam kelmasa.

Qarchig‘ayim chagasziz,
Yodigorim otasiz,
Ajal etib o‘lib ketsam,
Murdam qoladi soyasiz,
Hala deyman. besohib,
1140 Bolamdan qolgan egasiz.

Qanotim qoldi qayrilib,
Sen egangdan, men bolamdan –
Qoldik ikkimiz ayrilib,
Ne sababdan qon yig‘laysan, jonivor,
Bolamdan qolgan besohib.

Xarob bo‘ldi yurtim, deb,
Yodgor qoldi etim, deb,
Otang bo‘lsam, o‘layin,
Alpomish farzandim deb.

1150 Uchsin mening izim, deb,
Yetti yildan beriman
Ko‘r bo‘libdi ko‘zim, deb,
Chatnab yig‘lar Boybo‘ri,
O‘layin, ketgan qo‘zim deb.

Boybo‘riman, endi holim qalaydi,
Manglayimdan bolam bo‘lsa silaydi,
Shu tuyaga etolmay,
Hala, deydi yig‘laydi.

1160 Qomat yoyday bukildi,
Soqoldan qon to‘kildi,
Shu tuyani etolmay,
Buklanib keb yiqildi.

Yuragining go‘shin ezib,
Rangi-bo‘yini buzib.
Alpomishdan ketgan edi
Ko‘gal ko‘nglini uzib.
Alpomishga etib bordi,
Ko‘gal tuya bo‘ynin suzib.

1170 Otning yolin taradi,
Chor tarafga qaradi,
Ko‘gal tuya boribdi,
Alpomishbek ko‘radi.
Hayda, molim, kel, dedi,
Alpomish otdan tashladi.

1180 Suvning boshi do‘lab-do‘lab,
Yetti yil qoldim zindonda,
Men kelmadim ilgarrak,
Aziz boshga osmon nurab,
Endi yig‘lab Alpomish
Tuyaning bo‘ynin quchoqlab.

Tuqqan oyning o‘n beshi,
Boybo‘rining ketdi hushi.

-
- Eliga yetib kelibdi
Boybo‘rining yurak go‘shi.
Qulq soldi Alpomish,
Otasingin keldi tovushi.
- Bul dardima bormi davo,
Bir kun mahsharga ravo,
Men ham kulganman bechora,
Tuyangni men ushladim,
Yig‘lama, kelgin jon bobo.
- Bo‘lmasin baland-pasti,
Shu bo‘lar gapning rosti,
Tayoq eb yotir otasi,
Yetti yildan ber mana,
Yangi kebdi bolasi.
Qulq soldi Boybo‘ri
Bobo, deb keldi sasi.
- Tog‘ning boshi o‘r ekan,
Peshonam mening sho‘r ekan,
Ikki ko‘zim ko‘r bo‘lib,
Yeyar nonga zor ekan,
Birov tuyam ushlabdi,
Bir rahmdil bor ekan.
- Qonim qochib rangi-ro‘ydan,
Ketmayi fe’li-xuydan,
Qani borib ko‘rayin.
Kim ekan holin so‘rayin, –
Qon yig‘laydi Boybo‘ri,
Imtilib turdi joydan.
- Aql bilan hushiga,
Tayoq tegdi shu vaqtি
Boybo‘rining boshiga
Qani tuyam, bolam, deb
Yig‘lab bordi Boybo‘ri
Alpomishning qoshiga.

– Ungiringni chalasan,
Qonga botib kelasan,
Nimang o‘ldi, boybobo,
Qay ellardan bo‘lasan?
1220

– Besh kun davr, besh kun xush,
Jabrga qoldi aziz bosh,
Menda yo‘q biror qarindosh.
Nimang o‘ldi, deb so‘raysan,
Bolam edi Alpomish.

Oy qibлага botgani,
Yetti yildan beriman,
Suyakka zil etgani,
Otasini xor qilib,
Botir bolam Alpomish
1230 Yetti yil bo‘ldi ketgani.

339

– Dushgmanda qolmadi o‘chi,
Bilakka joylangan kuchi,
Alpomish bo‘lsa o‘g‘ling,
Tag‘i haftada keladi,
Oqsuvga keldi ko‘chi.

– Bulbul istab gulingdan,
Tuyani ushlagan qo‘lingdan,
Rostingni aytgin, jon bolam,
Keldi degan tilingdan.
1240

Oy botadi panaga,
Qo‘y yuradi yonaga,
Alpomishni yod qilib,
Men yig‘ladim ganaga,
Keldi degan tilingdan,
Bobong sendan sadag‘a.

Ham ko‘zidan qon quyib,
Tirnoqlab betini so‘yib,

-
- 1250 Yuguradi Boybo‘ri,
 Yig‘lab qulochin yoyib,
 Alpomishning qoshiga
 Bo‘zlab bordi ot qo‘yib.
- Qora ko‘zin yoshladi,
 Ma‘qul ko‘nglin xushladi,
 Rostingni aytgin, bolam, deb,
 Uzangidan ushladi.
- 1260 Bir bolamni yo‘qotdim,
 Bag‘rim bo‘lgandir kabob,
 Bobong o‘lsin, tilingdan,
 Uzangida qildi tavof.
- Sarg‘aydi oyday yuzi,
 Yig‘laydi boboning o‘zi.
 Yetti yildan beriman
 Yangi kelibdi yolg‘izi.
 Nazarkarda Alpomish,
 Ochildi boboning ko‘zi.

Alqissa, andan so‘ng, ikki o‘nggiri bilan ikki ko‘zini siypadi. Bobo-ning ko‘zi ochildi. Alpomsish bilan ishi bo‘lmadi, otasi Oqsuvga qarab goldi. Alpomish otasiga o‘zini tanitmay ketdi.

Boychibor ot mamlakatini ko‘rib, uch karra guldirab kishnadi. Kish-nasa, to‘qson otning tovushi bor edi. Yugursa, to‘qson otning duburi bor edi. Alpomishning Qultoy degan bobosi bor edi. To‘qson to‘qay yilqi-ni boqar edi. Qultoy cholning Jilovboy degan o‘g‘li bor edi. To‘qson to‘qay yilqida Boychibor otning katta bo‘z baytal enasi bor edi. Shul enasi bugun uch kun bo‘lgan ekan, bir chuqurlik erda botqoqqa botib qolgan ekan. Qultoy chol chiqara olmay ketgan ekan. Jonivor shuytib yotgan ekan. Yetti yildan beri ketgan Boychibor bolasi kelibdi, tovushi enasining qulog‘iga etibdi. Bolasining tovushini eshitib, qurigan em-chaklari sutiga to‘ldi. Botqoqdan chiqib, birovi birovi bilan topishayot-gan chog‘i shekilli:

Chopilgan ot jazira cho‘lda pishnadi,
Kelganin anglab oldi Boychibor,

Uchga davir guldirab kishnadi.

1270 O‘tgan oyning o‘n beshi,
Boychiborning enasiga etadi,
Ketgan hayvonning tovushi.

Adashgani sitam qildi.
Ketgan bolasini bildi.
Qurib qolgan emchagi
Hayvon sutiga to‘ldi.

Dumini sirtga taylab,
Bolasiga yugurdi.
Emchagi sig‘may chotiga,
Oq suti erga to‘kildi.

Qora yerning betiga,
Yuguradi Chibor ot
Dumini taylab sirtiga.

Osiy qulman qildim dod,
Jon berdi mavlon omonat,
Jonivorgina hayvonzot,
Bir-biriga bo‘ldi betma-bet.

1290 Keldi Xo‘jand duziga,
Odamdan oqil bo‘ziga,
Chatanaki kerib enasi,
Emchak soldi bolasining og‘ziga.

Qora ko‘zdan qonli yoshi eshilib,
Qon yig‘ladi o‘pka-bag‘ri teshilib,
Yetti yil bo‘ldi ketganiga,
Qarindoshlardan sochilib,
Otdan otib tashladi,
Endi otiga qo‘silib.

– Otimni maydon jelmadim,
Ilgarراكдан elmадим,

1300 Men otama hayvonzodcha bo‘lmadim,
O‘g‘iling bo‘lsam, ota, endi o‘lmadim.

Osmonda bor yarti oy,
Bo‘sadi to‘qson saroy,
Menday o‘g‘li kelganda,
Otam yurmaymi beparvoy?!
Men otaga hayvonzodcha bo‘lmadim,
O‘layin karam xudoyim.

1310 Tog‘lar qorli, yo‘l tuman,
Adashib ketdim qaytaman,
Shul boshimga oxir zamon,
Men otamga hayvonzodcha bo‘lmadim,
Zinda qilmay, jonimni olgin rahmon.

Barchani xol qilgan qodir ollosan,
Kim yaxshi, kim yomon, o‘zing bilasan,
Men otamga hayvonzodcha bo‘lmadim,
Zinda qilmay, mening jonim olasan.

1320 Bo‘lmasin baland-pasi,
Tanitmay keldi bolasi,
Ikki ko‘zi ochilib,
Bilmay qoldi otasi.

To‘qson to‘qay yilqini,
Boqibdi Qultoy bobosi.
Qulq soldi Qultoy chol,
Bordi Alpomishning sasi.

– Ochiladi bog‘ning guli,
Otag o‘lsin vaqtili,
Akang kebdi, Jilovboy,
Alpomishga o‘xshaydi,
Akang kebdi shekilli.

Alqissa andan so‘ng, Qultoy bobo Alpomishligini bilib: “Ko‘rar kun-im bor ekan”, – deb qulochini ochib yugurdi. Alpomish ham otdan tash-

lab yugurdi. Ikkovi ko'rishib, suyushib, o'pishib qoldi. Alpomishbek:

- Biz ketgandan beriman nima gaplar bor? – dedi. Qultoy chol aytdi:
- Bolam, gap ko'p. El yig'ilgan, qo'y so'yilgan, qozon qo'yilgan. Senga qarashli odamlarni haydab yuborib, o'g'rilarni yig'ib, besh yuz kishini to'qsabo qilgan. Shu kecha-kunduz sendan qolgan Oybarchin yoringni Sultonbek olmoqchi. U yoring tegmaymanning ustida, bul hukm bilan olamanning ustida. Xotiningning to'yi. O'n besh kun bo'ldi ko'pkari chopilib to'y bo'lib yotganiga. Menden gap eshitsang, Alpomish, gap shu, – dedi. Alpomish: – Hoy bobo. Yaxshi-yomon, yugruk-chobon, do'st-dushman, qanday qilib xalqqa oralayman. Tanimaslikning fikrini qilsangiz, tanitmay elni oralab bir ko'rayin. Yomonga qo'shilib yaxshi ham ketmasin, nohaqqa qo'shilib haq ham ketmasin, – dedi. Qultoy chol aytdi: – Ey, Alpomish, Sulitonbek menga xat yuboribdi: "Sakkiz yuz sakson chori qo'yni Barchinning to'yiga Qultoy bobo haydab kelsin", – debdi. Bolam, soqolingga ohaq ur, mo'ysafit chol bo'l. Jandamni kiy, chorig'imni tort, telpagimni kiy, xuddi Qultoy chol bo'lasan. Sakkiz yuz sakson chori qo'yni haydab, xotiningning to'yiga keta ber. Men bir ovloqda yotaman. Hamma Qultoy ekan, deydi. Nima ta'malik bo'lsa qila ber.

Alpomish boboning aytgan so'zini qilib, xuddi Qultoy chol bo'ldi. Boychibor otini Jilovboyga berdi. – Boshimga mushkul ish tushgan vaqtda, Jilovboy otini olib kel, deyman, oldimga olib borasan, – deb tayinladi.

343

Qo'ylarni haydab, Alpomishbek piyoda bo'lib, xotinining to'yiga keta berdi. Alpomishbek bir bo'lak uyning ustidan bordi. Bir kelinchak, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, qirqin qizi bor, oftob yuzi bor. Ola to'rg'ay qarchig'ayday, zulfi nayday, qoshi yoyday, asovligi toyday, mayin yurishi qo'yday, Alpomishning tikka oldini ola berdi. Asta-asta kelib: – Qultoy bobo, – dedi. – Jonim, nima deysan? – dedi. – Bobo, sizga necha vaqtdan berman sarka, to'qli, ola ho'kizcha qo'shib qo'yib edik. Sarka nechovni tug'di, to'qli nechovni tug'di. Ola ho'kiz nechovni tug'di? – dedi. Alpomish gapiga yarasha: – Sarkang sakiz tug'di, to'qling to'qqiz tug'di. Ola ho'kizchangni oqshom buqa quvdi. Ana menden gap eshitsang, ertan oqshom bari tug'ib qoladi. – dedi. – Esa, og'zingdan aynalayin, bobojon, bиргина patir qotirayin, moyga botirayin, ichkari kiring. Murtingizni yog'lab qo'yayin, – dedi. – Ha, enam, karomat qilasan, uyingni kovlab qo'yayin, – dedi.

Kelinning uyiga kirdi. – O'tirib turing, hamsoyamnikidan o't, elak olib kelayin, – deb hamsoyasinikiga chiqib ketdi, hamsoyasinikiga etdi. O't, elakka qaramay, hamsoyasinikida xotini bilan gurung qilib, boboy

ham esidan chiqib ketdi. Qultoy chol aytdi: “Meni ahmoq qilib ketdi, nimaga kelmadı. Moyidan pichini o‘zim eyayin”, – deb qorin bog‘ini echib, hamma bor narsasini emakchi bo‘lib turgan chog‘i shekilli:

1330 Elakka borgan xotinning
 Ellik og‘iz gapi bor,
 O‘tga borgan xotinning
 O‘ttiz og‘iz gapi bor.
 Telmurib uyga qaradi,
 Yetti qorin moyi bor.

Topdi kelinning royni,
Tilaydi tanining sovini,
Avaylab kelib ochadi,
Avaylabgina bovini,
1340 Tozalab urdi Qultoy chol
 Yetti qorin moyini.

Xudoning qudratini,
Uchraganni ochib yutdi,
To‘qqiz kallak qurtini
Chaqib urdi Qultoy chol.

Fido qildi jonini,
Aziz qildi mehmonni
Ola qopdag'i unin
Qoqib urdi Qultoy chol.

1350 Ko‘zdan to‘kdi yoshini,
 Topib edi xom go‘shini,
 Suprada xamirturishni
 Silkib urdi Qultoy chol.

Qorin qoldi qog‘ilib,
Jumir qoldi siqilib,
Ola qop ag‘nab qoldi,
Hech balo yo‘q yiqilib,
Qorni to‘ymadi Qultoy chol,
Uydan chiqdi bukilib.

-
- 1360 Sanog‘ini oldi oyidan,
Ayrildi qorin moyidan,
Oqshomiga kelsa shilqillab,
Tayoq eydi boyidan.
Ey, bir mehmonim bor edi deb,
Suzilib chiqadi uyidan.
- Qora zulfin o‘radi,
Uyga qarab boradi,
Borib uyni ko‘radi,
Moyi tugil, tosh ham yo‘q,
1370 Kelin hayron bo‘ladi.
- O‘qisa qoyil zehnidan,
Shoyi ko‘ylak enidan,
– Hayallab turing, bobo, deb
Quvdi boboning keynidan.
- Kiygan kurtam paravuz,
Nonim yo‘qdi bir ovuz,
Hayallab turing, bobojon,
Uydan ketmang quri[q] og‘iz.
- Suv boshi do‘lab-do‘lab,
1380 Kelin, quvma antalab,
Muncha quvma, kelinjon,
Qatig‘ingdan chiqdim yalab.
- Mana tog‘ning boshi huchchi,
Qoshi ko‘zing qiyin-chi,
Aytgan so‘zing boldan chuchchi,
Agar kelsang ovloqqa,
Bosib olaman besh muchchi.
Muncha quvma, kelinjon
Qatig‘ingdan edim pichi.
- 1390 Oylar qibлага botdi,
Kelin yugurib etdi,

O‘ngiridan bir tortdi,
Bobosini to‘xtatdi,
Alpomish ko‘zin olartdi.

Boboning ko‘zidan qo‘rqib,
Aqli, hushi, yuragi bo‘shashib,
Oltoylik homilasi bor edi,
Qo‘rqqandan qoldi tushib.

Qultoy chol o‘tib ketdi. O‘n to‘rtta xotinning keyinidan etdi. Xotinlar qatlama, bovursoq qilib, bular ham to‘yga borayotgan ekan. Xotinning birovi aytdi: – Manov chol Qultoy emasmi? Yana birovi aytdi: – Bulsa bo‘lar. Bobojonginam, qatlama, bovursoqni orqangizga solsak, parroq-berroq olib borib bera olasizmi?! Qultoy bobo o‘ngirini qaytardi. O‘n to‘rti orqasiga soldi. – Izingdan yuringlar, – deb molni haydab, u gazadan, bu gazadan, shu gazadan chopib o‘tib ketdi. Ko‘p sigirning yotoq eriga bordi. O‘n to‘rtinikini ham shilib urdi. Hammasing to-bog‘iga tezakdan soldi. O‘zinikidan ziyoda qilib o‘rab qo‘yib ketdi.

O‘n to‘rti bir vaqtida kelib etdi. Dasturxonni ochmay: – Yomon yerga qo‘yib ketibdi, – deb boshiga qo‘yib to‘yga keta berdi. Narroq borib birovining bolasi: – Ena, non, – dedi. Enasi: – Juvonmarg o‘l, otangga o‘xshamay ketgur, – deb bir-ikki mushtladi. Ul bachcha qayta yig‘lab, baqira berdi. Birovi aytdi: – Muncha urguncha pichigina olib bersangiz bo‘lmaydimi?!

– Xudoy olsin sizni, masxara qilasizmi bizni. U erni to‘yxona deydi, murodxona deydi. Amalor, jig‘ador, nomdor, tug‘dor, tojdar, sarkardalarning xotini yig‘ilgan. Falonchining xotinining qatlamasining yarmi yo‘q, deb ayblamaydimi, – dedi bolaning onasi.

Ikkinci birovi aytdi: – Xuftondan ham kech boramiz. Qaysi bir das-turxonning orasida qoladi. Sizniki ekanini biladimi. Bachchani yig‘lat-may, picha olib bering.

Ochib ko‘rsa, tezak. – Ovsin, qatlamatam tezak. – Xudoy seni iflosdan olgan. Uyquli ko‘zing bilan tong vaqtি. O‘choqning bo‘yidagi tezakni toboqqa solgansan, shuytib qatlama uyingda qolgan, – dedi. Hammasi ochdi. Hammasiniki ham tezak. Chuvillashib iziga qaytdi.

Qultoy chol qo‘yni haydab to‘yxonaga etdi. Qultoy kelibdi, deb bir toboq osh, ustiga bir onlik go‘sht, Qultoyning oldiga olib kelib qo‘ydi. Qultoy chol qaradi. Yodgor o‘g‘li: ko‘ylakdan yoqasi yo‘q, ishtondan lipa yo‘q, oldini tortsa, keyni ochiladi, keynini tortsa oldi ochiladi. U

qozonning ostiga, bu qozonning ostiga pashmakni surayotir. Tutatma, deb oshpazlar boshiga kapkir bilan urayotir. Erga tushgan guruchni terib eb yuribdi. Buni Qultoy chol ko‘rdi. Ilikni emay, ma, Yodgor, deb uzatdi. Yodgor yugurib kelib boboning qo‘lidan ilikni oldi. Bir og‘izni ham egan yo‘q edi, yasovullarning ko‘zi tushdi. Yasovullar aytdi: – Enag‘ar, senga kim qo‘yibdi ilik emakni?! Sag‘ir bo‘lgansan, itday so‘g‘onoqlik qilar ekan. Mehmonni bilmaydi ekan. Ur, enag‘arni davradan chiqar! To‘qqiz yasovul Yodgorning boshiga tayoq qo‘ydi. Yodgor erga yiqilib, boshidan qon to‘kilib, sag‘irligi, etimligi, otasining yo‘qligi sitam qilib, Qultoy boboga qarab, yig‘lab turib, bir so‘z aytayotgan chog‘i:

Kuyukliman, ko‘zim to‘ldi yoshima,
1400 Otajonim kelmadi-da, qoshima,
O‘lib ketsam, bobojon,
Kim qaraydi loshima,
Qamchi tegdi boshima.

Ko‘rdingizmi Qultoybobo, holimni,
Otasiszga bersin mavlon o‘limni.
Qizil gullar g‘unchasidan so‘lmasa,
Menday sag‘ir vaqtি etib o‘lmasa,
Otajonim Alpomishim kelmasa,
Urma desa, mehribonim bo‘lmasa,
1410 Ko‘rdingizmi Qultoy bobo holimni,
Otasiszga bersin xudo o‘limni.

347

Shu osmonda bulut gard bo‘b bo‘lindi,
Qamchi qo‘ydi to‘bam go‘shi shilindi,
Bu holimni, bobo, anglab bil endi,
Ko‘rdingizmi, Qultoy bobo, holimni,
Otasiszga xudo bersin o‘limni.

Muna tog‘ning boshin bilgin tuyundi,
Menday sag‘ir bilmasmikan o‘yindi,
O‘lib ketsam men sag‘irga qiyindi,
1420 Ko‘rdingizmi, Qultoy bobo, holimdi.

Kecha yotsam, mening tongim otmaydi,
Tong otgan so‘ng mening kunim botmaydi,
Olishgani elga kuchim etmaydi,

- Imonsizning boshima qo‘ygan tayog‘i,
O‘lib ketsam suyagimdan ketmaydi.
Ko‘rdingizmi, Qultoy bobo, holimni,
Otasizga berasi xudo o‘limni.
- Yodgorman, endi holim qalaydi,
Manglayimni otam bo‘lsa silaydi,
O‘limini bir ollodan tilaydi,
Otam yo‘q, deb chirillab yig‘laydi.
Ko‘rdingizmi, Qultoy bobo holimni,
Otasizga bersin xudo o‘limni.
- Bo‘lmasin baland-pasi,
Yodgorning ketdi esi,
Tayoq ebdi bolasi,
Bildirmay turdi otasi.
To‘qson boshli bo‘z uyda
Turibdi Barchin enasi.
- 1440 Qulq soldi oy Barchin,
 Yodgorning keldi sasi.
- Qora ko‘zidan qon quyib,
Yodgor yig‘lar mung‘ayib,
Qambar sochini yoyib,
Uydan chiqdi oy Barchin,
Urma, deb keldi ot qo‘yib.
- Barakalla bastiga,
Bir tayoq ob dastiga,
Urma bolamni sizlar, deb
Tayladi sag‘ir ustiga.
- 1450 – Norim o‘lsa, norcham bor,
 Yukim yerda qolmaydi.
Begin o‘lsa, begcham bor,
Yurtim egasiz bo‘lmaydi.
- So‘ldirmanglar gulimni,
O‘lja qib eding molimni,

-
- Urma, so‘kma, mosillar,
Mardimdan qolgan ulimni.
- 1460 Ko‘zdan to‘kma jalammni,
Oldinglar qo‘rg‘on-qalamnni.
Urma, so‘kma, mosillar,
Mardimdan qolgan bolamnni.
- Kuyuklikda ko‘zdan oqqan yoshidir,
Ilik esa o‘z qo‘yining go‘shidir,
Urma, so‘kma, mosillar,
To‘y deb egan siylaring
Ultontozning oshidir.
- 1470 Ochilgan bog‘ning gulidi[r],
Ilik esa otasining molidi[r],
O‘ynab yursa, otasining elidi[r],
Urma, so‘kma, mosillar,
To‘y deb egan siylaring
Ultontozning yildi[r].
- 1480 Orada turgan kayvoni
Olgani pora bo‘lar,
Nasib bo‘lsa sag‘irim
Otasidan sara bo‘lar,
O‘lmay kelsa otasi,
Qo‘ng‘irotgta to‘ra bo‘lar,
Urma-so‘kma, mosillar,
Sag‘irim to‘ra bo‘lar.
- Teng talashib oy Barchin
Ellar bilan yuribdi.
Tosh bo‘lsin-da, Mullakim,
Tosh bo‘lib qarab turibdi.
Suvning boshi do‘lab-do‘lab,
Mardning ko‘ngli istar talab,
Muncha bola yig‘laysan,
Otang borday erkalab
1490 Enang erga tekkan yo‘q,

Yur, bolam, deb enasi
Ketdi sag‘irni etaklab.

Alpomishbek bu sirlarni ko‘rib, o‘zini bildirmay yuribdi. Chirillab bir qizning tovushi keldi. Alpomishning Qaldirg‘och degan singlisi bor edi. Oldini tortsa, keyini ochilib, keyinini tortsa oldi chilib, tovusday taralgan, qambar sochi qo‘y juniday qotib, ko‘p qo‘yni boqib yuribdi. Ot topsa, ayamay minishgan, to‘n topsa, ayamay kiyishgan, bir mayiz topsa, bo‘lib eyishgan, qiyomat kuni deyishgan. Alpomishning Qorolchin degan do‘siti bor edi. Ko‘pkaridan uloqni chiqarib, Qaldirg‘ochning ustiga olib kelib tashlab ketar edi. Ustdan ko‘p otli kelar edi. Bachcha oyoq ostida qolib, yiqilib, burni qonab, shu ahvolda yotgan edi. – Bo‘yning sinib o‘lgur, og‘amning do‘siti bo‘lib, boshimga shuncha kun solasanmi. Og‘am bo‘lganda, bunday kunni ko‘rmas edim, – deb chirillab yig‘lagan tovushini Alpomishbek eshitdi. Alpomish aytди: “Hey attang, o‘zimdan qolgan so‘ng, do‘stim bekor ekan”. – Orim ketsa ketsin, nomusim ketmasin, otni olib kelgin, Jilovboy, – deb Alpomishbek oyog‘ini erga tirab, Jilovboyga qarab, bir so‘z aytayotgan chog‘i:

350

1500

Osmonda bor yorqin oy,
Yaratgansan qodir xudoy,
Menday og‘asi kelganda,
Singlim yurmaymi beparvoy.
Orim ketsa, ketsin mening,
Nomusim qo‘ldan ketmasin.
Zindondan keldi og‘asi,
Otni yetkiz, Jilovboy.

Qarchig‘ayning chagasi,
Tobutining poyasi,
O‘ligining egasi,
Murdasining soyasi,
Otni ob kel, Jilovboy,
Zindondan keldi og‘asi.

1510

Ko‘zidan oqqa yoshi,
Yetti yil yotdi zindonda,
Og‘asining yolg‘iz boshi.
Qorong‘ida qaqradoshi,

Yo‘lga tushdi yo‘ldoshi.
Otni ob kel, Jilovboy,
Zindondan keldi emchakdoshi.

Uyining bo‘sag‘asi,
Murdasining egasi,
Otni ob kel, Jilovboy,
Zindonan keldi shirxo‘rasi.

Hoy degan olloga banda,
Devona bo‘b kiydim janda,
Singlim oyoqning ostida,
Sira yurmayin bu kunda,
Jilovboy, oti ob kel bunda,
Og‘asi keldi zindondan.

Suvning boshi do‘lab-do‘lab,
Boychibor oti suvliq chaynab,
Bu tovushni eshitib
Jilovboy keldi etalab.

351

1520 Adir yerlar alang-alang,
Savdogarlar solar palang,
Mullaning Chibor otini
Mullaga qildi ko‘ndalang.

Barakalla bastiga,
Ot chopmoqchi Alpomish,
Qorolchin do‘sti qasdiga,
Achchig‘lanib Alpomish
Mindi otning ustiga

1530 Bilakka to‘kib kuchin,
Yoygandi sunbul sochin,
Otni chopmoqchi Alpomish
Qaldirg‘och mushtipar uchun.

Alpomishbek ko‘pkariga qarab borayotir. Qorolchin bir uloqni olib
qo‘chib keta berdi. Alpomish ko‘rib, orqqasidan quvib borayotgan chog‘i
shekilli:

-
- Mingan otin beli suvib,
Qaldirg‘ochga qoldi kun tuvib,
Achchig‘lanib Alpomish,
Yetdi Olchinni quvib.
- Oylar qibлага botdi,
Ko‘rmaysizmi vallamatdi,
Misoli yashinning o‘ti
Orqasidan quvib yetdi.
Otning yoliga yotdi,
Ehtiyyot bo‘l, Olchin, deb
Qo‘lini qo‘shib berkitdi.
- Ma’lul ko‘nglin xushladi,
Qog‘ozday labin tishladi,
Ehtiyyot bo‘l, Olchin, deb
Qo‘lini qo‘shib ushladi.
- Kambag‘al ozar savdodan,
Gul ochilar novdadon,
Silkib-silkib tortadi,
Eti yulungan gavdadan.
- 1560 – Otni maydon jelag‘oy,
Achchig‘ing kelsa, o‘lag‘oy,
Qo‘rqishim yo‘q, Qultoy chol,
Bilganiningni qilag‘oy.
- Ko‘tarilmas tog‘ tumani,
Qorolchin deydi seni,
Qultoy chol deydi meni,
Ikkimiz elning polvonи.
Ehtiyyot bo‘l, Qorolchin,
Endi qo‘ymayman seni.
- 1570 Qomati yoyday bukildi,
Ustixoni chaqildi,
Burnidan qoni to‘kildi
O‘xshatib kelib bir tortdi,
Ot bilan ag‘nab yiqildi.

Alqissa andan so‘ng, Alpomish uloqni olib, Barchinning uyiga qarab jo‘nay berdi. Yodgor etim qarab turib edi: – Enajon, eshikka chiq, Qultoy bobom uloq olib kela yotibdi, – dedi. – Sho‘rgina bolam, ko‘rgina bolam, ilik egan vaqtingda, boshingga tayoq tekkanda, enang ayirib olib edi. Bir uloqni bergen so‘ng ikkovimiz ham turmaymiz, – dedi. Yodgor aytdi: – Enajon, bir to‘yib qolayik go‘shtiga. Undan so‘ng nima qilsa qila bersin. Oybarchin aytdi: – Sho‘r bolam, odamlar otangni o‘lgan deydi. Shu uloqni taylab ketsa, otang kelgan. Yodgor aytdi: – Men otamni bilmayman, bu Qultoy bobom. Qultoy chol: – Yigitlikning oldi, qaqrilikning oxiri. Mening davlatimdan uloq go‘shti esang, ol, – deb uyning oldiga tashlab ketdi. Yodgor so‘m yuragi idrayib, boshi aylanib bildirab, uygakirgizdi shu uloqni sudrab.

– Ena, qozoningni osag‘oy, terisini o‘sag‘oy, bo‘lak qilib kesag‘oy, hammasini lo‘kta qilib bosag‘oy. Chala-cho‘lpi pishir, pishsa qozonni tushir, yarimini jukka yashir, menga pichisini oshir, – dedi.

Alpomishbek otini Jilovboyga berib, bora berdi. Sultonbekning ko‘zi tushdi: – Ey, yasovul, to‘qsobo, amaldorlar, ur, ana Qultoy chol kelayotibdi, iziga qaytar, yuzi yuzimga tushmasin, – dedi. Ko‘p yasovul Alpomishga yugurdi. – Izingga qayt, – deb ushlashgan vaqtida to‘rt-beshini devordan oshirib otib yubordi. “Qultoy chol zo‘r bo‘libdi”, – deb yiqilganlar qayta kelmadi. Alpomishning borida Boysari elbegi degan oshnasi bor edi. Bunga Sultonbek to‘qsabo amali bergen edi. Sultonbekning o‘ng yog‘ida o‘tirgan ekan. Sulton: – Boysari elbegi, qaytar, ana, Qultoy kelayotibdi, – dedi. Boysari kelib ushladi. Alpomish ko‘zini uyrub yubordi. Boysari elbegi Alpomishni ko‘zidan tanidi. Boysari: – Ey Sultonbek, qo‘l qutursa quduqqa qarmoq soladi. Shu kelayotgan Qultoy bo‘lang bo‘ladi, enasi xolang bo‘ladi. Qo‘ygin, qulli bo‘lsiningni bersin, – dedi. Sulton: – Esa, ko‘tarib kelgan bo‘lamizni, – dedi. Qo‘rg‘onga olib bordi. Sulton bilan ko‘rishdi, so‘rashdi. – Sulton bo‘lam, qulli bo‘lsin, – dedi. Sulton: – Alay bo‘lsin. Chechangiz hali ko‘ngani yo‘q, – dedi. Qultoy chol aytdi: – Bir jelak tengi qilsangiz, holdosh bo‘lgan, kecha-kunduz yo‘ldosh bo‘lgan, tandirini solgan, kulini olgan, bozorini qilgan, tegirmonini tortgan biz Barchinni ko‘ndiramiz. Sulton egniga bir katta to‘n tashladi. Qultoy bobo Barchinning uyiga qarab keta berdi. Oybarchin eshikka chiqib, uyning yoniga katta bir kegiz tashladi. Qultoy chol suyanib o‘tirdi. Uy shig‘ir-shig‘ir etib ketdi. Oybarchin aytdi: – To‘ram o‘lgan ekan, suyagi tuproqqa to‘lgan ekan, qo‘sh ho‘kiz kelib turganda, ko‘pkari kelib turganda, to‘qson boshli uyimning bir bog‘i

ham qimillamas edi. Uyimning suyagini sarp qurt eb sholg‘urt bo‘lgan ekan. Murraygan cholga shig‘ir, deb ketdi.

Qultoy chol Barchinga qarab, holini so‘rab, yovchilik qilayotgan chog‘i shekilli:

Tog‘lar qorli, yo‘l tuman,
O‘limdan ayriliq yomon,
Yoshing yigirma birda bo‘lib,
Xor bo‘b yurma, mushtipar.
Bu so‘zima qulq solgin, oy Barchin,
1580 Qulq sol, bobongga arzim bor.
Japtaringni yoqasin
Ilgin deyman, oy Barchin,
Ko‘k ko‘ylaging qizil qib,
Kiygin deyman, oy Barchin.
O‘ng tizzangga ul olib,
Suygin deyman, oy Barchin.
Sulton degan yaxshi bek,
Teygin deyman, oy Barchin.

354

1590 Qari tutga halginchak
Uchgin deyman, oy Barchin.
Kimxob bilan xitoyni
Bichgin deyman, oy Barchin,
Sultonbek ham yaxshi bek,
Quchgın deyman, oy Barchin.

Barchin:

Ko‘zim to‘ldi yoshima,
Keldim aql-hushima,
Ketgan to‘ram kelmadi,
Ot o‘ynatib qoshima,
Qanday qarg‘a qo‘nadi,
1600 Lochin qo‘ngan to‘sima.

Avhu deyman bobosi,
Bavhu deyman bobosi,
Kelar dardimning davosi,

Hali ham kelarmikan
Yodgorjonning otasi?!

Qultoy chol:

1610

Tana, sigir yig‘ilib,
Poda bo‘lar, oy Barchin,
Ishtonsizlar yig‘ilib,
Quda bo‘lar, oy Barchin,
Qaynisiga tegmaklik,
Qada bo‘lar, oy Barchin.

Yilqi ichinda bul biya
Sutli bo‘lsin, oy Barchin,
Sultonbekka tegibsan,
Qutli bo‘lsin, oy Barchin.

Oy Barchin:

1620

Qobirg‘amni qaqshatmang,
Suyagimni shovshatmang,
Buvinimni bo‘shatmang,
Kuygan tanamni jangshatmang,
Yo‘q bo‘b ketgan bekto‘ram,
O‘zingizga o‘xhatmang.

355

Qultoy chol:

Oylar qibлага botdi,
Ko‘zanakdan qo‘l tutdi,
Tilla yuzigin ko‘rsatdi.
Yangi ishondi Barchinoy,
Olib ko‘ziga surtdi,
Ko‘k ko‘ylagini yirtdi.
Boshdan kurtani otdi.

1630

– Qora zulfim o‘ram-o‘ram,
Oldingda o‘chsin qoram,
Ilgarrakdan sen kelib,

Qaytib yurgansan orom.
Shu ishlar sizdan lozimmi,
Olganing o'lsin, to'ram.

Ishqimni qo'ydim sizga,
Qaramay ketdingiz bizga,
Aylayin bergen tuzga,
Kelgan bo'lsang, bek to'ram,
Yoringni ko'mgin uch gazga.

1640 Ko'zimdan yoshim eshilib,
Sen deb jigarim teshilib.
Mendan ketding, bek to'ram,
Qo'y-qo'ziday sochilib.
Kelgan bo'lsang, bek to'ram,
Endi o'layin qo'shib.

Ko'zimdan oqqan jala,
Sag'ir qoldi yosh bola,
Ikkimizni ayirdi
Yaratgan Ollo taolo.
1650 Kelgan bo'lsang, bek to'ram,
Qo'shib o'layin birga.

Otni maydonda jeldi,
Alpomishbekni tanidi.
Ko'tarilib oy Barchin
Qah-qah urib bir kului.

Alqissa andin so'ng, Barchinning kulgan tovushi Sultonbekka etdi.
“Aynalayin bo'lamda, bizga ko'ndiribdi”, – deb xushvaqt bo'ldi.

Barchin to'qson boshli uyga kirib, to'qson bo'g'chani ochib, to'qson turli libos kiyди. Xol ustiga xol qo'yib, o'ziga bino qo'yib, qo'liga xina qo'yib, bir bo'g'chani ko'tarib, to'qson boshli uyning eshididan chiqolmay, yonbosh bo'lib chiqib ketdi. To'yxonadagi el aytди: “Barchin Ultontozga tegibdi, yaxshi liboslardan kiyibdi”. Bir xili aytади: “Ko'nglini ochib borayotir, qo'lting'ida bo'g'chasi qochib borayotir”. Ko'p qo'yuni boqib yurgan Qaldirk'ochning oldiga bordi. “Checham Ultontozga tegibdi. Meni ham birovga bosib boylab beradi-da”, – deb Qaldirk'och-

ning ko‘ngliga keldi. Barchinning Qaldirg‘ochga qarab, suyunchi tilayotgan chog‘i:

1660 Avhu deyman, ona qiz,
 Bavhu deyman, ona qiz,
 Oshga qatiq, nonga tuz,
 Ketgan og‘ang kelibdi,
 Suyunchi bering, ona qiz.

Qoshim-ko‘zing qiygi-chi,
Uchib-qo‘nar kaljo‘rji,
Ketgan og‘ang kelibdi,
Ona qiz, bergin suyunchi.

Qaldirg‘och:

Oylar bo‘ldi asli necha,
Tong qorong‘i bo‘ldi necha,
Kelgan bo‘lsang keta ber,
Men roziman, jon checha.

357

1670 Huy degan olloga banda,
 Duo topib kiyib janda.
 Tekkan bo‘lsang, roziman,
 Yodgorni bergin bunda.

So‘ldirma bog‘ning gulini,
O‘chirding og‘am yo‘lini,
Teygan bo‘lsang, keta ber,
Ber g‘amning ulini.

1680 Ko‘zdan to‘kma jalasin,
 Buzding qo‘rg‘on-qalasin,
 Teygan bo‘lsang, keta ber,
 Ber og‘amning bolasin.

Sarg‘aytmagin yuzini,
O‘chirmagin izini,
Hurmat qilmading, checha,

Og‘amning bergan tuzini.
Teygan bo‘lsang, roziman,
Taylab ket yolg‘izini.

1690

Barchinoy:
Boyning qizi Qaldirg‘och,
Yig‘lama o‘z oldingga,
Ishonmasang, Qaldirg‘och,
Yur og‘angning oldiga.

Oylar qibлага botdi,
Tilla uzuk ko‘rsatdi,
Yangi ishonib Qaldirg‘och
Yuzukni olib surtdi,
Ko‘k ko‘ylakni yirtdi.
Qah-qah urib Qaldirg‘och,
Uyga qarab yo‘l tortdi.

Qaldirg‘och oyim og‘asining kelganini bildi. Xol ustiga xol qo‘yib, qo‘liga xina qo‘yib, bu ham yaxshi kiyimlardan kiyib, Barchinning uyi-ga bordi.

Endi Qultoy choldan eshiting. Qo‘rg‘onga borib: – Oy Barchinni olibsiz, qutli bo‘lsin, – dedi. Sultonbek: – Ichsangiz choy, esangiz moy, o‘tirsangiz yaxshi joy, shu kecha qalliq o‘ynayman, – dedi.

Qultoy chol aytdi: – Bo‘lam, Alpomishning yetti yil bo‘ldi o‘lgani-ga, suyagi tuproqqa to‘lganiga. Mulla Hakimning bir sari yoyi qolgan. Ketib borayotganda menga aytib edi. “Mening o‘lganimni bilsang, ikki oyda, uch oyda putini artib, osmonga havolatib otib qo‘y”, – degan edi. Odam qo‘ysangiz, sari yoyni olib kelsa, putini artib, osmonga havolatib, yuragimizning cherini chiqarsak. Sizning Barchinni olganingizga xush-vaqt bo‘lsak. Sulton aytdi: – Po‘sak yasovul, Tentak yasovul, Muntog‘ yasovul, dumi yo‘q, cho‘ntoq yasovul, bor, Barchin chechangga aytgin, Alpomishdan qolgan sari yoyni chiqarib bersin. O‘n yasovul urib ketdi, darvozadan kirib ketdi: – Ey, Barchin checha, Mulla Hakimdan qolgan sari yoyni chiqarib bering. Sultonbek to‘rangiz chorlayotir, – dedi. Qal-dirg‘och bilan Barchin sari yoyni ushlab, uydan chiqarib yasovullar-ga otdi, oldiga kelib tushdi. Ilid olaman dedi, qimirlata olmadidi. Otdan tushib to‘qqiz otga taqdi, ul ham torta olmadidi. Qo‘sh ho‘kkizga solib tortdi, bul ham torta olmadidi. Yasovullar aytdi: – Checha, bu og‘ir ekan-

ku”. Barchin aytdi: – Unday bo‘lsa Yodgor etimni topib kelinglar, girishini bo‘yniga solinglar. Yodgordan boshqa hech kim torta olmaydi. Yodgorni bir erdan topib quvib keldi. Girishini bo‘yniga soldi. Yig‘lay-yig‘lay qo‘rg‘onga olib bordi.

Alpomishbek sari yoyni qo‘liga olib, Sultonbekka qarab: – Xo‘s, qutli bo‘lsin, – deb so‘rab to‘rt og‘iz so‘z aytayotgan chog‘i shekilli:

1700 Bedov otni jelbsan,
 Shu bugun qo‘ldan o‘libsan.
 Qutli bo‘lsin, Sultonbek,
 Barchinoyni olibsan.

O‘ra, to‘ba, qulatuzlar,
Tuya o‘lsa, bo‘ta bo‘zlar,
Ilgari bek edik bizlar,
Bek bo‘libdi Ultontozlar,
Osmonda uchgan ko‘p g‘ozlar,
Ko‘pingni otaymi, biringni?!

1710 O‘zbak elning ba’zi erina,
 Xo‘jandga bek edik burun-a,
 Devorda turgan, ko‘p turna,
 Qirqingni otaymi, biringni?!

359

Qishloq ichinda darg‘alar,
Xirmonni ko‘rsa yo‘rg‘alar,
Oq to‘zingdan poylab otsam,
Yurakdan qoning sho‘rg‘alar.
Devorga qo‘ngan, qarg‘alar,
Ko‘pingni otaymi, biringni?!

1720 Ko‘tarilmas tog‘ tumani,
 Karim hol qildi hammani,
 Ultontoz deydi seni,
 Kalimangni aytgin, bo‘lamjon,
 Alpomish deydi meni.

– Sanog‘ini olib oyiga,
Qoni qochib rangi-ro‘yiga,

- Omon-eson kelding etib,
Yodgorjonning to'yiga.
Otmay turgin, Alpomish,
Volloh, ketaman qo'yingga.
- Bog'da so'lib gulingga,
To'y qib yotibman ulingga,
Qarab ham boqdim yo'lingga,
Bir faslga otmay tur,
Ketayinmi qo'yingga?!
- Qarchig'aydi qiyaga,
Ko'p qarashdim siyoga,
Otmay turgin, marzamjon,
Men ketayin tuyama.
- Qurisin mening siyog'im,
Sinsin mening oyog'im,
Otmay turgin, bo'yingdan
Qani, mening tayog'im.
- Ot yolini o'rayin,
Eshagingga borayin,
Qaytarimda tandirga
Qiy shipirib kelayin.
- Oylar qibлага botdi,
Girishini bir tortdi,
Sari yoy o'qi jo'nab ketdi,
Ko'krakdan ko'klab o'tdi,
Sultonbekni ag'natdi.

Alqissa andin so'ng, Alpomish Sultonning ikki putini ushlab, to'qso-basi, qorovul beklari, jibachilariga: – Begingning o'ligini yig'ib ko'm, – deb qo'rg'onning ustidan pastga qaratib otib yubordi. To'rt qozon oshning ustidan tushdi. Xalq aytdi: "Alpomish kelibdi, sultonimiz shuy-tib o'libdi". Besh bir, o'n bir u ko'chaga, bu ko'chaga, shu ko'chaga xalqning bari kirib, yo'q bo'lib ketdi.

Alpomish elni yig‘ib, qozon qo‘yib, qo‘y so‘yib, to‘y qilib, qam-bag‘al-qashshoqlarni yig‘ib, oldiga tuzatib turgan edi, uch yuz oltmisht ko‘ch bilan, uch oltmisht qiz bilan, Tovka degan yor bilan, Qallochbek degan ul bilan, Elomon bojasini bilan, Kayqubod kal tuyachisi bilan – bular ham qo‘rg‘onga kelib qoldi. Alpomish odamlarga sovg‘a-salom ulashdi. Yo‘qotganlar topishib, og‘iz-burun o‘pishib, sevishib murod-maqsadiga yetdi.

LUG‘AT

Abjil – epchil.

Abjo‘sh – quyma, bronza va mis aralashmalaridan yetti marta eritib quyilgan qattiq jism, yetti eritma.

Ayvon – qasr, saroy.

Aqirmoq – hayqirmoq, qattiq qichqirmoq.

Ajus qilmoq – maslahat qilmoq, fikrlashmoq.

Alam vaqt – ancha vaqt.

Allayor – ollayor, olloh yor. Xudodan umidvor bo‘lib, tavakkal qilmoq.

Ardoq – aziz, qadrdon.

Asoba – katta, ulug‘, oila egasi, oila boshi, boshpana ma’nosida.

Atrof – bet – chor, gir atrof, uncha uzoq bo‘lmagan joy.

Achchig‘minan – achchiq bilan.

Bandarga – yo‘l ayrilgan joy.

Bakar ketmoq – etmaydi, pisanda emas ma’nosida.

Banot – qimmatbaho, asl mato.

Bag‘ishda – atalgan, bag‘ishlangan, beshikkerti qilingan.

Bepilik – piliksiz.

Bermag‘an – buyon, e’tiboran.

Besohib – egasiz.

Billami – birgami.

Birich – bronza. Mis, qo‘rg‘oshin, alyuminiy, qalayi kabi ma’danlar eritmasidan hosil qilingan qotishma.

Birmaydon – ma‘lum bir muddat vaqt, bir oz vaqt.

Birpasil – bir fasl, tezda, ko‘z-ochib yumguncha.

Bovri – bag‘ri.

Boylamoq – bog‘lamoq, tug‘anoq bo‘lmoq.

Bosh adaq – boshdan ayoq, barcha, butun el-ulus nazarda tutilgan.

Boqmoq – 1. Katta qilmoq, tarbiyalamoq, voyaga etkazmoq. 2. kutmoq, yo‘l qaramoq. Intizor bo‘lmoq.

Buytib (biytib) – bunday qilib.

Buldiramoq – mildiramoq.

Bulon – yovvoyi eshak.

Burna – ilgari, burun.

Buroq – yetti qat ko‘kda uchuvchi afsonaviy ot.

Buruv – mushkillik.

Burulmoq – yon bosmoq, qayishmoq.

Burum – o‘rim, soch o‘rimi.

Bug‘ – urushda chalinadigan asboblardan biri.

Bo‘b – bo‘lib.

- Bo'y** – bo'yiga, balog'at yoshiga etgan, hali turmushga chiqmagan.
- Bo'ktarmoq** – egarning orqasiga chandib bog'lamoq.
- Bo'la** – xolavachcha.
- Bo'ljal** – mo'ljal.
- Bo'rboy** – boldir.
- Bo'rboyli** – boldiri yo'g'on, boldiri sergo'sht.
- Bo'rchimoq** – vaysamoq.
- Bo'sag'a** – ostona.
- Bo'xcha** – matodan qilingan sandiqcha shaklidagi moslama.
- Bo'g'oz** – homilador.
- Gaza** – tepalik, balandlik.
- Galbang** – kal pang, garang, aqli noqis ma'nosida.
- Gachcha** – g'alcha.
- Gashtak** – halpana, halpana osh; gap-gashtak.
- Gasht urmoq** – tugatmoq, oxirlatmoq.
- Gilagay** – yangi tuqqan qo'yning sutidan bo'lgan qatiq.
- Guppi** – hovliqma, maqtanchoq.
- Go'rtik** – qor uyumi.
- Go'sala** – buzoq.
- Go'salaxona** – buzoqxona, molxona.
- Go'sam (ko'sam)** – katta serka. Qo'ylarni yetaklab yuruvchi serka.
- Dabiri** – shovqini, yurgandagi harakati.
- Dev urmoq** – xastalikka chalinmoq.
- Dengi-dushlar** – tengdoshlari, tengqur o'rtoqlar. Ayrim o'rnlarda tengu dushlarim shaklida ham kelgan.
- Dubulg'a** – metall qalpoq, shlem.
- Dush-dushi** – har tomon.
- Dushpati** – to'g'risidan, ro'parasidan.
- Do'lab-do'lab** – to'lqin-to'lqin bo'lib.
- Do'ngsak** – do'ng er.
- Do'ngtarmoq** – to'nkarmoq.
- Do'nmoq** – aylanmoq, charx urmoq; qaytmoq.
- Do'rji** – to'p, uyum, yaxlit; eng ko'p to'plangan.
- Do'rmamoq** – yopirilmoq.
- Dush-dushiga** – har tomonga
- Do'qchil** – do'qchi, do'q qiladigan.
- Do'g'ilmoq** – to'qnashmoq, duch kelmoq.
- Yem bosti** – yemni hazm qilish uchun otni o'z ixtiyorida sekin harakatga qo'yish.
- Yemishak** – hamtovoq.
- Emlamoq** – hayvonni em-xashak bilan to'ydirmoq.

-
- Emtik** – ovqat, parcha go’sht.
- Yesir** – er o‘lib, yolg‘iz qolgan ayol.
- Yechilib ketmoq** – ayrimoq, uzoqlashmoq.
- Yomonsari** – qarchig‘aysimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich qushlarning bir turi.
- Yortiboy oqsoqol** – o‘zbek dostonlarida bir qabilaga mansub oqsoqollarning kichigi.
- Yotiri** – yotibdi.
- Japsar** – o‘tovning uvuq va keragalari tutashgan yerda qo‘yilgan tuynuk; qora uy keragasiغا uvuqlarni jipslashtirib bog‘langan joyi.
- Japsar yorib qaramoq** – uvuqlarni ikki tomonga ayirib qaramoq.
- Jig‘a** – ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, bosh kiyimga taqiladigan ziynat buyumi.
- Jig‘ador** – jig‘ali; saroyda jig‘alarni saqlovchi amaldor.
- Jiyib** – yig‘ib.
- Jobuv** – yopinchiq, ot ustiga tashlangan mato.
- Jovdirmoq** – yoptirmoq, soldirmoq, o‘tlagani qo‘yib yubormoq, solib yubormoq.
- Jonsizlik** – josuslik.
- Zavgi** – zanjir.
- Zalbor** – kuch (baxshi izohi).
- Zilvang** – zil-zil, og‘ir.
- Zimmon** – kafil bo‘lish, kafillik.
- Zingraymoq** – tikkaymoq.
- Zinkiymoq** – qad ko‘tarib, tik turmoq; qaqqaymoq.
- Zing‘iramoq** – zing‘illamoq.
- Zinhorlamoq** – qattiq ta’kidlamoq.
- Zoil** – yo‘q bo‘luvchi, yo‘qoladigan.
- Zorillamoq** – alamli nola bilan yig‘lamoq.
- Zo‘m** – o‘jar, qaysar.
- Idirab** – bo‘sashib, ezilib.
- Izza emoq** – dakki yemoq, pushoymon bo‘lmoq.
- Ilinib** – bog‘lanib, yaqinlashib.
- Ingishlamoq** – choq bo‘lib turmoq.
- Injimoq** – ranjimoq.
- Intiq** – intizor.
- Yitirmoq** – yo‘qotmoq.
- Yo‘l ayrit** – arylish; yo‘lning ikki yoki bir necha yoqqa ayrilgan yeri.
- Yo‘lg‘a sig‘mas** – mubolag‘a, yo‘l torlik qiladi ma’nosida.
- Yo‘llik** – yo‘la. Bir yo‘llik – bir yo‘la.
- Yo‘rta** – yo‘rtoqi, lo‘kki.
- Yo‘q-yuqa** – qashshoq.

Kampir o‘ldi – nikoh to‘yi odati. Chimildiqqa kirayotgan kuyov yo‘lini iikki kampir o‘zini o‘lganga solib, yo‘lni to‘sib oladi. Kuyovdan sovg‘a-salom olgach, yo‘l beradi.

Kant – shahar, qishloq.

Kaptarmezar kovush – zar bilan tikilgan kovush.

Kark – yovvoyi tuya, karkidon; erkak tuyaning bir turi.

Kasratki – kaltakesak.

Katilmoq – kertilmoq. **Kark** – yovvoyi tuya.

Ko‘yikon – Sherobod tepasidagi tog‘ nomi. Ko‘ytan ham deydilar. Konlar ko‘pligidan Ko‘hikon deyilgan (Baxshi izohi).

Ko‘pir – to‘sama, berkitib, bilintirmay qo‘ymoq.

Lodon – nodon.

Mosillar – noasillar.

Muztar bo‘lmoq – nochor bo‘lmoq, majbur bo‘lmoq; hayratda qolmoq.

Mulkimoq – mudrab qalqimoq.

Mundaychi – bunaqangi.

Munkir kelmoq – tonmoq.

Munshi – mirza, kotib.

Mo‘nkimoq – bukchayib-sakrab elmoq.

Mo‘ntoq – cho‘ltoq.

Mo‘r – chumoli, qumursqa.

Nazarkarda – pirning nazari tushgan, egali; ilohiy kuchlar tomonidan qo‘riqlanadigan.

Ochuv bilan – achchiq qilib, achchiq ustida.

Og‘zingni borla – og‘zingga qarab gapir, o‘ylab gapir.

Poraxa – kichik, mayda, uchli, kesilgan ma’nosida. Poraxa tog‘ – mayda, uchli toshli tog‘.

Ray – ko‘ngil, istak, mayl.

Rayo qilmoq – ozod qilmoq, bekor qilmoq, erkinlik bermoq.

Ruthirroq – o‘tkirroq.

Sabil – egasiz.

Sayis – otboqar, ko‘chma ma’noda yordamchi.

Sag‘ir – voyaga etmagan, kimsasiz (otasiz) bola.

Tabla – otxona.

Tambik suqib –

Tarma erib –

Teva – tuya.

Tugarak, ovqi ko‘zli –

Tujerchigin mahkam qib –

Turpa bo‘lib, ayrilib chiqmagin xildan –

Tuyalarga jahaz qo‘rab –

-
- Ul** – o‘g‘il.
Ulini – o‘g‘lini.
Chagalgandi – chaqilgandir.
Changirqab – chang-to‘zon aralash, elas-elas.
Chirqillab uchadi torchi –
Chovlab – yorilib, qadoq bo‘lib.
Chokar – lashkar.
Chori – to‘rt yashar qo‘y.
Choroyna – ko‘krakni himoya qilish uchun urushda kiyiladigan yengsiz metall kiyim.
Shabron – kecha-kunduz ma’nosida.
Shirolg‘a – ovlangan qush yoki hayvondan beriladigan tortiq.
Shirxo‘ra – emikdosh.
Emakdosh – bir onaning farzandi, qon-qarindosh, tug‘ishgan ma’nosida.
Enmoq – tushmoq, tushib kelmoq.
Yugruk chopon – katta-kichik.
O‘r – o‘ra, chuqur. Dostonlarda yer osti yo‘li, lahm.
Qal‘a – qo‘rg‘on.
Qarib – harif, sherik, hamkor, hamsuhbat.
Qovg‘a – suv solinadigan idish.
Qulotuz – keng dala.
Qo‘zilarga en solmoq – enchi berilgan molning qulog‘iga qo‘yiladigan belgi.
G‘aznakor – xazinador.
G‘azo (g‘azot) – urush, jang.
G‘alt urmoq – mavj urmoq.
G‘angqimoq – to‘dadan qaerdan qulay yo‘l topsa, shu yerga o‘zini urmoq.
G‘angqitmoq – to‘dada otni qulay kelgan to‘g‘ri yo‘lga burmoq.
G‘anim – dushman.
G‘arroq – g‘irot.
G‘idirish – jig‘. G‘idirishiga gapirmoq – achchiq bilan, g‘azab bilan gapirmoq, jig‘iga tegmoq.
G‘oza – qizil bo‘yoq.
G‘ujur – hayrat, jo‘shqinlik; g‘azab.
G‘ul – zanjir, halqa.
Havdak – yegulik qushlarga mo‘l epik ko‘l nomi.
Havl – qo‘rqinch, kuchli bezovtalik.
Hiy – iy, yi; hazar qilishni bildiradi.
Hil – alam; issiqlik, harorat, taft, o‘t, alanga; ko‘chma ma’noda ishq o‘ti.
Hishshay – yomg‘irli, rutubatli, nam.
Holiqlamoq – halloslamoq.

MUNDARIJA

Mardlik va jasorat ulug‘langan doston (So‘zboshi)	4
Alpomish. Doston. Umir Safar o‘g‘li	14
Alpomish. Doston. Mardanoqul Avliyoqul o‘g‘li	289
Izohlar va Lug‘at	362

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA
FOLKLORI INSTITUTI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

ALPOMISH

O'zbek xalq dostoni

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir

Nizomiddin Islomov

Badiiy muharrir

Umid Sapayev

Sahifalovchi

Hasan Maqsudov

UO'K: 398.22(=512.133)

KBK: 82.3 (50')

Nashriyot litsenziyasi AI № 266, 15.07.2015 y.

24.12.2018-yilda bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$. "Times New Roman" garniturasi.

Kegli 11. Shartli bosma tabog'i 23. Adadi 700 nusxa.

Buyurtma raqami № 39 Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
"Fan" nashriyoti davlat korxonasida nashrga tayyorlandi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70-uy.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
"Fan" nashriyoti davlat korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70-uy.